

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Geologiya va konchilik ishi fakulteti

**«Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish»  
KAFEDRASI**

**«Yo'nalishga kirish»  
fanidan**

**O'QUV-METODIK MAJMUA TARKIBI**

**Qarshi -2022**

## **Mavzu: Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini rejalashtirish.**

**Reja:**

- 1. O‘qitishning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini rejalashtiish**
- 2. Monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlash.**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi 824-son qaroriga 1-ILOVA “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida NIZOM”ga binoan oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishda o‘quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlash quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

O‘quv jarayoni o‘quv va nazorat tadbirlari majmuini o‘z ichiga oladi. O‘quv tadbirlarida barcha turdag'i auditoriya mashg‘ulotlari, amaliyat va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi. Nazorat tadbirlari ta’lim oluvchilarning o‘quv rejasidagi tegishli fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi.

O‘quv jarayoni talabalar, ish beruvchilar, o‘qituvchilar va ma’muriyat o‘rtasida ochiq muloqot shaklida talabaga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim standartlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda ish beruvchilar va talabalarning talab va istaklari muhokama qilinadi. Barcha manfaatdor tomonlar ta’lim dasturining yaratilishi va o‘zlashtirilishi bo‘yicha o‘tkaziladigan muhokamaga jalb etilishi mumkin. Bunday bahslarda talabalar vakillari ovoz berish huquqi orqali ishtirok etishlari mumkin.

O‘quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- namunaviy o‘quv rejasi va fanlar katalogini ilg‘or xorijiy ta’lim tajribasi asosida respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar iste’molchilari talablari va milliy qadriyatlarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqish hamda qo‘srimcha ravishda tanlov fanlar katalogini shakllantirish, mahalliy va xorijiy yangi avlod adabiyotlariga tayangan holda fanlar katalogi bo‘yicha namunaviy fan dasturlarini ishlab chiqish;
- fanlarning ishchi dasturini (sillabusni) ishlab chiqish;
- o‘quv rejasi va tanlov fanlari ro‘yxatiga mos ravishda guruh murabbiyi yordamida o‘quv-metodik bo‘lim (boshqarma) va fakultet dekani nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy ta’lim traektoriyasini shakllantirish;
- ishchi o‘quv rejalarini tuzish;
- o‘quv jarayoni jadvalini tuzish;

- akademik guruuhlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari jadvalini tuzish.

Semestr davomida talaba tomonidan to‘planishi lozim bo‘lgan kreditlar miqdori o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Majburiy fanlar tarkibi va ularni o‘rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Tanlov fanlari tarkibi va ularni o‘rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori oliy ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi. Talabalar shaxsiy ta’lim traektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

O‘quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo‘lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro‘yxatdan o‘tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratiladi. O‘quv yili davomiyligi o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq oliy ta’lim muassasasi kengashining qarori bilan o‘zgacha tartibda belgilanishi mumkin.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25 — 30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriyatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada — 30% — 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o‘quv yuklamasi miqdori oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta’lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o‘quv yilida 60 kredit to‘plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan kreditlar hajmi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Talaba o‘zining shaxsiy ta’lim traektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o‘zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o‘quv rejasidagi majburiy fanlar bo‘lishi shart.

Talaba bakalavriyatda o‘qish muddati kamida 3 yil bo‘lganda 180 kredit, o‘qish muddati kamida 4 yil bo‘lganda 240 kredit to‘plashi zarur. Magistraturada o‘qish muddati kamida 1 yil bo‘lganda 60 kredit, o‘qish muddati kamida 2 yil bo‘lganda 120 kredit to‘plashi talab etiladi.

O‘quv jarayonining monitoringi ta’lim olishning belgilangan natijalariga erishish, nominal mehnat hajmi hamda ularning haqqoniyligi va mosligini baholash maqsadida o‘tkaziladi.

Ta’lim sifati samaradorligini ta’minlash oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura

mutaxassisliklari ta'lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga moslikni ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasasi kengashi qaroriga asosan talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Bunda talabalar ta'limni boshqarish axborot tizimi portali orqali o'quv semestri boshida 1 hafta muddat davomida o'zi tanlagan professor-o'qituvchining mashg'ulotida qatnashish uchun onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi.

Akademik qarzdor talabalarining tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestr oliy ta'lim muassasasi tomonidan odatda ta'til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi.

Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar bo'yicha belgilanadi.

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:

talaba yozgi semestr boshlanguniga qadar oliy ta'lim muassasasi o'quv metodik bo'limi (boshqarmasi)ga o'zining yozgi semestrda o'qishi istagini bildiradi;

oliy ta'lim muassasasi ushbu talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to'lov pulini to'laganidan so'ng darslarga kiritiladi;

yozgi semestr amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimini shaffof baholash tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi.

Yozgi semestrga jalb qilingan professor-o'qituvchilarga soatbay asosida ish haqi to'lanadi.

## **2-MA'RUZA**

Oliy ta'lim talabasi. Huquq va majburiyatlar

Reja

1. Oliy ta'lim tizimi talabasi
2. Talaba huquq va majburiyatları

Talabalarni qonun va huquq yuzasidan tarbiyalash. Talaba deganda - o'zi izlanuvchan, bilimga chanqoq insonni tushiniladi. Talaba huquqi o'qituvchilarni o'z vaqtida bilim berishini talab qilishi kerak.

Talabalar darsdan tashqari xoxlagen o'qituvchidan dars olish huquqiga ega. Biror bir talaba o'qituvchilikda ukisa u xoxlagen she'r va kichik kitoblar yozishi mumkin. Mualliflik huquqi fukarolik huquqining muxim universitetlaridan biri bulib, u fan, adabiyot va san'atlarini yaratish va undan foydalanish bilan boglik munosabatlarini ifodalaydi. Talabaning mualliflik huquqi ob'ektiv fan, adabiyot va

san'at asarlari hisoblanadi. Bunday asarning kadr- kiymati va chop etilgan yoki etilmaganligining axamiyati yuk. Agar mualliflik huquqining ob'ekti tan olinishi uchun qonun ikki shartni kuyadi: birinchidan, asar ma'lum bir ob'ektiv shakl muallif ijodiy faoliyati natijasini aks ettirishiga imkon berishi mumkin.

Agar respublika hududida birinchi marta bosilib chikarilgan yoki bosib chikarilmagan bo'lsada, lekin birdan-bir ob'ektiv shaklda respublika hududida bo'lgan asar uchun u qaysi mamlakat fuqorosi bo'lishidan qat'iy nazar, talabaning mualliflik huquqi beriladi. Talabaning mualliflik huquqi bo'lib, muayyan asarning yaratuvchisi hisoblanadi. Talabaning mualliflik huquqini faqat uning xayotlik vaqtida emas, balki xamma vaqt ximoya qilinadi.

Talabalarning vazifasi vaqtida darslarga qatnashib turish va yaxshi o'qib, undan yaxshi Mutahassis bo'lishi uning vazifasi. Ta'limning davlat boshqaruvining maxsus vakolati bo'lgan organlar amalga oshiradilar. Ta'lim muassalarida davlat talablarining va me'yoriy hujjatlarni bajarilishini ta'minlaydilar, ularga uslubiy raxbarlikni amalga oshiradilar.

Ushbu darslik talabalarga davlat va huquqning kelib chiqishi, jamiyat taraqqiyotida ularning o'rnini yanada mustaxkamlash vazifalari to'g'risidagi bilim asoslarini berishini nazarda tutadi.

Konstituttsiya xalq ta'limini ma'muriy-huquqiy boshqarish masalalariga oid printsiplial qoidalarini oldindan belgilab beradi. Konstituttsiyaning 41-moddasi ma'muriy huquqiy sub'ekti sifatida har bir fuqarolik talabaning bilim olishini mustahkamlaydi. Talabaga o'qishdan tashqari ta'lim madaniy estetika tabiiy-ilmiy, texnik sport va boshqa yo'naliшlardagi o'qishdan tashqari muassalarda tashkil qilinadi. Oliy ta'lim umumiyligi o'rta, xunar-texnika, o'rta maxsus ta'lim negizida oliy o'quv yurtlari talabalariga amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitish ishlari ikki bosqich asosida bakalavriat va magstiratura darajalari berish bilan olib boriladi.

Bunday o'qitishni tashkil etish Respublika xukumati tomonidan tasdiqlangan "Nizom"da tartibga solinadi. Xukumat tomonidan yana ixtisoslik ro'yxati belgilanadi, ularni sirdan yoki mustaqil o'qib egallahsha yo'l ko'yilmaydi.

Talabalar ikkinchi oliy ma'lumotni pul to'lab olish huquqiga egadirlar. Oliy o'quv yurtlarining faoliyati o'zlarining nizomlari bilan tartibga solinadi. Oliy o'quv yurtlarining o'zlari vaqt-vaqt bilan attestatsiya va akritizatsiyadan o'tib turadilar. O'ziksiz ta'lim tizimidagi oliy bosqich ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash hisobga oladi. Ana shu maqsadda ilmiy ishlab chiqarish bo'limlari, student talabalar ilmiy texnika ijodiyoti markazlari tashkil etiladi.

Ta'lim muassasalarini boshkarishda talabalar katnashadilar. Talabalar stipendiyalar, yotokxonalar, ko'llanmalar va boshqalar bilan ta'minlanadilar. Ularga kutubxonalar, o'quv ishlab chiqarish, ilmiy, sport, sog'lomlashtirish bazalaridan foydalanishni kafolatlaydi.

Talabalarni huquq yuzasidan tarbiyalash. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risidagi" Qonunlari asosida ta'lim sifatini ijtimoiy va iqtisodiy soxalarda olib borilayotgan isloxaatlar talablari darajaga ko'tarish, kadrlar bilimi va ular tayyorgarligi sifatini nazorat

qilish xamda xolisona baholash tizimini tashkil etish maqsadida Vazirlar Maxkamasi qaror kildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1998 yil 11 martdagি 109-sonli qaroriga asosan belgilangan. Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish pedagogik Mutahassis tayyorlash kerak.

Talaba yurtimizning demokratiyalashtirish imkoniyatlarni aniq va chuqur his eta bilishi kerak. Bugun jamiyatni demokratik asosda batamom yangilash imkoniga ega bo'lgan O'zbekiston uni kafolatlashning eng asosiy me'yori.

Asosiy Qonunga O'zbekiston Respublikasi konstituttsiyasi dunyo mikyosida eng mukammal demoqratik Konstituttsiyalar sifatida o'rın egallaydi. Talabaning Konstituttsiyani ishlab chiqarish va uni qabul qilishning o'zi eng zamonaviy demoqratik asosda sodir bo'lganini anglash bugungi kunda xam o'z axamiyatini yo'qtgani yuk. Fikrimizning isboti sifatida Qonunlarning har bir bobи va bandi bir necha bir qayd ko'rilmaganligi, xalqaro darajadagi eksperimentlar maslaxatining inobatga olinishi muxokamasidan o'tganligini aytish mumkin.

Fuqorolik jamiyatining shakllanishida va uning istiqboli belgisida eng asosiy ijtimoiy universitet bo'lgan o'z-o'zini boshqaruv organlarinini o'zgarish jarayonini, uning fuqoro manfatlariga mos shakllarini barpo bo'lishi mumkin.

Talaba shu munosabat bilan bir narsani chuqur anglab olmog'i zarurki, O'zbekiston hududida, fuqorolik jamiyatining ayrim muxim negizlari qadim-qadimlardan mavjud ekan. Talaba mulkiy munosabatlarni iqtisodiy soxa demokratiyalashuvining bosh bo'g'ini va uning fuqorolarda ulkan saloxatini vujudga keltiruvchi omil sifatida anglatish zarur:

- kadrlar tayyorlash sifati monitorining tizimini ishlab chiqish va joriy etish;
- rivojlangan xorijiy demokratik davlatlar bilan kadrlar sifatini nazorat qilish va ta'lim muassasalari attestatsiyasi borasida xamkorlik urnatish;
- ta'lim tizimini boshqarish organlari xamda maxalliy ijro etuvchi xokimiyatining pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari tashkil etish va o'tkazish borasidagi faoliyatini muvofiklashtirish va nazorat qilish kerak.

Talabalarga yaxshi dars berib ulardan yaxshi kadrlar chiqishini taminlash shu kunning asosiy vazifalaridan biridir.

#### Sinov savollari:

1. Talabalarning huquqlari nimalardan iborat ?
2. Talabalarning vazifalari nimalardan iborat ?
3. Talabalarning ikkinchi oliy ma'lumot olish huquqlari qanday amalga oshiriladi ?
4. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risidagi Qonun kachon qabul qilingan ?
5. Talabalar bilimini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi ?

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZILAR MAHKAMASINING  
QARORI**  
**ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING  
NORMATIV-HUQUQIY BAZASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-  
TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 1-noyabrdagi PQ-3365-son, "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son hamda "Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4546-son qarorlariga muvofiq, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini shakllantirish va amalga oshirishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;  
"Startap" loyihalarni tanlab olish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashlar to'g'risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zлari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri I.Y. Abdurahmonov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Telekommunikatsiyalar, IT-texnologiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari kotibiyatiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 9-mart,  
133-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qaroriga  
1-ILOVA

**Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi to'g'riska  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan fundamental, amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion loyihalarni (keyingi o'rinnarda davlat buyurtmasi deb ataladi) shakllantirish, bajarish va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanadi:

**akademik harakatchanlik** — ilmiy xodimlarning o'z ish joyidan ajralmagan holda,

O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida o‘tkaziladigan ilmiy tadbirlarda ishtirok etishi, tajriba almashishi;

**amaliy tadqiqotlar** — amaliy maqsadlarga erishish va aniq vazifalarni hal etish uchun asosan yangi bilimlarni va fundamental tadqiqotlar natijalarini qo‘llashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar;

**benefitsiar (loyihadan foyda oluvchi)** — ilmiy-tadqiqot loyihasining amalga oshirilishidan manfaatdor bo‘lgan shaxs;

*Oldingi tahrirga qarang.*

**davlat buyurtmasi** — ilmiy-tadqiqot loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirish topshirig‘i;

*(2-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*

**ilmiy ekspertiza** — ilmiy-tadqiqot loyihalari bo‘yicha asoslantirilgan qaror qabul qilish maqsadida uni o‘rganish, tahlil qilish, baholash va xulosa tayyorlashga qaratilgan faoliyat;

**ilmiy-tadqiqot loyihasi** — fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar shaklida maqsad va vazifalari, ijrochilari va bajarish muddatlari, manbalari, vositalari (ularning shakllantirish manbalaridan qat‘i nazar) ilmiy va (yoki) ilmiy-teknik natijalarni, nou-xau va yangi texnologiyalarni olishga qaratilgan tashkiliy-teknik va boshqa zarur chora-tadbirlar majmui;

**ilmiy-teknik kengash** — O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida ilmiy loyihalarni ilmiy ekspertizadan o‘tkazish maqsadida tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha sohaga oid olimlar, davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislaridan shakllantirilgan hamda jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan ilmiy-teknik jamoa;

**innovatsion loyihalar** — amalga oshirish muddati, infratuzilmasi, ijrochilari, moliyalashtirish manbai va hajmiga ega innovatsiyani yaratish va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar;

**kollegial organ** — O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining hay’ati;

**loyihaning ijrochi tashkiloti** — ilmiy-tadqiqot loyihasini amalga oshiruvchi ilmiy faoliyat subyektlari, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan boshqa tashkilotlar;

**maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari** — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida belgilangan davlat siyosati vazifalarining ilmiy yechimini ta’minlashga yo‘naltirilgan, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari oldida turgan o‘ziga xos muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan kompleks yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan, tanlov tashkil qilish uchun alternativ loyiha takliflarini shakllantirish imkonini chegaralangan ilmiy-tadqiqot loyihalari;

**sanoat hamkor** — ilmiy-tadqiqot loyihasi natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishdan manfaatdor bo‘lgan va shunga muvofiq loyihani hamkorlikda moliyalashtirish taklifiga ega sanoat yoki tarmoq korxonasi;

**tajriba-konstrukturlik loyihasi** — tajriba, konstrukturlik namunalari, asboblar, materiallar, buyumlar va boshqa ilmiy ishlanchimalarni loyihalash, tayyorlash va sinovdan o‘tkazish, rivojlantirish bilan bog‘liq loyiha;

**tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalari** — fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ilmiy faoliyat subyektlarining tashabbuslari asosida qabul qilinadigan, alternativ loyiha takliflari talab qilinmaydigan ilmiy-tadqiqot loyihalari;

**tematik ilmiy-tadqiqot loyihalari** — ilmiy faoliyatning ilg‘or yo‘nalishlari, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ehtiyojlari va muammolaridan kelib

chiqqan holda davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ehtiyojlari asosida ishlab chiqiladigan, moliyaviy hajmi ko‘rsatilgan, mavzu doirasida olinadigan yakuniy mahsuloti aniq aks ettirilgan muntazam ravishda e’lon qilinadigan, tanlov asosida moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalari;

**fundamental tadqiqotlar** — tabiat, jamiyat va insonning tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishiga oid asosiy qonuniyatlar haqidagi yangi bilimlarni olishga, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, shuningdek, muayyan faoliyat natijasida yaratilgan obyektlarni o‘rganishga qaratilgan nazariy va (yoki) tajriba o‘tkazishga qaratilgan tadqiqotlar.

3. Davlat buyurtmasi tematik ilmiy-tadqiqot loyihalari, maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari hamda ilmiy faoliyat subyektlarining tashabbuslari asosidagi ilmiy-tadqiqot loyihalari asosida shakllantiriladi.

4. Davlat buyurtmasini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas’uliyat O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga (keyingi o‘rinlarda Buyurtmachi deb ataladi) yuklanadi.

5. Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni bajarish uchun davlat buyurtmasi Buyurtmachi bilan ilmiy-tadqiqot loyihalarining ijrochi tashkiloti o‘rtasida shartnomaga tuzish orqali amalga oshiriladi.

## **2-bob. Ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish va amalga oshirishga qo‘yiladigan umumiyl talablar**

6. Davlat buyurtmasi mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanirish vazifalari, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, fan va texnologiyalarni rivojlanirishning ustuvor yo‘nalishlarida nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun shakllantiriladi.

7. Davlat buyurtmasi bo‘yicha amalga oshiriladigan loyihalar yo‘nalishlari, tematikalari va moliyalashtirish hajmlari Buyurtmachi tomonidan shakllantiriladi va ilmiy-tadqiqot loyihalarini belgilangan tartibda tanlovdan tashqari (alternativ loyiha takliflari mavjud bo‘lmaganda) yoki tanlov asosida (alternativ loyiha takliflari ichidan) saralab olish uchun asos bo‘ladi.

8. Buyurtmachi davlat buyurtmasini bajarish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot loyihalari tanlovini mazkur Nizomning **3-bobida** belgilangan talablar asosida e’lon qiladi.

E’lonlar Buyurtmachining rasmiy veb-saytiga arizalarni shakllantirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va topshirish tartibi, muddati va talablari ko‘rsatilgan holda joylashtiriladi.

9. Fundamental ilmiy-tadqiqot loyihalari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

tabiat, jamiyat, inson, ong va sun’iy ravishda yaratilgan obyektlarning tuzilishi, faoliyati va rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini ochishga qaratilgan yangi bilimlarni egallash;

ilm-fanning muayyan sohasidagi tadqiqotlar natijalarini nazariyalar, tushunchalar, metodologiyalar, usullar, tavsiyalar shaklida qo‘llash maqsadida tadqiq etish;

ilm-fan nazariyasi va metodologiyasini boyitishga, kelgusida bajariladigan amaliy tadqiqotlar hamda ularni amaliy qo‘llashga qaratilgan innovatsiya ishlari uchun asos sifatida xizmat qilish.

Fundamental loyihalarni amalga oshirishning eng ko‘p muddati besh yilgacha bo‘lishi mumkin.

Fundamental loyihalar tanlovida qatnashuvchi ilmiy jamoaning rahbari ilmiy darajaga ega bo‘lishi shart.

10. Amaliy ilmiy-tadqiqot loyihalari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

ishlab chiqarish va/yoki ijtimoiy, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yangi konstruksiyalar, materiallar, usullar, xizmatlarni yaratishga yoki mavjudlarini takomillashtirishga xizmat qilishi;

iqtisodiyotning real sektorini shakllantirishga ko‘maklashish, ishlab chiqarish sohasida energiya va resurslarni tejashni ta’minalash, milliy iqtisodiyot subyektlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning innovatsion tarkibini va qo‘srimcha qiymatini oshirish;

yuqori texnologiyali mahsulotlar namunalarini tayyorlash va/yoki ishlanmalarning texnik va texnologik sinovlarining natijalari va/yoki olingan ilmiy-texnik natijani iqtisodiyotning real sektoriga joriy qilish;

ilmiy-texnik mahsulotlar va unga ilmiy-texnik hujjatlar to‘plamini, shu jumladan loyihalash hujjatlarini va/yoki texnologik hujjatlarni tasdiqlash, laboratoriya qoidalari va/yoki texnik shartlar va pasportlar, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlar to‘plamini ishlab chiqish.

Amaliy loyihalarni amalga oshirishning eng ko‘p muddati uch yilgacha bo‘lishi mumkin.

Amaliy loyihalar tanlovida qatnashuvchi ilmiy jamoaning rahbari ilmiy darajaga ega bo‘lishi shart.

#### 11. Innovatsion loyihalari quyidagi talablarga javob berishi zarur:

avval bajarilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar asosida mahalliy xomashyolardan foydalangan holda import o‘rnini bosuvchi, eksportga mo‘ljallangan yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini sifat jihatidan takomillashtirish, tannarxini pasaytirish, mehnat bozorida yangi ish o‘rinlarini yaratishni ta’minlash;

keyinchalik ulardan amaliyatda foydalanish maqsadida amalga oshiriladigan konstruktorlik, tajriba namunalari, asboblar, materiallar, buyumlar va boshqa ilmiy ishlanmalarni loyihalash, tayyorlash va sinovdan o‘tkazish, rivojlantirish bilan bog‘liq tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish;

yuqori texnologiyaga asoslangan mahsulotlar namunalari yoki prototiplarini yaratish va/yoki tajriba-laboratoriya texnologiyasini tatbiq etish, ilmiy hajmdor mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada qo‘llash uchun yangi turdagи xizmatlarning tajriba-sinovini o‘tkazish (sog‘liqni saqlash, bank-moliya sektori va boshqalar).

Innovatsion loyihalarni amalga oshirishning eng ko‘p muddati ikki yilgacha bo‘lishi mumkin.

Innovatsion loyihalar tanlovida qatnashuvchi ilmiy jamoaning rahbari ilmiy darajaga ega bo‘lishi shart.

12. Ilmiy-tadqiqot loyihalariga tashkilotlardan taqdim etiladigan arizalar Buyurtmachi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilib, identifikasiya raqami olingandan so‘ng qabul qilinadi. Ro‘yxatdan o‘tish tartibi va ijrochi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar Buyurtmachi tomonidan belgilanadi va Buyurtmachining rasmiy veb-saytida va/yoki zarur hollarda boshqa ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

### **3-bob. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirish tartibi**

#### **1-§. Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirish tartibi**

13. Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalariga buyurtma davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, ilmiy faoliyat subyektlarining asoslangan takliflari, shuningdek, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning mavjud muammolari, tijoratlashtirish imkoniyati mavjud yakuniy tayyor mahsulot/texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojlari tahlilining natijalari asosida Buyurtmachi tomonidan ishlab chiqiladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida tematik ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirish ushbu Nizomga **1-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy davlat hokimiyati organlari davlat buyurtmasiga kiritish uchun iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning mavjud muammolarini va real ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va hududiy muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar bo‘yicha belgilangan tartibda va shaklda asoslangan takliflar (keyingi o‘rinlarda takliflar deb ataladi) tayyorlaydi. Takliflar Buyurtmachining rasmiy so‘roviga asosan yoki ixtiyoriy ravishda ko‘rib chiqish uchun mutazam ravishda taqdim etilishi mumkin.

Bunda davlat buyurtmasiga kiritish uchun ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari tomonidan ularning ilmiy-texnik yoki ilmiy kengashlarida ko‘rib chiqilib, ma’qullangan tematik

loyiha e'loni uchun taklif ushbu muassasalarning yuqori turuvchi vazirlik va idoralariga taqdim etiladi.

Yuqori turuvchi vazirlik va idoralar ilmiy-tadqiqot hamda oliv ta'lim muassasalaridan olingan takliflarni umumlashtiradi va ko'rib chiqish uchun Buyurtmachiga taqdim etadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining ilmiy yechimni ta'minlash talab etiladigan ehtiyojlari bo'yicha takliflar to'g'ridan to'g'ri Buyurtmachiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan takliflar hudud iqtisodiyotining muammolarini va ilmiy-texnik ishlanmalarga bo'lgan ehtiyojlarni tahlil qilish, shuningdek, hududdagi yuqori turuvchi tashkiloti mavjud bo'lmagan boshqa tashkilotlarning takliflari asosida shakllantiriladi.

15. Davlat buyurtmasiga kiritish uchun tematik loyiha e'loni uchun takliflarni shakllantirishda quyidagi prinsiplarga rioya etiladi:

ilmiy-tadqiqot mavzusining dolzarbliji va tematik loyiha mavzusida aniq yakuniy mahsulotga buyurtmani aks etganligi;

fan va texnologiyalar rivoji uchun ustuvorligi;

iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va respublika hududlarining aniq muammolarini hal etishga qaratilganligi;

loyiha natijasida yakuniy mahsulotni yaratilishi asoslanganligi;

ishlanmaning raqobatbardoshliligi;

tayyor mahsulotni ishlab chiqishga yo'naltirilganligi;

loyiha natijalarining tijoratlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

loyihaning natijadorligi (mahsulot yoki takomillashtirilgan texnologiya);

loyihaning moliyalashtirish prognoz hajmlari belgilanganligi.

16. Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalar bo'yicha takliflarni shakllantirish uchun, zarur hollarda, Buyurtmachi tomonidan mavzu va loyiha natijasida yaratiladigan mahsulotni iqtisodiyotga kerakligi to'g'risida manfaatdor davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalarini hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga so'rov yuboriladi.

Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalar bo'yicha takliflar Buyurtmachi tomonidan muntazam ravishda qabul qilinadi.

17. Takliflarni shakllantirishda ularni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi uchun tematik ilmiy-tadqiqot bo'yicha taklif bergan (benefitsiar) tomon javobgar bo'ladi.

18. Buyurtmachi taklif(lar) qabul qilingan sanadan boshlab o'ttiz kun davomida kelib tushgan takliflar yig'ma ro'yxatini shakllantiradi, ularning takrorlanishining oldini olish maqsadida, shuningdek, amalga oshirilayotgan va avval amalga oshirilgan loyihalarni hisobga olgan holda o'rGANIB chiqadi.

19. Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalar bo'yicha takliflarni o'rGANISH jarayoniga zarur hollarda, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning tegishli mutaxassislari, shu jumladan xorijiy ekspertlar ham jalb etilishi mumkin.

20. Buyurtmachi tematik ilmiy-tadqiqot loyihalar bo'yicha takliflar ro'yxatini shakllantirishda mavzu doirasida amalga oshiriladigan loyihaning turi, kutilayotgan yakuniy natijasi va amalga oshirish muddatlaridan kelib chiqib, moliyalashtirishning prognoz hajmini belgilashi mumkin.

21. Buyurtmachi tematik ilmiy-tadqiqot loyihalar dolzarbliji hamda ahamiyatini, kutilayotgan yakuniy natijasini hisobga olgan holda, loyihalarni amalga oshirish muddatlarini belgilaydi.

22. Buyurtmachining tarkibiy bo'linmalari taklif(lar) qabul qilingan sanadan boshlab o'ttiz kun muddat ichida loyiha tasnifi va unga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqadi va e'lon uchun tayyorlaydi.

23. Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalarga davlat buyurtmasi Buyurtmachining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va loyihani topshirishning aniq muddati va tartibi belgilangan holda uning rasmiy veb-saytida va zarur hollarda boshqa ommaviy axborot vositalarida tanlov e'lon qilinadi.

O'rGANISH natijalariga ko'ra, ayrim takliflar e'longa berilmasligi va qayta ko'rib chiqish

uchun taklif etuvchiga qaytarilishi yoki asoslantirilgan holda rad etilishi mumkin.

## **2-§. Maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirish tartibi**

24. Maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, davlat dasturlari va konsepsiyalarda bayon etilgan vazifa va topshiriqlar asosida (agar bu topshiriqlarni ijrosi tematik ilmiy-tadqiqot loyihalar tanlovlari doirasida bajarilishi mumkin bo'lmasa) hamda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari oldida turgan o'ziga xos muammolarni hal etish ehtiyojidan kelib chiqib murojaatga muvofiq qabul qilinadi. Bunda tanlov tashkil qilish uchun alternativ loyiha takliflarini shakllantirish imkonи chegaralanganligi uchun loyihalar tegishli ilmiy-texnik kengashda o'tkazilgan ilmiy ekspertiza va loyihaning ochiq muhokamasi natijasiga ko'ra tanlovdan tashqari moliyalashtiriladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirish ushbu Nizomga **2-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

25. Maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari ikki yoki undan ortiq ilmiy faoliyat subyektlari, xalqaro va xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

26. Davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari qabul qilinganidan keyin o'ttiz kun ichida maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha takliflarni Buyurtmachiga taqdim etadi. Bunda taklif qilinayotgan ilmiy loyihaning maqsadiligi, o'ziga xosligi va tanlov tashkil qilish uchun alternativ loyiha takliflarini shakllantirish imkonи yo'qligi yoki chegaralanganligi asoslab berilishi shart.

Buyurtmachining o'rganishlari va xulosasi asosida tanlov o'tkazish imkonи bo'lган topshiriqlarga tematik ilmiy loyihalar shakllantirilib, tanlovga qo'yilishi mumkin.

27. Buyurtmachi maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalarini tegishli ilmiy kengashda ilmiy ekspertiza va loyihaning ochiq muhokamasi natijasiga ko'ra tanlovdan tashqari moliyalashtirishga yo'naltiradi.

28. Ariza beruvchi (benefitsiar) maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirishda va amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha takliflar uchun javobgardir.

29. Buyurtmachi taklif(lar) qabul qilingan sanadan boshlab o'ttiz kun davomida kelib tushgan takliflarning yig'ma ro'yxatini shakllantiradi, takrorlanishlarining oldini olish maqsadida, shuningdek, amalga oshirilayotgan va avval amalga oshirilgan loyihalarni hisobga olgan holda tegishli ilmiy kengashda ilmiy ekspertiza va loyihaning ochiq muhokamasi natijasiga ko'ra moliyalashtirishga tavsiya beradi.

30. Maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalarini ekspertizadan o'tkazish jarayoniga zarur hollarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning tegishli mutaxassislari, shu jumladan xorijiy ekspertlar ham jalb etilishi mumkin.

31. Buyurtmachi loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy imkoniyat mavjud bo'lganda, mablag'lar limitini oshirish yoki mablag'larni tadqiqot yo'nalishlari o'rtasida qayta taqsimlash huquqiga ega.

### *Oldingi tahririga qarang.*

Qabul qilingan barcha turdagи loyiha hujjatlarining moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasi Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

Moliyaviy-iqtisodiy ekspertiza loyiha fan yo'nalishi bo'yicha tegishli ilmiy-texnik kengash tomonidan moliyalashtirishga tavsiya etish to'g'risidagi bayonnomma Buyurtmachiga taqdim etilgan kundan boshlab o'n ish kunida amalga oshiriladi.

Moliyaviy-iqtisodiy ekspertizadan o'tmagan loyihalar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi va moliyalashtirilmaydi.

*(31-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagи 545-soni qaroriga asosan ikkinchi — to'rtinchi xatboshlari bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-soni)*

## **3-§. Tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirish tartibi**

32. Tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalari ilmiy-tadqiqot va oliv ta'lim muassasalarining, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa manfaatdor tashkilotlarning asoslangan takliflari asosida ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'naliishlariga muvofiq shakllantiriladi, tegishli ilmiy-texnik kengashda ilmiy ekspertiza va loyihaning ochiq muhokamasi natijasiga ko'ra tanlovlarsiz moliyalashtiriladi.

Buyurtmachi ustuvor yo'naliishlarga muvofiq tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalariga e'lon beradi.

E'lon bo'yicha tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalariga talab etiladigan hujjatlar Buyurtmachining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi va unda loyiha talabnomalarini qabul qilish muddatlari, amalga oshirish muddatlari va loyihalarni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar ko'rsatilgan bo'lishi zarur.

33. Tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha loyiha talabnomalari Buyurtmachi tomonidan belgilangan talablar va shakllarga muvofiq taqdim etiladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalarini shakllantirish ushbu Nizomga **3-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

34. Tashabbuskor loyihalarni amalga oshirish muddatlari tadqiqot turlari bo'yicha ishlarni bajarish muddatiga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda, asoslantirilgan kalendar ish rejalariga muvofiq belgilanadi.

35. Tashabbuskor loyihalarni moliyalashtirish hajmi loyihami amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan hisob-kitoblar va moliyaviy rejalar asosida belgilanadi.

36. Ilmiy-tadqiqot va oliv ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan tashabbuskor loyihalarni amalga oshirish muddatlari va moliyalashtirish hajmi loyiha talabnomalarining o'tkazilayotgan ekspertizasi natijasi bo'yicha tegishli ilmiy-texnik kengashlar va buyurtmachining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

37. Amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalarining talabnomalari ilmiy faoliyat subyektlari va sanoat hamkorlari bilan birgalikda taqdim etilishi mumkin.

Bunday arizada sanoat hamkori tomonidan qo'shma (ulushli) moliyalashtirish hajmi, shu jumladan qo'shma moliyalashtirish xarajatlari turlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

38. Buyurtmachi berilgan e'longa ko'ra, tadqiqot yo'naliishlariga ko'ra tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha kelib tushgan loyihalarni qabul qiladi, ularning texnik ekspertizasini o'tkazadi va huzuridagi ilmiy-texnik kengashlarda loyihaning ilmiy ekspertizani va ochiq muhokamasi tashkil etadi.

#### **4-bob. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyiha takliflarini qabul qilish, e'lon va tanlovlarni tashkil etish tartibi**

39. Buyurtmachi:

tematik ilmiy-tadqiqot loyihalariga muntazam ravishda tanlov e'lon qiladi va tegishli ilmiy-texnik kengashda ilmiy ekspertiza va loyihaning ochiq muhokamasi natijasiga ko'ra eng maqbul loyihalardan birini tanlab, moliyalashtirishga tavsiya etadi;

maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalariga taklif qabul qiladi, tegishli ilmiy-texnik kengashda ilmiy ekspertiza va loyihaning ochiq muhokamasi natijasiga ko'ra tanlovsiz moliyalashtirishga tavsiya etadi;

ilm-fanning ustuvor yo'naliishlari bo'yicha tashabbuskor loyihalarga e'lon beradi va tegishli ilmiy-texnik kengashda ilmiy ekspertiza va loyihaning ochiq muhokamasi natijasiga ko'ra tanlovsiz moliyalashtirishga tavsiya etadi.

40. Tashabbuskor loyihalarga e'lon va tematik loyihalari tanlov talablari Buyurtmachining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi hamda loyiha talabnomalarini qabul qilish muddatlari, loyiha mavzularining nomi, amalga oshirish muddatlari va loyihalarni moliyalashtirishning prognoz miqdori, loyihalarni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar, loyihalarni amalga oshirish bo'yicha topshiriqni o'z ichiga olgan ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalarni amalga oshirish bo'yicha chiqarilgan

topshiriqlarning asoslanganligiga qarab, tanlovlardan o'tkazilishi yoki tanlovlarsiz moliyalashtirish uchun kollegial organga xulosa berilishi mumkin.

41. Tashkiliy-huquqiy shaklidan va idoraviy mansubligidan qat'i nazar, Buyurtmachining talablari va tanlov hujjatlari muvofiq ilmiy faoliyat subyektlari, ilmiytadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilotlar ilmiy-tadqiqot loyihamalari amalga oshirish uchun loyiha hujjatlari to'plami bilan loyihamalari tanlovida qatnashish, hujjatlari to'plamini e'londa belgilangan muddatlarga muvofiq taqdim etish huquqiga ega.

42. Loyiha talabnomasi tarkibidagi hujjatlarning asosiy ro'yxati va ularni rasmiylashtirish (to'ldirish) va taqdim etish tartibi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi hamda Buyurtmachining rasmiy veb-saytida va zarur hollarda, boshqa ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi.

43. Loyiha talabnomalari Buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan hujjatlari e'lon yoki tanlov shartlarida belgilangan sanaga qadar qabul qilinadi.

44. Buyurtmachi ilmiy-tadqiqot loyihamalari bo'yicha kelib tushgan barcha loyihami ro'yxatdan o'tkazadi va ularga ro'yxatga olish raqamlarini beradi hamda texnik ekspertizadan o'tkazadi. Texnik talablarga mos loyihamalari ilmiy ekspertiza va ochiq muhokama o'tkazish uchun buyurtmachi huzuridagi tegishli ilmiy-texnik kengashlarga yo'naltiriladi.

45. Yopiq mavzudagi (maxsus yo'nalishdagi) ilmiy-tadqiqot loyihamalari e'lon va tanlovlardan davlat buyurtmasiga qo'yilgan talablar doirasida maxfiy ish yuritish talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yopiq ilmiy-tadqiqot loyihamalari e'lon va tanlovlardan ochiqlanmaydi. Tanlovdan ishtirok etish uchun takliflar loyiha talabnomalari, oldindan belgilangan ijrochi tashkilot bo'limgan taqdirda, buyurtmachi tomonidan maxsus aloqa kanallari orqali qabul qilishning tegishli darajasiga ega tashkilotlarga yuboriladi.

46. Xalqaro bitimlar doirasida amalga oshiriladigan tematik yoki tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihamalari e'lon va tanlovlardan ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

## **5-bob. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihamalari talabnomalariga qo'yiladigan talablar**

47. Loyiha talabnomasida loyihami amalga oshiradigan ilmiy jamoa tarkibiga kiritilgan ijrochilar soni, shuningdek, loyihaming asosiy ijrochilarini to'g'risida to'liq ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

48. Loyihami amalga oshirish boshlangan vaqtida tuzilgan ilmiy jamoaning o'rtacha yoshi, qoida tariqasida, 45 yoshdan oshmasligi kerak. Tadqiqot guruhining o'rtacha yoshi ijrochilar yoshining arifmetik o'rtacha darajasi sifatida hisoblanadi.

49. Akademik va ilmiy almashinuvni rag'batlantirish, akademik harakatchanlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun 45 yoshgacha bo'lgan yosh olimlarning milliy (respublika) ilmiy va xorijiy ta'lim muassasalariga qisqa va uzoq muddatli xizmat safarları (jumladan ilmiy anjumanlarda ishtirok etish) loyiha talabnomalarga kiritilishi mumkin.

Xizmat safarining maqsadi ilmiy-tadqiqot loyihasi kalendor rejasiga mos kelishi va loyiha ko'rsatkichlarining bajarilishiga xizmat qilishi lozim.

50. Fundamental ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun loyiha talabnomasiga qo'yiladigan asosiy talab ilmiy jamoa va loyihami amalga oshiruvchi tashkilotning falsafa doktori yoki fan doktori ilmiy unvoni bo'yicha ilmiy guruh a'zolaridan kamida bittasi tomonidan ilmiy dissertatsiya tayyorlash va himoya qilinishini ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

51. Amaliy va innovatsion loyihamalarni amalga oshirishda sanoat yoki tarmoq tomonidan hamkorlikda moliyalashtirishga qiziqish bo'lgan taqdirda, loyiha talabnomalariga sanoat yoki tarmoq hamkorini to'g'risidagi ma'lumot va uning moliyaviy ishtiroki (hamkorlikda moliyalashtirish) hajmi va turlarini tasdiqlovchi hujjatlari ilova qilinishi kerak.

52. Yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, shuningdek, ilmiy izlanuvchilar institutini rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot loyihamalarni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot guruhiga ilmiy stajor lavozimi kiritilishi lozim.

53. Ijrochi tashkilotlar loyihami to'liq yoki qisman amalga oshirish uchun xorijiy

olimlarni va xorijiy ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydigan mutaxassislarini, ta’lim muassasalarini, tashkilotlarni va tadbirkorlik subyektlarini jalb qilishi mumkin.

54. Har bir loyiha talabnomasi Buyurtmachi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shakllarga muvofiq tuzilgan quyidagi hujjatlarni o‘z ichiga olishi zarur:

ilmiy-tadqiqot guruhining tarkibi har bir lavozimga talablar tavsifi bilan;

loyiha mablag‘larining ilmiy-tadqiqot loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik resurs bazasini (binolar, jihozlar, inventarlar, dasturiy ta’mimat, ma’lumotlar bazalari, ma’lumot manbalari va boshqalar) shakllantirishga yo‘naltirilganligi (kamida 40 foiz miqdorida), ilmiy jamoa uchun yaratib beriladigan shart-sharoitlar mavjudligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar;

ushbu ishlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanadigan tadqiqot guruhi a’zolari bilan ishslashning ketma-ketligini tavsiflovchi kalendar reja;

xarajatlar yo‘nalishlari ko‘rsatilgan, zarur moliyalashtirish hajmi va muddatlarini aks ettiruvchi moliyaviy reja va hisob-kitoblar;

tadqiqotning kutilayotgan natijalarini qo‘llash sohasi ko‘rsatilgan holda uning asosiy natijalari tavsifi.

55. Loyiha va tadqiqot turiga qarab, loyiha talabnomalari tarkibiga qo‘yiladigan talablarning to‘liq ro‘yxati Buyurtmachi tomonidan belgilanadi, tasdiqlanadi va rasmiy veb-saytida va zarur hollarda, boshqa ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinadi.

## **6-bob. Loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish va loyiha talabnomalarini tanlov asosida saralab olish tartibi**

### **1-§. Loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish va loyiha talabnomalarini tanlov asosida saralab olishga qo‘yilgan umumiyl talablar**

56. Tematik loyihalar tanloviga hujjatlar topshirish muddatining oxirgi sanasigacha tanlov hujjatlarida belgilangan talablarga javob beradigan kamida ikkita loyiha talabnomasi kelib tushgan bo‘lsa, tanlov haqiqiy deb hisoblanadi. Bu holda loyiha talabnomalari ekspertiza va keyingi tanlov uchun yuboriladi.

57. Agar tanlovda bitta ishtirokchi qatnashgan bo‘lsa yoki hech kim qatnashmagan bo‘lsa, u holda tanlov bo‘lmagan deb hisoblanadi. Bu holda Buyurtmachi ushbu loyiha bo‘yicha bir xil shartlar va talablar asosida qayta tanlov o‘tkazishi shart.

58. Agar loyihalarning texnik ekspertizasi natijalariga ko‘ra, Buyurtmachi barcha loyihalarni rad etsa yoki bitta hujjat talabnomasi tanlov hujjatlari talablariga javob bersa, tanlov bo‘lmagan deb topiladi va qayta tanlov e’lon qilinadi.

59. Tanlov hujjatlari shartlarini o‘zgartirmasdan, qayta tanlovda yangi takliflarni qabul qilish muddati kamida o‘n ish kuni deb belgilanadi. Agar qayta tanlovga muqobil loyiha talabnomasi kelib tushmasa, dastlabki bosqichda tanlovga kelib tushgan bitta loyiha Buyurtmachi tomonidan suhbat asosida arizachi bilan muzokara o‘tkazilib, ijobiy xulosa natijasiga ko‘ra belgilangan tartibda keyingi bosqichga yo‘naltiriladi.

60. Olingan loyiha talabnomalarining ekspertizasi Buyurtmachi tomonidan tashkil qilinadi. Bunda dastlab texnik va keyinchalik ilmiy ekspertizani o‘tkazish yo‘li bilan yakuniy xulosa shakllantiriladi.

### **2-§. Loyiha hujjatlarining texnik ekspertizasi**

61. Qabul qilingan barcha turdag‘ loyiha hujjatlarining texnik ekspertizasi Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Texnik ekspertizani o‘tkazish muddati loyiha talabnomalari uchun hujjatlarni qabul qilish tugagan kundan boshlab o‘n besh kundan oshmasligi kerak.

62. Texnik ekspertiza taqdim etilgan hujjatlarning Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan talablarga muvofiqligini, shuningdek, loyiha hujjatlariga ko‘ra taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilishda xatolarni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

63. Texnik ekspertiza quyidagi tartiblarni o‘z ichiga oladi:

talabnomaga ilova qilingan shakllarning to‘liqligi va to‘g‘riligini, zarur imzo, muhr va shtamplarning mayjudligini tekshirish;

ilgari topshirilgan loyiha talabnomasiga o‘xshash yoki shu mavzuda bajarilgan

loyihalarning mavjudligi va loyiha talabnomalarining takrorlanishini aniqlash;

taqdim etilgan moliyaviy-iqtisodiy hisob-kitoblar mavjudligini o'rganish;

loyiha talabnomasiga ko'ra, har taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish, texnik xatolar va noaniqliklar yo'qligini tekshirish.

64. Loyiha hujjatlari bo'yicha texnik ekspertizaning ijobiy xulosasi bo'lgan taqdirda, hujjatlar to'plami Buyurtmachi tomonidan ilmiy ekspertizani o'tkazish uchun Buyurtmachi huzuridagi fan yo'nalishlari bo'yicha tegishli ilmiy-texnik kengashlarga yuboriladi.

65. Loyiha hujjatlari bo'yicha texnik ekspertizaning salbiy xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, Buyurtmachi loyihami taqdim etgan muassasaga (tashkilotga) bu haqda yozma ravishda ma'lum qiladi. Buyurtmachi tomonidan kamchiliklarni bartaraf etish uchun uch ish kunidan kam bo'limgan muddat belgilanadi.

Buyurtmachi loyiha talabnomada ko'rsatilgan tartibda asoslantirilgan xulosani tegishli tashkilotga (muassasaga) yetkazadi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Agar loyiha taqdim etgan tashkilot (muassasa) Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni belgilangan muddatda taqdim etmasa, loyiha ko'rib chiqish jarayonidan olib tashlanadi va ilmiy ekspertizadan o'tkazilmaydi. Mazkur holatda loyiha hujjatlari uni taqdim etgan tashkilotga (muassasa) qaytarib yuborilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachida saqlanadi. Loyihani taqdim etgan tashkilot (muassasa)ning yozma murojaatiga asosan loyiha hujjatlari Buyurtmachi tomonidan qaytarilishi mumkin.

(65-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

66. Tanlovga bitta loyiha taqdim etilgan hollarda loyihalarni alohida tartibda ko'rib chiqish uchun Buyurtmachining buyrug'iga binoan Buyurtmachining tarkibiy bo'linmalarining mas'ul xodimlaridan kamida besh kishidan iborat tarkibda ishchi guruh tuziladi.

Ishchi guruh besh ish kuni ichida yagona ishtirokchining loyihasini ko'rib chiqadi va uning tanlov takliflarini taqqoslaydi.

Individual tartibda ko'rib chiqilayotgan loyiha ushbu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning hozirgi bosqichida talabga ega bo'lishi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning, shu jumladan tijoratlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan yakuniy tayyor mahsulot texnologiyalariga yo'naltirilgan loyihalarning ehtiyojlariga javob berishi kerak.

Tekshirish natijalariga ko'ra, ishchi guruh loyihami ilmiy-texnik kengashda ko'rib chiqish uchun asos bo'lgan tegishli bayonni tasdiqlaydi.

### **3-§. Loyihalarning ilmiy ekspertizasi**

67. Davlat buyurtmasi asosida bajariladigan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalar davlat ilmiy ekspertizasidan o'tkazilishi shart.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

68. Loyiha talabnomalarining ilmiy ekspertizasi ikki bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqichda har bir loyiha talabnomasi Buyurtmachi tomonidan mustaqil ekspertlarni, shu jumladan xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda ekspertiza qilinadi;

ikkinchi bosqichda har bir loyiha talabnomasi fan yo'nalishlari bo'yicha tegishli ilmiy-texnik kengashlar (ITK) tomonidan ochiq muhokamadan o'tkaziladi.

(68-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagagi 545-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)

69. Ilmiy ekspertiza loyihaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini, uni texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatlarini, shu jumladan moddiy-texnik bazaning yetarli ekanligi, ilmiy salohiyatning va ilmiy jamoaning ilmiy natijalari mavjudligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

70. Ilmiy ekspertiza quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshiriladi:  
ekspertlarning mustaqilligi;

ilmiy loyihani ilmiy yondashuv asosida, xolis, to‘liq va har tomonlama o‘rganish; ekspertiza natijalarining asoslantirilganligi; ekspertlarning chuqur bilimga egaligi, yuqori darajada professional va kasbiy mahoratga egaligi;

davlat, xizmat va tijorat sirlariga rioya qilgan holda ekspertiza natijalarining ochiqligi; jamoat, texnika va ekologik xavfsizlikka, milliy va xalqaro standartlarga rioya qilish.

71. Ilmiy ekspertizani amalga oshirish jarayonida uning natijalaridan shaxsan manfaatdor bo‘lgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining qatnashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

72. Ilmiy ekspertiza muddati Buyurtmachi tomonidan ITKga loyiha kelib tushgan sanadan boshlab bir oydan oshmasligi kerak.

73. Loyiha talabnomalarining ilmiy ekspertizasi ikki bosqichda o‘tkaziladi.

74. Ilmiy ekspertizaning birinchi bosqichida loyiha talabnomasi kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni ichida ikkita ekspert bo‘yicha taklif Buyurtmachiga kiritiladi. Buyurtmachi tomonidan ekspertlar ro‘yxatga olingandan so‘ng, ekspertlarga loyihalar ko‘rib chiqish va baholash uchun taqdim qilinadi.

Ekspertlarga qo‘yiladigan talablar, ularni tanlash va ekspertizaga tayinlash tartibi Buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

75. Ilmiy ekspertizaning birinchi bosqichida ekspertlar loyiha talabnomasini bir oy muddatda ko‘rib chiqadi. Ekspertiza natijalariga ko‘ra, har bir ekspert loyiha bo‘yicha o‘zining ekspert xulosasini beradi va uni 100 ballik shkala bo‘yicha baholaydi, bunda 0 ball — eng past ko‘rsatkich, 100 ball — eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Bunda agar bir loyiha bo‘yicha ikki ekspert baholaridagi farq 25 balldan yuqori bo‘lsa, ekspertiza natijalarini aniqlashtirish maqsadida uchinchi ekspert qo‘sishma ekspertiza uchun tayinlanadi.

Loyiha talabnomasining yakuniy ekspert bahosi barcha ekspert baholarining o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi.

Ilmiy ekspertizaning birinchi bosqichi natijalari Buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ekspert xulosalari ilmiy ekspertizaning ikkinchi bosqichini o‘tkazish uchun ITKga yuboriladi.

Ilmiy ekspertizadan o‘tmagan loyihalar ITK tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bayonna ma’lumotlari ilmiy ekspertizaning ikkinchi bosqichini o‘tkazish uchun ITKga yuboriladi. Buyurtmachi asoslantirilgan rad etish xulosasini loyiha rahbarlariga interfaol xizmat orqali bildirish uchun elektron platformaga joylashtiradi.

*(75-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdaggi 545-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-soni)*

76. Ilmiy ekspertizaning ikkinchi bosqichida loyihalar ITK yig‘ilishida ochiq muhokama (taqdimot) shaklida ko‘rib chiqiladi. Ilmiy loyihaning rahbari ilmiy loyiha taqdimoti bilan ITK yig‘ilishlarida qatnashadi. ITK a’zolari tadqiqot loyihasi va loyihani qo‘llash mavzusi bo‘yicha savollar berish huquqiga ega.

77. Taqdimot va ochiq muhokamaning natijalariga ko‘ra, ovoz berish huquqiga ega ITK a’zolari loyiha talabnomasini 100 ball tizimidan foydalangan holda baholaydi, bunda 0 ball eng past baho va 100 ball eng yuqori baho hisoblanadi. ITK a’zolarining baholari yig‘ilish bayonnomasida qayd etiladi. ITK tomonidan loyiha taklifining yakuniy bahosi ITK a’zolari baholarining o‘rtacha arifmetik qiymati bilan belgilanadi.

Loyiha talabnomasini baholash jarayonida loyihani amalga oshirishni rejalashtirilayotgan tadqiqotchilar guruhi rahbari va a’zolarining qatnashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

78. ITK yig‘ilishining qoidalari va qarorlarini qabul qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi ilmiy-texnik kengashlar to‘g‘risidagi nizomga muvofiq belgilanadi.

79. ITK tomonidan yakuniy bahosi 60 va undan yuqori ball bo‘lgan taqdirda, loyiha

talabnomasi ilmiy ekspertizaning ikkinchi bosqichidan o‘tgan deb hisoblanadi.

80. Har bir loyiha talabnoma bo‘yicha ilmiy ekspertiza yakunlangach, ITK xulosa va tavsiyalar beradi. ITK qarorlari va xulosalari yig‘ilish bayoni shaklida tuzilib, rais tomonidan tasdiqlanadi.

81. ITK a’zosi baholash jarayonida ko‘pchilikning fikriga qo‘silmasa, o‘zining alohida fikrini bildirishga haqli. ITK a’zosining alohida fikri yig‘ilish bayonnomasiga kiritiladi.

82. ITK o‘xshash mavzular va yo‘nalishlar bo‘yicha birlashtirgan, ularni bajarish jarayonini maqbullashtirish maqsadida ish hajmi va xarajatlarni aniqlaydigan rejalashtirilgan ishlarni to‘g‘rilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishi mumkin.

83. ITK ekspertizasi natijalari tahlil qilinib, umumlashtirilganidan so‘ng o‘n kun ichida kollegial organga ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi. Kollegial organ loyiha buyurtmalarini to‘g‘ri va xolis baholaganligini tekshirish maqsadida qo‘srimcha ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Qo‘srimcha ekspertiza o‘tkazish tartibi kollegial organ tomonidan tasdiqlanadi.

Kollegial organ ITK raislarini qabul qilingan qarorlarga tushuntirish berishni so‘rab muhokamaga taklif qilishga haqli.

Zarur hollarda, loyiha talabnomasi ilmiy ekspertiza jarayonida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar asosida, shuningdek kollegial organning ko‘rsatmasiga muvofiq ITK tomonidan qayta ishlanib, uning mavzusi va tarkibiga qisman o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgan tavsiyalar bilan Buyurtmachiga taqdim etilishi mumkin.

Bunda ITK tomonidan bir marotaba loyiha rahbariga uch ish kuni ichida tegishli o‘zgartirishlar qilishga ruxsat beriladi, o‘zgartirilgan loyiha qayta ekspertiza va muhokamadan o‘tkaziladi. ITK bayonida va uning qaror qismida loyiha talabnomasini qayta ishlash bilan bog‘liq barcha jarayonlar to‘liq asoslantirilishi lozim.

84. Ijobiy baholangan va moliyalashtirishga tavsiya etilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarning yakuniy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror kollegial organ tomonidan hujjatlar taqdim etilgan sanadan boshlab o‘n ish kuni mobaynida qabul qilinadi.

85. Ijobiy baholangan loyihalarni tasdiqlash bo‘yicha kollegial organ yig‘ilishida nizo yuzaga kelgan taqdirda, kollegial organ qarori bilan loyihalarni innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashida ko‘rib chiqish uchun yo‘naltirilishi va bunda ITK raisi tomonidan taqdimot o‘tkazilishi mumkin. Jamoatchilik kengashi bir oy muddatda loyiha bo‘yicha, shu jumladan loyihalarni moliyalashtirish yoki moliyalashtirishni rad etish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini kollegial organga taqdim etadi.

86. Buyurtmachi kollegial organ qarori qaror qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n besh kun muddatda ilmiy-tadqiqot loyihasining ijrochi tashkiloti bilan belgilangan tartibda shartnomada imzolashi zarur.

Shartnomada moliyalashtirish shartlari va tomonlarning majburiyatları nazarda tutilishi lozim.

Shartnomalarning namunaviy shakllari, shu jumladan ilova qilingan shakllar, jadvallar va boshqa materiallar buyurtmachi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

## **7-bob. Loyihalar bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy ekspertizani baholash mezonlari**

87. Davlat buyurtmasini amalga oshirish doirasida ilmiy-tadqiqot loyihalari tanloviga taqdim etilgan loyiha talabnomasining ilmiy-texnik darajasini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

a) fundamental tadqiqotlar uchun:

tashabbuskor loyihalarning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi;

loyihaning maqsadli tanlov mavzusi va shartlariga muvofiqligi;

mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning yangiligi va ushbu yo‘nalishda ilmiy natijalarning mavjudligi va darajasi hamda yangi bilimlarni olish, yangi nazariyalar, usullar, tushunchalarni yaratishga qaratilganligi;

tadqiqot mavzusi bo‘yicha zarur ilmiy salohiyat va ilmiy ma’lumotlarning mavjudligi

(yuqori malakali olimlar jamoasi, so‘nggi besh yil ichida nashr etilgan ilmiy nashrlarning soni va sifati, patentlarning mavjudligi, yetakchi milliy va xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikning mavjudligi va boshqalar);

loyiha ijrochilar tarkibida 35 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlarning mavjudligi, ularning soni va sifat xususiyatlari;

zarur moddiy-texnik bazadan (binolar, jihozlar, inventarlar, dasturiy ta’milot, ma’lumotlar bazasi, axborot resurslari va boshqalar) foydalanish imkoniyati;

b) amaliy loyihihalar uchun:

tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy muammolarni hal qilish uchun yangi usullarni o‘rganishning kutilayotgan samaras;

tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish imkoniyati, shu jumladan sanoat hamkori va loyihihi amalga oshirishdagi tomonlar hissasini baholash;

loyihihi amalga oshirish natijasida kutilayotgan natijalar: ilmiy-texnik hujjatlar to‘plamini (texnologik yoki laboratoriya reglamentlari, texnik pasport, texnik shartlar, loyihihi hujjatlari va boshqalar), eksperimental (laboratoriya, ishlab chiqarish, klinik) sinovlarni o‘tkazish uchun yangi yondashuvlar va usullarni ishlab chiqish;

zarur salohiyat — ilmiy (ushbu masala bo‘yicha yuqori malakali olimlar jamoasi) va moddiy-texnik resurslar (asboblar, uskunalar, materiallar va boshqa vositalar)ning mavjudligi;

loyiha ijrochilar tarkibida 35 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlarning mavjudligi (doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrler, bakalavrler);

loyiha ijrochilarining ilmiy salohiyati: ilmiy nashrlarning mavjudligi (xorijiy nashrlarda maqolalar, patentlar yoki boshqa ilmiy hujjatlar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari, dasturiy mahsulotlar), shuningdek, so‘nggi besh yil ichida nashr etilgan xalqaro va milliy konferensiyalarda ilmiy maqola va tezislar;

v) innovatsion loyihihalar uchun:

loyihihi amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar: import o‘rnini bosuvchi yoki eksportga yo‘naltirilgan yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarishni tashkil etish (tayyorlash) uchun ilmiy-texnik hujjatlarni ishlab chiqishni (tasdiqlash) rejalashtirish;

loyihihi tijoratlashtirish istiqbollari va sanoat hamkori darajasini va loyihihi amalga oshirishga qo‘sghan hissasini baholash (mahsulot ma’lum bir iste’molchi uchun mos bo‘lgan bozorga kirish va aniq istiqbolga ega bo‘lishi kerak);

innovatsiya obyektiga talab darajasi: mahsulotga (texnologiya, ishlanma) talab — sanoat hamkori va (yoki) boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan loyihihi amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishda kafolatlar mavjudligi (loyihihi amalga oshirishga qiziqish, zarur materiallar yoki boshqa manbalarni taqdim etishda ishtiroy etish);

muhofaza qilinadigan hujjatlarning mavjudligi: patent (dasturiy mahsulot uchun guvohnoma) va taklif qilinayotgan mahsulot (texnologiya) uchun ilmiy-texnik hujjatlarning to‘liq to‘plami yoki texnik reglament, sinov sertifikati, texnik shartlar, e’lon qilingan ilmiy maqolalar, patentga (dasturiy mahsulotga) topshirilgan talabnomalar (sertifikat) va ishlab chiqarilgan laboratoriya reglamentlari, laboratoriya sinovlari;

loyiha ijrochilarining tegishli ilmiy-texnik yoki innovatsion faoliyat va tajriba-konstrukturlik ishlari bo‘yicha amaliy tajribasining mavjudligi: mahsulot tajriba namunasining mavjudligi, ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulotning ilmiy-texnik yoki ishchi tajriba-texnologik hujjatlari va/yoki mahsulotning laboratoriya, tajriba namunasining mavjudligi;

ishlab chiqarish bazasining texnologik jihatdan ta’minlanganlik darajasi: ishlab chiqarish bazasi, asboblar, uskunalar va boshqa zarur infratuzilma mavjudligi yoki rejalashtirilayotganligi (loyihihi amalga oshirish paytida), shuningdek, mahalliy resurslar (xomashyo va butlovchi qismlar) bilan ta’minlanganligi (mavjudligi).

## **8-bob. Ilmiy-tadqiqot loyihihalarini davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirish**

*Oldingi tahririga qarang.*

88. Davlat buyurtmasi asosida ilmiy-tadqiqot loyihihalarini moliyalashtirish O‘zbekiston

Respublikasi Davlat budgetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan hamda ushbu maqsadlar uchun jalg qilingan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Bunda tarmoq va sanoat korxonalari muammolarini hal etishga qaratilgan davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalari tarmoq va sanoat korxonalari bilan kelishuvlar asosida sheriklikda moliyalashtirilishi mumkin.

Davlat buyurtmasi asosida ilmiy-tadqiqot loyihalarni moliyalashtirish tegishli moliya yildan boshlab quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ilmiy-tadqiqot loyihalari Innovatsion rivojlanish vazirligi Hay'atining tegishli qarorlari asosida Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rnlarda — Jamg'arma) orqali moliyalashtiriladi;

Har bir ilmiy-tadqiqot loyihasini moliyalashtirish uchun alohida shaxsiy hisobvaraq ochiladi;

Ijrochi tashkilot tomonidan har bir ilmiy-tadqiqot loyihalar bo'yicha belgilangan tartibda xarajatlar smetasi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

(88-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdaggi 545-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

89. Har bir ilmiy-tadqiqot loyihasi hamda hisobotlarni (oraliq va yakuniy) mustaqil ekspertlar tomonidan ilmiy ekspertizadan o'tkazilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'ları hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining yarmiga teng hajmda gonorar to'lanadi.

(89-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdaggi 545-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

90. Loyiha doirasida ajratilgan mablag'lar ilmiy izlanishlar olib borishga, shuningdek, ish haqidan tashqari, umumiyligi mablag'ning kamida 40 foizi ilmiy asbob-uskunalar, xomashyolar hamda boshqa zarur materiallarni xarid qilish va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bilan bog'liq boshqa xarajatlarga yo'naltirilishi lozim, bunda fundamental, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi loyihalarda mazkur miqdor 20 foizgacha kamaytirilishi mumkin.

(90-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdaggi 545-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **8<sup>1</sup>-bob. Davlat ilmiy dasturlari doirasida amalga oshiriladigan ilmiy loyihalar xarajatlarini rejallashtirish tartibi**

90<sup>1</sup>. Loyiha ilmiy rahbari boshqa joyga ishga o'tgan hollarda loyihaning amalga oshirilish joyi (ijrochi tashkilot) o'zgartirilmaydi.

90<sup>2</sup>. Xarajatlar kalkulatsiyasini tuzishda xarajatlarning umumiyligi moliyaviy hajmi loyiha bajarilishining butun davri uchun shu jumladan, har bir moliyaviy yil kesimida alohida jadvallarda ko'rsatiladi.

90<sup>3</sup>. Loyihalarni amalga oshirish uchun xarajatlar kalkulatsiyasi quyidagicha rejallashtiriladi:

ish haqi to'lovlar;

ish haqiga tenglashtirilgan to'lovlar;

yagona ijtimoiy to'lov;

boshqa xarajatlar shu jumladan, ilmiy xizmat safarlari xarajatlari hamda asosiy vositalarni sotib olish xarajatlari.

90<sup>4</sup>. Mehnatga haq to'lash fondini shakllantirishda:

loyihani bajarishda ishtirok etuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlari rahbar, ilmiy va ishlab chiqarish xodimlariga belgilangan tegishli bazaviy lavozim maoshlari asosida, yordamchi xodimlar mehnatiga haq to'lash tegishli normativlar hamda vaqtinchalik pudrat shartnomalari asosida hisoblangan ish haqi to'lovlar;

ish haqini mintaqaviy tartibga solish hisobiga, shu jumladan, cho'l, suvsiz va baland tog'li hududlarda ishslash uchun mintaqaviy koeffitsiyentlar bo'yicha qonunchilik hujjalarda

belgilangan to‘lovlar;

homiladorlik va tug‘ish davriga kasallik varaqasi bo‘yicha to‘lovlar (loyihani bajarishda qatnashuvchi tashqi o‘rindoshlarga tatbiq etilmaydi);

ilmiy xodimlar, ilmiy yordamchi va boshqa xodimlar uchun ish haqi fondiga kiritilgan va qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa to‘lov turlari loyihani bajarish uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida hisobga olinadi.

90<sup>5</sup>. Yagona ijtimoiy to‘lovlar ish haqi fondiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan miqdorda rejalashtiriladi.

90<sup>6</sup>. Safar xarajatlarida, loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi ilmiy va ilmiy yordamchi xodimlarning safar xarajatlari belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq aks ettiriladi.

Loyihalarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijrochi tashkilotlar ilmiy xodimlarining respublika doirasida hamda xorijiy xizmat safarlari tadbirlarda ishtirok etish uchun taqdim etilgan asoslovchi hujjatlar va loyihaning kalendar rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Xorijiy xizmat safarlari xarajatlarini to‘lash uchun milliy valyutani xorijiy valyutaga aylantirish qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

90<sup>7</sup>. Boshqa xarajatlarning har bir turi sarflanadigan mablag‘lar va ularning taqsimoti xarajatlar kalkulatsiyasida alohida jadvallarda asoslab ko‘rsatiladi. Xarajat turlari har bir loyihaning mazmuni va xususiyatidan kelib chiqib shakllantiriladi.

90<sup>8</sup>. Davlat budjeti hisobidan loyihalarni bajarish uchun ajratilgan mablag‘larning quyidagi xarajatlarga sarflanishi man etiladi:

bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash;

obyektlarni qo‘riqlash xizmati to‘lovlar;

transport vositalarini (maxsus transport vositalari bundan mustasno), hashamatli yumshoq mebellar va aksessuarlarni, uyali telefonlarni sotib olish xarajatlari, loyiha ijrochisi bo‘lmagan xodimlarning xizmat safarlari;

jamoat transporti, maxsus yo‘nalishli transport vositalari, idoraviy transport vositalarida ish joyiga qatnash uchun yo‘l haqini to‘lash;

davolanish va dam olish, ekskursiyalar va sayohatlar, sport seksiyalari, to‘garaklar, klublardagi tadbirlar, madaniy-ko‘ngilochar va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlariga tashriflar hamda shaxsiy iste’mol mollarini sotib olish xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan bazaviy moliyalashtiriladigan, shuningdek xodimlari mehnatiga haq to‘lash, bino va inshootlarni saqlash hamda joriy xarajatlarini qoplash O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan ijrochi tashkilotlarda ustama xarajatlar.

90<sup>9</sup>. Loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan moliyaviy mablag‘lar Kollegial organ qaroriga muvofiq Buyurtmachi buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

90<sup>10</sup>. Buyurtmachining Kollegial organ qaroriga muvofiq qabul qilingan buyrug‘i asosida davlat ilmiy dasturlarini bajarishga Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar smetasi doirasida ijrochi tashkilotlarga ajratilgan mablag‘lar belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida har bir ijrochi tashkilot uchun (uning barcha loyihalari bo‘yicha) ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i orqali moliyalashtiriladi.

90<sup>11</sup>. Loyihalar Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan faqat yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tashkilotlar orqali moliyalashtiriladi.

90<sup>12</sup>. Davlat ilmiy dasturlarini bajarish uchun Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar smetasi ijrochi tashkilotlar bo‘yicha barcha ilmiy loyihalarning umumiy summasi Budget tizimi budgetlari iqtisodiy xarajatlar tasnifining bir satrida — 42 99 990 (Tovar va xizmatlar sotib olish bo‘yicha boshqa xarajatlar) moddasi orqali aks ettirilgan holda tuziladi va moliyalashtiriladi.

90<sup>13</sup>. Loyihalarni Davlat budgetidan moliyalashtirishni muddatidan oldin to‘xtatish Ilmiy-texnik kengashning ushbu loyihalarni moliyalashtirishni davom ettirish maqsadga muvofiq

emasligi to‘g‘risidagi xulosalariga asosan Buyurtmachining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Buyurtmachining qaroriga asosan loyihalarni bajarish muddati uzaytirilishi hamda moliyalashtirish hajmiga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bunda uzaytirilgan muddatda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarining kalendar rejasiga qo‘sishimcha shartnoma bilan tasdiqlanadi.

90<sup>14</sup>. Loyihalarni moliyalashtirish muddatidan oldin to‘xtatilganda, loyiha uchun ajratilgan mablag‘larning foydalanilmagan qoldiq summasi ijrochi tashkilotlarning shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idan belgilangan tartibda chegiriladi.

To‘xtatilgan loyihalar shuningdek, tegishli moliya yilida loyihalar bo‘yicha sarf etilmagan mablag‘lar Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

90<sup>15</sup>. Loyihalarga ajratilgan mablag‘lar hisobidan xarid qilingan barcha asosiy vositalar ijrochi tashkilotlarning balansida qayd etiladi va ularning mulki hisoblanadi.

90<sup>16</sup>. Loyihalarni amalga oshirish uchun ajratilgan budget mablag‘laridan o‘z vaqtida va maqsadli foydalanish bo‘yicha javobgarlik ijrochi tashkilotlar rahbarlari va bosh hisobchilari, shuningdek, loyiha rahbarlari zimmalariga yuklatiladi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

90<sup>17</sup>. Loyihalarni amalga oshirish uchun ajratilgan budget mablag‘laridan maqsadli foydalanish bo‘yicha davlat moliyaviy nazorati qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

(90<sup>17</sup>-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdaggi 431-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.08.2022-y., 09/22/431/0716-son)

### **9-bob. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarini monitoring qilish**

91. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalari monitoringi ularning tasdiqlangan rejasiga ko‘ra bajarilishini, moliyaviy mablag‘larning maqsadga muvofiq sarflanishini, belgilangan muddatlarda hisobotlar taqdim etilishini va olingan natijalarning samaradorligini baholashni o‘z ichiga oladi.

Davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan ilmiy loyihalarning natijalari monitoringi Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

92. Ijrochi tashkilotlar Davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilgan loyihalarning hisobotlarini (oraliq va yakuniy) Buyurtmachiga shartnomalarda belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Sanoat hamkorlari ishtirokida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalari bo‘yicha tayyorlangan hisobotlar sanoat hamkorlari tomonidan ham tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

93. Buyurtmachi hisobotlarni qabul qiladi, shuningdek, davlat buyurtmasini bajarish bo‘yicha axborot va boshqa tahliliy materiallarni tayyorlaydi hamda tegishli ITKga taqdim etadi.

Hisobotlar va moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo‘yicha tahlil qilish, ko‘rib chiqish va fikr berish buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

94. Buyurtmachi fan yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-texnik kengashlar bilan birgalikda zarur hollarda mustaqil ekspert va mutaxassislarni jalg etgan holda, loyihalarning bajarilishi monitoringini amalga oshiradi.

Monitoring quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

taqdim etilgan hisobotlarni ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqish;

ITK yig‘ilishlarida ilmiy-tadqiqot loyihasi rahbari tomonidan hisobotlarni himoya qilish;

zarur hollarda loyihani bevosita joyiga chiqqan holda o‘rganish, bunda quyidagi asosiy jihatlarga e’tibor qaratish:

ilmiy-tadqiqot ishlarining loyiha bo‘yicha imzolangan shartnoma va uning kalendar rejasiga asosan bajarilish holati;

ijrochi tashkilot tomonidan ilmiy-texnik loyihaning amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilganligi;

ajratilgan moliyaviy mablag‘ning maqsadli sarflanayotganligi; ilmiy loyihalar natijalari bo‘yicha yetakchi xorijiy jurnallarda maqolalar chop etish borasida erishilgan natijalar va ularning mavjud salohiyatga nisbatan qiyosiy tahlili; har bir loyiha doirasida qo‘lga kiritiladigan yakuniy natijalar va ularni tijoratlashtirish imkoniyatlari.

95. Buyurtmachi tomonidan ijrochi tashkilot bilan kelishilgan holda oraliq hisobotlarni monitoring qilish hamda qabul qilish jarayonida, agar sanoat hamkor mavjud bo‘lsa, tadqiqot dasturiga va kelishuv shartlariga aniqliklar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

96. Belgilangan ishlarning alohida bosqichlarining rejallashtirilgan hajmlarini o‘z muddatida bajarmaslik, shuningdek, hisobotlarni topshirish muddatlarini va moliyaviy intizomni buzish Buyurtmachining tashabbusi bilan moliyalashtirishni to‘xtatilishiga va shartnomani bekor qilinishiga asos bo‘lishi va ijrochi tashkilotga nisbatan tegishli choralar ko‘rishga olib kelishi mumkin.

97. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari monitoringi natijalari bo‘yicha ITK xulosalari Buyurtmachi tomonidan ilmiy yo‘nalishlarning istiqbolini belgilash, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirishni davom ettirish yoki to‘xtatish bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

98. Ilmiy-tadqiqot loyihasini moliyalashtirishni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror kollegial organ tomonidan ITK xulosasi asosida yoki loyihani amalga oshiruvchi tashkilot talabiga binoan qabul qilinadi.

99. Agar kelishmovchilik yoki farqli natija ijrochi tashkilotga ma’lum bo‘lsa, bu haqda besh kun ichida buyurtmachiga ma’lum qilinishi kerak.

Buyurtmachi taqdim etilgan hujjatlar asosida (bildirishnoma, tadqiqot loyihalari to‘g‘risidagi hisobot), aniqlangan o‘zgarishlar yoki olingan natijalar kutilganidan o‘zgacha bo‘lsa, loyihalarini kelgusida moliyalashtirish yoki loyihaning maqsadli parametrlarini qayta rasmiylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Buyurtmachi taqdim etilgan hujjatlar (ariza-xabarnoma, hisobot ilmiy-tadqiqot loyihalari) asosida kutilgan natijalardan farqli o‘laroq, natijalar ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lmaganligi aniqlangan bo‘lsa, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirishni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Moliyalashtirilishi to‘xtatilgan loyihalardan bo‘shagan mablag‘lar mazkur loyihalar amalga oshirilgan ijrochi tashkilotda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan boshqa ilmiy loyiha(lar)ga (bunda loyihaning kalendar rejasiga qo‘shimcha mablag‘ hisobidan amalga oshiriladigan ishlarni nazarda tutgan holda o‘zgartirish kiritilishi lozim) yoki yangi istiqbolli amaliy va innovatsion loyiha(lar)ni, shu jumladan ijrochi tashkilot tomonidan tayyorlangan loyiha(lar)ni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Bunda yangi istiqbolli amaliy va innovatsion loyiha(lar)ni amalga oshirish muddati moliyalashtirilishi to‘xtatilgan loyiha(lar)ning yakunlanish muddati bilan mos bo‘lishi lozim.

Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan loyihalarning hisobotlari buyurtmachi tomonidan majbuliy elektron ro‘yxatga olinishi lozim.

## **10-bob. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot loyihalari natijalarini ro‘yxatga olish va hisobini yuritish tartibi**

100. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot loyihalari natijalari hujjatlashtiriladi va Buyurtmachiga shartnomaga muvofiq GOST 7.32-2001 davlatlararo standarti talablariga muvofiq tuzilgan tadqiqot hisoboti yoki ilmiy-texnik mahsulotlar shaklida taqdim etiladi.

101. Ilmiy-tadqiqot loyihalarining ijrochi tashkiloti tomonidan Buyurtmachiga quyidagilar taqdim etiladi:

ilmiy-tadqiqot loyihalari ijrochi tashkilotining rasmiy blankidagi yo‘llanma xati;

tadqiqot loyihalari haqida hisobot;

davlatlararo standart talablariga muvofiq tuzilgan GOST 7.9-95 “Xulosa va annotatsiya. Umumiyl talablar” referat.

102. Ilmiy-tadqiqot loyihalari natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot ilmiy-tadqiqot loyihalari ijrochi tashkiloti tomonidan tuzilgan referat shaklida davlatlararo standart GOST 7.9-95 talablariga muvofiq Buyurtmachining elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

103. Davlat buyurtmasi asosida to‘liq amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot loyihasini qabul qilish tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi, ular tomonlarning vakolatlari vakillari tomonidan imzolanadi va Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi.

### **11-bob. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari natijalariga bo‘lgan huquqlar**

104. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga ilmiy faoliyat subyektlari tomonidan olingan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquq davlatning ilmiy va oliv ta’lim, shuningdek, boshqa davlat muassasalari nomidan, agar intellektual mulk obyektlari muallif (mualliflari) bilan tuzilgan shartnomalarda boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlatga tegishli bo‘ladi.

105. Davlat ilmiy-tadqiqot va oliv ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan va intellektual mulk obyektlariga mutlaq egalik huquqidan olingan daromad ularning tasarrufiga mustaqil ishlatish huquqi bilan o‘tkazib beriladi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yoki davlat siri hisoblangan ma’lumotlarni qamrab oluvchi intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

*(105-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*

### **12-bob. Yakunlovchi qoidalar**

106. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarining (yosh olimlar loyihalari bundan mustasno) ilmiy rahbarlari ilmiy darajaga ega bo‘lishi shart.

Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarning har bir ijrochisi faqat bir loyihada to‘liq stavkada va ikki loyihada o‘rindosh sifatida ishtirok etishi mumkin, bunda ularning umumiy ulushi ikki to‘liq stavkadan oshmasligi lozim.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

107. Loyiha rahbarlari ijrochi tashkilotlarning rahbarlari bilan bir qatorda loyiha doirasida bajariladigan tadqiqotlarning ilmiy-texnik saviyasi, hisobotlarni belgilangan muddatlarda topshirilishi, shuningdek, molivaviy mablag‘larning samarali va maqsadli sarf qilinishi hamda tanlovga loyihalarni taqdim etishda unda keltirilgan ilmiy yangilik, nou-xau va g‘oyalarni ekspertiza jarayonlarida ochiq muhokamaga qo‘yishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida ijrochi tashkilot vakolatlari tuzilmasining (xizmatining) xulosasini ilova qilinishiga shaxsan javobgar bo‘ladi.

*(107-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdaggi 545-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)*

108. Ijrochi tashkilot loyihalarni amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadi, hisobotlarni ilmiy yoki ilmiy-texnik kengashda muhokama qiladi, loyiha rahbarining taklifiga ko‘ra, tadqiqotlarning sifatli bajarilishini ta’minalash uchun “vaqtinchalik ilmiy jamaoa” tashkil etadi. Jamaoga boshqa tashkilotlarning xodimlari ham a’zo bo‘lishi mumkin. Tashkilot rahbari loyiha rahbarini jamaoa rahbari etib tasdiqlaydi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

109. Ijrochi tashkilot loyiha ilmiy rahbari uzoq muddatga betobligi sababli ish qobiliyatini yo‘qotgan, doimiy istiqomat qilish uchun respublikadan chetga chiqib ketgan, o‘z arizasiga ko‘ra ilmiy rahbarlikdan voz kechgan yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda, Buyurtmachiga loyiha ilmiy rahbarini almashtirish bo‘yicha taklif (tashkilot rahbarining yo‘llanma xati, tashkilot ilmiy yoki ilmiy-texnik kengashi qaroridan ko‘chirma va tavsiya etilayotgan yangi loyiha rahbari to‘g‘risida ma’lumot) kiritadi.

*(109-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*

110. Loyerha ilmiy rahbari boshqa joyga ishga o'tgan hollarda ushbu loyihaning amalga oshirilish joyi (ijrochi tashkilot) o'zgartirilmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

111. Ijrochi tashkilotning qonunchilik hujjalardan ko'rsatilgan faoliyati to'xtatilganda, faoliyati to'xtatilgan tashkilotdagi loyihamiyo'nalishi mos boshqa tashkilotga o'tkaziladi.

*(111-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*

112. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida yosh olimlarning ilmiy loyihamiyo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Yosh olimlarning ilmiy-tadqiqot loyihamiyo'nalishi ilmiy darajasi, unvoni, mansabi va ish joyidan qat'i nazar, 40 yoshgacha bo'lgan yosh olimlar ishtirok etishlari mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

113. Ushbu qoida talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjalardan belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

*(113-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*

114. Davlat buyurtmasi bajarilishini aniq shartlari va tartibi tegishli shartnomaga bilan tartibga solinadi.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi to'g'risidagi nizomga

1-ILOVA

**Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida tematik ilmiy-tadqiqot loyihamalarini  
shakllantirish tartibi**  
SXEMASI

Босқичлар	Субъектлар
1-босқич	Инновацион ривожланиш вазирлиги (кейинги ўринларда Буюртмачи деб аталади)
2-босқич	Давлат бошқаруви органлари, хўжалик бирлашмалари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, илмий фаолият субъектлари
3-босқич	Буюртмачи
4-босқич	Буюртмачи
5-босқич	Илмий-техник кенгашлар
6-босқич	Коллегиал орган (Инновацион ривожланиш вазирлигининг ҳайъати)
7-босқич	Инновацион ривожланиш вазирлигининг Жамоатчилик кенгаши, Коллегиал орган
8-босқич	Коллегиал орган (Инновацион ривожланиш вазирлигининг ҳайъати)

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi to‘g‘risidagi nizomga  
2-ILOVA

**Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalarini  
shakllantirish tartibi  
SXEMASI**

**Босқичлар****Субъектлар****Амалга ошириладиган тадбирлар****1-босқич**

Давлат бошқаруви органлари, хўжалик бирлашмалари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари; Буюртмачи

Ўзбекистон Республикаси Президенти  
Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси  
ва Вазирлар Маҳкамасининг хужжати  
қабул қилинганидан кейин мақсадли илмиy-тадқиқот лойиҳалари бўйича таклиф  
Буюртмачига тақдим этади

**2-босқич**

Буюртмачи

- Қабул қилинган мақсадли илмиy-тадқиқот лойиҳаларини дастлабки тегишидан ўтказади.
- Лойиҳа хужжатлари бўйича дастлабки техник экспертизанинг:
  - ижобий хуносаси бўлган тақдим этилган хужжатлар тўплами илмиy-экспертизанинг ўтказиш учун тегишили илмиy-техник кенгашга юборади;
  - салбий хуносаси бўлган тақдирда хакида лойиҳани тақдим этган муассаса камчиликларни бартараф этиш учун равишда маълум қиласида.
 Бунда агар белгиланган муддатни кўрсатилган камчиликлар бартараф этилмаса, лойиҳа кўриб чиқиш жараён олиб ташланади.

**3-босқич**Илмиy-техник  
кенгашлар

- Тақдим этилган мақсадли илмиy-тадқиқот лойиҳаларини дастлабки тегишидан ўтказади.
- Илмиy-экспертиза натижаларини Коллегиал органга кўриб чиқиш тақдим этади.

**4-босқич**

Коллегиал орган  
(Инновацион  
ривожланиш  
вазирлигининг  
ҳайъати)

Молиялаштиришга тавсия этилган мақсадли илмиy-тадқиқот лойиҳаларни кўриб чиқиб, уларни молиялаштириш бўйича қарор қиласида

Коллегиал орган йиғилишида мақсадли илмиy-тадқиқот лойиҳаларни молиялаштириш билан боғлиқ мунозаси саволлар вужудга келса, ушбу мақсадли илмиy-тадқиқот лойиҳаларни молиялаштириш ёки молиялаштиришни киритилиши мумкин.

Инновацион

Мақсадли илмиy-тадқиқот лойиҳаларни молиялаштириш ёки молиялаштиришни киритилиши мумкин.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi to‘g‘risidagi nizomga  
3-ILOVA

**Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida tashabbuskor ilmiy-tadqiqot  
loyihalarini shakllantirish tartibi  
SXEMASI**

Босқичлар	Субъектлар	Амалга ошириладиган тадби
1-босқич	Инновацион ривожланиш вазирлиги (кейинги ўринларда Буюртмачи деб аталади)	Устувор йўналишларга мувофиқ тақдим этади.
2-босқич	Давлат бошқаруви органлари, хўжалик бирлашмалари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, илмий фаолият субъектлари, хусусий компаниялар ва жисмоний шахслар	Ташаббускор илмий-тадқиқот эълонига мувофиқ лойиҳаларни тақдим этади. Илмий-тадқиқот лойиҳалари бўйича талабномаларини Буюртмачи белгиланган талаблар ва шаклларга мувофиқ тақдим этади.
3-босқич	Буюртмачи	<p>1. Қабул қилинган ташаббускор илмий-тадқиқот лойиҳаларини дастлабки техник эканлигини ўтказади.</p> <p>2. Лойиҳа хужжатлари бўйича дастлабки экспертизанинг:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– изобий хуносаси бўлган тақдирда, тўплами илмий экспертизани ўтказиш учун илмий-техник кенгашга юборади;</li> <li>– салбий хуносаси бўлган тақдирда, лойиҳани тақдим этган муассасага камбартараф этиш учун ёзма равишда маълумат беради. Бунда агар белгиланган муддатда илмий-техник кенгашлар бартараф этилмаса, лойиҳанинг жараёнидан олиб ташланади.</li> </ul>
3-босқич	Илмий-техник кенгашлар	<p>1. Тақдим этилган ташаббускор илмий-тадқиқот лойиҳаларини илмий экспертизадан ўтказади.</p> <p>2. Илмий экспертиза натижаларини органга кўриб чиқиш учун тақдим этади.</p>
4-босқич	Коллегиал орган (Инновацион ривожланиш вазирлигининг ҳайъати)	<p>Молиялаштиришга тавсия этилган ташаббускор илмий-тадқиқот лойиҳаларини кўриб чиқиш учун тақдим этади.</p> <p>Коллегиал орган йиғилишида лойиҳанинг молиялаштириш билан боғлиқ мунозара вужудга келса, ушбу масала Жамоатчилик кенгашига кўриб чиқиш учун киритилишини тақдим этади.</p>
5-босқич	Инновацион ривожланиш вазирлигининг Жамоатчилик кенгashi.	<p>Ташаббускор илмий-тадқиқот лойиҳаларини кўриб чиқиш учун тақдим этади.</p> <p>Коллегиал орган йиғилишида лойиҳанинг молиялаштириш ёки молиялаштиришини тақдим этади.</p>

**“Startap” loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom “startap” loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**ilmiy-texnik kengash** — ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha Buyurtmachining ilmiy siyosatini amalga oshirishga va ishlab chiqishga, “startap” loyihalarni baholashga, ekspertiza qilishga va natijalarini amalga oshirish ishlarini monitoring qilishga ko‘maklashuvchi, o‘z faoliyatini jamoatchilik assosida amalga oshiruvchi, yetakchi olimlar, ekspertlar, mutaxassislar hamda davlat organlarining yuqori malakali mutaxassislaridan iborat tarkibdagi ilmiy-texnik jamoa;

*Oldingi tahrirga qarang.*

**ishchi organ** — “startap” loyihalarni baholashda texnik ta’minlash va ko‘maklashishni, shuningdek, loyihalar monitoringini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining mas’ul tarkibiy bo‘linmasi;

(2-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-sunli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-sun)

**kollegial organ** — O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hay’ati;

**“startap” kompaniya** — ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat natijalarini ilgari surish hamda tijoratlashtirish uchun tashkil etiladigan yuridik shaxs;

**“startap” loyihalar** — amalga oshish xavfi yuqori bo‘lgan sharoitda yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratuvchi innovatsion ishlanmalarning qo‘llanilishi, ko‘lami va tez o‘sish sur’ati bilan farqlanadigan yangi biznes loyiha;

**talabnama beruvchi (talabgor)** — loyiha egasi va/yoki “startap” loyihani ishlab chiqqan shaxs.

*Oldingi tahrirga qarang.*

3. Ushbu Nizomga muvofiq tasdiqlangan “startap” loyihalar Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) orqali moliyalashtiriladi.

(3-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-sunli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-sun)

“Startap” loyihalar quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-sun qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan Jamg‘arma ajratilgan mablag‘lar;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga ajratilgan mablag‘lar;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qonunchilik hujjalarda taqilganmagan boshqa manbalar.

(3-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sunli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-sun)

4. “Startap” loyihalar tanlovini e’lon qilish O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (keyingi o‘rinlarda Buyurtmachi deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Buyurtmachi e’longa muvofiq talabnama beruvchi tomonidan topshirilgan “startap” loyihalarni xo‘jalik birlashmalariga, tijorat banklariga va venchur jamg‘armalarga kelgusida moliyalashtirish masalasini ko‘rib chiqish uchun tavsiya qilish huquqiga ega.

6. “Startap” loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish mazkur Nizomga ilova qilingan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

## **2-bob. “Startap” loyihalarni tasdiqlash tartibi**

7. Buyurtmachi “startap” loyihalarga bir yilda kamida ikki marta e’lon beradi. E’lon shartlari, yo‘nalishlari hamda loyihalarni topshirish muddatları Buyurtmachining rasmiy saytida va zarur hollarda boshqa ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

Loyiha hujjatlarini qabul qilish ishchi organ tomonidan amalga oshiriladi. Loyihalar bo‘yicha hujjatlar talabnoma beruvchi tomonidan e’lon talablariga ko‘ra tayyorlanadi va topshiriladi.

8. “Startap” loyihalar tanlovida tashkiliy-huquqiy shaklidan va idoraviy mansubligidan qat’i nazar barcha ilmiy-tadqiqot va oliv ta’lim muassasalari, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, innovatsion markazlar, xususiy kompaniyalar va jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

9. “Startap” loyihalar ekspertizasi quydagicha uch bosqichda amalga oshiriladi:

**birinchi bosqich** — taqdim etilgan talabnomalarning tanlov shartlariga mosligi yuzasidan o‘tkaziladigan texnik ekspertiza;

**ikkinchi bosqich** — texnik ekspertizadan o‘tgan “startap” loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasi;

**uchinchi bosqich** — birinchi va ikkinchi bosqichlardan muvaffaqiyatlari o‘tgan “startap” loyihalarni ilmiy-texnik kengash tomonidan ekspertizadan o‘tkazish, ilmiy-texnik kengash majlisida ko‘rib chiqish va baholash.

10. Texnik ekspertiza ishchi organ tomonidan o‘n ish kuni ichida o‘tkaziladi.

Texnik ekspertizadan o‘tgan “startap” loyihalar besh ish kuni ichida moliyaviy-iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazish uchun Buyurtmachining Moliyaviy-iqtisodiy va texnik ekspertiza bo‘limiga beriladi.

“Startap” loyihalar bo‘yicha moliyaviy-iqtisodiy ekspertiza besh ish kuni ichida o‘tkaziladi.

11. “Startap” loyihalar bo‘yicha ekspertiza o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan maxsus ilmiy-texnik kengash shakllantiriladi.

Ilmiy-texnik kengash tarkibiga innovatsion tadbirkorlik, moliya va iqtisodiyot sohasida yuqori salohiyatli tadbirkorlar, olimlar, ekspertlar, vazirlik va idoralar vakillari kiritiladi.

12. Har bir “startap” loyiha ilmiy darajaga yoki tadbirkorlik tajribasiga ega bo‘lgan ikkita mustaqil ekspertlar tomonidan o‘n ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi. Ekspertlar tarkibi ilmiy-texnik kengash tomonidan belgilanadi. “Startap” loyiha ijrochisining o‘zi ishtirok etgan loyihada ekspert bo‘lib ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Taqdim etilgan “startap” loyihalar ekspertlar tomonidan 100 ballik shkala asosida baholanadi. “Startap” loyihalarni baholash mezonlari va metodikasi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi.

14. Ekspertlar tomonidan berilgan xulosa o‘n ish kuni ichida ilmiy-texnik kengashda o‘zaro ochiq muhokama shaklida ko‘rib chiqiladi.

15. Talabnoma beruvchi (talabgor) ilmiy-texnik kengash majlisida “startap” loyiha taqdimoti bilan ishtirok etadi.

16. Ilmiy-texnik kengashda “startap” loyihalar quydagi mezonlar asosida baholanadi:

loyihaning innovatsionligi — avval qo‘llanilmagan texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkil etish prinsiplari yoki avval ishlab chiqarilmagan mahsulotning yangi qo‘llanilish darajasi;

loyihaning investitsiyaviy jozibadorligi — qo‘srimcha daromad keltiradigan hamda uni amalga oshirishda investitsiyalar xavfini kamaytiradigan qulay investitsion va innovatsion sharoitlar va afzalliklar yig‘indisi;

intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqning muhofazalanganligi — muhofaza hujjatlari, va/yoki ilmiy-texnik hujjatlarning to‘liq komplekti va/yoki mahsulotning (texnologiyaning) texnik reglamenti, sinov o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar yoki mahsulotning tajriba nusxasi mavjudligi;

loyihaning resurs bilan ta’milanganligi — loyihani texnik amalga oshirish imkoniyatlari (moddiy-texnik baza, xodimlar, muhofaza hujjatlari mavjudligi va boshqalar);

loyihani amalga oshirish samaradorligi;

loyiha uchun ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi, eksportga yo‘naltirilgan yoki import o‘rnini bosadigan ilmiy hajmdor mahsulotlarni olishni tashkil qilish istiqbollari.

17. Ilmiy-texnik kengash ekspert xulosalari va ochiq muhokama natijalari asosida “startap” loyihalarni moliyalashtirish yoki moliyalashtirmaslik yuzasidan qaror qabul qiladi.

18. Ilmiy-texnik kengash qarorlari va xulosalari ilmiy-texnik kengash yig‘ilishi bayoni shaklida rasmiylashtiriladi hamda ilmiy-texnik kengash kotibi tomonidan imzolanadi va uning raisi tomonidan tasdiqlanadi.

19. Ilmiy-texnik kengash a’zosi baholash jarayonida ko‘pchilikning fikriga qo‘shilmasa, o‘zining alohida fikrini bildirishga haqli. Ilmiy-texnik kengash a’zosining alohida fikri yig‘ilish bayonnomasiga kiritiladi.

20. Ilmiy-texnik kengash ekspertizasining natijalari ishchi organ tomonidan besh ish kuni davomida kollegial organga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi. Kollegial organ “startap” loyiha to‘g‘ri va xolis ekspertizadan o‘tkazilganligini tekshirish maqsadida qo‘shimcha ekspertiza tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Qo‘shimcha ekspertiza o‘tkazish tartibi kollegial organ tomonidan tasdiqlanadi.

21. Kollegial organ har bir “startap” loyihani ilmiy-texnik kengash raisi yoki uning o‘rinbosari ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Kollegial organ tomonidan “startap” loyihani moliyalashtirish yoki moliyalashtirmaslik to‘g‘risidagi qarori qabul qilinadi va Vazir tomonidan tasdiqlanadi.

22. “Startap” loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha kollegial organ majlisida munozarali holat yuzaga kelsa, “startap” loyiha ilmiy-texnik kengash raisi ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashiga (keyingi o‘rinlarda Jamoatchilik kengashi deb ataladi) ko‘rib chiqishga kiritilishi mumkin.

23. Jamoatchilik kengashi bir oy muddat ichida “startap” loyihani moliyalashtirish yoki moliyalashtirishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Jamoatchilik kengashining qarori tavsiyaviy ahamiyatga ega.

### **3-bob. Loyihalarni moliyalashtirish tartibi**

24. “Startap” loyihalarni moliyalashtirish kollegial organ qarori va Buyurtmachining buyrug‘iga muvofiq amalga oshiriladi.

25. “Startap” loyihalarni moliyalashtirish Buyurtmachi, talabnama beruvchi (talabgor) va Jamg‘arma o‘rtasida tuziladigan shartnomalar shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

26. Agar davlat muassasasi yoki jismoniy shaxs tomonidan berilgan “startap” loyiha kollegial organ tomonidan ma’qullansa, u holda moliyalashtirish to‘g‘risidagi shartnomalar ushbu “startap” loyihani amalga oshirish uchun ochilgan yuridik shaxs (kompaniya) bilan tuziladi.

27. Moliyalashtirilayotgan “startap” loyihalar ijrochi tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg‘or texnologiyalar markazi, Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markazi yoki “Yashnobod” innovatsiya texnoparki rezidenti maqomini olish huquqiga ega.

### **4-bob. “Startap” loyihalarni amalga oshirish jarayonini monitoring qilish tartibi**

28. “Startap” loyihalarning ijrochi tashkilotlari kalendar rejada belgilangan muddatlarda Buyurtmachiga hisobot taqdim etadi.

29. “Startap” loyihalarni amalga oshirish jarayonini monitoring qilish ilmiy-texnik kengashni jalb qilgan holda, ishchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ishchi organ besh ish kuni muddatida monitoring natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan hisobotni Buyurtmachiga taqdim qiladi.

30. “Startap” loyihalarda belgilangan muddatda rejalashtirilgan ishlar bajarilmaganligi hamda loyihalar bo‘yicha hisobotlarni taqdim etish bo‘yicha muddatlar buzilishi moliyalashtirishni to‘xtatish, shuningdek, “startap” loyiha ijrochisi va Buyurtmachi o‘rtasidagi shartnomani bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

### **5-bob. Yakunlovchi qoida**

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

31. Ushbu Nizom qoidalarini buzishda ayblangan shaxslar qonunchilik hujjatlarida

belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

(31-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

32. Startap loyihasiga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishga talabnomha beruvchi (talabgor) va ijrochi tashkilot rahbari javobgardirlar.

(32-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdaggi 545-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)

“Startap” loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga

ILOVA

**“Startap” loyihalarini tasdiqlash va moliyalashtirish tartibining  
SXEMASI**

Босқичлар	Субъектлар	Амалга ошириладиган тадбирлар
1-босқич	Инновацион ривожланиш вазирлиги (кейинги ўринларда – Буюртмачи)	Истиқболли «стартап» лойиҳаларга зона бу ҳақда ўзининг расмий веб-сайти ҳолларда бошка оммавий ахборот восита килади.
2-босқич	Давлат бошқаруви органлари, хўжалик бирлашмалари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, илмий фаолият субъектлари, хусусий компаниялар ва жисмоний шахслар	«Стартап» лойиҳалар эълонига мувофиқ тақдим этади.
3-босқич	Буюртмачи	Тақдим этилган «стартап» лойиҳаларни экспертизасини амалга ошириш учун тақдим этилган талабномаларнинг танлов шархи эканлиги юзасидан техник ва молият экспертизадан ўтказади.
4-босқич	Илмий-техник кенгаш	Экспертизадан ўтказади, экспертиза таҳдил килади ва Буюртмачига кўриб чиқиш этади.
5-босқич	Коллегиал орган (Инновацион ривожланиш вазирлигининг ҳайъати)	«Стартап» лойиҳаларни молиялаштиришга карор қабул килади. «Стартап» лойиҳаларни молиялаштиришга мунозарали саволлар вужудга келса, Жамоатчилик кенгашига кўриб чиқиш учун мумкин.
6-босқич	Жамоатчилик кенгаси	Коллегиал орган мажлисида мунозарали вужудга келган «стартап» лойиҳани молиялаштиришни рад этиш тўғрисидан аҳамиятта эга карор қабул килади.
7-босқич	Буюртмачи	Ижобий баҳолангандан молиялаштириш этилган «стартап» лойиҳаларнинг якуни тасдиқлайди.

## Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagи 133-son qaroriga 3-JILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashlar to'g'risida**  
**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (keyingi o'rinnarda Buyurtmachi deb ataladi) huzuridagi Ilmiy-texnik kengashlar (keyingi o'rinnarda ITK deb ataladi) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

2. ITK o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi** va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, ushbu Nizom, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

*(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-soni)*

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniadi:

**ilmiy-texnik kengash** — Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida ilmiy loyihalarni ilmiy ekspertizadan o'tkazish maqsadida tegishli fan yo'naliishlari bo'yicha sohaga oid olimlar, davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislaridan iborat tarkibda shakllantiriladigan va jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan ilmiy-texnik jamoa;

**ilmiy ekspertiza** — ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha asoslantirilgan qaror qabul qilish maqsadida uni o'rganish, tahlil qilish, baholash va xulosa tayyorlashga qaratilgan faoliyat;

**ekspertlar** — tegishli ilm-fan sohalari va yo'naliishlari bo'yicha taqdim etilgan ilmiy-texnik loyihalarni, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat bilan bog'liq hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish uchun ilmiy-texnik kengashlar tomonidan shakllantirilgan olim va mutaxassislardan tarkib topgan ilmiy-texnik guruh.

4. ITK tomonidan qabul qilingan qarorlar xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlar bo'lib, uchinchi shaxslarga, manfaatdor vazirlik va idoralar rahbarlariga, shu jumladan loyiha rahbarlariga taqdim etilmaydi.

**2-bob. ITKnинг asosiy vazifalari va funksiyalari**

5. ITKnинг asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ilmiy-tadqiqot ishlari uchun davlat buyurtmasiga kelib tushgan ilmiy-tadqiqot loyihalarining ekspertizasini tashkil etish, ekspertiza natijalari bo'yicha asoslangan xulosalar ishlab chiqish;

fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, innovatsion faoliyat va raqobatbardosh ilmiy-texnik mahsulotlar bozorini kengaytirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha, shuningdek, tegishli tanlovlarda ularning ishtiroki uchun tavsiyalar berish;

Buyurtmachiga ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini (zarur hollarda xalqaro hamkorlik dasturlarini) ko'rib chiqish, takomillashtirish, ro'yxatga olish va tasdiqlash bo'yicha tegishli ilmiy-texnik xulosalar tayyorlash;

nodavlat notijorat tashkilotlari, olim va mutaxassislar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, ilmiy-ishlab chiqarish tuzilmalari, ilmiy-texnik markazlar va texnoparklar tomonidan taqdim etilgan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish natijalari asosida Buyurtmachiga xulosa va tavsiyalar kiritish;

davlat buyurtmasi doirasida mualliflik asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarining plagiatiini aniqlash va identifikatsiyalash;

oraliq va yakuniy hisobotlarni tahlil qilish, har bir ilmiy-tadqiqot loyihasi amalga oshirilishini monitoring qilish yoki loyihalarni tugatish, istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish va loyihalarni moliyalashtirishni davom ettirish bo'yicha Buyurtmachiga xulosalar kiritish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada ilmiy-tadqiqot hamda innovatsion faoliyat natijalarini ko'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish va kiritish;

Buyurtmachining kollegial organida ko'rib chiqish uchun ishlab chiqilgan dasturlarning

ekspert xulosalarini tahlil qilish va tayyorlash;

ilmiy-tadqiqot va oliv ta'lim muassasalaridagi obyektlarni noyob ilmiy obyektlar ro'yxatiga kiritish yuzasidan xulosa ishlab chiqish;

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari va loyihalarning amalga oshirilishini monitoring qilish, ularning natijalarini ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalariga tatbiq etishda ishtirok etish, olib borilayotgan tadqiqotlarni yaxshilash va faollashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

6. ITK unga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat buyurtmasi doirasidagi ilmiy faoliyatga oid loyihalar, shuningdek Buyurtmachi tomonidan moliyalashtiriladigan "startap" loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazadi;

grant mablag'lari olgan loyihalarni amalga oshirish davomida olingen natijalar to'g'risidagi hisobotlarni eshitadi, grant mablag'lari olgan loyihalarni rejalashtirilgan ish bosqichlari va ko'rsatkichlariga muvofiqligini aniqlaydi, zarur hollarda rejalashtirilgan tadqiqotlarni tartibga solish va kerakli natijalarini olish bo'yicha tavsiyalar beradi;

grant mablag'lari olgan loyihalarni amalga oshirish davomida olingen natijalar monitoringini amalga oshiradi, shuningdek, ularni patentlash va litsenziyalash va ushbu loyihalar bo'yicha hisobotlarni monitoring qilish yuzasidan tavsiyalar beradi;

mamlakatni ilmiy-texnik va innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli konsepsiyasini ishlab chiqishga takliflar tayyorlaydi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarni yaratishning ustuvor yo'naliishlari va istiqbollarini rivojlantirish, yaratilgan ilmiy-innovatsion salohiyat asosida rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish yo'llari va mexanizmlarini belgilashda ishtirok etadi;

davlat buyurtmasi doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ilmiy-texnik dasturlar va loyihalarni, shuningdek, boshqa loyiha takliflarini ilmiy ekspertizadan o'tkazadi hamda ekspertiza natijalarini Buyurtmachining kollegial organiga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

7. Ilmiy loyihalarning ilmiy ekspertizasi fan yo'naliishlari bo'yicha tegishli ITK tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ilmiy ekspertiza muddati Buyurtmachi tomonidan ITKga loyiha yuborilgan sanadan boshlab bir oydan oshmasligi lozim.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

8. Ilmiy loyihalarning ilmiy ekspertizasining ikkinchi bosqichi bir oy mobaynida amalga oshiriladi. Bunda loyiha bo'yicha qo'shimcha ekspertiza o'tkazilishi talab etiladigan hollarda ushbu muddat Buyurtmachi bilan kelishilgan holda yana ikki oygacha uzaytirilishi mumkin. ITK tomonidan qabul qilingan qarorlar Buyurtmachiga besh kun ichida taqdim etiladi.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdaggi 545-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-soni)

9. ITK tomonidan taqdim etilgan monitoring va hisobot natijalari ekspertizadan o'tgan loyihani moliyalashtirishni davom ettirish, to'xtatish yoki vazifalari va bosqichlarini qayta ko'rib chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

#### **3-bob. ITK raisi va a'zolarining huquqlari, majburiyatları va javobgarligi**

10. ITK raisi quyidagi huquqlarga ega:

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarining yillik va yakuniy hisobotlarini ekspertiza uchun qabul qilish, ekspertlarni belgilash, hisobotlarning ochiq muhokamasini tashkil etish;

monitoringni o'tkazish qoidalari bo'yicha ekspertlarga ko'rsatma berish, olingen natijalarning muvofiqligini baholash bo'yicha ishchi uchrashuvlar o'tkazish;

loyiha rahbarlarining hisobotlarini eshitish uchun loyihalarni ko'rib chiqish jadvalini shakllantirish va zarur hollarda uning sanasi va vaqtini Buyurtmachi bilan kelishilgan holda ko'chirish;

ilmiy-tadqiqot loyihalariga davlat buyurtmasini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ITK va uning ekspertlar faoliyatiga, shuningdek, ilmiy kotibning ishiga rahbarlik qilish;

Buyurtmachining kollegial organi yoki jamoatchilik kengashi muhokamalarida ishtirok etish va ITK xulosalarini asoslab berish.

ITK raisi va uning o‘rbinosari ilmiy loyihalar tanlovida ishtirok etish huquqiga ega, ammo o‘z loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish va muhokama qilishda ishtirok etmaydi.

11. ITK raisi:

ekspertiza natijalarini ochiq e’lon qilmaslik, ekspertiza uchun taqdim etilgan loyihalarga tegishli ma’lumotlarni tarqatmaslik;

monitoring o‘tkazish qoidalari bo‘yicha ekspertlarga ko‘rsatma berish, olingen natijalarning rejalashtirilgan ishlar va ko‘rsatkichlarga muvofiqligini baholash, shuningdek, namunaviy ekspert xulosalari va protokollarini to‘ldirish bo‘yicha ishchi yig‘ilishlar o‘tkazish;

Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ITK majlislar reja-jadvali bo‘yicha loyiha rahbarlarining hisobotlarini eshitish va muhokama qilish, loyihalar bo‘yicha eshitilgan hisobotlar bo‘yicha qarorlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish va ularni tasdiqlash;

loyihani davom ettirish bo‘yicha Buyurtmachiga tavsiyalar bilan birga ish dasturini to‘g‘rilash yoki ularni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilish, shuningdek, ITK tomonidan qabul qilingan qarorlarni loyiha rahbarlariga yetkazish;

Buyurtmachining kollegial organida va jamoatchilik kengashida (zarur hollarda) ITKnинг qarorlari va ilmiy-tadqiqot loyihalari bo‘yicha tavsiyalarni (xulosalarni) himoya qilishga majbur.

ITK raisi ITK qarorlarining bajarilishini nazorat qiladi va kengashning navbatdagi majlislari to‘g‘risida ITK a’zolarini xabardor qiladi.

12. ITK a’zolari (ekspertlar) quyidagi huquqlarga ega:

o‘zлари a’zo bo‘lgan ITK yig‘ilishlarida ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi bo‘yicha kelib tushgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish;

ilmiy-tadqiqot loyihalarining ilmiy-texnik darajasini, ularni amalga oshirish imkoniyatlarni xolis baholash, ularni moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi va hajmi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

hisobot davrida olingen ilmiy natijalarning ahamiyatini baholash, loyihada e’lon qilingan va hisobot davrida olingen ilmiy natijalarning muvofiqlik darajasini baholash;

ilmiy-tadqiqot loyihalari rahbarlarining ishlar holati va loyiha natijalari, ularni monitoring qilish jarayoni haqidagi hisobotlarini eshitish va muhokama qilishda ishtirok etish, ular ishida ishtirok etgan ITK bayonnomalari bilan tanishish;

ilm-fan, texnika va innovatsiya sohasidagi olimlar va mutaxassislarni tegishli ilmiy loyihalar natijalarini monitoring qilish yoki tahlil qilish jarayoniga jalb qilish bo‘yicha Buyurtmachiga takliflar kiritish.

ITK a’zolari ilmiy loyihalar tanlovida umumiy assoslarda ishtirok etish huquqiga ega, lekin o‘z loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish va muhokama qilishda ishtirok etmaydi.

13. ITK a’zolari (ekspertlar):

rais va uning o‘rbinosarining ITK faoliyatiga taalluqli topshiriqlarini bajarishi, ko‘rib chiqilgan loyihalar bo‘yicha xulosalarni o‘z vaqtida taqdim etishi;

loyihalar bo‘yicha ekspertizani ilmiy asoslangan holda va xolis o‘tkazishi;

ish jarayonida ularga taqdim etilgan ma’lumotlarning oshkor etmasligi;

ekspertiza jarayonida yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvi haqida tegishli ITKga xabar berishi;

o‘zлари ekspertiza qilgan yoki ITKda muhokama qilingan loyihalar mazmuni, ular bo‘yicha hisobotlar va yig‘ilish bayonnomalari, ularning natijalari va tadqiqot yo‘nalishlari, ekspert xulosalari, loyiha manbalari va moliyalashtirish hajmi haqida loyiha ijrochilar tarkibiga kiruvchi har qanday shaxsga ma’lumot bermasligi shart.

14. ITK ilmiy kotibi:

har bir loyiha bo‘yicha ITK majlisi bayonnomasini yuritadi va rasmiylashtiradi;

loyihalar bo‘yicha hisobot hujjatlarini qabul qilib oladi, saqlanishini va Buyurtmachiga

qaytarilishini ta'minlaydi;

loyiha rahbarlarining hisobotlarini eshitish jadvalini tuzadi va tasdiqlash uchun ITK raisiga taqdim etadi;

ITK a'zolariga ITK majlisi vaqtini va joyi to'g'risida xabar beradi;

ITK raisi va uning o'rinnbosarining ITK faoliyatiga oid topshiriqlarini bajaradi.

ITK ilmiy kotibi umumiy asosda ilmiy loyihamalar tanlovida ishtirok etish huquqiga ega, lekin o'z loyihamalari muhokama qilishda ishtirok etmaydi.

15. ITK a'zolari (ekspertlar) o'zlariga yuklangan majburiyat va vazifalarni bajarish uchun mas'uldir.

ITK a'zolari (ekspertlar) tomonidan ekspertizadan o'tkazish tartibi muntazam ravishda buzilishi, o'z vazifalarini bajarmaslik, malakasizligi va manfaatlar to'qnashuv haqida xabar bermaslik holatlari aniqlangan taqdirda, ular ITK a'zoligidan chiqariladi.

#### **4-bob. ITK faoliyatini tashkil etish**

16. ITK faoliyatini tashkil etish va tugatish, tashkiliy-texnik qo'llab-quvvatlash hamda muvofiqlashtirish Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

ITK tarkibi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi va uning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

ITK faoliyatiga ekspert sifatida nomzodlar ilmiy faoliyatning tegishli sohasidagi zarur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar orasidan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, vazirlik va idoralar, ular tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot va olyi ta'lim muassasalari tomonidan tavsiya etiladi.

17. Tanlov uchun taqdim etilgan ilmiy-texnik loyihamalar tegishli ITK yig'ilishlarida loyihamalari ekspertizadan o'tkazish natijalari asosida ochiq muhokama orqali ko'rib chiqiladi.

18. ITK rais, rais o'rinnbosari, ilmiy kotib va uning a'zolaridan iborat bo'lib, ular sohalarga tegishli loyihamalar bo'yicha mutaxassis-ekspertlar sifatida ham ishtirok etishlari mumkin. ITK a'zolari va ekspertlar ITK faoliyatida ixtiyoriy ravishda jamoatchilik asosida ishtirok etish uchun jalb qilinadi.

ITK raisi bo'lmaganda, uning vazifalarini rais o'rinnbosari bajaradi.

19. Buyurtmachi ITK a'zolari va ekspertlar tarkibini muntazam ravishda almashtirib turadi. Bunda oldin ITK a'zosi sifatida faoliyat yuritgan mutaxassislar uch oydan so'ng ushbu ITK tarkibga qayta jalb qilinishi mumkin. Har uch oyda ITK a'zolarining o'ttiz foizigacha hamda har to'qqiz oyda ITK raisi va uning o'rinnbosarlari yangilab boriladi.

20. ITK ilmiy tadqiqotlarning quyidagi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tuziladi:

tarix va ijtimoiy fanlar;

filologiya, psixologiya va pedagogika fanlari;

iqtisodiyot va huquq fanlari;

arxeologiya fanlari;

matematika, fizika, mexanika fanlari;

texnika fanlari;

informatika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik;

qishloq xo'jaligi, veterinariya va atrof-muhitni muhofaza qilish;

o'rmon xo'jaligi;

tibbiyot fanlari;

farmakologiya va farmatsevtika;

kimyo fanlari;

kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar;

yer to'g'risidagi fanlar;

biologiya fanlari, biotexnologiya, ekologiya;

startap loyihamalar.

21. Zarur hollarda, Buyurtmachi tomonidan boshqa dolzarb ilmiy-texnik yo'nalishlar bo'yicha qo'shimcha ITKlar tashkil etilishi hamda ITK yo'nalishlari o'zgartirilishi mumkin.

22. ITK raislari tegishli ITK a'zolari ishtirokida yig'ilishda ochiq ovoz berish yo'li bilan saylanadi va O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

23. ITK majlislari Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq o'tkaziladi. Zarur hollarda, ITKnning navbatdan tashqari muhokamalari o'tkazilishi mumkin.

24. ITK majlislari qoida tariqasida ochiq o'tkaziladi. Zarur hollarda, ITK majlislariga tanlov ishtirokchilari, loyiha ijrochilari, manfaatdor vazirlik va idoralar vakillari taklif qilinishi mumkin.

25. ITK majlislari uning a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Loyihalarni eshitish va muhokama qilishda shaffoflik va xolislikni ta'minlash uchun yig'ilishda audio- va videoyozuvdan foydalanish mumkin. ITK majlisi bayonnomasi, audio- va videoyozuvlardan Buyurtmachiga taqdim etiladi.

26. ITKnning qarori, agar uning majlisida ishtirok etganlarning aksariyati unga ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, ITK raisining fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

ITK majlisida qaror ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Alovida masalalar bo'yicha ITK a'zolari bilan kelishilgan holda yashirin ovoz berish o'tkazilishi mumkin.

27. ITK yig'ilishida muhokama qilinadigan masalalar bo'yicha hujjatlar yig'ilishdan kamida besh kun oldin ITK ilmiy kotibiga taqdim etiladi.

28. ITK qarorlari bayonnomma shaklida tuziladi. ITKnning bayonnomasi rais (uning yo'qligida rais o'rinnbosari) va ilmiy kotib tomonidan imzolanadi. ITKnning ilmiy kotibi ITK bayonnomalarini saqlanishini ta'minlaydi.

## 6-bob. Yakunlovchi qoida

### *Oldingi tahrirga qarang.*

29. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

*(29-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-soni)*

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.03.2020-y., 09/20/133/0280-soni; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-soni; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-soni; 06.08.2022-y., 09/22/431/0716-soni)*

# Geodeziya fani rivojlanish Tarixi

## Reja:

### 1.Kirish

\*Geodeziya fani yuzaga kelishi va uning tarixi.

### 2.Asosiy qism

Geodeziya fani mazmuni va mohiyati.

### 3.Xulosa

Geodeziya so'zi «yer bo'lish» degan ma'noni bildiradi. Yer yuzasini bo'laklarga bo'lish uchun avval o'lhash ishlari o'tkaziladi, so'ngra u kerakli bo'laklarga bo'linadi. Shunga ko'ra, geodeziya fani amaliy geometriya (yer o'lhash) deb ham yuritilgan. Lekin hozirda geodeziya xalq xo'jaligining turli sohalaridagi qurilishga doir muhim va murakkab masalalarni yechish bilan shug'ullanadi. Masalan, yer shakli va kattaligini aniqlash, yer yuzasi ma'lum qismining

plan, karta va profillarini chizish, qishloq xo'jaligini planlashtirish, turli inshootlar barpo qilishda bajariladigan qidirish, o'lchash va loyihalash ishlarini turli asboblar yordamida amalga oshirish yo'llarini o'rghanish hozirgi geodeziya fanining umumiy vazifasidir.

Yer yuzasi bo'laklarining ko'rinishi va kattaligini aniqlab, uni plan, karta va profillarda tasvirlash yo'llarini va bunda ishlatiladigan asboblarni o'rghanadigan fan **geodeziya** deyiladi.

Butun yerning umumiy shakli va o'lchamlarini aniqlash yer yuzasida bir sistemada planiy va balandlik bo'yicha tayanch punktlar o'rnatish va ularning tarmoqlarini barpo etish masalalariga doir o'lchash va o'lchash natijalarini tenglash ishlari bilan shug'ullanuvchi fan **otiy geodeziya** deyiladi.

Geodeziyaning xalq xo'jaligidagi turli sohalarda bino, yo'l, kanal, aerodrom, stansiya kabi injenerlik inshootlari o'mini aniqlash, ularni plan, karta va profilda loyihalash, joyga ko'chirish va qurish hamda undagi o'zgarishlarni kuzatish ishlariga doir o'lchash usullarini o'rghanuvchi maxsus bo'limi **injenerlik geodeziysi** deyiladi.

Yer yuzasining katta qismini qog'ozda tasvirlashning qoida va usullarini o'rghanuvchi fan **kartografiya** deb ataladi.

Aviatsiyaning taraqqiy etishi bilan geodeziyaning s'yomka (plan olish) ishlarida joyni havodan suratga olish usuli qo'llanila boshladi. Bu usul qoidalarini o'rghanuvchi fan **aerofoto-geodeziya** deyiladi.

Yerning sun'iy yo'ldoshidan turib, yer shaklini aniqlash va yer yuzasi suratini olish usullarini o'rghanuvchi fan **kosmik geodeziya** deb ataladi.

Har qanday qurilish ishi geodeziyaga oid o'lchash ishlari bilan boshlanadi, davom etadi va tugaydi. Masalan, kanal qazish yoki yo'l o'tkazish uchun avval shu inshoot o'tishiga mo'ljallangan joy kartada belgilanadi, keyin u bilan joyda tanishiladi, yo'lning o'q chizig'i aniq belgilanadiki, inshoot qurish uchun mo'ljallangan bu joy *trassa* deyiladi. Trassaning o'q chizig'i belgilanib joy s'yomka qilingach, nivelerlanadi. O'q chizig'i profili chizilib, loyiha chiziqlari o'tkazilgach, ish otmetkalari bo'yicha joyga ko'chiriladi. So'ngra loyihadagi nuqtalar otmetkalari bo'yicha joyga ko'chiriladi. Shundan keyingina qurilish ishi boshlanadi.

Geodeziya fani matematika, astronomiya, geografiya fanlari bilan bir vaqtida va chambarchas munosabatda taraqqiy etdi. Geodezik asboblar nazariy jihatdan fizika qonunlari asosida yasaladi, o'lchash natijalari matematik qoidalar bo'yicha hisoblanadi. Yer yuzasi a nuqtalar o'rni geografik va astronomik koordinatalar bo'yicha belgilanadi. Yer shakli va uning o'zgarishidagi protselslarni o'rghanishda geofizika va geologiya kabi mexanika, avtomatika, elektronika fanlari bilan va hatto kosmik kuzatish natijalari bilan ham bog'liq holda taraqqiy etmoqda.

Yerning tekis emasligi, odamlar uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lganligi. Qadimgi sayohatchilar yulduzlar osmonining surati asta-sekin o'zgarib borayotganini kuzatdilar: yangi yulduz turkumlari ko'rindigan bo'lib qoldi, boshqalari esa ufqdan tashqariga chiqdi. "Suv ostida" kemalar suzib ketib, ikkinchisi ustunlarining tepasida ko'rinishidan yashiradi. Erning sharsimonligi haqidagi fikrni birinchi bo'lib kim ifodaladi? Ehtimol, to'pni eng mukammal hisoblagan pifagoriylar. Bir yarim asrdan keyin Aristotel Yerning to'p ekanligi haqida bir necha dalillarni keltirib o'tadi. Ulardan eng muhimi: Oy tutilishi davrida Yerning soyasi Oyning yuzasida aniq ko'rini turadi, va bu soyali yumaloq bo'ladi! O'shandan beri radiusni o'lchash uchun doimiy ravishda harakatlar qilingan [dunyo](#). Ikkita oddiy usul 1 va 2-mashqlarda aniqlangan. Biroq o'lchovlar noto'g'ri. Masalan, Aristotel, yarimidan ko'p noto'g'ri edi. Yuqori aniqlik bilan amalga oshirgan birinchi shaxs Kirenskning yunon matematikasi Eratosten (mil. Avv. 276-194) edi. Uning ismi hozir hammaga ma'lum *eratosthenesning elkasi*-bosh sonlarni topishning yo'li (1-rasm).

Pic.1

Birlikni tabiiy ketma-ketlikdan o'chirsangiz, unda bitta (eng ko'pi 2) dan tashqari barcha raqamlarni o'chirib tashlang, so'ngra birinchi raqamdan (uchinchini raqamdan tashqari) uchtadan ko'p sonli sonlar va shuning uchun natijada faqat bosh sonlar bo'ladi. Uning zamondoshlari orasida Eratosthenes nafaqat matematika bilan shug'ullanган, balki

geografiya, kartografiya va astronomiya sohalarida ham shug'ullangan eng buyuk ensiklopediya olimi sifatida mashhur edi. Uzoq vaqt davomida o'sha paytdagi jahon ilm-fani markazi bo'lgan Aleksandriya kutubxonasini boshqargan. Erning birinchi atlasini tuzish ustida ishslash (u, albatta, o'sha davrning ma'lum qismi haqida edi), u erni aniq o'lhashga qaror qildi. Bu g'oya edi. Iskandariyada, janubda, Siena shahrida (zamonaviy Aswan), kunduz kuni bir kunda, quyosh o'zining zenitiga etib borganini bilar edi. Vertikal qutbning soyasi yo'qoladi, quduqning pastki qismini bir necha daqiqa yondiradi. Bu kun bir kun sodir bo'ladi [yoz kungi](#), 22-iyun - osmonda Quyoshning eng yuqori mavqeい kundir. Eratosthenes o'zining yordamchilarini Siena shahriga yuboradi va ular quyoshning aniq vaqtida (quyoshdan ko'ra) quyosh to'liq zenitida joylashganini aniqlaydilar. Shu bilan bir vaqtida (xuddi o'sha soatda yozib qo'yilgani kabi), ya'ni soatlarda peshin vaqtida Eratosthenes Iskandariyadagi vertikal qutbdan soya uzunligini o'lchaydi. Natijada uchburchak edi ABC (Au - qutb AB - soya, guruch. 2).

Eratosten usulining yuqori aniqligiga nima sabab bo'ladi (albatta kerakli foydalangan bo'lsa *bosqichda*) Uning oldida o'lchovlar bor edi *mahalliy*, ochiq masofa, inson ko'ziga ko'rindigan, ya'ni 100 km dan ortiq emas. Masalan, 1-va 2-mashqlarda qo'llaniladigan usullar. Bunday holatda erni bartaraf qilish, atmosfera hodisalari va hokazolar sababli xatolar muqarrar. Yuqori aniqlikka erishish uchun o'lchovlar amalga oshirilishi kerak *global miqyosda*, Yerning radiusiga teng masofada joylashgan. Iskandariya va Siena o'tasida 800 km masofa etarli edi, shuning uchun Siena shahridagi quyosh nurlari N) Yer yuzasiga perpendikulyar va shuning uchun uning markazidan o'tadi - nuqta Z. Iskandariyada parallel nur (A) burchakka hosil qiladi ACB vertikal holda. Yuzma burchakka tenglashtirilganidan parallel holda tenglashtiramiz So'm \u003d g. Belgilangan bo'lsa / bo'yining uzunligi va oralig'i xuning uzunligi ANkeyin nisbati olamiz. Uchburchakda burchak g ABC Eratostenlar o'lchandi, u 7,2 ° ga aylandi. Kattaligi x -iskandariyadan Sienagacha bo'lgan yo'lning uzunligi taxminan 800 km. Uning Eratosthenes ikki shahar o'tasida muntazam ravishda boradigan tuyu karvonlarining o'tacha sayohat vaqtiga asoslangan holda, *bematistlar* - maxsus kasb egalari, masofani masofadan o'lhash. Endi aylananing uzunligini (ya'ni, er meridianining uzunligi) olish orqali, / \u003d 40,000 km Keyin erning radiusi R.tengdir // (2p), taxminan 6400 km. Erning meridianining uzunligi 40 ming km atrofida ifodalanganligi haqiqatan ham ajablanarli emas, chunki 1 metr uzunlikdagi birlik (18-asr oxirida Frantsiyada) Yer atrofini qirq millioninchi qismi (ta'rifi bo'yicha!) Kiritilganligini eslaymiz. Eratostenlar, albatta, boshqa o'lchov birligidan foydalanganlar - *bosqichlari* (taxminan 200 m). Misr, yunon, bobilliklar va ulardan qaysi biri Eratosthenes ishlatilganligi ma'lum emas. Shuning uchun uni o'lhashning aniqligi haqida ishonch hosil qilish qiyin. Bundan tashqari, muqarrar xato tufayli yuzaga keldi [geografik joylashuvi](#) ikki shahar. Eratostenlar shunday fikr yuritdilar: agar shaharlar bir xil meridian (ya'ni, Iskandariya, Siena shimolida joylashgan) ustida joylashgan bo'lsa, o'sha paytda tushdan keyin sodir bo'ladi. Shunday qilib, har bir shaharda Quyoshning eng yuqori pozitsiyasida o'lchovlarni o'tkazgan holda, biz to'g'ri natijani olishimiz kerak. Lekin, aslida, Iskandariya va Siena bir xil meridian ustida bo'lishdan uzoq. Endi bu xaritaga qarab osongina ko'rindi, lekin Eratosthenes bunday imkoniyatga ega emas, u faqat birinchi xaritalarni tuzishda ishladi. Shuning uchun uning usuli (mutlaqo to'g'ri!) Yerning radiusini aniqlashda xatoga yo'l qo'ydi. Shunga qaramasdan, ko'plab tadqiqotchilar Eratostenlarning aniqligi yuqori ekanligini va 2 foizdan kamrog'ini xato qilib qo'yaniga amin bo'lishadi. Insoniyat ushbu natijani faqat XIX asrning o'talarida, 2 ming yildan keyin yaxshilashi mumkin edi. Bu ishda Fransiyada bir guruh olimlar va Rossiyada V.Y. Struve ekspeditsiyasi ishlagan. Hatto buyuk davrda ham [geografik kashfiyotlar](#) XVI asrda odamlar Eratostenlarning natijasiga erisha olmadilar va noto'g'ri uzunlik qiymatini ishlatishdi. [tupraq doirasi](#) 37.000 km. Kolumb yoki Magellan Yerning haqiqiy o'lchamlari va ular qanday masofani qamrab olishi kerakligini bilmas edi. Ekvatorning uzunligi aslida 3000 kilometrga teng, deb o'yladilar. Agar ular bilsalar, ular suzmagan bo'lishi mumkin.

## Markazda nima bor?

Oldindan yoqdi [Qadimgi dunyo](#) bizni tarix saboqlaridan tanish bo'lgan koinotning tuzilishi g'oyasi shundan iboratki, dunyoning markazida aylana Yer atrofida aylana aylanadi, Oy va Quyoshni o'z ichiga olgan 7 sayyora (sayyora deb ham hisoblangan) aylana aylanadi. Har bir narsa samolyot sharlari bilan tugaydi va unga yulduzlar biriktirilgan. Sfera Yer atrofida aylanadi va 24 soat ichida to'liq aylanadi. Vaqt o'tib, ushbu model bir necha bor tuzatilgan. Shunday qilib, ular samoviy sferaning harakatsizligiga ishonishdi va Yer o'z o'qi atrofida aylanadi. Keyin ular sayyoralarining traektoriyalarini tuzatishga kirishdilar: aylanalar sikloidlar bilan almashtirildi, ya'ni bir doira bo'ylab harakatlanadigan joylarni tasvirlaydigan chiziqlar (G. N. Berman, Cycloid, A. Markushevich S. Verovning "Cycloid Mysteries" 8-sonli, 1975-yil va S. Gindikinning "Tsiloidning Yulduzli davri" nomli maqolasi, 6-son, 1985). Tsikloidlar kuzatuv natijalari bilan yaxshi kelishishgan, xususan, sayyoralarining "orqadagi" harakatlarini izohlaganlar. Bu shunday geosentrikdunyoning tizimi, uning markazida Yer ("gey"). Ikkinci asrda, u Kataloniya Ptolemey (87-165), mashhur yunon astronomi, Misr shohlari nomasi, "Almagest" kitobida yakuniy shaklni oldi. Vaqt o'tib, ba'zi sikloidlar murakkablashdi, yangi oraliq doiralar qo'shildi. Umuman olganda, Ptolemey tizimi Kopernik va Kepler kashfiyotlaridan oldin XVI asrga qadar bir yarim ming yillar davomida hukmronlik qildi. Dastlab geosentrik modelni Aristarkh ta'qib qilgandi. Biroq, Quyoshning radiusi Erning radiusini 6,5 marta tashkil etganini hisoblab, u oddiy bir savol berdi: nega bunday katta Quyosh bunday kichik Yer atrofida aylanish kerak? Axir, agar Quyoshning radiusi 6,5 marta katta bo'lsa, unda uning miqdori deyarli 275 marta katta! Shunday qilib quyosh dunyoning markazida bo'lishi kerak. Yer atrofida 6 sayyora atrofida aylanadi. Va ettinchi sayyora, oy, er yuzida aylanadi. U paydo bo'ldi *helyosentrikdunyo* tizimi ("Helios" - Quyosh). Aristarkning o'zi ham bunday modelning sayyoralar orbitlarida sayyoralarining aniq harakatini yaxshiroq tushuntirib berayotganini, kuzatishlar natijalari bilan yanada yaxshi kelishuvga erishilganini ta'kidladi. Biroq, na olimlar, na rasmiylar buni qabul qildilar. Aristarkh buzuqlik va zulm bilan ayblangan edi. Qadimgi astronomlardan faqat Seleucus yangi modelning taraforiga aylandi. Hech kim uni qabul qilmadi, hech bo'limganda tarixchilar bu haqda hech qanday ma'lumotga ega emaslar. Aristarkha sig'inib, ko'plab g'oyalalarini rivojlantirgan Arximed va Hipparch hatto Quyoshni dunyoning markaziga qo'yishga jur'at etmadni. Nima uchun

## Nima uchun bu dunyo heliotsentrik tizimni qabul qilmadi?

Xo'sh, 17 asr mobaynida olimlar Aristarkhning taklif etgan dunyodagi oddiy va mantiqiy tizimini qabul qilmadilar? Bu Ptolemyning rasman e'tirof etilgan geokimyoviy tizimi ko'pincha muvaffaqiyatsizlikka uchraganiga qaramay, sayyoralar va yulduzlarning kuzatuvlari natijalariga to'g'ri kelmadni. Biz barcha yangi doiralarni (ya'ni, deyiladi) qo'shishimiz kerak edi *ichki ichki qismlar* sayyoralarining harakatlarini "to'g'ri" izohlash uchun. Ptolomey o'zi qiyinchiliklarni qo'rqtmadni, u shunday yozgan: "Agar biz ularning mohiyatini bilmasak nega biz osmon jismalarining murakkab harakatiga hayron qolishimiz kerak?" [XIII asr](#) bu doiralar 75 ta to'plangan! Model juda hashamatli bo'lib, ehtiyyotkor e'tirozlar eshitila boshlandi: dunyo juda chindan ham ishlaydimi? Zamonaviy Ispaniyaning bir qismini egallagan davlat Kastiliya va Leon shohi Alphonse X (1226-1284) ishi keng tarqalgan. U dunyoning eng yaxshi astronomlari, ellik eng yaxshi astronomlarini bir joyga jamlagan ilm-fan va san'at patroni, "agar Rabbiy dunyo yaratilishida meni hurmat qilsa va mening maslahatimni so'rasa edi, juda oson bo'lar edi", degan ilmiy ma'ruzalardan birida shunday dedi: Bunday jasorat podshohlarga ham kechirilmadi: Alphons bo'shatildi va monastirga yuborildi. Ammo shubha qolmadni. Ularning ba'zilari Quyoshni olamning markaziga joylashtirish va Aristarchus tizimini qabul qilish orqali hal qilinishi mumkin edi. Uning yozuvlari yaxshi ma'lum edi. Biroq, asrlar davomida hech qanday olim bunday qadamni olishga jur'at eta olmadni. Buning sabablari faqat Ptolemy nazariyasini faqat haqiqiy deb hisoblagan hokimiyat va rasmiy cherkovdan qo'rqib qolmadni. Va faqat insoniy tafakkurning inertligida emas: bizning Yer bizning dunyo emas, balki oddiy sayyora ekanligini tan olish ham oson emas. Holbuki, haqiqiy olim uchun ham qo'rquv, na stereotiplar haqiqatga to'sqinlik qilmaydi. Geliotsentrik tizim juda ilmiy, hatto geometrik sabablarga ko'ra ham rad etilgan. Agar Yerni Quyosh atrofida aylantirsa, uning traektori Erdan Quyoshgacha bo'lgan radiusga teng bo'lgan doira hisoblanadi. Ma'lumki, bu masofa

23 455 Er radiusi, ya'ni 150 million kilometrdan ortiq. Bu olti oy ichida Yer 300 million kilometrni tashkil qiladi. Gigant hajmi! Ammo er yuzidagi kuzatuvchilar uchun osmonning surati bir xil bo'lib qolaveradi. Yer yaqinlashib kelmoqda, keyin yulduzlardan 300 mln. Kilometr uzoqlashadi, lekin yulduzlar o'rtasida (masalan, yulduz turkumlarining shakli), yorug'likning o'zgarishi ham o'zgarmaydi. Ya'ni yulduzlardagi masofalar bir necha ming barobar ko'p bo'lishi kerak, ya'ni samoviy maydon mutlaqo aql bovar qilmaydigan darajada bo'lishi kerak! Bu, Aristarxning o'zi tomonidan o'z kitobida yozgan: "Yulduzlar sohasi miqdori Yer-Quyosh radiusi bilan sharsimon maydondan juda ko'p, geometrik hajm miqdori dunyo miqyosidan necha barobar ko'proq", ya'ni " yulduzlarga masofa (23 455) 2 bo'lganligi ma'lum bo'ldi R., u 3,5 trillion kilometrdan ortiq. Aslida, Quyoshdan eng yaqin yulduzgacha bo'lgan masofa hali ham 11 barobar ko'p. (Biz Yerdan Quyoshga masofa 10 m bo'lganida, eng yaqin yulduzga masofa ... 2700 km. Boshida taqdim etgan modelimizda.) Yerning markazi bo'lgan va nisbatan kichik bo'lgan ichki va kichik bir dunyo o'rniga Aristarchus samoviy sohani tubsizlikni bo'yadi. Bu tubsizlik hammani qo'rqardi.

### **Eng qadimgi o'lchamliari**

Astronomiya va geodeziya tarixining eng murakkab va kashf qilinmagan muammolaridan biri Erning o'lchamining eng qadimiyligi belgilari natijalarining kelib chiqishi va aniqligini aniqlashdir. Erning o'lchamini aniqlashning natijasi bo'lgan eng qadimiyligi manbalardan biri - qadimiyligi yunon olimi Aristotelning (mil. Av. 384-322) "Osmonda" asaridir. "Matematiklar", deb yozgan Aristotel, "Yer atrofini uzunligini hisoblashga harakat qiladigan, bu raqamni 400.000 bosqichga chaqiradi". Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, "Aristotel, bu matematikalardan qanday qilib olinganligini tushuntirmasdan, beparvolik bilan qabul qiladi". Biroq, Arastun bu natijaning qanday qo'liga kiritilganligini bilmasligi ehtimoli ko'proq.

A.B. Dietmar "Yer o'lchamini hisoblashda aniq natijalar aniq baholandı: odatiy 157,5 m bosqichda bo'lsa ham, 400 ming stadiya atrofida 63 000 km (meridian bo'ylab 40,009 km o'rniga) teng bo'ladi; Agar biz bosqichlarni 176 metrga olib chiqsak, biz 70400 kilometrlik doira olamiz ».

Qadimgi olimlar, nima uchun III. BC er er yuzasining uzunligi 250 ming tomondag'i uzunlikda, Eratosten tomonidan olinganligini unutib qo'yagan va avvalgi ta'rif mualliflarining nomlari e'tibordan chetda qolgan. Shubhasiz, bu o'chovlar yunoncha emas, balki Sharqiy, ya'ni Misr yoki Bobil olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

Misr va Bobil olimlarining rivojlanishdagi qadriyatlarini kamsitish an'anasi [ilmiy ma'lumotlar](#) uzoq o'tmishga kiradi. Misol uchun qadimgi Misr olimlari tomonidan Qohira yaqinidagi Heliopolis Astronomik Observatoriysi tomonidan yaratilgan qadimgi yozuvchilardan hech qanday sababsiz "evdoksovoy" deb nomlangan. Biroq, Eudoksning "astronomiyani o'rganish" va "ayrim chiroqlarning harakatini aniqlash" bo'lgan bu observatoriya qadimgi Misr olimlari tomonidan yaratilgan. Straboning quyidagi so'zları bunga dalildir: "Heliopolisda biz ruhoniylar yashagan katta xonadonlarni ko'rdik, chunki ular, xuddi shunday, bu shahar ruhoniylar, faylasuflar va astronomlarning asosiy joyidir". Yunon olimlari, qoida sifatida, o'z ilmiy ma'lumotlarining manbasini ko'rsatmaganlar. Bunday jim turishning asosiy sababi, birinchi navbatda, yunonlar uchun biron bir chet ellik, hatto mustaqil davlatning erkin vakili ham "barbar", ya'ni potentsial qul bo'lganligi uchun kerak. Boshqa mamlakatlarda olingan ilmiy asarlarning natijalarini ularning mulki sifatida baholandı. Qul mehnat psixologiyasidan ta'sirlangan jamiyatda "barbarlar" asarlarini ifodalash odatiy emas edi.

Ma'lumki, miloddan avvalgi 747 yil. er Bu Bobil asrida juda jadal astronomik kuzatuvlar o'tkaziladigan "Nabonassara astronomik davri" deb nomlanuvchi davrning boshlanishi. Yunon olimlari Bobil ruhoniylarining astronomik kuzatuvlari natijalarini yuqori baholadilar. Gipsiki (III asr miloddan avvalgi), Xipparx (miloddan avvalgi II asr) va boshqa yunon

astronomlari Bobil kuzatuvlarining natijalarini keng ishlatishtgan. Hatto II. Klavdiy Ptolemy ham. n er aslida hech qanday o'zgartirishlarsiz ishlatalgan.

Diogenes Laertius, Strabo, Pliniy va boshqa qadimiy mualliflar ko'pgina yunon olimlarining Bobil va Misr ruhoniylariga bilimlarini berishgan.

Plutarx Thales va boshqa yunon olimlarining ilmiy qarashlari bobilliklar va Misrliklar erishgan yutuqlarga tayanardi. Misol uchun, bizga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, Thales eramizdan avvalgi 585-yil 28-mayda quyosh tutilishini bashorat qilgan. er O'sha davrda yunonlar astronomiya sohasidagi nazariy tadqiqotlar bilan shug'ullanmaganlar va samoviy jismlarning muntazam kuzatuvlarini o'tkazmaganlari sababli, Thales faqat quyosh tutilishini taxmin qila olishi mumkin [ilmiy yutuqlar](#) Bobil va Misr olimlari. V. Chaloyan "Thales Misrdan Hellas'a faqat falsafaning moddiy printsipi emas - suvning har bir narsaning boshlanishi sifatida emas, balki geometriya va astronomiya bilimi" degan fikrni to'g'ri aytadi.

Afsonaga ko'ra, Pifagoros Erning to'lqini haqidagi g'oyani ifodalash uchun birinchi yunon olimi bo'lgan. Biroq, u bu fikrga kelgan yoki undan ko'proq o'qituvchilar - Bobil va Misr ruhoniylaridan tortib olingan. Heliopolisda yashagan davrda Pifagoralar Misrlik astronom Oniufis bilan uzoq vaqt ishlagan. Strabo shunday deb yozgan: «Samoviy hodisalar haqida bilish sharafiga tuyassar bo'lgan, ruhoniylar uni yashirinchcha, odamlarga xushxabarni etkazishgan, shuning uchun ulardan biror narsa o'rganishni istagan odamlar tomonidan vaqt va ko'ngilsizlikka yo'l qo'yishgan. Biroq, barbarlar ma'lumotlarning aksariyatini yashirishdi. Aytgancha, ular yilni 365 kundan ortiq kun va tunning qolgan qismlari bilan to'ldirishni o'rgatdilar. Shunga qaramay, yunonlarning ruhoniylarning asarlarini yunon tiliga tarjima qilgan kishilardan keyin, keyingi yillardagi astronomlar bu ma'lumotni qabul qilmaguncha, yillar davomidagi ko'plab boshqa narsalar kabi yunonlar uchun ham noma'lum qoldi; Bugungi kungacha yunonlar Misrlik ruhoniylar va xaldeylardan ko'p pul oladi. »

XX asrdagi Nil vodiysida. BC er qadimgi Misr piramidalarini o'rganish natijalariga ko'ra astronomik kuzatuvlar o'tkazdi. Yuqori aniqlikdagi geodezik usullar bilan tekshirish Cheops piramidasining g'arbiy tomoni haqiqiy azimutining hozirgi vaqtida  $359^{\circ} 57' 30''$  ekanligini ko'rsatdi. Boshqa Misr piramidalari ham taxminan bir xil aniqlikka ega. "Chamasi kun" (meridian) tushunchasi ruhoniylarga ma'lum edi va u bu tuzilmaning burchaklarini erga qo'ydi.

Y. Frantsov misrliklar Erning keng tarqalishi haqidagi g'oyaga yunonlarga qaraganda ancha oldin kelganiga dalil keltiradi. Shunday qilib, quyosh xudosi Leyden Demots Papyrusda shunday deyilgan: "Man, er mening oldimdag'i qutiga o'xshaydi; bu Xudoning erini yumaloq dumaloqqa o'xshatib turibdi". Ammo agar Misrliklar Erning sferik shaklga ega ekanliklarini bilsalar, astronomiya va geometriyalarda etarlicha yuksak darajada rivojlanish bilan ular yunonlar kabi, keyinchalik uning o'lchamiga kelishadi. Qadimgi Misrdagi matnlarga ko'ra, Toth (Hermes) "bu Yerni o'lchagan xudo", "Yerni sanab", "yulduzlarni hisoblagan" va boshqalar.

Pifagorlarning Sharq olimlari tomonidan Yer o'lchamini aniqlash natijalaridan xabardor bo'lishi mumkin. Ammo o'sha paytda Erning sharsimonligi haqidagi g'oyasi absurd tuyulgan bo'lishi mumkin, chunki uning atrofi uzunligiga qarab hech qanday nuqta yo'q edi. Qadimgi olimlar odatda er atrofini ma'lum davrning qadriyatlarini bosqichlarida berdi. Biroq, 9-11-asrlarning arab manbalarida. n er Bobil, Suriya va boshqa uzoq muddatli o'lchovlarda ifodalangan Yer o'lchamining qadimiy ta'riflari natijalari saqlanib qolgan. Bu natjalarning ba'zilari Al-Battaniy (852-926-yillar), al-Masudi (9-asrda - 957) va boshqa Sharqiy olimlarning kitoblarida keltirilgan. Geodeziya va astronomiya tarixiga juda katta e'tibor beradigan taniqli o'rta asrlar olimi Abu Rayxon Beruniy (973-1048) faqat erta manbalarga

asoslangan Yerning o'lchamini aniqlay olmadi, chunki unga ko'ra, "bosqichlar" ning ma'nosi noma'lum biz foydalanadigan miqdorda. " Beruniy Yerning aylanasi uzunligini aniqlashning natijasini keltirib o'tadi, bu arab olimlari "odat bo'yicha" afsonaviy qadimgi Misr shaxsi Hermesga tegishli. Beruniya ko'ra, bu natija «9000 ta farishtaga teng edi, fariz 12 ming tirsak» edi. Hermes tomonidan ishlatilgan "chavandozlar" 37.0413 sm da "tirsak" ga asos solgan:

harqshunos olimlari Eratosten tomonidan Yerichilik olimlarining ko'plab asarlaridan Iskandariya kutubxonasida saqlanadigan Er o'lchamini aniqlash usullari va natijalari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Eratosthenes tasodifan emas: bizga etib kelmaydigan Hermes she'rin yozgan va keng astronomik va geografik materiallarni o'z ichiga olgan. Aristotelda "matematikatchilar" ning "hisoblash" ga harakat qilayotgani va Yer atrofini uzunligini "o'lchash" emasligi haqida gapirishga e'tibor qaratish lozim. Biroq, Yer atrofini uzunligini aniqlashda yunon olimlari astronomik va geodezik o'lchovlarsiz bajarolmadilar. Qadimgi mualliflarning hech biri Eratostenga qadar qilingan bunday o'lchovlarni eslatmagani uchun, yunonlar, ehtimol ularni qilmaganlar, balki Sharq olimlari tomonidan Yer o'lchamini aniqlash natijalaridan foydalanganlar.

Erning eng qadimiylar tushunchalarining kelib chiqishi va aniqligini aniqlash qadimgi tsivilizatsiyalar markazlari o'tasida ilmiy aloqalarning yo'nalishini va hajmini aniqlashga yordam beradi va astronomiya va geodeziya tarixidagi boshqa sahifani yoritadi.

Zamonaviy odamlar qanday analog kompyuterlar va ularni qanday ishlatish haqida juda oz tasavvurga ega emaslar. Meridional yo'nalishdagi ikkita nuqta orasidagi masofani hisoblash uchun siz faqat nuqtalarning kengligini o'lchashingiz kerak va burchak minutlarda ifodalangan enlardagi farq dengiz migrasidagi orasidagi masofa bo'ladi. Barchasi oddiy, qulay va amalda qo'llaniladi.

Agar chindan ham dengiz mili, orollar, arshin yoki Misr tirsalarining qanday qilib ko'p sonli qismini topishni istasangiz, siz tizzangizdagagi dengiz masofasining daqiqalarda ma'lum masofani bosib o'tadigan nuqtalar o'tasidagi masofani diqqat bilan o'lchashingiz kerak. Nima uchun? Qanday qilib bu amalda qo'llaniladi?

Eratostenlar burchak sonlarini aniqlik bilan o'lchab, Iskandariya kengligidagi farq  $7^{\circ} 6.7'$ , ya'ni  $7 \times 60 \backslash 003d 420 + 6.7 \backslash 003d 426.7$  dengiz mili (burchak daqiqqa) edi. Lekin tuyalarning safariga va sahma kunlariga muhtojligi uchun, u erda bir narsaning tuyg'usi - soxta yoki miting.


V.A. Bronstein, Claudius Ptolemy, Ch.12 ga ko'ra, Eratosthenlar usuli. Ptolomeyning geografiyadagi asarları:

"Ma'lumki Eratosthenes usuli, Iskandariya va Siena o'tasida yozgi kunduzda meridianning yoyini aniqlash edi. Siyena shahriga tashrif buyurganlarning hikoyalari ko'ra, quyosh quyoshning eng chuqur quduqlarini yoritib, shuning uchun zenit orqali o'tdi, shuning uchun kenglik Siena ekittikani Ekvatorga burilish burchagiga tenglashdi, bu Eratostenlar  $23^{\circ} 51' 20''$  da belgilangan. Ushbu kun va soat Iskandariyada gnomonning vertikal ustuning soyasi markazning gnomonning uchi bo'lgan  $1/50$  qismini qoplagan, ya'ni Quyosh Ots tushgacha  $1/50$  bir doira bir qismi, yoki  $7^{\circ} 12'$  ga avj oyalo. Iskandariya va Siena orasidagi masofani 5000 stadga tenglashtirgan Eratosthenes globusning atrofi 250 ming stadion ekanligini aniqladi. Eratosten tomonidan qabul qilingan bosqichning aniq uzunligi masalasi uzoq vaqt davomida munozara mavzusi bo'lib kelgan, chunki uzunligi 148 dan 210 m gacha<60>. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi 157,5 m. ("Misr" bosqichi) bosqichini davom ettirdilar. Keyin Erning atrofi Eratosthenesda 250 000-0,1575 \u003d 39 375 kmni tashkil

etadi va u 40 008 km haqiqiy qiymatiga juda yaqin. Agar Eratostenlar yunon ("Olimpiya") bosqichini 185,2 m uzunlikda ishlatganlarida edi, unda Yerning atrofi 46,3 ming km edi.

Zamonaviy o'lchovlar bilan<97> Iskandariyadagi muzeyning kengligi  $31^{\circ} 11.7'$ , "Asvan (Siena) ning kengligi  $24^{\circ} 5.0'$  dir, kenglik  $7^{\circ} 6.7'$  ni tashkil etadi, bu esa 788 km masofani tashkil etadi. Ushbu masofani 5000 gacha uzatish, Eratosten tomonidan ishlatalgan, 157.6 m, bu Misr davridan foydalangan degan ma'noni anglatadimi?

Bu savol tuyulishi mumkin bo'lган narsalardan ko'ra murakkabroq. Eratostenlarning aniq dumaloq raqamga etaklovchi haqiqati - 5000 ta stadion (va 5150 yoki 4890 emas) unga ishonchni ilhomlantirmaydi. Agar Eratostenning bahosi kamida 15 foizni tashkil etgan bo'lsa, biz Misriklarni 185 metrdan boshlab ishlatgan bo'lamic, ammo bu savolni hal qilishning imkoniy yo'q. "



Endi quyidagi holatlarga e'tibor bering:

Aswan (Siena) va Iskandariya bir xil meridianda emas, uzunlikdagi farq  $3^{\circ}$ , ya'ni taxminan 300 km.

Eratostenlar bu masofani o'lchamadilar, balki safarlarning kunlarida, tuyalar chambarchas bog'lanib, to'g'ri chiziqda yurishmadи.

Qurilmaning Eratosthenes burchaklari soniyalarning aniqligi bilan qanday o'lchanligi aniq emas

Eratostenlar masofani qanday o'lhash uchun ishlatalganligi aniq emas.

Shu bilan birga, u taxminan aniq natijaga erishdi! Yoki tarixchilar natija uchun moslashdilar?

Vikipediya: "Eratosthenes Siena va Iskandariya bir xil meridian ustida ekanligini aytadi. Va kosmosdagi meridianlar katta doiralar bo'lgani uchun, xuddi shu katta doiralar, albatta, Yer yuzida meridian bo'ladi. Va Siena va Iskandariya orasidagi quyosh aylanasi bo'lgani uchun, Yerdagi ular orasidagi yo'l kerakli bo'lgan katta doira bo'ylab ketadi. Endi Siena yozgi tropik doirada yotadi. Agar rakning yulduz turkumidagi yozgi kundaligi aniq kunlarda ro'y bergen bo'lsa, u holda bu nuqtada quyosh quyoshi mutlaqo soyalar emas, chunki quyosh to'liq zenitda bo'ladi; bu aslida [tarmoqli kengligi] 300 ta bosqichda. Shu shaharda Iskandariyada xuddi shu shahar Siena janubida bo'lgani kabi, quyosh soya ham soyada qoldi. Ushbu shaharlar bir meridian va katta doirada yotadi. Iskandariyalik quyoshda gnomonning soyasi va gnomonning poydevoridan o'tib ketadigan bir yassi chizamiz. Quyoshning kubogi keng doirada joylashgani bois, kamarning bu qismi kosada katta doirani hosil qiladi. Keling, har

bir gnomondan va Yer markazida sodir bo'lgan Yerdan pastga tushadigan ikki tekis chiziqni tasavvur qilaylik. Siena quyoshining quyoshi quyosh ostida vertikal holda joylashgan va Quyoshdan Quyoshdan o'tib, Quyoshdan Yerning markaziga bir tekis chiziq hosil qiluvchi xayoliy tekis chiziq o'tadi. Iskandariyadagi piyoda quyosha gnomonning tepasida gnomonning soyasi oxiridan boshlab yana bir to'g'ri chiziq tasavvur qiling; va u allaqachon ko'rsatilgan satrga parallel bo'ladi, chunki allaqachon Quyoshning turli qismalaridan Erning turli qismaliga yo'naliш parallel (va u buni qanday biladi?) deb aytilgan. Yerning markazidan Iskandariya gnomoniga chizilgan chiziq parallel teng parallel chiziqli burchaklar hosil qiladi. Ulardan biri - Yerning markazida, Yerning markazida, Yerning markazida, boshqasi esa - Iskandariyadagi gnomonning oxirida, Quyoshdan kelgan o'z soyasidan oxirigacha cho'zilgan chiziq bilan uchrashuv paytida, Yerning markazida tepada, bu joylar yuqorida uchrashadigan joy. Birinchi burchak gnomonning soyasidan to oxirigacha yoyga asoslangan, ikkinchisi Sienadan Iskandariyaga yugurib, markazning markazida joylashgan. Bu yoylar bir-biriga o'xshashdir, chunki ular teng burchaklarga asoslangan. Va kubokning yoyi o'z doirasi bilan qanday aloqada bo'ladi, shu munosabatlar Siena-Iskandariyadan [uning doirasiga] yoyga ega. Ammo kupada uning doirasining elliginchi qismini tashkil etganligi aniqlandi. Shuning uchun, Siena'dan Iskandariyaga masofa, albatta, Yerning katta doira elliginchi qismini tashkil qiladi. Ammo bu 5000 bosqichga teng. Shuning uchun ham butun doirada 250.000 bosqichga teng bo'ladi. Bu Eratostenning usuli. "

Keyinchalik, Eratosthenes tomonidan olingen raqam 252,000 stadaga ko'tarildi. Eratostenlarning qaysi bosqichi ishlatalgani ma'lum emas, chunki bu taxminlar qanchalik yaqin ekanini aniqlash qiyin. Agar biz yunon (178 metr) haqida gapiradigan bo'lsak, unda Yerning radiusi 7.082 km, Misr (157.5), keyin esa 6.287 km. Zamonaviy o'Ichovlar o'rtacha Yer radiusi uchun o'rtacha 6.371 kmni tashkil etadi, bu yuqorida qayd etilgan hisob-kitobni ajoyib sayyoramiz sayyoramizning aniq o'Ichamlarini va birinchi to'g'ri hisoblashini ta'minlaydi".

Men Vikipediya natijalarni taqsimlash bilan bir qatorda Eratosten tomonidan Yer atrofini o'lhash haqida ham gapiradi va nihoyat Yer radiusining aniqligi aniqlanadi. Umuman olganda, oqsoqollar bog 'va Kievda - amakisi, bir-biriga bog'langan bo'lsa ham.

Tashxis juda oddiy: darsliklar Eratosthenen usulini takrorlashni davom ettiradi, bu esa mohiyatni va amaliyatga tatbiq etishni tushunish uchun hech narsa bermaydi, ammo qadimgi avlodlarning mutanosib fikrlash misoli sifatida "dengiz mili - burchak minut'i" to'plamini eslatmaydi, chunki zamonaviy tendentsiya diskret kompyuterlar va eski antiqa kompyuterlar haqida gapirish kerak.

### **Mamlakatimiz xalq xo`jaligida va mudofasida geodeziyaning ahamiyati.**

Ернинг шакли ва катталиги ҳақидаги маълумотлар инсоният учун зарурdir. Бу маълумот Ернинг Сунъий Йўлдош (ЕСЙ)ларини учириш, телевидения, геология, радио, география, геофизика учун зарурdir.

Ер юзасини ўрганиш, ўзлаштириш ҳамда ер юзасини инженерлик иншоотларини барпо қилиш билан шуғулланадиган барча мутахassislar учун топографик карта кўз бўлиб хизмат қиласи. Бунинг учун ундан фойдаланишини яхши билиш керак.

Геодезик ишлар саноат ва граждан қурилиши, йўл қурилишида ҳам муҳим аҳамиятга эга. Янги шаҳар ва қишлоқларни бунёд этиш, аҳоли яшайдиган худудларини планлаштириш каби муҳим ишларни геодезик ишларсиз ва топографик карталарсиз амалга ошириб бўлмайди.

Геодезик ўлчаш ишлари, топографик карталар ва аэрофотосъемка материаллари мамлакатимиз мудофаа қобилиятини ошириш воситаларидан биридир. Топографик карта ва аэросуратлардан тактик, стратегик масалаларни ҳал қилишда, ҳамда бошқа ҳарбий

ишиларда кенг фойдаланилади.

Умуман, геодезия мамлакатимиз хўжалигини барча тармоқларини ривожлантиришда ва мудофаа қобилиятини оширишда жуда катта аҳамиятга эга.

### **3. Geodeziya fani rivojlanishining qisqacha tarixi**

Geodeziya eng qadimiy fanlardan biridir. U kishilik jamiyatining xayotiy talablari asosida vujudga kelgan va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi bilan rivojlana borgan.

Tarixiy yodgorliklardan ma'lum bo'lishicha eramizdan bir necha asrlar avval qadimgi Misrda, Nil daryosi vodiysida dehqonchilik juda rivojlangan, chunki Nil daryosi har yili toshib daryo sohilida unumdar tuproq qoldiravergandan bu erlarda ekindan yukori hosil uchun juda qulay sharoit yaratilgan. Suv toshqini sababli yer uchastkalarining chegarasi o'zgarib turganligidan misrliklar chegaralarning qaytadan belgilash, unumdar erlarni qismlargaga bo'lish va yer o'lhash bilan tez-tez shug'ullaniganlar. Ular yer bo'lishni – geodeziya va yer o'lhashni geometriya deb ataganlar. Dastlab geodeziya bilan geometriyaning maqsadi bir bo'lган, shu tufayli ular birgalikda asrlar davomida rivojlangan. Keyinchalik geodeziya joylarni o'lhash va yer kattaligini aniqlash bilan, geometriya esa jismlarning fazoviy shakli va o'zaro munosabatini aniqlash bilan shug'ullanadigan fanga aylangan.

Qadim zamonalarda geodezik o'lhash ishlari yerlarni bo'lishdagina emas, balki yirik injenerlik inshootlarini qurishda xam bajarilgan.

Qadimgi Gretsiya va Misr olimlari yerning shakli va kattaligini aniqlash ustida ham ish olib borganlar. Qadimgi grek olimi Pifagor (eramizdan oldingi 580 – 500 yillar) yer sharsimon bo'lsa kerak, degan fikrni aytgan. Filosov Aristotel (eramizdan oldingi 384 – 322 yillar) va boshqa grek olimlari esa ernen sharsimon ekanligini isbot etganlar. Tarihiy ma'lumotlarga ko'ra yer sharining kattaligini birinchi bo'lib aleksandriyalik (Misr) olim Eratosfen (eramizdan oldingi 276 – 195 yillar) aniqlagan.

Geodeziya fani qadimgi zamondagi madaniy mamlakatlardan bo'lган Arabiston, Xitoy, Hindiston va O'rta Osiyoda matematika, astronomiya, va boshqa fanlar bilan bir qatorda taraqqiy etgan. Sharqiy mamlakatlarning buyuk olimlari ernen kattaligini aniqlash ustida ko'p ish qilganlar. IX asrning boshlarida arab halifikasi Ma'mun topshirig'i bilan Mesopotamiya tekisligida yer sharining kattaligini aniqlash maqsadida gradus o'lhash ishlari olib borilgan. Bu ishda shu vaqtida Ma'mun xalifaligining siyosiy va ilmiy markazi-Bog'dod shahri observatoriyasida ishlayotgan xorazmlik ulug' matematik va astronom, hozirgi zamon algebrasining asoschisi Muhammad ibn Muso Xorazmiy ham qatnashib o'z hissasini qo'shgan. Olimlar yer shari meridianining bir gradus yoyi uzunligi 111,8 km ekanligini aniqlaganlar. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra meridian bir gradus yoyining o'rtacha uzunligi 111,2 km demak yuqorida aytilgan gradus o'lhash ishlari o'z davri uchun ancha aniq bajarilgan hisoblanadi.

Korazmlik olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'z hayotida yozgan 150 nomdagi asaridan 40 tasi geodeziyaga oid bo'lib ularda olim geodeziya bo'yicha o'z fikrlarini bayon etgan.

Rossiyada geodezik asboblar yordamida plan olish Petr I davridan boshlangan. 1739 yilda Rossiya fanlar akademiyasi qoshida tashkil etilgan geografik departament Rossiyani topografik va kartografik jihatdan o'rganishga katta hissa qo'shdi. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shilgandan keyin chegara rayonlar hamda muhim ahamiyatga ega bo'lган territoriyalar, jumladan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Farg'ona, Andijon va boshqa shaharlarning ham plani olindi.

Hozirgi kunda yer sun'iy yo'ldoshlarining uchirilishi va havo kemalarining kosmosga parvozi geodeziyaning rivojlanishida yangi davr ochdi, kosmik kuzatishlar natijasida yerning shakli haqida juda aniq ma'lumotlar olindi.

### **4. Yerning shakli va o'lchamlari haqida tushuncha.**

Yer shaklini va kattaligini (o'lchamlarini) bilish yer yuzasini qog'ozda tasvirlash, turli ilmiy va texnik ishlar olib borish uchun zarur. 1682-yili mashhur olim I.Nyuton(1643-1727) elon


qilgan nazariya-butun dunyo tortishish qonuniga binoan, Yer o'z o'qi atrofida katta tezlik bilan aylanishi tufayli u shar shaklida bo'lmay, balki ikki qutbi bo'yicha siqilgan sferoid (ellipsoid) shaklida bo'lishi kerak. Buni tekshirish uchun Fransiya Fanlar akademiyasi ikkita ekspeditsiya tuzdi. Ularning biri shimoliy Finlandiya (Laplandiya) da, ikkinchisi esa Peruda bir gradus meridian yoyining uzunligini o'lchadilar.

Bunda qutb yaqinidagi Laplandiyada bir gradus yoyning uzunligi (111,6 km) ekvator yaqinidagi Peruda bir gradus yoyning uzunligi (110,6 km) dan katta ekanligi aniqlandi. Bu hol Yer shar shaklida bo'lmay, balki qutblar bo'yicha siqilgan ellipsoid shaklida ekanini ko'rsatdi. Shundan keyin yerni *ellipsoid* shaklida deb, uning o'lchamlarini aniqlay boshladilar.

Yer shaklini belgilashda dengiz va okean suvlarining tinch turgandagi yuzasi asos qilib olinadi. Bu yuza yer sirtidagi har bir nuqtada shovun chiziqqa, ya'ni Yerning tortish kuchi va markazdan qochirma kuchning teng ta'sir etuvchisi bo'lgan og'irlilik kuchi yo'nalishiga perpendikular (normal) bo'ladi; bunday yuza *sathiy yuza* deyiladi (1-shakl).

Sathiy yuza hamma nuqtada gorizontal bo'ladi. Har bir nuqtaning o'z sathiy yuzasi bo'ladi; okean suvlarining o'rtacha yuzasi asosiy sathiy yuza deb qabul qilinadi.


*Geoid*. Asosiy sathiy yuza fikran quruqliklar tagi bo'yicha davom ettirilsa, sathiy yuza bilan chegaralangan dumaloq shakl hosil bo'ladiki, buni Yer shakli deb qabul qilinadi; bu shaklda 1873 yili nemis fizigi Listing (1808-1882) *geoid* (yer shakli) deb atadi. Sathiy yuza shovun chiziq (og'irlilik kuchi) yo'nalishi orqali belgilanadi, og'irlilik kuchi yo'nalishi esa Yer qobig'idagi massalarning turli zichlikda joylanishiga qarab turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra, sathiy yuza bilan chegaralangan ellipsoidsimon geoid juda murakkab shaklda bo'lib, geometrik shakllarning hech biriga o'xshamaydi. Yer qobig'idagi massa zichligini aniq bilmay turib, geoidning materikdagi yuzasi ko'rinishini aniqlab ham bo'lmaydi.



1-shakl. Geoid va ellipsoid ko'rinishi; p-shovun chiziq, mn-ellipsoidga normal (perpendekular) chiziq; u-shovun chiziq og'ishi.

Bu geoid o'rniga yuzasi matematikada aniqlanadigan, o'zi geoidga eng yaqin keladigan (o'xshashroq bo'lgan) boshqa matematik shakl qabul qilinadi. Ko'p tadqiqot ishlarining natijasi bo'yicha geoidga eng yaqin keladigan shakl aylanish ellipsoidi deb topildi ; geoid yuzasiga ellipsoid yuzasi ko'proq to'g'ri kelishi aniqlandi.

Referens ellipsoid. Geoid o'rniga qabul qilinadigan ellipsoid markazi Yerning tortishish kuchi markaziga, ekvator tekisligi Yer ekvatori tekisligiga, kichik (aylanish) o'qi yerning aylanish o'qiga to'g'ri (mos) kelib, hajmi geoid hajmiga teng bo'lishi kerak.



2-shakl

Geoid o'rniqa qabul qilingan ellipsoid yuzasi PQP<sub>1</sub>Q<sub>1</sub> PP<sub>1</sub> o'q atrofida aylanishdan hosil bo'lgan, uning o'lchamlari ellipsoidning katta yarim o'qi OQ=OQ<sub>1</sub>=a va kichik yarim o'qi OP=OP<sub>1</sub>=B qiymatlari bilan yoki katta yarim o'qi a va sferoid (ellipsoid) ning siqilishi deyiladigan  $\alpha$  bilan aniqlanadi. (2-shakl)

$\alpha$  qiymati quyidagicha bo'ladi :

$$\alpha = \frac{a - b}{a}$$

Yerning o'lchamlarini aniqlovchi a, b va d lar yer ellipsoidining parametrлari deyiladi. Yerning matematik shakli yuzasini o'rganishda shunday ellipsoid topiladiki, u o'z parametrining qiymatlari jihatidan geoidga yuqoridagi shartlar asosida eng yaqin keladigan va Yerning tanasiga yaxshi joylashadigan bo'lsin. Bunday yer ellipsoidi *referens-ellipsoid* deyiladi.

1980-yildagi Butun jahon geodezik va geofizik ittifoqining XVII bosh assambleyasi 1980 yil uchun referens ellipsoid o'lchamlarini quyidagicha belgiladi: a= 378 137 m,  $\alpha=I:298,257$ . a=6378137m,  $\alpha=I:298,257$ .

МДХ давлатларидағи геодезия пунктларни координаталарини биргаликда тенглаштириш ва суний йўлдошлар кузатиш натижаларидан фойдаланиб топилган ер эллипсоиди ўлчамлари 1995 йилдан МДХ давлатларида геодезик координаталарини ҳисоблашда ишлатилмоқда. Бу ўлчамлар система координат – 95 ёки қисқартирилган холда СК - 95 деб номланган.

Бир қанча мамлакатларнинг олимлари турли йилларда Ер эллипсоди ўлчамларини ҳисоблаб чиқарғанлар. Шу ҳисоблашлар натижаларидан баъзилари 1.1. жадвалда берилган.

### 1.1. жадвал

Муаллиф олим	Ўлчамлар	A	A	Мамлакат-лар
--------------	----------	---	---	--------------

	хисобланган йил	(м)		номи
Деламбр	1800	6375563	1:334	Франция
Вольбек	1819	6376896	1:302,8	
Бессель	1841	6377397	1:299,2	Германия
Кларк	1880	6378249	1:293,5	Англия
Жданов	1893	6377714	1:299,6	Россия
Хейфорд	1909	6378388	1:297	АҚШ
Красовский	1940	6378245	1:298,3	СССР
СК- 95	1995	6378136	1:298,2578	МДХ

## 5. Geodeziyada proektsiyalash usuli. Geografik, to`griburchakli va qutbli koordinata sistemalari haqida tushuncha

Бирор нуқтани, бошланғич деб қабул қилинган нуқтага нисбатан жойлашган ўрнини ифодаловчи мікдорлар шу нуқтани координатаси дейилади.

Фан ва техникани турли соҳаларида хилма-хил координата системаларидан фойдаланилади. Геодезияда асосан *географик* координата, *түгри бурчаклы* координата, *құтбий* координата системасыдан фойдаланилади.

**Географик координата** системасыда ер юзидаги нуқтанинг ўрни унинг географик кенглиги ва узоқлиғи билан аниқланади.

Ер юзидаги нуқтанинг географик координаталари аниқлаш усулига қарاب астрономик ва геодезик координаталарга бўлинади.

**Геодезик координаталар:** Геодезик координата системасыда бирон нуқтанинг ўрнини аниқлашда асосий координата юзаси қилиб референц-эллипсоид юзаси, асосий координата чизиклари сифатида эса геодезик меридиан ва параллеллар қабул қилинади. Ер юзидаги бирон нуқтанинг ўрнини аниқлашда шу нуқтадан ўтказилған меридиан ва параллелнинг кесишган нуқтасидан фойдаланилади. Бирон нуқтадан ўтказилған меридиан шу нуқтанинг геодезик *узунлиги*, параллель эса *кенгликни* билдиради.


Ер эллипсоидининг кичик ўқи орқали бўйламасига ўтказилған кесма - *меридиан текислик*, бу текисликнинг эллипсоид юзаси билан кесишишдан хосил бўлган чизик эса *геодезик меридиан* дейилади. Ер эллипсоидининг бирор нуқтасидан унинг айланиш ўқига перпендикуляр ўтказилған кесма *параллель текислик*, бу текисликнинг эллипсоид юзаси билан кесишишдан хосил бўлган чизик *параллель* деб аталади.

Ер эллипсоиди марказидан ўтказилған параллель кесма *экватор текислиги* дейилади.

М нуқтанинг геодезик *кенглиги* В ва экватордан қутблари томон  $0^{\circ}$  дан  $90^{\circ}$  гача ҳисобланади, нуқта экватордан шимолда бўлса, унинг геодезик кенглиги *шимолик кенглик (+)*, жанубда бўлса *жанубий кенглик (-)* деб аталади. **Геодезик узунлик L** билан белгиланган, геодезик меридиан билан бош меридиан орасидаги бурчак геодезик узунлик бош меридиандан бошлаб ғарбга (+) ва шарққа (-) томон  $0^{\circ}$  дан  $180^{\circ}$  гача ўлчанади.

**Астрономик координаталар.** Ер юзидаги нуқталарнинг астрономик координаталарини аниқлашда асосий юза қилиб геоид, координата чизиклари қилиб эса астрономик меридиан ва параллеллар қабул қилинади. Берилған нуқтанинг *астрономик меридиани* деганда, ернинг айланиш ўқига параллель қилиб ўтказилған текисликнинг мазкур нуқтадан туширилған шовун чизиги йўналишида ер юзаси билан кесишишдан хосил бўлган чизик тушунилади.

Ер юзидаги бирор нуқтанинг астрономик меридиани билан бошланғич деб қабул қилинган Гринвич меридиани текисликлари орасида хосил бўлган бурчак шу нуқтанинг *астрономик узунлиги* дейилиб  $\lambda$  билан белгиланади. Ер юзидаги бирор нуқтадан туширилған шовун чизиги билан экватор текислиги орасида хосил бўлган бурчак шу нуқтанинг *астрономик кенглиги* бўлиб  $\phi$  билан белгиланади.



3.1-шакл

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lishicha, nuqtaning astronomik va geodezik koordinatalari orasidagi farq shundan iboratki, astronomik koordinatalarda shovun chiziq yo'nalishi, geodezik koordinatalarda esa ellipsoid yuzasiga tushgan normal chiziq yo'nalishi asos qilib olinadi. Bu normal va shovun chiziqlarning har xil bo'lishi shovun chiziqning og'ishiga bog'liq bo'ladi, bu har xillik esa yer qobig'idagi massaning turlicha bo'lishidan kelib chiqadi. Bu og'ish orqali nuqtaning geodezik va astronomik koordinatalari orasidagi farq  $3\text{--}4''$  bo'lib, ba'zi joylarda bundan oshadi. Bir sekund meridian yoyining uzunligi 31 m ekanligi e'tiborga olinsa, bir nuqtaning ikki sistemadagi koordinatalari orasidagi farq 100 m bo'ladi.



Nuqtaning astronomik va geodezik koordinatalari orasidagi farq oz bo'lgani sababli, bu ikkala koordinatalar sistemasini bir nom bilan ***geografik koordinatalar sistemasi*** deb ataladi.

**Гаусс-Крюгернинг тўғри бурчакли координата системаси.** Sferani (sharni) tekislikka yoyib bo'lmanidan, har qanday karta ma'lum darajada buzilib (xato bilan) chiziladi. Har karta varag'i to'g'ri chiziqli trapetsiya bo'lib tasvirlansa ham, joyda, yer shari yoyidan iborat bo'lgan tomoni egri chiziqli trapetsiya ko'rinishidagi joydir. (5-shakl) Agar shu trapetsiyalarning bir nechasi yonma-yon qo'yilsa, bir-biriga yopishgan ko'pyoqlik yasaladi. Agar tekislikdagi trapetsiyalarni bir tekislikka yonma-yon qilib joylasak, o'rtadagi varaqlar bir-biriga yopishsa ham o'rtadan yuqori va pastdagi varaqlar orasida uzilish (ochiqlik) hosil bo'ladi. Bu kamchilikni topografik kartalarda yo'qotish uchun 1928-yili K.F.Gauss proyeksiyasi qabul qilindi. Bu proyeksiyada Yerning sathiy yuzasidagi ikki meridian bilan chegaralangan joyning tekislikdagi yassi proyeksiyasini (tasvirini) hosil qilish mumkin. U proyeksiyalash usuliga teng burchakli ***ko'ndalang-silindrik*** proyeksiya deyiladi.

Bu usulni 1930-ilda K.F.Gauss nazariy jihatdan asoslagan edi 1912 yilda Kryuger hisoblash formulalarini ishlab chiqdi. Shuning uchun ham u ***Gauss-Kryuger proyeksiyasi*** deyiladi. Bu proyeksiyada chiziqlar orasidagi burchaklar o'zgarmaydi, bir-biriga o'xshash tarzda tasvirlanganidan u teng burchakli yoki *konform* (*o'xshash*) proyeksiya deyiladi.

Bu proyeksiyada yer yuzasi  $6^0$  yoki  $3^0$  dan o'tkazilgan meridianlar bilan 60 (yoki 120) ta zonaga bo'linadi.

Har zona yuzasi shu zona o'rta meridianiga urinma bo'lib o'tgan silindr ichki yuzasiga proyeksiyalanadi. Olti gradusli zonalar 1:1000 000 mashtabdagi kolonnalarga mos bo'lib, kolonna va zona chegara meridianlari bir xil, lekin zona tartiblari bosh meridiandan boshlanib sharqqa tomon 60 gacha o'sib boradi. Kolonna sonidan 30 ga farq qiladi. Har zonaning o'rta meridiani ***o'qiy meridiani*** deyiladi.




Proyeksiyalashda har zona o'z o'qiy meridiani bo'yicha silindrga urinadi. Zona tartibi N nuqta uzoqligi  $\lambda$  bo'yicha quyidagi formula yordamida topiladi :

$$N = \frac{\lambda_0}{6} + 1$$

Zona o'qiy meridianining uzoqligi  $\lambda_0$  quyidagicha aniqlanadi :

$$\lambda_0 = 6N - 3^0$$




3.2-шакл

Зоналар номери Гринвич меридианидан бошлаб ғарбдан шарққа томон ҳисобланади. МДХ территориясига бу зоналарнинг 29 таси (4 дан 32) түгри келади.

X - абцисса ўқи  
Y - ордината ўқи  
A – нүктанинг координаталари  $X_A$  ва  $Y_A$

### **Түгри бурчакли ясси координата.**

Кичик территорияларнинг планини олишда ва катта аниқлик талаб қилинмайдыган ҳисобларда түгри бурчакли ясси координата ҳамда қутбий координата системаларидан фойдаланилади.




3.4-шакл

Түгри бурчакли ясси координата системасида нүкталарнинг бир-бирига нисбатан ўрни ўзаро перпендикуляр икки чизикнинг кесишгандык нүктасига нисбатан аниқланади. ўзаро перпендикуляр икки чизикча координата ўқлари, уларнинг кесишгандык нүктасига эса координата боши дейилади. Бу координата системаси Декарт түгри бурчакли ясси координата системаси дейилади.

Бу системада вертикаль чизик - ордината ( $y$ ), горизонтал чизик - абцисса ( $x$ ). Геодезияда эса аксинча вертикаль чизик - абцисса  $X$ , горизонтал чизик - ордината  $Y$ , деб қабул қилингандык. О - координата боши,  $x$  – ўқи абцисса шимолга йўналган;  $y$  – ўқи ордината шарққа йўналган (чизмага қаранг).

**Қутбий координата:** Агар түгри бурчакли координата системасидаги ўзаро перпендикуляр  $x$  ва  $y$  ўқлар ўрнига фақат  $x$  ўқи ва координата бошланиш нүктаси О олинса, қутбий координата системаси хосил бўлади.

Бирор С нүктанинг қутбий нүктага нисбатан ўрнини аниқлаш учун бу нүктани, қутбий нүкта билан туташтирувчи чизикнинг узунлиги  $OC$  ва қутбий ўқ  $OX$  билан  $OC$  чизик




орасидаги бурчак  $\alpha$  ўлчанади

3.5-шакл  
OC – чизик радиус вектор.

$\alpha$  - ориентирлаш бурчаги.


**Күш қутбий координата.** Күш қутбели координатада бирор С нүктанинг А ва В нүкталарга нисбатан ўрни қутбий нүкталар А ва В ўрни аниқланыётган нүктагача бўлган чизиклар АС ва ВС узунлиги  $d_1$ ,  $d_2$  ёки АВ чизик билан АС ва ВС орасидаги бурчаклар  $\beta_1$ ,  $\beta_2$  қийматлари ёрдамида аниқланади. Бундан ташқари С нүктанинг ўрнини АС ва ВС чизиклар йўналишишининг ориентирлаш бурчаклари  $\alpha_1$ ,  $\alpha_2$  билан ҳам аниқлаш мумкин.



3.6-шакл

### 3.5. Тўғри ва тескари геодезик масала.

Бирор нүктанинг координаталари ҳамда бу нүктадан бошқа нүктагача бўлган масофа (чизик)нинг горизонтал проекцияси ва ориентирлаш бурчаги маълум бўлса, иккинчи нүктанинг координатасини аниқлашга **тўғри геодезик масала** дейилади.



3.7-шакл

Тўғри геодезик масала, текисликда, сферада ва эллипсоид юзасида ечилиши мумкин. Ҳозир ер юзини текис ҳолида бу масалани ечамиш. Масалан: А нүктанинг координаталари ( $X_A$  ва  $Y_A$ ) ҳамда АВ чизикнинг горизонтал проекцияси  $d_{AB}$  ва дирекцион бурчак  $\alpha_{AB}$  маълум бўлсин. В нүктанинг координаталари куйидагича топилади:

$$X_B \neq X_A \Delta X$$

$$Y_B \neq Y_A \Delta Y, \text{ яъни}$$

$$X_B - X_A \neq \Delta X$$

$$Y_B - Y_A \neq \Delta Y$$

$\Delta X$  - абсцисса орттирумаси;

$\Delta Y$  - ордината орттирмаси;

Координата орттирмалари қуйидагига тенг:  $\Delta X = d \cos \alpha$ ,  $\Delta Y = d \sin \alpha$ .

Координата орттирмаларининг ишораси түғри бурчакли координата системасида чизикнинг қайси чорақда жойлашганлигига қараб аниқланади.

**Тескари геодезик масала:** Икки нүктаны туташтирувчи чизикнинг горизонтал проекциясини ва ориентирлаш бурчагини бу нүкталарнинг маълум координаталари  $X_A$ ;  $Y_A$  ва  $X_B$ ,  $Y_B$  бўйича аниқлаш **тескари геодезик масала** дейилади.

Ер юзининг текис деб қабул қилинган қисмида АВ чизикнинг ориентирлаш бурчаги қуйидагига тенг:

$$\operatorname{tg} \alpha_{AB} = \frac{Y_B - Y_A}{X_B - X_A} = \frac{\Delta Y}{\Delta X}$$

**Zonaviy to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasi.** Zonalarning tekislikka tushgan tasviridagi nuqtaning o'rni shu zonaning koordinatalar sistemasiga nisbatan aniqlanadi. Har zonaning o'qiy meridiani zonaning absissalar o'qi deb, unga perpendikulyar yo'nalishda bo'lган ekvator yo'nalishi esa ordinatalar o'qi deb qabul qilinadi. Bu o'qlarning kesishgan nuqtasi koordinatalar boshi bo'ladi. Absissalar ( $x$ ) shimoliy yarim sharda musbat, janubiy yarim sharda esa manfiy bo'ladi. Ordinatalar ( $u$ ) o'qiy meridiandan sharqqa tomon musbat, g'arbga tomon esa manfiy bo'ladi. Ordinalarning ham hamisha musbat ishorada bo'lishi uchun koordinatalar bosh o'qiy meridiandan 500 km g'arbga surilgan. Bu shartli koordinatalr boshi deyiladi. Nuqtaning ordinatasi hamisha shu shartli koordinatalar boshidan hisoblanadi. Agar ordinata qiymati 500 km dan katta bo'lsa, nuqta zona o'qiy meridiandan sharqda, 500 km dan kichik bo'lsa, o'qiy meridiandan g'arbda bo'ladi. Ordinata qiymati chapiga zona tartibi yoziladi. Masalan, geografik koordinatalari  $\varphi = 41^{\circ}35'$ ,  $\lambda = 69^{\circ}40'$  bo'lган nuqtaning to'g'ri burchakli Gauss-Kryuger sistemasidagi koordinatasi quyidagicha yoziladi :


$$\begin{aligned} x &= 4\ 405\ 653,80 \text{ m} \\ y &= 12\ 555\ 558,95 \text{ m} \end{aligned}$$

Ordinata qiymati nuqta 12 zonada bo'lib, u zona o'qiy meridiandan sharqda 555 558, 95-500 000=55 558,05 m masofada yotganini ko'rsatadi.

## 6.Yer yuzasidagi nuqtalarning absolyut va nisbiy balandliklari.

. Geodezik kenglik va uzoqliklari nuqtaning yer fizik yuzasidagi o'rnini aniqlamay, balki ellipsoid yuzasidagi proyeksiyasi o'rnini aniqlaydi. Nuqtaning yer yuzasidagi haqiqiy o'rnini aniqlash uchun nuqtaning ellipsoiddan balandligini ham bilish kerak. Geodezik ishlarda nuqtaning balandligini aniqlashda hisob yuritiladigan bosh yuza sifatida geoid yuzasi bo'lmissathiy yuza qabul qilinadi. Nuqtaning dengiz yuzasidan bo'lган balandligi **absolut balandlik** deyilib H harfi bilan belgilanadi. H ning qiymati. son bilan ifodalansa, u **absolyut sath** deb ataladi. Bu son nuqta o'rnini aniqlashda uchinchi koordinata bo'ladi. (6-shakl)

Hisobiy sathiy yuza sifatida baltika dengizidagi Kronshtat orolining gidrometrik posti futshtogi (reyka) dagi suvning o'rtacha balandligini ko'rsatuvchi nol belgisi qabul qilinadi. Nuqtaning absolyut balandligi (otmetkasi) H hamisha ham ma'lum bo'lavermaydi. Bunday holda amaliy ishlarni bajarish uchun bir nuqta balandligi ixtiyoriy olinadi, olingan bu balandlik **shartli balandlik** deyiladi. Bir nuqtaning ikkinchi nuqtaga nisbatan bo'lган balandligi **nisbiy balandlik** deb ataladi va h bilan belgilanadi.




6-shakl

### 7.Gorizontol va vyertikal masofalarni aniqlashga Yer egriligining ta'siri.

1) Gorizontol masofaga ta'siri.

$$\Delta d = t - d ; \Delta d = \frac{1}{3} \frac{d^2}{R^2}$$



7-shakl

D km	$\Delta d$ cm	Nisbiy xato	D km	$d\Delta$ cm	Nisbiy xato
1	0,0008	1:120 000 000	30	22,17	1:140 000
5	0,10	1:5 000 000	40	52,60	1:80 000
10	0,82	1:1 200 000	50	102,65	1:50 000
20	6,57	1:300 000	100	821,23	1:12 000

Joyning tomoni 20 km dan katta bo'lganda, Yerning egriligini albatta hisobga olib joy proyeksiyasini tushirish kerak.

2)Er egriligining balandlikka ta'siri.

$$\Delta h = \frac{1}{2} \frac{d^2}{R}$$

D m	50	100	200	300	400	500	1000	2000
$\Delta h$ mm	0,2	0,8	3,0	7,0	12,6	20,0	78,5	314,0

Injenerlik ishlarida nuqtalar otmetkasi 1 mm aniqlik bilan topiladi. Shunga ko`ra masofa 100 m dan oshganda nuqta balandligini aniqlashda Yerning egriligidan keladigan xatoni albatta hisobga olish kerak.

Foydalaniman adabiyotlar

- 1.Geodeziya fani majmua.
- 2 Antik geografiya. Bodmer
- 3.Qadmigi Geografiya. J. Tompson

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### **GEODEZIYA VA KARTOGRAFIYA FAOLIYATI TO'G'RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 18-fevralda qabul qilingan

Senat tomonidan 2020-yil 19-iyunda ma'qullangan

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

##### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

*Oldingi tahririga qarang.*

##### **2-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik**

Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ushu Qonun va boshqa qonunchilik hujjalardan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonunchiligidida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

*(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)*

##### **3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**geografik axborot tizimi** — geografik obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, ularni tahlil qilish, saqlash, modellashtirish va aks ettirish uchun, shuningdek kartografiyaga oid axborotdan foydalangan holda umum davlat ahamiyatiga yoki tarmoq ahamiyatiga molik axborotga va hisob-kitobga doir vazifalarni hal etish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan tizim;

**geodeziya** — Yer shaklini, tashqi gravitatsiya maydonini, yer sathining koordinata nuqtalarini va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy, ta'lim, ishlab

chiqarish hamda boshqa faoliyat jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar sohasi;

**geodeziya va kartografiya faoliyati** — Yer shaklining, tashqi gravitatsiya maydonining parametrlarini, yer sathining koordinata nuqtalarini va ularning vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarini aniqlashga, davlat geodeziya, gravimetriya va niveler tarmoqlarini, doimiy faoliyat ko‘rsatadigan sun’iy yo‘ldosh orqali kuzatish stansiyalari tarmog‘ini yaratish, rivojlantirish va ishslash holatida saqlab turishga, davlat kadastrlari, geofazoviy ma’lumotlar banklari (bazalari) va geoaxborot tizimlari uchun topografik, tematik xaritalar, rejalarini va kartografik asosni yaratishga hamda yangilashga qaratilgan ilmiy, ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyati;

**geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma’lumotlar)** — axborotni qayd etish turi va usulidan qat’i nazar, geodeziya va kartografiya faoliyati amalga oshirilayotganda olingen geodeziya, niveler, gravimetriya o‘lchovlarining, aerokosmik va kartografik tasvirlarning barcha yakuniy va oraliq natijalari;

**gravimetriya tarmog‘i** — yer sathidagi og‘irlik kuchining miqdorlari ma’lum bo‘lgan geodeziya punktlari tizimi;

**Yerni masofadan turib zondlash** — Yer sathi haqidagi, undagi yoki uning qa’ridagi obyektlar to‘g‘risidagi axborotni kontaktsiz usullar orqali olish jarayoni;

**kartografiya** — fazoviy (geofazoviy) ma’lumotlarni, shu jumladan axborot (geoaxborot) tizimlaridan foydalangan holda o‘rganish, yaratish, ulardan foydalanish, ularni o‘zgartirish va aks ettirish bo‘yicha ilmiy, ta’lim, ishlab chiqarish hamda boshqa faoliyat jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar sohasi;

**kartografik monitoring** — joyning holatini kartografik jihatdan o‘rganish maqsadida yer yuzasini uzlusiz kuzatish tizimi;

**tematik xarita, reja, atlas** — asosiy mazmuni aniq mavzu, sujet, tabiiy yoki ijtimoiy hodisalar yoxud ularning birikuvi bilan belgilanadigan kartografiyaga doir materiallar;

**topografik xarita** — joyning muayyan masshtabdagi batafsil kartografik tasviri bo‘lib, u yer yuzasida nuqtalarning ham rejadagi, ham balandlikdagi holatini aniqlash imkonini beradi;

**topografik tasvirga olish jarayoni** — topografik xaritaning yoki rejaning tasvirga olingen asl nusxasini olish maqsadida bajariladigan ishlar majmui;

**topografik reja** — joyning cheklangan uchastkasini tekis yuzada ortogonal proyeksiyada, yirik masshtabda kartografik jihatdan tasvirlash bo‘lib, uning chegarasidagi tekislangan sathning egriligi hisobga olinmaydi;

**fazoviy ma’lumotlar infratuzilmasi** — bazaviy va ixtisoslashgan fazoviy ma’lumotlarning, metama’lumotlarning, standartlarning va reglamentlarning, axborot uzatish tarmoqlarining, geoservislarning geografik axborot resurslaridan foydalanish va ularni almashish tizimi;

**Fazoviy ma’lumotlarning milliy infratuzilmasi** — tashkiliy tuzilma, ilmiy-texnika siyosati, texnik va dasturiy vositalar, bazaviy va sohaga oid fazoviy ma’lumotlar, metama’lumotlar hamda metama’lumotlar bazalarini, fazoviy ma’lumotlar servislarini, normativ-hujuqiy hujjatlarni, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni, xalqaro standartlarni o‘z ichiga oladigan, O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanilishi mumkin bo‘lgan fazoviy ma’lumotlarni ishlab chiqish, yangilash, ularga ishlov berish, ularni saqlash, berish, integratsiyalash hamda ulardan foydalanish masalalariga doir O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlarini o‘z ichiga oladigan tizim;

**fazoviy (geofazoviy) ma’lumotlar** — joydagi obyektlarning joylashgan yeri to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, muayyan shaklda hamda koordinatalar tizimlarida ifodalanang axborot;

**O‘zbekiston Respublikasining navbatchi ma’lumotnomasi tarzidagi xaritasi** — navbatchi kartografiya hujjati sifatida xaritalar va rejalarini yaratish hamda yangilash chog‘ida foydalaniladigan topografik xarita bo‘lib, unda ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarining joylashuvida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududining yangilab boriladigan hamda yangidan yaratiladigan xaritalari va rejalarida hisobga olinishi

hamda aks ettirilishi lozim bo‘lgan geografik obyektlardagi va ularning nomlaridagi o‘zgarishlar muntazam ravishda aks ettirib boriladi;

**dyelimitatsiya qilish** — tuzilgan shartnomaga muvofiq chegaradosh davlatlar o‘rtasidagi davlat chegarasi chizig‘ini aniqlash, uning kelib chiqishini tavsiflash va uni xaritada grafik aks ettirish;

**demarkatsiya qilish** — davlat chegarasi chizig‘ini dyelimitatsiya qilish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq joylarda chegara belgilarini o‘rnatish yo‘li bilan belgilash.

#### **4-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirishning asosiy prinsiplari**

Geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

geodeziya va kartografiya faoliyatining tizimliligi hamda uzlusizligi;

geodeziya va kartografiyaga doir materiallarning (ma’lumotlarning) to‘liqligi, ishonchliligi hamda dolzarbligi;

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish chog‘ida o‘lchovlarning birligi;

xaritalar va rejalarini yaratish hamda yangilashda shartli belgilarni birxillashtirish va geografik obyektlarning nomlaridan bir xilda foydalanish.

#### **5-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyatining tizimliligi hamda uzlusizligi**

Geodeziya va kartografiya faoliyatining tizimliligi prinsipi fazoviy ma’lumotlarni yig‘ish va ularga ishlov berish chog‘ida davlat geodeziya koordinatalarining, balandliklarining, gravimetriya o‘lchovlarining tizimlarini hamda davlat topografik xaritalari va rejalarining masshtab qatorini ishlab chiqish hamda qo‘llashdan iboratdir.

Geodeziya va kartografiya faoliyatining uzlusizligi prinsipi davlat topografik xaritalari va rejalarini uzlusiz ravishda yangilab borish yo‘li bilan ta’minlanadi.

#### **6-modda. Geodeziya va kartografiyaga doir materiallarning (ma’lumotlarning) to‘liqligi, ishonchliligi hamda dolzarbligi**

Geodeziya va kartografiyaga doir materiallarning (ma’lumotlarning) to‘liqligi, ishonchliligi hamda dolzarbligi davlat geodeziya, niveler va gravimetriya tarmoqlarini, geodezik zichlashtirish tarmoqlarini ishlash holatida saqlab turish, davlat topografik xaritalari va rejalarini kartografik monitoring qilish hamda uzlusiz ravishda yangilab borish tizimini joriy etish yo‘li bilan ta’minlanadi.

#### **7-modda. Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda o‘lchovlarning birligi**

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda o‘lchovlarning birligiga geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma’lumotlarni) metrologik jihatdan ta’minlash hamda standartlashtirish, sertifikatlashtirish, shuningdek metrologiya nazoratini o’tkazish orqali erishiladi.

#### **8-modda. Xaritalar va rejalarini yaratish hamda yangilashda birxillashtirilgan shartli belgilarini qo‘llash va geografik obyektlarning nomlaridan bir xilda foydalanish**

Xaritalar va rejalarini yaratish hamda yangilashda geofazoviy obyektlarni va ularning tavsiflarini aks ettirish uchun birxillashtirilgan shartli belgilar, shuningdek Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestrida ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan yoki ro‘yxatga olingan geografik obyektlarning me’yorlashtirilgan nomlari qo‘llaniladi.

#### **9-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyatining obyektlari**

O‘zbekiston Respublikasi hududi, yer shari hududi, kosmik fazo, shu jumladan tabiiy hamda sun’iy osmon jismlari geodeziya va kartografiya faoliyatining obyektlaridir.

#### **10-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyatining subyektlari**

Geodeziya va kartografiya faoliyatining subyektlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi;

*(10-modda birinchi qismi uchinchi xatbosisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-*

*avgustdagи O'RQ-708-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)*

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;  
davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;  
mahalliy davlat hokimiyati organlari;  
*Oldingi tahrirga qarang.*

geodeziya va kartografiya faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshiradigan yuridik shaxslar;

*(10-moddaning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) saqlovchi yuridik va jismoniy shaxslar.

**2-bob. Geodeziya va kartografiya faoliyati sohasini davlat tomonidan tartibga solish**  
**11-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

geodeziya koordinatalarining, balandliklarining, gravimetriya o'lchovlarining yagona davlat tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, yuridik shaxslarning geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish bilan bog'liq faoliyatini muvofiqlashtirish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatga (harakatlarga) doir talablari va shartlariga, geodeziya va kartografiyaga doir materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish;

*(11-moddaning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning, geodeziya punktlarining hisobga olinishini ta'minlash;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

**12-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning ijrosini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududida geodeziya koordinatalarining, balandliklarining, gravimetriya o'lchovlarining yagona davlat tizimlarini, davlat topografik xaritalari va rejalarining masshtab qatorini belgilaydi;

davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) ekspertizadan o'tkazish tartibini belgilaydi;

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish tartibini belgilaydi;

kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish tartibini belgilaydi.

**13-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi maxsus vakolatlari davlat organi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

(13-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagи O‘RQ-708-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son)

Maxsus vakolatli davlat organi:

geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi;

aerokosmik suratga olishga, topografiya-geodeziyaga, kartografiyaga oid va boshqa tekshiruvlarni hamda qidiruv ishlarini amalga oshiradi;

geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma’lumotlarni) ekspertizadan o‘tkazadi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida geodeziya koordinatalarining, balandliklarining, gravimetriya o‘lchovlarining yagona davlat tizimlarini hamda davlat topografik xaritalari va rejalarining masshtab qatorini belgilash masalalari bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

geodeziya va kartografiya faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risidagi xabarnomani qabul qiladi hamda xabardor qiluvchilarining reyestrini yuritadi;

(13-modda ikkinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining, yuridik shaxslarning geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish bilan bog‘liq faoliyatini muvofiqlashtiradi;

umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro‘yxatga olishni amalga oshiradi;

davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarining hamda geodezik zichlashtirish tarmoqlarining turlari va tarkibini, shuningdek ularni yaratish tartibini belgilaydi;

davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarini, geodezik zichlashtirish tarmoqlarini yaratadi, rivojlantiradi va ishlash holatida saqlab turadi;

grafik, raqamli, fotosurat shaklidagi hamda boshqa shakllardagi davlat topografik xaritalari va rejalarini yaratadi, yangilaydi hamda nashr etadi;

mahalliy koordinatalar tizimlarini belgilash va ulardan foydalanish tartibini aniqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida geodeziya punktlarining joylashish zichligi normalarini belgilaydi hamda ularning joylashgan yerini aniqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida geodeziya punktlarining hisobini yuritadi;

davlat topografik xaritalari va rejalarini yangilash davriyligi normalarini belgilaydi;

Yerning kartografik monitoringini, uni masofadan turib zondlashni va geodinamik tadqiqotlarini amalga oshiradi;

sun‘iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlarining ishlashini ta’minalash uchun geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma’lumotlarni) yaratadi;

Fazoviy ma’lumotlarning milliy infratuzilmasini yaratadi, rivojlantiradi va uning faoliyat ko‘rsatishini ta’minalaydi;

Milliy geografik axborot tizimini, umumdavlat ahamiyatiga molik boshqa geografik axborot tizimlarini yaratadi va yuritadi;

umumgeografik, siyosiy-ma’muriy, ilmiy-ma’lumotga oid xaritalarni va boshqa tematik xaritalarni, shuningdek tarmoqlararo ahamiyatga molik atlaslarni, kartografiya o‘quv qo‘llanmalarini yaratadi hamda nashr etadi;

geografik obyektlarning nomlarini belgilashni, me’yorlashtirishni, davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni, ulardan foydalanishni va ularni saqlashni, shuningdek Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestrini yuritishni amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini dyelimitatsiya, demarkatsiya

(redemarkatsiya) qilish va uning o‘tish chizig‘ini tekshirish bo‘yicha chegaradosh davlatlar bilan muzokaralar jarayonini tashkil etish hamda ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan geodeziya, kartografiya va gidrografiya oid ishlarni amalga oshiradi, ular asosida materiallar (ma’lumotlar) tayyorlaydi;

geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

geodeziya, kartografiya va kadastrga oid ishlarni metrologik jihatdan ta’minlashni tashkil etadi;

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning davlat hisobini amalga oshiradi;

Kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritadi;

geodeziya va kartografiyaga oid bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi texnik hisobotlarga doir talablarni belgilaydi;

davlat kartografiya-geodeziya fondining shakllantirilishi va yuritilishini amalga oshiradi;

davlat geodeziya nazoratini amalga oshiradi;

geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika bazasiga, asbob-uskunalarga va boshqa texnik vositalarga doir talablarni belgilaydi;

ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va tajriba-texnologik ishlarni bajaradi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma’lumotlar) bilan ta’minlaydi;

geodeziya va kartografiya faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

#### **14-modda. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasining mudofaasi hamda milliy xavfsizligini ko‘zlab, umum davlat ahamiyatiga va maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning bajarilishini ta’minlaydi;

natijsalaridan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari foydalanadigan topografiya-geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning sifati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

#### **15-modda. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi vakolatlari**

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning bajarilishini o‘z vakolatlari doirasida tashkil etadi hamda muvofiqlashtiradi.

#### **3-bob. Geodeziya va kartografiyaga oid ishlar**

##### **16-modda. Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning turlari**

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

umum davlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar;

maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar.

##### **17-modda. Umum davlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar**

Umum davlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

Yer shaklining va tashqi gravitatsiya maydonining parametrlarini aniqlash;

davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarini, geodezik zichlashtirish tarmoqlarini yaratish, rivojlantirish va ishlash holatida saqlab turish;

grafik, raqamli, fotosurat shaklidagi va boshqa shakllardagi davlat topografik xaritalari hamda rejalarini yaratish, yangilash va nashr etish;

Yerning kartografik monitoringini, uni masofadan turib zondlashni va geodinamika tadqiqotlarini amalga oshirish;

sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlarining ishlashini ta’minlash uchun geodeziya va

kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) yaratish;

Fazoviy ma'lumotlarning milliy infratuzilmasini yaratish, rivojlantirish va uning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

Milliy geografik axborot tizimini, umumdavlat ahamiyatiga molik boshqa geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish;

kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish;

O'zbekiston Respublikasining davlat kartografiya-geodeziya fondini shakllantirish va yuritish;

umumgeografik, siyosiy-ma'muriy, ilmiy-ma'lumotga oid va boshqa tematik xaritalar hamda tarmoqlararo ahamiyatga molik atlaslar, kartografik o'quv qo'llanmalarini yaratish va nashr etish;

O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini dyelimitatsiya, demarkatsiya (redemarkatsiya) qilish va uning o'tish chizig'ini tekshirish bo'yicha ishlarni zarur geodeziya, kartografiya hamda gidrografiya doir ishlar, materiallar (ma'lumotlar) bilan ta'minlash;

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda o'lchovlar birligini va metrologiya nazoratini ta'minlash;

geografik obyektlarning nomlarini belgilash, me'yorlashtirish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, ulardan foydalanish va ularni saqlash, shuningdek Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestrini yuritish;

geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

ushbu moddada sanab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va tajriba-texnologik ishlarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshiriladigan, natijalari umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan boshqa geodeziya va kartografiyaga oid ishlar.

## **18-modda. Umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish**

Umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar maxsus vakolatli davlat organi hamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi davlat dasturlariga muvofiq, shuningdek buyurtmalar asosida bajariladi.

Umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar maxsus vakolatli davlat organi tomonidan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa yuridik shaxslar bilan hamkorlikda bajariladi.

O'zbekiston Respublikasining mudofaasi va milliy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini dyelimitatsiya va demarkatsiya (redemarkatsiya) qilish ishlari esa O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo'shinlari bilan hamkorlikda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan bajariladi.

## **19-modda. Maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar**

Maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

muhandislik qidiruvlarida, binolarni, inshootlarni qurish hamda ulardan foydalanishda, yer tuzishda, davlat kadastrlarini yuritishda va boshqa ishlarda geodezik zichlashtirish tarmoqlarini qurish hamda rivojlantirish;

muhandislik qidiruvlarida, binolar va inshootlarni qurish hamda ulardan foydalanishda va boshqa ishlarda maxsus geodeziya tarmoqlarini qurish;

geodeziya tasvirga olish tarmoqlarini qurish, aholi punktlarining hududlari va qishloqlararo hududlarni rivojlantirishni hamda ularda qurilish olib borishni rejashtirish

to‘g‘risidagi shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek boshqa ishlarni bajarish uchun mo‘ljallangan topografik rejalarini yaratish va yangilash;

maxsus ahamiyatga molik geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish;

grafik, raqamli, fotosurat shaklidagi hamda boshqa shakllardagi maxsus ahamiyatga molik tematik xaritalar, rejalar va atlaslarni tuzish hamda nashr etish;

muhandislik qidiruvlarini amalga oshirish chog‘ida geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ta‘minlash maqsadida Yerni masofadan turib zondlash.

### **20-modda. Maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish**

Maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni tarmoqlararo hamda tarmoq dasturlariga (loyihalariga) muvofiq maxsus vakolatli davlat organi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan bajariladi.

Maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda umum davlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning materiallari (ma‘lumotlari) qo‘llaniladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishga geodeziya va kartografiya faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshiradigan yuridik shaxslar jalg etilishi mumkin.

*(20-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

### **21-modda. O‘zbekiston Respublikasining mudofaasi va milliy xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni**

O‘zbekiston Respublikasining mudofaasi va milliy xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni quyidagilarni nazarda tutadi:

topografik va maxsus xaritalarni tuzish hamda nashr etish;

maxsus geodeziya tarmoqlarini rivojlantirish;

maxsus ahamiyatga molik geografik axborot tizimlarini yaratish.

### **22-modda. Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda davlat geodeziya koordinatalari, balandliklari, gravimetriya o‘lchovlarining tizimlarini hamda davlat topografik xaritalari va rejalarining mashtab qatorini qo‘llash**

O‘zbekiston Respublikasi hududida umum davlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda davlat geodeziya koordinatalari, balandliklari, gravimetriya o‘lchovlarini tizimlarini hamda davlat topografik xaritalari va rejalarining mashtab qatorini qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy birliklari hududlarida umum davlat ahamiyatiga hamda maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda mahalliy koordinatalar tizimlari, basharti ularning davlat geodeziya koordinatalari tizimi bilan o‘zaro bog‘langanligi ta‘minlansa, qo‘llanilishi mumkin.

Mahalliy koordinatalar tizimining sanoq boshi va o‘qlari yo‘nalishi tegishinchada davlat geodeziya koordinatalari tizimining sanoq boshi va o‘qlari yo‘nalishiga nisbatan siljilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat koordinatalar va balandliklar tizimlari yoki mahalliy koordinatalar tizimlari bo‘lmagan koordinatalar hamda balandliklar tizimlari qo‘llanilishi mumkin.

Natijalarini umum davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda qo‘llash uchun belgilangan topografik xaritalar hamda rejalarining mashtablari davlat topografik xaritalari va rejalarining mashtab qatorini tashkil etadi.

### **23-modda. Davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarini yaratishga doir ishlarni**

Davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarini yaratishga doir ishlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona davlat geodeziya koordinatalari, balandliklari, gravimetriya

o‘lchovlari tizimlarini belgilash va tarqatish maqsadida bajariladi.

Davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlari boshqa geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarini, geodezik zichlashtirish tarmoqlarini qurish uchun boshlang‘ich hisoblanadi.

Geodezik zichlashtirish tarmoqlari davlat geodeziya va niveler tarmoqlarini rivojlantirish uchun topografik tasvirga olish jarayonini ta’minlashda hamda muhandislik-geodeziyaga oid vazifalarni hal etishda yaratiladi.

#### **24-modda. Geodeziya punktlari**

Geodeziya punkti joyda (tuproqda, binoda yoki boshqa sun’iy inshootda) yer sathining nuqtalarini ma’lum koordinatalar hamda balandliklar bilan belgilash uchun mo‘ljallangan moslama va (yoki) qurilma bo‘lib, u maxsus markazdan, tashqi belgidan hamda tashqi chekkasi geodeziya punktining chegarasi bo‘lgan zovur yoki uyum tarzidagi tashqi ko‘rinishdan iboratdir. Geodeziya punktining tashqi ko‘rinishi mavjud bo‘lmagan taqdirda tashqi belgining asosi uning chegarasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qurilgan davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarining geodeziya punktlari hamda boshqa geodeziya punktlari davlat muhofazasida bo‘ladi.

##### *Oldingi tahrirga qarang.*

Geodeziya punktlarini joylashtirish uchun yer uchastkalarini ajratish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

*(24-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Geodeziya punktlari chegaralarida hamda ushbu chegaralar bo‘ylab bir metr kenglikdagi maydonda geodeziya punktlarining muhofaza zonalari belgilanadi.

Geodeziya punktlari tashqi belgilarga ega bo‘lmagan yoki geodeziya punktlarining maxsus markazlari binolarning va boshqa inshootlarning devorlariga joylashtirilgan hollarda, ushbu geodeziya punktlarining chegaralari va muhofaza zonalari belgilanmaydi.

Geodeziya punktlarining muhofaza zonalarda quyidagilar taqiqilanadi:

geodeziya ishlarini bajarish chog‘ida geodeziya punktlarining but saqlanishini va ulardan foydalaniishini ta’minlamaydigan ishlarni maxsus vakolatli davlat organining ruxsatisiz amalga oshirish;

geodeziya punktlarining shikastlanishiga yoki yo‘q qilinishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan turli materiallarni saqlash, olov yoqish, chiqindilarni saqlashni va ko‘mishni, shuningdek boshqa harakatlarni amalga oshirish.

Geodeziya punktlarining but saqlanishini ta’minlash o‘z hududida ushbu punktlar joylashtirilgan tumanlar, shaharlar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarining geodeziya punktlarini qurish, tiklash, buzish yoki qayta o‘rnatish maxsus vakolatli davlat organining qarori asosida, boshqa geodeziya punktlari esa maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Shikast yetkazilgan, yo‘q qilingan geodeziya punktlarini tiklash yoki qayta qurish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni o‘z faoliyati geodeziya punktlariga shikast yetkazilishiga, ularning yo‘q qilinishiga olib kelgan yoki o‘zining murojaati asosida geodeziya punktlarini qayta o‘rnatish amalga oshirilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qoplanadi.

Geodeziya punktlari joylashgan yer uchastkalari, binolar, inshootlarga bo‘lgan huquq egalari:

geodeziya punktlarining but saqlanishini ta’minlashi, ularning muhofaza zonalari rejimiga rioya etishi;

maxsus vakolatli davlat organini geodeziya punktlariga shikast yetkazilganligi yoki ular yo‘q qilinganligi hollari to‘g‘risida xabardor qilishi;

geodeziya ishlarini bajaruvchilarga geodeziya ishlari bajarilayotganda geodeziya punktlariga kirib borish imkoniyatini berishi shart.

#### **4-bob. Geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirishga doir asosiy shartlar hamda**

## talablar

### **25-modda. Davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlariga hamda davlat topografik xaritalari va rejalariga doir asosiy talablar**

Davlat geodeziya tarmog‘i geodeziya punktlari tizimidan iboratdir va bu punktlarning yer sathidagi holati ular uchun umumiy bo‘lgan koordinatalar tizimidagi geodeziya o‘lchovlari asosida belgilangan bo‘ladi.

Davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlari, shuningdek davlat topografik xaritalari va rejalar dolzarblik holatida saqlab turilishi kerak.

Davlat geodeziya, nivelir yoki gravimetriya tarmoqlarining dolzarblik holati deganda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning materiallarga (ma’lumotlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi holat tushuniladi.

Davlat topografik xaritalari va rejalarining dolzarblik holati deganda davlat topografik xaritalari va rejalarining mazmuni joyning haqiqiy holatiga mos keladigan hamda amaldagi shartli belgilarda va belgilangan koordinatalar tizimida aks ettirilgan holat tushuniladi.

Davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlari dolzarblik holatida saqlab turilishi uchun ular muntazam ravishda tiklab borilishi, davlat topografik xaritalari va rejalar esa yangilab turilishi kerak.

Davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlarini tiklash O‘zbekiston Respublikasi hududida geodeziya punktlarining joylashtirilish zichligi normalari hisobga olingan holda bajariladi.

### **26-modda. Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishga doir asosiy talablar**

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda quyidagi asosiy talablarga rioya etilishi kerak:

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

qonunchilik talablariga, shu jumladan xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatga (harakatlarga) doir talablari va shartlariga, kartografiya va geodeziya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi standartlar hamda normativ hujjatlarga, shuningdek loyiha-smeta va texnik hujjatlar talablariga amal qilish;

(*26-moddaning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son*)

ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg‘or texnologiyalari va usullarini joriy etish;

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni odamlarning hayoti hamda sog‘lig‘i, atrof-muhitning holati va moddiy madaniy meros obyektlari uchun xavfsiz usullar hamda vositalar orqali bajarish;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini, ma’muriy-hududiy tuzilish chegaralarini, shuningdek chet davlatlarning chegaralarini hamda boshqa siyosiy-ma’muriy chegaralarni va geografik elementlarni xaritalarda grafik jihatdan to‘g‘ri tasvirlash;

geodeziya va kartografiyaga doir materiallarning (ma’lumotlarning) hisobga olinishi hamda saqlanishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi davlat geodeziya tarmoqlari holating tizimli tahlilini amalga oshirish va kartografiyaga doir materiallarning joyning haqiqiy holatiga muvofiglagini ta’minlash.

### **27-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish**

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni tashkil etish tartibi, geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish aniqligi, vositalari, usullari va texnologiyalariga, geodeziya tarmoqlariga, xaritalarning, rejalarining, atlaslarning mazmuniga, joyning raqamli modellariga doir asosiy texnik talablar, shuningdek geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning bajarilishi hamda ularning sifatiga oid talablar geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilanadi.

## **28-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyatini metrologik jihatdan ta'minlash hamda standartlashtirish**

Geodeziya va kartografiya faoliyatini metrologik jihatdan ta'minlash hamda standartlashtirish geodeziya kuzatuvlari chog'ida o'lchov va sinov vositalaridan foydalanish tartibini, geodeziya o'lchovlari va sinovlari sifatini nazorat qilish usullarini, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Geodeziya o'lchovlarining yagonaligini ta'minlash, geodeziya o'lchov vositalarini standartlashtirish ishlarida ishtirok etish, geodeziya, topografiya va kartografiya mahsulotlarini majburiy sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qilish hamda o'tkazish, geodeziya va kartografiya faoliyati sohasida metrologiya nazoratini olib borish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **29-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirish hamda nazorat qilish tartibi**

Geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus vakolatli davlat organi bu haqda belgilangan tartibda xabardor qilinishi kerak. Xabardor qilish tartibi hamda geodeziya va kartografiya bilan bog'liq ishlarning turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Geodeziya va kartografiya faoliyati yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan geodeziya va kartografiya faoliyatini o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turish hamda qayta tiklash to'g'risidagi qarorlar maxsus vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadi.

*(29-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

## **30-modda. Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish**

Umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar hamda maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik ishlar ro'yxatga olinishi lozim.

Maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik ishlarning ayrim turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq ro'yxatga olmasdan bajarilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi qaror faqat faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshiradigan yuridik shaxslarga beriladi.

*(30-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi qaror amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Bunda berilgan qaror haqidagi axborot Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish to'g'risida berilgan qarorlarning reyestriga kiritiladi.

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi qarorni berish, qayta rasmiylashtirish, uning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va uni bekor qilish tartibi, shuningdek geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi qarorni berish haqidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun undiriladigan yig'im miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi qarorni berish haqidagi arizani ko'rib chiqish texnik loyihibar (dasturlar) ekspertizasini o'tkazishni o'z ichiga oladi.

## **31-modda. Geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) ekspertizasi**

O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish natijasida olingan geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar)

ekspertiza qilinishi lozim.

Geodeziya va kartografiyaga doir materiallarning (ma'lumotlarning) ekspertizasini o'tkazishda ularning geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shuningdek geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishning texnik loyihalari (dasturlari) talablariga muvofiqligi aniqlanadi.

Geodeziya va kartografiyaga doir materiallarning (ma'lumotlarning) ekspertizasi bajarilgan geodeziya va kartografiyaga oid ishlar haqidagi texnik hisobotlar asosida o'tkaziladi. Ekspertiza natijalariga ko'ra maxsus vakolatli davlat organi tomonidan xulosa beriladi.

### **5-bob. Geodeziya va kartografiya faoliyatining mahsulotlari**

#### **32-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyati mahsulotlarining turlari**

Geodeziya va kartografiya faoliyati mahsulotlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar);

geodeziya punktlari;

fazoviy (geofazoviy) ma'lumotlar;

geografik axborot tizimlari;

fazoviy ma'lumotlarning infratuzilmasi;

ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va tajriba-texnologik ishlarning natijalari, shu jumladan geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar.

#### **33-modda. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan yaratilgan geodeziya va kartografiya faoliyati mahsulotiga bo'lgan mulk huquqi**

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan yaratilgan geodeziya va kartografiya faoliyati mahsuloti, shu jumladan davlat kartografiya-geodeziya fondi materiallari (ma'lumotlari) O'zbekiston Respublikasining mulkidir.

#### **34-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi intellektual mulk obyektlari**

Geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar), fazoviy (geofazoviy) ma'lumotlar, geografik axborot tizimlari, fazoviy ma'lumotlarning infratuzilmasi, geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va tajriba-texnologik ishlarning natijalari intellektual mulk obyektlaridir.

#### **35-modda. Geodeziya va kartografiyaga doir materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanish tartibi**

Yuridik va jismoniy shaxslar davlat kartografiya-geodeziya fondining hamda idoraviy kartografiya-geodeziya fondlarining materiallaridan (ma'lumotlardan) ushbu Qonun talablariga riyoja etgan holda foydalanish huquqiga ega.

Kartografiya-geodeziya fondining materiallaridan foydalanish chog'ida:

geodeziya va kartografiyaga doir materiallardan (ma'lumotlardan) ruxsatsiz ko'chirma nusxa olish;

aerosuratga olish materiallarini, shuningdek davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar mavjud bo'lgan materiallarni bunday materiallarning saqlanishini ta'minlash uchun rejim organi va lozim darajada shart-sharoitlari bo'limgan tashkilotlarga berish taqilanganadi.

Davlat kartografiya-geodeziya fondining geodeziya va kartografiyaga doir materiallaridan (ma'lumotlardan) foydalanuvchilar olingen materiallarning (ma'lumotlarning) but saqlanishini ta'minlashi, ularni belgilangan muddatlarda qaytarishi hamda ularda mavjud bo'lgan davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etmasligi shart.

Davlat kartografiya-geodeziya fondining geodeziya va kartografiyaga doir materiallarini (ma'lumotlarini) uchinchi shaxslarga berishga hamda ulardan ko'chirma nusxa olishga ushbu materiallar (ma'lumotlar) o'z tasarrufida bo'lgan organlarning ruxsatisiz yo'l qo'yilmaydi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat sirini tashkil etuvchi geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) yo'qotilgan taqdirda, geodeziya va kartografiyaga doir materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanuvchilar qonunchilikda nazarda tutilgan choralarini ko'rishi, shuningdek yo'qotish

aniqlangan paytdan e'tiboran bir kundan oshmaydigan muddatda maxsus vakolatli davlat organini xabardor qilishi shart.

(35-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Davlat kartografiya-geodeziya fondining geodeziya va kartografiyaga doir materiallaridan (ma'lumotlаридан) foydalanganlik uchun maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadigan miqdorda yig'im undiriladi.

### **6-bob. Geodeziya va kartografiya faoliyati sohasida hisobni yuritish**

#### **36-modda. Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning davlat hisobi**

Umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlар geodeziya va kartografiyaga doir materialarni (ma'lumotlари) yig'ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va ulardan foydalanish maqsadida davlat hisobiga olinishi shart.

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning davlat hisobi ularni ro'yxatga olish hamda kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish chog'ida amalga oshiriladi.

#### **37-modda. Kartografiya-geodeziya davlat kadastro**

Kartografiya-geodeziya davlat kadastro Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kartografiya-geodeziya davlat kadastro obyektlari, O'zbekiston Respublikasi hududi haqidagi geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) to'g'risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot, bajariladigan geodeziya, topografiya va kartografiyaga oid ishlар, shu jumladan ularning miqdor va sifat tavsiflari haqidagi ma'lumotlar tizimidan iboratdir.

#### **38-modda. O'zbekiston Respublikasining kartografiya-geodeziya fondi**

Geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) O'zbekiston Respublikasining kartografiya-geodeziya fondini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining kartografiya-geodeziya fondi tarkibiga davlat va idoraviy kartografiya-geodeziya fondlari kiradi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat kartografiya-geodeziya fondi geodeziya va kartografiya faoliyati natijasida yaratilgan, umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan hamda qonunchilikda belgilangan tartibda hamda muddatlarda saqlanishi lozim bo'lgan geodeziya va kartografiyaga doir materialarni (ma'lumotlари) o'z ichiga oladi.

(38-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Davlat kartografiya-geodeziya fondi maxsus vakolatli davlat organining tasarrufida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining kartografiya-geodeziya fondi uning o'z tasarrufida bo'ladi.

Idoraviy kartografiya-geodeziya fondlari maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga doir materialarni (ma'lumotlари) o'z ichiga oladi hamda tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining tasarrufida bo'ladi.

Geodeziya va kartografiyaga doir materialarni (ma'lumotlари) davlat va idoraviy kartografiya-geodeziya fondlariga topshirish tartibi, shuningdek ularning tarkibi, turi va shakllariga doir talablar davlat va idoraviy kartografiya-geodeziya fondlari to'g'risidagi nizomlarda belgilanadi. Davlat va idoraviy kartografiya-geodeziya fondlari to'g'risidagi nizomlar hamda ularda mavjud bo'lgan geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) ro'yxatlari fondlarning saqlovchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi kartografiya-geodeziya fondining belgilangan tartibda Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan geodeziya va kartografiyaga doir materialari (ma'lumotlari) arxiv ishi to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hisobga olinadi, saqlanadi va ulardan foydalaniлади.

(38-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-

*sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*

O'zbekiston Respublikasi hududida geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajaruvchi geodeziya va kartografiya faoliyati subyektlari o'zi yaratgan umum davlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga doir materiallarning (ma'lumotlarning) bir nusxasini davlat kartografiya-geodeziya fondiga bepul berishi shart.

Geodeziya va kartografiya faoliyati subyektlarining geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) davlat kartografiya-geodeziya fondiga topshirishi, ushbu materiallarning (ma'lumotlarning) saqlanishi hamda ulardan foydalanilishi, idoraviy kartografiya-geodeziya fondlarining davlat reyestri yuritilishi ustidan davlat geodeziya nazorati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

### **7-bob. Davlat geodeziya nazorati**

#### **39-modda. Davlat geodeziya nazoratining maqsadi va vazifalari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat geodeziya nazorati geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik buzilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi.

*(39-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Davlat geodeziya nazoratining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

*Oldingi tahrirga qarang.*

geodeziya va kartografiya faoliyatining barcha subyektlari tomonidan geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga, shu jumladan xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatga (harakatlarga) doir talablari va shartlariga, geodeziya hamda kartografiyaga doir materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

*(39-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni, geodeziya punktlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda hisobga olishni tashkil etish;

davlat kartografiya-geodeziya fondining faoliyat yuritishini ta'minlash.

#### **40-modda. Davlat geodeziya nazoratining asosiy funksiyalari**

Davlat geodeziya nazoratining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

*Oldingi tahrirga qarang.*

geodeziya va kartografiya faoliyatining barcha subyektlari tomonidan geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga, xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatga (harakatlarga) doir talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

*(40-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

kartografiyaga doir materiallarda hamda boshqa hujjatlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi va hududi to'g'ri aks ettirilganligi ustidan nazorat qilish;

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatdan o'tkazish;

geodeziya punktlarini hisobga olish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlaridagi geodeziya punktlarining, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa geodeziya punktlarining but saqlanishi va ularning muhofaza zonalari rejimiga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

*(40-moddaning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

geodeziya va kartografiya faoliyati subyektlari tomonidan davlat kartografiya-geodeziya fondi hamda idoraviy kartografiya-geodeziya fondlari materiallarining (ma'lumotlarning)

saqlanishi ustidan nazorat qilish;

geodeziya va kartografiya faoliyati subyektlari tomonidan geodeziya koordinatalari, balandliklari, gravimetriya o'lchovlari davlat tizimlarining hamda davlat topografik xaritalari va rejalarining mashtab qatori, mahalliy koordinatalar hamda boshqa koordinatalar tizimlarining q'llanilishi ustidan nazorat qilish;

geodeziya va kartografiya faoliyati subyektlari tomonidan umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) davlat kartografiya-geodeziya fondiga topshirilishi, shuningdek bu subyektlarning ushbu fonddan olgan materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanishi ustidan nazorat qilish;

O'zbekiston Respublikasining navbatchi ma'lumotnomasi tarzidagi xaritasini yuritish.

### **8-bob. Yakunlovchi qoidalar**

#### **41-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyatini moliyalashtirish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni moliyalashtirish buyurtmachilarining mablag'lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

(41-moddaning birinchi va ikkinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanadigan davlat boshqaruvi organlari O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning buyurtmachilari bo'lishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa yuridik shaxslar, shuningdek jismoniy shaxslar qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning hamda maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik ishlarning buyurtmachilari bo'lishi mumkin.

(41-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

#### **42-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyati natijasida yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Geodeziya va kartografiya faoliyati natijasida yetkazilgan zararning o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi lozim.

(42-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

#### **43-modda. Nizolarni hal etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

(43-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **44-modda. Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'лади.

(44-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

**45-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish**

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan “Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi 417-I-soni **Qonuni** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 4-5, 122-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan “Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida”gi 418-I-soni **Qarori** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 4-5, 123-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrda qabul qilingan “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-304-soni Qonuning (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011-yil, № 10, 274-modda) **4-moddasi**;

4) O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-476-soni **Qonuning** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 4, 224-modda) **25-moddasi**.

**46-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minalash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minalas.

(46-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagi O‘RQ-708-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-soni)

*Oldingi tahrirga qarang.*

**47-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish**

(47-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minalas.

**48-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi**

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 2-iyul,  
O‘RQ-626-soni

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.07.2020-y., 03/20/626/1024-soni; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-soni;  
12.10.2021-y., 03/21/721/0952-soni)

## QARORI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO'MITASI HUZURIDAGI KADASTR AGENTLIGI TO'G'RISIDAGI HAMDA KADASTR AGENTLIGINING DAVLAT KADASTRLARI PALATASI TO'G'RISIDAGI NIZOMLARNI TASDIQLASH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son **Farmoni** va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 7-sentabrdagi PQ-4819-son **qarorining** ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

#### 1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi to'g'risidagi nizom **1- ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi to'g'risidagi nizom **2- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi xodimlarining lavozim maoshini belgilashda tarif koeffitsiyenti 1,7 baravarga oshirilgan holda qo'llaniladi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Bunda, ushbu bandni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar budjet mablag'laridan saqlanadigan xodimlar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan, qolgan xodimlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining budgetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

*(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

2<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi xodimlari mehnatiga Yagona tarif setkasi bo'yicha haq to'lash bo'yicha razryadlar **4 — 6- ilovalarga** muvofiq belgilansin.

Belgilansinki, mazkur qarorga asosan belgilangan mehnatga haq to'lash tartibi davlat xizmatchilari uchun mehnatga haq to'lashning yagona tizimi joriy etilguniga qadar amal qiladi.

*(2<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

3. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **3- ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvo fiqlashtirsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha o'rinosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 12-fevral,  
66-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-fevraldagi 66-son qaroriga  
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi to'g'risida  
NIZOM**  
**1-bob. Umumiq qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Agentlik ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya va kartografiya hamda davlat kadastrlarini yuritish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlovchi vakolatli respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o‘z faoliyatida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga (keyingi o‘rinlarda — Davlat soliq qo‘mitasi) bo‘ysunadi.

3. Agentlik Davlat soliq qo‘mitasi tizimiga kiradi.

4. Agentlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasining qarorlariga (buyruqlariga) va Hay’at qarorlariga amal qiladi.

5. Agentlik o‘z faoliyatini davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari, xorijiy va xalqaro hamda nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Agentlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan va normativ-huquqiy tusga ega bo‘lgan qarorlari davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

7. Agentlik yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligidagi ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga va bank hisobvaraqlariga egadir.

8. Agentlikning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, qisqartirilgan nomi — Kadastr agentligi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi — Agentstvo po kadastru pri Gosudarstvennom nalogovom komiteete Respubliki Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Agentstvo po kadastru;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi — Cadastre Agency under the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Cadastre agency.

9. Agentlik joylashgan joy (pochta manzili): Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, “S” mavzesi, 100097.

## **2-bob. Agentlikning tuzilmasi**

10. Agentlik tizimiga quyidagilar kiradi:

Agentlik markaziy apparati;

Agentlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy boshqarmalar);

Agentlikning tuman (shahar) bo‘limlari;

Davlat kadastrlari palatasi;

Respublika aerogeodeziya markazi;

Davlat kartografiya-geodeziya fondi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(10-bandning sakizinchchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 721-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 09/21/721/1110-son)*

“Geoinnovatsiya markazi” davlat unitar korxonasi;  
“Kompyuterlashtirish va geoaxborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi” davlat unitar korxonasi;

Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Kartografiya” davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasi.

(10-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qaroriga asosan o‘n birinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

11. Agentlik tizimidagi tashkilotlar va muassasalar mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita Agentlikka bo‘ysunadi.

### **3-bob. Agentlikning asosiy vazifalari va funksiyalari**

12. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasida:

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minalash;

*Oldingi tahrirga qarang.*

mol-mulklarni ko‘chmas mulk jumlasiga (toifasiga) kirishi yuzasidan xulosa berish;

(12-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-sonli qaroriga asosan uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.09.2021-y., 09/21/595/0900-son — 2021-yil 23-dekabrdan kuchga kiradi)

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

davlat yer kadastr, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minalashga va yer uchastkalarining o‘zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan samarali yer nazoratini amalga oshirish;

b) geodeziya va kartografiya sohasida:

geodeziya va kartografiya sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minalash;

aerokosmik suratga olish, topografiya-geodeziya, kartografiyaga oid izlanishlar hamda tadqiqotlarni, yerkanni masofadan zondlash, geodinamik tadqiqotlar ma’lumotlari va materiallaridan foydalangan holda kartografik monitoringni amalga oshirish;

davlat kartografiya-geodeziya kadastrini yuritish;

davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish;

v) davlat kadastrlarini yuritish sohasida:

davlat kadastrlarini yuritish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minalash;

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

Davlat kadastrlarini yagona tizimini yuritish, hududlar davlat kadastrining samarali yuritilishini ta’minalash;

davlat kadastrlarini yuritish tartiblariga rioya qilinishini ta’minalashga qaratilgan davlat kadastr nazoratini amalga oshirish;

g) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

d) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

13. Agentlik o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasida:

a) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minalashda;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasida yagona davlat siyosatining ustuvor rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqadi;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish faoliyatini ilmiy-texnologik va metodik ta’minlashni tashkil etadi;

b) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda:

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni tashkil etadi va nazorat qiladi;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va bekor bo‘lishini nazarda tutuvchi qarorlar, auksion va tanlov bayonnomalari, notarial tasdiqlangan bitimlar hamda boshqa hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni tashkil etadi;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarning yuzaga kelishi, boshqa shaxslarga o‘tishi, cheklanishi, bekor bo‘lishi va ko‘chmas mulkka doir boshqa bitimlar to‘g‘risidagi yagona elektron ma’lumotlar bazasini tashkil qiladi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning shaffof va ommaga ochiq tizimi ishlashini tashkil qiladi;

kadastr va ko‘chmas mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish integratsion axborot tizimi rivojlantirilishini tashkil etadi;

kadastr muhandislari faoliyatini metodik qo‘llab-quvvatlaydi;

ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestri shakllantirilishi va yuritilishini tashkil etadi;

bino va inshootlarning kadastr qiymatini belgilash ishlarini tashkil etadi va metodik qo‘llab-quvvatlaydi;

v) davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda:

davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastro yuritilishini tashkil etadi;

yer uchastkalarining kadastr raqamlarini identifikatsiyalash va hisobga olinishini ta’minlash maqsadida davlat yer kadastrining elektron ma’lumotlar bazasini shakllantiradi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

(13-band 1-kichik bandining o‘n sakkizinchи xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli *garoriga* asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

yer fondi toifalarining yer turlari bo‘yicha Milliy hisobot Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini tashkil etadi va amalga oshiradi;

ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarining nizoli uchastkalariga aniqlik kiritish bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga (keyingi o‘rinlarda — Vazirlar Mahkamasi) kiritadi;

ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash loyihibarini ishlab chiqadi;

yer fondi holatidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini tashkil etadi va amalga oshiradi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

(13-band 1-kichik bandining yigirma uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli *garoriga* asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

er hisobotini, tuman (shahar) yer kadastro daftarini faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritadi;

har bir yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijrarachi va yer uchastkasi mulkdori bo‘yicha yer kadastro elektron ma’lumotlar bazasini shakllantiradi;

davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda jismoniy va yuridik

shaxslarga tezkor va sifatli davlat xizmatlari ko'rsatishni tashkil etadi;

foydanuvchilarni belgilangan tartibda kadastr axborotlari bilan ta'minlashni tashkil etadi;

g) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlashga va yer uchastkalarining o'zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan samarali yer nazoratini amalga oshirishda:

erlardan maqsadli foydalanish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshiradi;

yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlashga qaratilgan yer nazoratini amalga oshiradi;

yer uchastkalari o'zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan samarali yer nazoratni amalga oshiradi;

yer uchastkasi chegaralarini (chevara nuqtalarini) o'zboshimchalik bilan o'zgartirishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi;

aerokosmik suratlar va uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalangan holda yerlarni masofadan turib zondlashni, shuningdek, geodezik o'lchov uskunalarini yordamida yerlarni o'rganishni tashkil etadi va amalga oshiradi;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlashga qaratilgan samarali kadastr nazoratini tashkil etadi va amalga oshiradi;

kadastr yig'majildi (pasporti) belgilangan tartibda shakllantirilishi va rasmiylashtirilishini nazorat qiladi;

2) geodeziya va kartografiya sohasida:

a) geodeziya va kartografiya sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlashda:

geodeziya va kartografiya sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi;

davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, xo'jalik birlashmalarining, yuridik shaxslarning geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish bilan bog'liq faoliyatini muvofiqlashtiradi;

geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ hujjatlar loyihamarini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

geodeziya va kartografiya faoliyati sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika bazaga, asbob-uskunalarga va boshqa texnik vositalarga doir talablarni belgilaydi;

b) aerokosmik suratga olish, topografiya-geodeziya, kartografiyaga oid izlanishlar hamda tadqiqotlarni, yerlarni masofadan zondlash, geodinamik tadqiqotlar ma'lumotlari va materiallaridan foydalangan holda kartografik monitoringni amalga oshirishda:

aerokosmik suratga olishga, topografiya-geodeziyaga, kartografiyaga oid va boshqa tekshiruvlarni hamda qidiruv ishlarini amalga oshiradi;

davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarining hamda geodezik zichlashtirish tarmoqlarining turlari va tarkibini, shuningdek, ularni yaratish tartibini belgilaydi;

davlat geodeziya, niveler, gravimetriya tarmoqlarini, geodezik zichlashtirish tarmoqlarini yaratadi, rivojlantiradi va ishlash holatida saqlab turadi;

Yerning kartografik monitoringini, uni masofadan turib zondlashni va geodinamik tadqiqotlarini amalga oshiradi;

sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlarining ishlashini ta'minlash uchun geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) yaratadi;

Fazoviy ma'lumotlarning milliy infratuzilmasini yaratadi, rivojlantiradi va uning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;

Davlat topografik xaritalari va rejalarini yangilash davriyligi normalarini belgilaydi;

Milliy geografik axborot tizimini, umumdavlat ahamiyatiga molik boshqa geografik

axborot tizimlarini yaratadi, rivojlantiradi va yuritadi;

umumgeografik, siyosiy-ma'muriy, ilmiy-ma'lumotga oid xaritalarni va boshqa mavzuli xaritalarni, shuningdek, tarmoqlararo ahamiyatga molik atlaslarni, kartografiya o'quv qo'llanmalarini yaratadi hamda nashr etadi;

geografik obyektlarning nomlarini belgilashni, me'yorlashtirishni, davlat ro'yxatidan o'tkazishni, ulardan foydalanishni va ularni saqlashni, shuningdek, Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestrini yuritishni amalga oshiradi;

ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va tajriba-teknologik ishlarni bajaradi;

davlat boshqaruvi organlarini, xo'jalik birlashmalarini, yuridik va jismoniy shaxslarni geodeziya, kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) bilan ta'minlaydi;

geodeziya, kartografiya va kadastrga oid ishlarni metrologik jihatdan ta'minlashni tashkil etadi;

geodezik va kartografiya sohasida qo'llaniladigan asbob-uskunalarini ta'mirlaydi, metrologik attestatsiyaga tayyorlaydi, ularni qiyoslashni amalga oshiradi;

texnik-o'lhash vositalarini samarali joriy etishda asos bo'luvchi metrologik ta'minotga oid qiyoslash va ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi;

Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlarni, shu jumladan, xaritalar va chegaralar chizig'i tavsifini tayyorlaydi, chegaralar nuqtalari koordinatalarining katalogini tuzadi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini (keyingi o'rinnarda — Davlat chegarasi) dyelimitatsiya, demarkatsiya (redemarkatsiya) qilish va uning o'tish chizig'ini tekshirish bo'yicha chegaradosh davlatlar bilan muzokaralar jarayonida ishtirok etadi hamda ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan geodeziya, kartografiya va gidrografiya oid ishlarni amalga oshiradi, ular asosida materiallar (ma'lumotlar) tayyorlaydi;

Davlat chegarasini dyelimitatsiya, demarkatsiya (redemarkatsiya) qilish masalalari bo'yicha aerokosmik suratlar, geodeziya ma'lumotlari, erni masofadan zondlash, topografik, kartografik, gidrografik va boshqa materiallar bilan ta'minlaydi;

Davlat chegarasi bilan bog'liq arxiv materiallarini o'rganishda ishtirok etadi;

Davlat chegarasini dyelimitatsiya, demarkatsiya (redemarkatsiya) qilish masalalari bo'yicha manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan hamkorlik qiladi;

Davlat chegarasini dyelimitatsiya, demarkatsiya (redemarkatsiya) qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi;

ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini kelishib olish uchun xaritalar tayyorlaydi;

ma'muriy-hududiy birliklarning davlat reyestrini yuritish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi hamda uni yuritadi;

ma'muriy-hududiy birliklarning navbatchi xaritalarini tayyorlash tartibini va ularga doir talablarni tasdiqlaydi hamda navbatchi xaritalarni yuritadi;

ma'muriy-hududiy birliklarning qo'shni chegaralari ko'rsatilgan xaritalarni kelishib olish uchun tayyorlaydi;

ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralarini joyida marza belgilari bilan belgilash bo'yicha yer tuzish, geodeziya va kartografiya ishlarini bajaradi;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini, butlovchi va ehtiyoj qismlarni ishlab chiqarishni tashkil etadi, ulardan foydalanishda eng zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tajriba joriy etilishini ta'minlaydi, shuningdek, uning funksional va texnik imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini tashkil etadi;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini uchun konstruktiv elementlarni ishlab chiqarishni va dasturiy ta'minot yaratishni bosqichma-bosqich mahalliylashtirishni tashkil etadi;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini boshqarish sohasida sinov operator mutaxassislarini tayyorlaydi;

operatori bo'limgan uchuvchisiz uchish qurilmalarini faqat Vazirlar Mahkamasining ruxsatnomasiga ega bo'lgan davlat boshqaruvi organlariga, xo'jalik birlashmalariga, iqtisodiyot tarmoqlaridagi boshqa tashkilotlarga operator bilan ijara beradi;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini ta'mirlaydi va ularga texnik xizmatlar ko'rsatadi; iqtisodiyot tarmoqlarida uchuvchisiz uchish qurilmalarini qo'llash va ulardan foydalanishni metodik qo'llab-quvvatlaydi;

uchuvchisiz uchish qurilmalarini ishlab chiqarishda va foydalanishda eng yangi texnologiyalarni, shuningdek, xorijiy tajribani joriy etadi;

uchuvchisiz uchish qurilmalariga o'rnatilgan aerofotokameralarning kalibrovka parametrlarini aniqlaydi;

geoaxborot tizimlari uchun yuqori pretsision qurilmalar va butlovchi elementlarni ishlab chiqaradi;

iqtisodiyot tarmoqlarida uchuvchisiz uchish qurilmalarini qo'llash va ulardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqadi;

v) davlat kartografiya-geodeziya kadastrini yuritishda:

kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritadi;

davlat kartografiya-geodeziya fondi shakllantirilishi va yuritilishini tashkil etadi;

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning davlat hisobini yuritadi;

O'zbekiston Respublikasining navbatchi ma'lumotnomasi tarzidagi xaritasini yuritadi;

O'zbekiston Respublikasi hududida geodeziya koordinatalarining, balandliklarining, gravimetriya o'lchovlarining yagona davlat tizimlarini hamda davlat topografik xaritalari va rejalarining mashtab qatorini belgilash masalalari bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar hamda maxsus (tarmoqqa oid) ahamiyatga molik ishlarni ro'yxatga olishni amalga oshiradi;

grafik, raqamli, fotosurat shaklidagi hamda boshqa shakllardagi davlat topografik xaritalari va rejalarini yaratadi, yangilaydi hamda nashr etadi;

O'zbekiston Respublikasi hududida geodeziya punktlarining joylashish zichligi normalarini belgilaydi hamda ularning joylashgan erini aniqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududida geodeziya punktlarining hisobini yuritadi;

g) davlat geodeziya nazoratini amalga oshirishda:

davlat geodeziya nazoratini amalga oshiradi;

geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini oladi, ularni aniqlaydi va bartaraf etadi;

geodeziya va kartografiya faoliyatining barcha subyektlari tomonidan geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan nazorat qiladi;

kartografiyaga doir materiallarda hamda boshqa hujjatlarda Davlat chegarasi va hududi to'g'ri aks ettirilganligi ustidan nazorat qiladi;

geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

geodeziya punktlarini hisobga oladi;

davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlaridagi geodeziya punktlarining, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa geodeziya punktlarining but saqlanishi va ularning muhofaza zonalari rejimiga rioya etilishi ustidan nazorat qiladi;

geodeziya va kartografiya faoliyati subyektlari tomonidan davlat kartografiya-geodeziya fondi hamda idoraviy kartografiya-geodeziya fondlari materiallarining (ma'lumotlarining) saqlanishi ustidan nazorat qiladi;

geodeziya va kartografiya faoliyati subyektlari tomonidan geodeziya koordinatalari, balandliklar, gravimetriya o'lchovlari davlat tizimlarining hamda davlat topografik xaritalari va rejalarining mashtab qatori, mahalliy koordinatalar hamda boshqa koordinatalar tizimlarining qo'llanilishi ustidan nazorat qiladi;

geodeziya va kartografiya faoliyati subyektlari tomonidan umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) davlat kartografiya-geodeziya fondiga topshirilishi, shuningdek, mazkur subyektlarning ushbu fonddan olingan materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanishi ustidan nazorat qiladi;

geodeziya va kartografiyaga oid bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi texnik hisobotlarga doir talablarni belgilaydi;

geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma’lumotlarni) ekspertizadan o‘tkazadi; mahalliy koordinatalar tizimlarini belgilaydi va ulardan foydalanish tartibini aniqlaydi;  
*Oldingi tahrirga qarang.*

soliq solish maqsadlarida yer qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining marksheyderlik ishlari Agentlikning Respublika aerogeodeziya markazi va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududlararo bo‘limnalari tomonidan amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta’minlaydi;

(13-band 2-kichik bandining yetmishinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

3) davlat kadastrlarini yuritish sohasida:

a) davlat kadastrlarini yuritish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlashda:

davlat kadastrlarini yuritishni takomillashtirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqadi va ta’minlaydi;

davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi;

davlat kadastrlari yuritilishiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

b) davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishda:

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan tegishli davlat kadastrlari ma’lumotlari Milliy geoaxborot tizimiga taqdim etib borilishi monitoringini olib boradi;

davlat kadastrlarini yuritish uchun zarur bo‘lgan kartografiya materiallari bilan belgilangan tartibda ta’minlaydi;

v) Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish, hududlar davlat kadastrini yuritishda:

Davlat kadastrlari yagona tizimini va hududlar davlat kadastrining samarali yuritilishini ta’minlaydi;

Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan tarmoq kadastr axborotlarini yig‘ish, tahlil qilish, turkumlash, saqlash va yangilashni amalga oshiradi;

manfaatdor vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda o‘zaro elektron axborot almashuvini ta’minlaydi;

Davlat kadastrlari yagona tizimini Milliy geoaxborot tizimida shakllantiradi;

davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, xo‘jalik birlashmalariga, yuridik va jismoniy shaxslarga axborot ta’moti va fazoviy ma’lumotlarni, shu jumladan, davlat kadastrlari to‘g‘risidagi axborotni berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etadi;

geofazoviy ma’lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish, davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatning ilmiy-texnologik va metodik ta’minotini tashkil etadi;

Davlat kadastrlari yagona tizimi, Milliy geografik axborot tizimini yaratadi, yangilaydi va rivojlantirilishini tashkil etadi;

g) davlat kadastrlarini yuritish tartiblariga rioya qilinishini ta’minlashga qaratilgan samarali kadastr nazoratini amalga oshirishda:

davlat kadastrlarini yuritish tartiblariga rioya qilinishini nazorat qiladi;

Davlat kadastrlari yagona tizimi qonun hujjatlariga muvofiq yuritilishi ustidan nazorat qiladi;

4) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish sohasida:

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish ishlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

mulknii ro‘yxatdan o‘tkazish sohasiga oid xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasiga berilgan baholarni o‘rganadi va tahlil qiladi;

mulknii ro‘yxatdan o‘tkazish sohasiga oid xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasiga berilgan baholarga sabab bo‘lgan omillar va muammolarni kompleks o‘rganadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

mulknii ro‘yxatdan o‘tkazish sohasiga oid xalqaro reyting va indekslarni tuzuvchi xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yadi va hamkorlik qiladi;

5) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta’minlash sohasida:

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi takomillashtirilishini ta’minlaydi;

kadrlar zaxirasini yaratish, ularni qayta tayyorlash va stajirovkadan o‘tishini tashkil etadi, Agentlik va idoraviy mansub tashkilotlar, korxonalar va muassasalarda kadrlar tanlovini amalga oshirish va ularni joy-joyiga qo‘yishni amalga oshiradi.

#### **4-bob. Agentlik va uning tarkibiy bo‘linmalarining huquqlari hamda javobgarligi**

##### **1-§. Agentlikning huquqlari va javobgarligi**

14. Agentlik o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

1) Vazirlar Mahkamasiga normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarni, shuningdek, Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni kiritish;

2) o‘z vakolati doirasida davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy bo‘lgan, shu jumladan, boshqa davlat organlari bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

3) Agentlik vakolatlariga taalluqli masalalar bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo‘jalik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

4) davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatida davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohasidagi qonunchilik talablariga rionga etilishini o‘rganish;

5) davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga, shuningdek, jismoniy shaxslarga davlat kadastrlarini yuritish, davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohasida aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar va ko‘rsatmalar kiritish;

6) davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohasidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantirish;

7) davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga va jismoniy shaxslarga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llash;

8) Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallarini bosqichma-bosqich tugatish;

9) Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda Agentlikning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari, uning tuman (shahar) bo‘limlari, Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati va uning hududiy boshqarmalariga Agentlikning budgetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qo‘srimcha shtat birliklarini kiritish;

10) Agentlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha metodik materiallar va tavsiyalarni ishlab chiqish;

11) malakali xorijiy mutaxassislarini, ularga istisno tariqasida Agentlikning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan xorijiy valyutada ish haqi va boshqa to‘lovlarni belgilagan holda

xodimlar va maslahatchilar sifatida jalg qilish;

12) mehnat bozorining amaldagi konyunkturasini hisobga olgan holda tor doiradagi mutaxassislarini shartnoma asosida Agentlik va Davlat kadastrlari palatasiga ishga jalg etish;

13) boshqa davlat organlari va mansabdor shaxslardan Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va axborotlarni, shu jumladan, statistik ma‘lumotlarni so‘rash va bepul olish;

14) Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tekshirishlar o‘tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganish, shuningdek, axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash uchun vazirliklar va idoralar, shuningdek, boshqa davlat tashkilotlari vakillarini jalg etish;

15) tekshirish davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlarini, shuningdek, jismoniy shaxslarni chaqirish, qonun hujjatlarining buzilishi holatlari yuzasidan og‘zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

16) Agentlikning vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasi, Davlat soliq qo‘mitasi, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo‘jalik birlashmalariga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

17) Agentlikning tarkibiy bo‘linmalarida, hududiy boshqarmalar, Davlat kadastrlari palatasi va idoraviy mansub tashkilotlarda ichki nazorat, korruption huquqbazarliklar va qonunlarga zid boshqa harakatlar, shuningdek, Agentlik tizimi xodimlari tomonidan kasbiy axloq qoidalari buzilishining oldini olish va ularni minimallashtirish hamda profilaktikasini amalga oshirish;

18) Agentlikning hududiy boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi va idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan pullik xizmat ko‘rsatiladigan ro‘yxat va tariflarni belgilash hamda tasdiqlash;

19) Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha idoralararo tusdagi xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

20) Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan xalqaro darajada O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini belgilangan tartibda ifoda etish;

21) o‘z vakolati doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish;

22) Agentlik faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar yaratish;

23) o‘z vakolati doirasida konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar o‘tkazish hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan shunday tadbirlarda ishtirop etish;

24) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya va kartografiya, davlat kadastrlarini yuritish, yerlarning hisobini yuritish hamda davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohasini rivojlantirishga oid dolzARB va istiqboldagi muammolar yechimini ishlab chiqish maqsadida, jumladan, xorijiy ekspertlarni jalg qilgan holda ishchi guruhlarni tuzish;

25) Agentlikning vakolatiga kiruvchi masalalarda sudlarga arizalar va da’volarni kiritish;

26) o‘z vakolati doirasida geodeziya faoliyatini ruxsat etuvchi hujjat asosida amalga oshiradigan yuridik shaxslarga aniqlangan qonunchilik talablari buzilishlarini bartaraf etishni yuklovchi ko‘rsatmalar berish;

27) Agentlikning va uning idoraviy mansub tashkilotlarining davlatga tegishli mol-mulkini o‘zining tashkiliy tuzilmasi doirasida tekin foydalanish huquqi asosida bir tarkibiy bo‘linmadan boshqa tarkibiy bo‘linmaga o‘tkazish;

28) Agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlari xodimlari tomonidan o‘z sohasida ular faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha parametrler bajarilishini hisobga olgan holda ularni moddiy rag‘batlanirish tartibi, miqdorlari va shartlarini belgilash;

29) davlat er, kadastr va geodeziya nazorati bo‘yicha buyurtmanomalarini ko‘rib chiqish

bilan bog'liq masalalarning muhokamasini tashkil etish va o'tkazish;

30) o'z vakolati doirasida ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan holatlar yuzasidan ma'muriy huququzarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzish;

31) Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalarni ko'rib chiqishda Davlat soliq qo'mitasi, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining hay'at majlislarida ishtirok etish;

32) rietorlik tashkilotlariga ko'chmas mulk bo'yicha kadastr muhandislarini intizomiy javobgarlikka tortish masalasini kiritish;

33) ko'chmas mulk bo'yicha kadastr muhandislariga malaka shahodatnomalarini berish, uning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish;

34) o'z vakolati doirasida xorijiy davlat organlari va xalqaro tashkilotlar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqalarni o'rnatish va saqlash;

35) qonunchilikda belgilangan tartibda Agentlikning budjetdan tashqari mablag'lari jamg'armasini shakllantirish;

36) Agentlik xodimlarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

37) budjetdan tashqari mablag'larni hamda Agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlari depozit hisobvaraqlarida joylashgan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit hisobvaraqlarida milliy va xorijiy valyutada joylashtirish. Bunda mablag'larni joylashtirishdan olingan daromad Agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlari budjetdan tashqari hisobvaraqlariga ushbu daromadlar moddiy-texnik bazani takomillashtirishga, ijtimoiy rivojlantirishga, xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilishga hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarga yo'naltirilgan holda o'tkaziladi;

38) Agentlik faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tegishli tuzilmalarini tashkil etish, ularni qayta tashkil etish va tugatish, shuningdek, ularning ustavlari (nizomlari)ni tasdiqlash;

39) davlat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirga riosa qilish sharti bilan tekshirishni o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, davlat organlarining elektron bazalaridan (banklaridan) foydalanan uchun xizmat guvohnomasini ko'rsatgan holda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning hududlariga va binolariga kirish.

Agentlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 15. Agentlik:

o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi, shuningdek, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi, geodeziya va kartografiya, davlat kadastrlarini yuritish, yerlarni hisobga olish hamda davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohasida davlat siyosati samarali amalga oshirilishi;

Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar o'z vaqtida hamda samarali bajarilishi;

Agentlik tarkibiy bo'linmalarining Agentlik faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash bo'yicha ishlarining tashkil etilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa hujjatlar, shuningdek, Agentlik tomonidan qabul qilinayotgan qarolarning sifati, pirovard natijalari va amalga oshirilishi oqibatlari;

o'z faoliyati sohasini rivojlantirish bo'yicha dasturlar, tadbirlar rejalar, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali amalga oshirilishi bo'yicha javobgar hisoblanadi.

### **2-§. Agentlik markaziy apparatining huquqlari va javobgarligi**

16. Agentlikning markaziy apparati o'ziga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarini bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

1) Agentlikning hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan Agentlikning markaziy apparatida ko'rib chiqiladigan, tahlil qilish va ishlash uchun zarur bo'lgan materiallar hamda ma'lumotlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

2) davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga, shuningdek,

geodeziya va kartografiya faoliyatining barcha subyektlariga hamda ko‘chmas mulk obyektining mulkdorlariga (balansda saqlovchilariga) davlat kadastrlarini yuritish, davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohasida aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

3) tegishli ma’lumotlar bazalaridan, davlat axborot tizimlaridan va vakolatli organlar resurslaridan belgilangan tartibda foydalanish;

4) Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumot va hujjatlarni davlat boshqaruvi organlaridan va tashkilotlaridan va ularning mansabdor shaxslaridan bepul so‘rash va olish;

5) Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati va hududiy boshqarmalari rahbarlari ishtirokida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish masalalari bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazish;

6) Agentlikning hududiy boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi va hududiy boshqarmalari, shuningdek, Agentlikning idoraviy mansub boshqa tashkilotlari rahbarlariga tezkor hal qilinishi talab etiladigan va Agentlikka yuklangan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

7) Agentlikda ko‘rib chiqiladigan masalalarni ishlab chiqish, axborot va tahliliy materiallarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihibarlarini tayyorlash uchun zarur bo‘lganda Agentlikning hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari rahbarlari hamda vakillarini jalg qilish, ushbu maqsadlar uchun ekspert va ishchi guruhlarni tashkil etish;

8) Agentlikning hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan ular kiritgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihibarlarini qayta ishlab chiqishni talab qilish, zarur bo‘lganda ularni qayta ko‘rib chiqish uchun qaytarish;

9) Agentlikning hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlarining qabul qilingan qarorlari, buyruqlari va boshqa hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari, shuningdek, Agentlik va uning rahbariyatining hujjatlari va topshiriqlari bajarilishiga oid faoliyatini o‘rganish va tekshirish;

10) Agentlikka yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot, loyihalash tashkilotlari, oliv ta’lim muassasalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni ularning xohishiga ko‘ra hamda shartnoma asosida jalg etish;

11) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya va kartografiya, davlat kadastrlarini yuritish, yerlarning hisobini yuritish hamda davlat er, kadastr va geodeziya nazoratining yillik hamda istiqbolli rejalarini tasdiqlash va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash;

12) sohada korrupsiya illatlarining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

13) Agentlikning budgetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish;

14) qonun hujjatlarida Agentlik tomonidan tartibga solinadigan sohadagi masalalar mavzusida noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

15) Agentlikka yuklangan vazifalarni sifatli amalga oshirishda hududiy boshqarma va idoraviy mansub tashkilotlar xodimlarini jalg etish;

16) Agentlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo‘jalik birlashmalarining ko‘rib chiqishi uchun takliflar kiritish.

Agentlik markaziy apparati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

#### 17. Agentlik markaziy apparati:

Agentlikning hududiy boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar bilan birgalikda Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya va kartografiya, yerlarning hisobini yuritish, davlat kadastrlarini yuritish hamda davlat er, kadastr va geodeziya nazoratini rivojlantirishning rejalar, kutilayotgan istiqboldagi va joriy ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha Agentlik bo‘limlarining faoliyatini tashkil etish;

Agentlik tomonidan ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa hujjatlarni, shuningdek, Agentlik qabul qiladigan qarorlarni sifatli tayyorlash va ekspertizadan o‘tkazish;

Agentlikning hududiy boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan dasturlar, chora-tadbirlar rejalar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlar amalga oshirilishini tashkil etish;

fugorolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash uchun javob beradi.

### **5-bob. Agentlik rahbariyatining asosiy funksional vazifalari**

18. Quyidagilar Agentlik direktorining (keyingi o‘rinlarda — direktor) asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya va kartografiya, davlat kadastrlarini yuritish, yerlarning hisobini yuritish hamda davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohasida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilish;

2) Agentlik faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat soliq qo‘mitasining qarorlari va boshqa qonun hujjatlari bilan Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasini qarorlari bilan tasdiqlangan Agentlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks dasturlar va tadbirlarning bajarilish holatini tanqidiy va chuqr tahlil qilish;

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning o‘rnbosarlari va maslahatchilari, Davlat soliq qo‘mitasi raisining topshiriqlarini bajarish;

5) o‘z o‘rnbosarlari va Agentlikning boshqa mansabdar shaxslari vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, Agentlik faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish uchun o‘z o‘rnbosarlari va boshqa mansabdar shaxslarning shaxsiy mas’uliyati darajasini belgilash;

6) Agentlik faoliyatini rejorashtirishni tashkil etish, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya va kartografiya, davlat kadastrlarini yuritish, yerlarning hisobini yuritish hamda davlat er, kadastr va geodeziya nazorati sohalarini rivojlantirish tendensiyalaridan kelib chiqib Agentlik va o‘z o‘rnbosarlarining har choraklik ish rejalarini tasdiqlash va ularning bajarilishi nazoratini ta’minlash;

7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish va monitoring olib borishning amaliy tizimini yaratish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-szon **qaroriga**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasini va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-szon qaroriga va Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-szon **qaroriga** muvofiq Agentlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish;

8) Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xodimlarini tizimli ravishda qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

9) Agentlikda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun

zarur shart-sharoitlar yaratish, Agentlikning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

10) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining nomenklaturasiga kiradigan vakant lavozimlarga taklif etilgan kadrlarning, shuningdek, Agentlikka ishga qabul qilinayotgan boshqa kadrlarning professional, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlari va ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta’minlash;

11) “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining va Vazirlar Mahkamasining reglamentlari talablariga muvofiq Agentlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, ularning Vazirlar Mahkamasi apparatida puxta ishlab chiqilishida, Vazirlar Mahkamasi Rahbariyati huzurida himoya qilinishi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida ko‘rib chiqilishida ishtirok etish;

12) “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga va Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 17-oktabrdagi 345-sun qarori bilan tasdiqlangan Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qonun loyihasi faoliyatining namunaviy reglamentiga muvofiq Agentlikning qonun loyihalarini tayyorlash faoliyatini tashkil etish;

13) o‘z vakolati doirasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, zarur hollarda davlat boshqaruving boshqa organlari bilan birgalikda qarorlar va boshqa hujjatlarni birgalikda qabul qilish;

14) Agentlik rahbarlari va xodimlarining xizmat safarlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to‘g‘risida” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-sun va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-sun qarorlari talablariga muvofiq tashkil etish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlash;

15) o‘z o‘rinbosarlarining faoliyati natijadorligi va samaradorligini tizimli ravishda tanqidiy o‘rganish, ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

16) Agentlikning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

17) Agentlik xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, o‘z o‘rinbosarlarini va Agentlikning boshqa mansabdor shaxslarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirishga doir tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

18) Agentlik xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-sun qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Agentlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash;

19) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni talablariga muvofiq Agentlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

20) Agentlik ishini tashkil etishning zamонави shakllari joriy etilishini ta’minlash;

21) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishga doir samarali

ishlarni tashkil etish, aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining **Qonunida** belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

22) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini bilan samarali hamkorlikni, ularning faoliyatida Agentlik xodimlari va rahbarlarining faol ishtirok etishini tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlari o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

*(18-bandning 22-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)*

23) davlat siriga kiritilgan ma‘lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjalari talablariga rioya qilish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

24) Agentlik tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalari to‘g‘risidagi nizomni, lavozim yo‘riqnomalari, shuningdek, idoraviy mansub tashkilotlarning nizom, tuzilma va ustavlarini hamda Agentlikning boshqa lokal hujjalarini belgilangan tartibda tasdiqlash;

*(18-bandning 24-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

25) Agentlik markaziy apparati xodimlarini (direktor o‘rinbosarlari, Agentlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, uning tumanlar (shaharlar) bo‘limlari boshliqlari, Davlat kadastrlari palatasini raisi va o‘rinbosarlaridan tashqari) tayinlash, Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) filiallari boshliqlari, Respublika aerogeodeziya markazi direktori, Davlat kartografiya-geodeziya fondi boshlig‘i, “Kartografiya” davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasi, “Kompyuterlashtirish va geoaxborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi” DUK rahbari, Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji direktori hamda Agentlik tizimidagi tashkilotlarning komplaens-nazorat xizmati xodimlarini Davlat soliq qo‘mitasi raisi bilan kelishgan holda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, qonun hujjalarida belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish;

*(18-bandning 25-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

26) Agentlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, uning tumanlar (shaharlar) bo‘limlari boshliqlari, Davlat kadastrlari palatasi raisi va o‘rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasi raisiga tavsiyanoma kiritish;

27) Agentlik va uning hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlari mansabdor shaxslari va xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar, qarorlar, farmoyishlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish, shuningdek, ularning ijrosini belgilangan tartibda nazorat qilish;

28) xodimlarning belgilangan umumiyligi cheklangan soni doirasida Agentlik va uning hududiy boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalarining shtatlar jadvalini, daromad va xarajatlar smetasini, shuningdek, Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlar va muassasalarining shtatlar jadvalini, daromad va xarajatlar smetasini belgilangan tartibda tasdiqlash;

29) Agentlikning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari, uning tuman (shahar) bo‘limlari, Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati va hududiy boshqarmalari, shuningdek, Agentlik tizimidagi boshqa tashkilotlarning tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiyligi cheklangan soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflarni Davlat

soliq qo‘mitasi raisiga kiritish;

30) Davlat kadastrlari palatasi tuman (shahar) filiallarining namunaviy tuzilmasi hamda xodimlarining cheklangan sonini ish hajmidan kelib chiqqan holda belgilash va o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni Davlat soliq qo‘mitasi raisiga kiritish;

31) Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda Agentlikning markaziy apparati, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati va hududiy boshqarmalariga Agentlikning budgetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha shtat birliklarini kiritish bo‘yicha takliflarni Davlat soliq qo‘mitasi raisiga kiritish;

32) mehnat bozorining amaldagi konyunkturasini hisobga olgan holda tor doiradagi mutaxassislarni shartnoma asosida Agentlik va Davlat kadastrlari palatasiga ishga jalb etish bo‘yicha takliflarni Davlat soliq qo‘mitasi raisiga kiritish;

33) Agentlikning idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlarini buzgan holda qabul qilingan buyruqlari va qarorlarini (ko‘rsatmalarini) bekor qilish;

34) alohida o‘zini ko‘rsatgan xodimlarni ularga davlat mukofotlari berish uchun ularning nomzodlarini belgilangan tartibda taqdim etish;

35) Agentlik faoliyatiga oid sohalarda xalqaro va hukumatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish bo‘yicha xalqaro tadbirlarda ishtirok etish.

19. Quyidagilar Agentlik direktori o‘rnbosarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilish;

2) direktor vaqtincha bo‘lmaganda direktorning buyrug‘i asosida uning vazifalarini bajarish;

3) Agentlikning mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va ularga bevosita rahbarlik qilish, ularning xodimlari o‘rtasida vazifalarini taqsimlash;

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan tasdiqlangan Agentlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks dasturlar va tadbirlarning bajarilishi holatini tanqidiy va chuqur tahlil qilish;

5) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni so‘zsiz ta’minalash chora-tadbirlarini ko‘rish, bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitish va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

6) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalarning ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minalash;

7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish, Agentlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-sun **qaroriga**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-sun qaroriga va Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-sun **qaroriga** muvofiq topshiriqlar o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishi yuzasidan mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

8) Davlat soliq qo‘mitasi hay’ati, Davlat soliq qo‘mitasi raisi va Agentlik direktorining qarorlari, buyruqlari, farmoyishlari va topshiriqlari o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini

ta'minlash;

9) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha Agentlik direktoriga takliflar kiritish, ularning professionalligi, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta'minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish, mutasaddilik qilinadigan bo'linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

10) Agentlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalar tomonidan sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, Agentlikning tarkibiy bo'linmalarida tayyorlangan hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish va ular keyinchalik Agentlik direktori tomonidan ko'rib chiqilishi, imzolanishi (viza qo'yilishi) uchun viza qo'yish, ularning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Reglamenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **Reglamenti** talablariga qat'iy muvofiq ravishda Vazirlar Mahkamasiga o'z vaqtida kiritilishini ta'minlash, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi apparatida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda direktorning topshirig'iga binoan ishtirok etish;

11) Agentlikka taqdim etilgan takliflar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'liq va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash;

12) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Mansabdar shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida**" 2014-yil 5-martdagি PQ-2142-sон va "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdar shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 3-avgustdagи PQ-3170-sон qarorlari talablariga muvofiq xizmat safarlariga chiqish va bo'lish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash;

13) Agentlikning mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalarini rahbarlari va xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish;

14) Agentlik faoliyatiga oid tegishli masalalar bo'yicha Agentlik faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy chora-tadbirlar ko'rish hamda ushbu sohalardagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni Agentlik direktoriga kiritish;

15) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni direktorga kiritish, funksional vazifalar va yuklangan vazifalar bajariishi uchun ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish;

16) Agentlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga riosa qilishini, mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlarining ushbu qoidalarga riosa etishini ta'minlash;

17) "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining **Qonuni** talablariga muvofiq Agentlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

18) Agentlik faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga doir takliflarni direktorga kiritish;

19) davlat xizmatlari samaradorligini, ulardan erkin foydalanishni va ko'rsatilishi sifatini oshirish hamda "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining **Qonunini** amalga oshirish doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

20) "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston

Respublikasining **Qonunida** belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

21) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslar vazillarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlari o'z vaqtida va to'laqonli ko'rib chiqilishini ta'minlash;

*(19-bandning 21-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)*

22) davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjalari talablariga rioya qilish.

20. Quyidagilar Agentlik tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjalarga rioya etish;

2) tarkibiy bo'linmalar faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish, ushbu bo'linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

3) tegishli tarkibiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtirish;

4) prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko'rsatkichlarga so'zsiz erishishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish bo'yicha takliflarni Agentlik rahbariyatiga kiritish;

5) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish, Agentlik tarkibiy bo'linmalari xodimlarining ijob intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarida ijob intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-son **qaroriga**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjalari va topshiriqlari samarali va natijali ijob etilishi, shuningdek, ijob intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasini va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son qaroriga va Vazirlar Mahkamasining "Ijob intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 1999-yil 12-yanvardagi 12-son **qaroriga** muvofiq topshiriqlar o'z vaqtida va sifatli ijob etilishi chora-tadbirlarini ko'rish;

6) Davlat soliq qo'mitasi hay'ati qarorlari, Davlat soliq qo'mitasi raisi hamda direktor va uning o'rinnbosarlari qarorlari, buyruqlari, farmoyishlari va topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

7) tarkibiy bo'linmalarning har choraklik ish rejalarini ishlab chiqilishini ta'minlash, ularni tasdiqlash uchun kiritish, ularda ko'rsatilgan vazifalar va tadbirlar o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlash;

8) tarkibiy bo'linmalarga yuklangan vazifalar bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish, Agentlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyati sohasiga oid masalalar bo'yicha amaliy va metodik yordam ko'rsatish;

9) tarkibiy bo'linmalar faoliyati sohalariga oid qonun hujjalarni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni ko'rib chiqish uchun Agentlik rahbariyatiga kiritish;

10) tarkibiy bo'linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda direktorning mutasaddilik qilinadigan o'rinnbosarlariga takliflar kiritish, professionalligi, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega

ekanligi kafolatini ta'minlash, ularning kasb malakasini oshirish choralarini ko'rish, tarkibiy bo'linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

11) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tarkibiy bo'linmalar tomonidan sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, Agentlikning tarkibiy bo'linmalarida tayyorlangan hujjatlar loyihalarini keyinchalik Agentlik rahbariyati tomonidan ko'rib chiqish, imzolash (viza qo'yilishi) uchun ko'rib chiqish va viza qo'yish, ularning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining va Vazirlar Mahkamasining reglamentlari talablariga qat'iy muvofiq ravishda Vazirlar Mahkamasiga o'z vaqtida kiritilishini ta'minlash, Agentlik rahbariyatining topshirig'i bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasi apparatida ishlab chiqishda ishtirok etish;

12) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "[Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)" 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga muvofiq xizmat safarlariga chiqish va bo'lish, xizmat safarlarasi asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash;

13) tarkibiy bo'linmalar xodimlari faoliyatini samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig'ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

14) Agentlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga riosa qilishini, tarkibiy bo'linmalar xodimlarining ushbu qoidalarga riosa etishini ta'minlash;

15) "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining [Qonuni](#) talablariga muvofiq tarkibiy bo'linmalarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

16) soha faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishga doir takliflarni Agentlik rahbariyatiga kiritish;

17) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining [Qonuni](#) bilan belgilangan muddatlarda va tartibda aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o'z vaqtida va to'laqonli ko'rib chiqish;

*(20-bandning 18-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)*

19) davlat siri sirasiga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishslashda qonun hujjatlari talablariga riosa qilish.

21. Agentlikning hududiy boshqarmalari rahbarlarining asosiy funksional vazifalari Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

### **6-bob. Agentlik rahbarlarining javobgarligi**

22. Agentlik direktori:

Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;

Ushbu Nizomning [15-bandida](#) tutilgan javobgarlik sohalari bo'yicha;

Ushbu Nizomning [18-bandida](#) ko'rsatilgan o'z funksional vazifalarining sifatli

bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

23. Direktor o‘rribosarlari:

Agentlikning o‘zi nazorat qiladigan tarkibiy bo‘linmalarida Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;

Ushbu Nizomning **15-bandida** nazarda tutilgan Agentlikning mutasaddilik qilinadigan masalalarga doir javobgarlik sohalari bo‘yicha;

Ushbu Nizomning **19-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

24. Agentlik tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari:

Tegishli tarkibiy tuzilmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi uchun;

Ushbu Nizomning **15-bandida** nazarda tutilgan Agentlik markaziy apparatining javobgarlik sohalari bo‘yicha;

Ushbu Nizomning **20-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

25. Agentlikning hududiy boshqarmalari rahbarlarining javobgarligi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

## **7-bob. Agentlik faoliyatini tashkil etish**

### **1-§. Agentlik rahbariyati**

26. Agentlikka O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining birinchi o‘rribosari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktori rahbarlik qiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

27. Agentlik direktori Davlat soliq qo‘mitasi raisining tavsiyasiga binoan Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ikki nafar o‘rribosarga ega bo‘ladi.

Agentlik direktori Davlat soliq qo‘mitasi raisi bilan kelishilgan holda Agentlik direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan uch nafar maslahatchiga ega bo‘ladi.

(*27-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton*)

*Oldingi tahrirga qarang.*

28. Agentlik direktori bo‘lmagan vaqtida uning vakolatlari Agentlik direktorining buyrug‘i bilan uning o‘rribosarlaridan biriga yuklatiladi.

Agentlik direktori, uning o‘rribosarlari maqomi, mehnatga haq to‘lash shartlari, moddiy ta’minoti, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish bo‘yicha tegishli ravishda vazirga, vazirning o‘rribosarlariga tenglashtiriladi.

Agentlik direktorining maslahatchilarini mehnatga haq to‘lash, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish shartlariga ko‘ra Agentlik direktorining o‘rribosariga tenglashtiriladi.

(*28-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton*)

29. Direktor lavozimi bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasi hay’ati tarkibiga kiritiladi.

### **2-§. Agentlikning Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligi**

30. Agentlik o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasining markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari hamda Davlat soliq qo‘mitasining idoraviy mansub tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

31. Agentlikning Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, shuningdek, idoraviy mansub tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligi bevosita Agentlik direktori va uning o‘rribosarlarini tomonidan ta’minlanadi.

32. Agentlikning Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi jarayonida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar Davlat soliq qo'mitasi raisining topshirig'iga binoan uning tegishli o'rnbosari tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar rais o'rnbosari tomonidan kelishmovchiliklarni bartaraf etishning imkonni bo'lmasa, so'nggi qaror bevosita O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan qabul qilinadi.

### **3-§. Agentlikning boshqa davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi**

33. Agentlik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda boshqa davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **4-§. Agentlikning hay'ati, boshqa kengash, maslahat va ekspert organlari**

34. Agentlikda Agentlik direktori (hay'at raisi), uning o'rnbosarlari va maslahatchilari (lavozimi bo'yicha), shuningdek, uning faoliyati asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalar rahbarlaridan iborat hay'at tuziladi.

Hay'at tarkibining soni va shaxsiy tarkibi Agentlik direktorining taqdimnomasiga binoan Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay'at faoliyati tartibi hay'at tomonidan tasdiqlanadigan reglamenti bilan belgilanadi.

34<sup>1</sup>. Agentlikda uning asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi Agentlik direktori o'rnbossari (kengash raisi), Agentlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va mutaxassislaridan iborat Tarmoq ilmiy-texnik kengashi Agentlik direktorining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

35. Tarmoq ilmiy-texnik kengashi nizomi va uning shaxsiy tarkibi Agentlik direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

36. Agentlikda Agentlik direktorining buyrug'i bilan kengash, maslahat va ekspert organlari tuzilishi mumkin.

Agentlikda tuziladigan kengash, maslahat va ekspert organlari tarkibi va ular to'g'risidagi nizomlar Agentlik direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

*(7-bobning 4-paragrafi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

### **8-bob. Agentlik faoliyatini samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari**

37. Agentlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligi muntazam baholanib boriladi.

38. Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadigan Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi.

39. Agentlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo'yicha:

Agentlik rahbarlari va xodimlariga nisbatan rag'batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlik choralar;

Agentlik faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko'rildi.

Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi Agentlik direktori tomonidan belgilanadi.

### **9-bob. Agentlikni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, ularni ijtimoiy himoya qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

40. Agentlik xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, ilmiy darajalar, uzoq muddat xizmati uchun ustama haqlar, bayram kunlari uchun mukofotlar, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalardan, rag'batlantirish to'lovleri, qo'shimcha moddiy rag'batlantirish to'lovlardan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat.

*(40-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton)*

41. Agentlik xodimlari lavozim maoshlariga har oyda qo'shiladigan rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan qo'shimcha haqlar va ustamalar direktor tomonidan tasdiqlanadigan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishiladigan nizomga muvofiq to'lanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

42. Agentlik va uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari hamda Davlat kartografiya-geodeziya fondi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, Agentlikning budgetdan tashqari jamg'armasi va qonunchilikda taqilanganmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

*(42-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton)*

43. Agentlikning budgetdan tashqari jamg'armasi mablag'larini quyidagi manbalar hisobidan shakllantiridi:

Agentlik organlari tomonidan ko'rilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarga asosan undiriladigan jarimalarning 100 foizi;

fuqarolarning uy-joyga doir mulk huquqi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlarda o'z vaqtida rasmiylashtirilmaganligi uchun undiriladigan jarimalarning 10 foizi;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan yig'imning 10 foizi;

Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari tomonidan kadastr yig'majildini tayyorlash xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan mablag'larning 10 foizi;

qonun hujjatlarida taqilanganmagan boshqa manbalar.

44. Agentlikning budgetdan tashqari jamg'armasi mablag'laridan:

Agentlikni, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo'limlari, Davlat kadastrlari palatasi, Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari, Respublika aerogeodeziya markazi, Davlat kartografiya-geodeziya fondi hamda Toshkent geodeziya va kartografiya kollejini moddiy-texnik ta'minlash;

Agentlik, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo'limlari, Davlat kadastrlari palatasi, Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari, Respublika aerogeodeziya markazi, Davlat kartografiya-geodeziya fondi hamda Toshkent geodeziya va kartografiya kollejining binolarini qurish hamda binolar va asbob-uskunalarini ta'mirlash va qayta ta'mirlash;

Agentlik, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo'limlari, Davlat kadastrlari palatasi, Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari, Respublika aerogeodeziya markazi, Davlat kartografiya-geodeziya fondi hamda Toshkent geodeziya va kartografiya kollejining xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish (xodimlar uchun uy-joy qurish, sanatoriy-kurortda davolanish va tibbiy xizmat ko'rsatish, mukofotlar to'lash, ustamalar belgilash, moddiy yordam va boshqalar);

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agentlik, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo'limlari va Davlat kartografiya-geodeziya fondi xodimlarining lavozim maoshlarini aniqlashda Yagona tarif setkasi bo'yicha 1,7 baravar miqdorida koeffitsiyent qo'llanilgandagi xarajatlar;

*(44-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton)*

Agentlik, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo'limlari, Davlat kadastrlari palatasi, Davlat kadastrlari

palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari, Respublika aerogeodeziya markazi, Davlat kartografiya-geodeziya fondi hamda Toshkent geodeziya va kartografiya kollejining rahbarlari va xodimlarining xizmat safarlari xarajatlari, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarga xizmat safarlari xarajatlari;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agentlik, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘limlari va Davlat kartografiya-geodeziya fondi xodimlariga ustamalar, martaba darajalari va uzoq muddat xizmati uchun qo‘sishma haq to‘lash;

(44-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

oy, chorak, yarim yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofotlash;

xodimlarning lavozim maoshiga ish uchastkasining murakkabligi va muhimligi hamda mehnatda yuqori natijalarga erishganligi uchun ustamalar to‘lash;

Agentlik faoliyati samaradorligini baholash mezonlariga asosan va erishilgan yakuniy natijalardan kelib chiqib mukofotlash;

xizmat vazifalarini bajarish chog‘idagi alohida xizmatlari uchun va pensiyaga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho sovg‘alar bilan mukofotlash;

Agentlik xodimlarining lavozim maoshlariga ularning funksional vazifalarni bajarishlarini, bilimlari darajasini, ish olib borish kasbiy qobiliyatlarini har yili test sinovlaridan o‘tkazish asosida belgilanadigan maxsus rag‘batlantiruvchi ustamalar;

Agentlik, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘limlari, Davlat kadastrlari palatasi, Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari, Respublika aerogeodeziya markazi, Davlat kartografiya-geodeziya fondi hamda Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji xodimlarining malakasini oshirish, ularni o‘qitish va stajirovka o‘tishini, shu jumladan, ularning xorijiy mamlakatlarga tashriflarini tashkil etish, xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan konferensiya, seminarlar va boshqa tadbirdorda ishtirok etishi;

Agentlik faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradigan xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar delegatsiyalarining tashriflarini tashkil etish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agentlik, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘limlari va Davlat kartografiya-geodeziya fondining kommunal-foydanish hamda boshqa joriy xarajatlari;

(44-bandning o‘n beshinchchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agentlik, uning hududiy boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘limlarining Agentlikning budjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘laridan moliyalashtiriladigan shtat birliklarini saqlab turish, shuningdek Agentlik, uning hududiy boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘limlari, Davlat kadastrlari palatasi va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari, Respublika aerogeodeziya markazi, Davlat kartografiya-geodeziya fondi hamda Toshkent geodeziya va kartografiya kollejining qo‘sishma shtat birliklarini saqlab turish;

(44-bandning o‘n oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, geodeziya va kartografiya hamda davlat kadastrlarini yuritish, shuningdek, davlat yer nazoratini amalga oshirish hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish, yuritish

va texnik qo‘llab-quvvatlash;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agentlik, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘limlari, Davlat kadastrlari palatasi, Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari, Respublika aerogeodeziya markazi, Davlat kartografiya-geodeziya fondi, Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji hamda idoraviy mansub tashkilotlarining faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqa tadbirlar uchun foydalaniladi.

(44-bandning o‘n sakkizinchи xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

45. Agentlik va uning hududiy boshqarmalari xodimlarining funksional vazifalarni bajarish, bilim darajasi, ish olib borish bo‘yicha kasbiy qobiliyatlarini test sinovidan o‘tkazish natijalari bo‘yicha beriladigan toifalarga qarab lavozim maoshlariga 10 foizdan 50 foizgacha miqdorda maxsus rag‘batlantiruvchi ustamalarni har yili test sinovidan o‘tkazish asosida qo‘llash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Agentlik tomonidan tasdiqlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

46. Agentlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va uning tumanlar (shaharlar) bo‘linmalari hamda Davlat kartografiya-geodeziya fondining xodimlariga har oyda Agentlikning budjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan uzoq muddat xizmati uchun (ish stajiga ko‘ra) ustama haq miqdorlari lavozim maoshiga (lavozim maoshiga nisbatan rag‘batlantirish koeffitsiyentlari hisobga olingan holda) nisbatan quyidagi koeffitsiyentlar bilan hisoblanadi.

(46-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

Ish stagi	Lavozim maoshiga ustama haq miqdori (koeffitsiyent hisobida)
1 yildan 3 yilgacha	0,1
3 yildan 5 yilgacha	0,2
5 yildan 10 yilgacha	0,4
10 yildan 15 yilgacha	0,5
15 yil va undan ortiq	0,6

*Oldingi tahrirga qarang.*

47. Uzoq muddat xizmati uchun ustama haq olish huquqini beruvchi ish staji Agentlik direktori tomonidan kasaba uyushmasi organi bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan tartibga muvofiq har oyda hisoblab chiqiladi.

(47-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

48. Agentlikning budjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Agentlik tomonidan belgilanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

49. Agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va umumiy foydalanish bo‘yicha axborot tizimlarini joriy etish, dasturiy vositalar bilan ta’minalash hamda Agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish, ularni ijtimoiy himoya qilish, moddiy rag‘batlantirish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa maqsadlar uchun qo‘sishma manba sifatida Agentlikning budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy organlari hamda tizimga kiruvchi tashkilotlarning jami bajarilgan ishlар hajmiga nisbatan 5 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorida ajratmalar o‘tkazishi hisobiga shakllantiriladi.

(49-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli

*qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son  
Oldingi tahrirga qarang.*

50. Agentlik boshqaruv xodimlari uchun avvalgi ish joyida berilgan uzoq muddat xizmati, harbiy va maxsus unvonlar (martaba darajalari, malaka darajalari, diplomatik darajalar va boshqalar) uchun qo'shimcha to'lov va ustamalar saqlab qolinadi.

*(50-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

### **10-bob. Agentlikning hisobot berishi**

51. Direktor muntazam ravishda Agentlikning faoliyati to'g'risida Davlat soliq qo'mitasiga hisobot beradi.

52. Davlat soliq qo'mitasiga Agentlik rahbarlariga yuklangan vazifalar samarali bajarilishi uchun ularning faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, Agentlik faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

53. Monitoring va baholash yakunlari bo'yicha Agentlikning alohida o'rnak ko'rsatgan rahbarlari, mansabдор shaxslari va xodimlari rag'batlantiriladi yoki yo'l qo'yilgan jiddiy kamchiliklar uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan javobgarlikka tortiladi.

### **11-bob. Yakunlovchi qoidalar**

54. Agentlikni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

55. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

*Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-fevraldaggi 66-son qaroriga  
2-ILOVA*

## **O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatosi to'g'risida NIZOM**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatosining (keyingi o'rnlarda — Davlat kadastrlari palatosi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas'uliyatini belgilaydi.

2. Davlat kadastrlari palatosi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ko'chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini yuritish, davlat yer kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini, hududlar davlat kadastrini hamda Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishni amalga oshiruvchi davlat muassasasi shaklidagi vakolatli organ hisoblanadi va o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga (keyingi o'rnlarda — Kadastr agentligi) bo'ysunadi.

3. Davlat kadastrlari palatosi Kadastr agentligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi va uning tizimiga kiradi.

4. Davlat kadastrlari palatosi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi (keyingi o'rnlarda — Davlat soliq qo'mitasi) va Kadastr agentligining qarorlari va buyruqlariga amal qiladi.

5. Davlat kadastrlari palatosi o'z faoliyatini Davlat soliq qo'mitasi, Kadastr agentligi va ularning bo'linmalari, shu jumladan, ularning hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari, davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, xo'jalik birlashmalari, xorijiy va xalqaro hamda nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Davlat kadastrlari palatosining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari,

buyruqlari Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy boshqarmalar), tuman (shahar) filiallari va ularning mansabdon shaxslari va xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalarida ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda yuzaga keladigan nizolarni sudgacha hal qilish komissiyalari tashkil etiladi.

(6-band *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son*)

7. Davlat kadastrlari palatasi, uning hududiy boshqarmalari yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi bank hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

8. Davlat kadastrlari palatasining rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi, qisqartirilgan nomi — Davlat kadastrlari palatasi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi — Palata gosudarstvennix kadastrov Agentstva po kadastru pri Gosudarstvennom nalogovom komiteze Respublikni Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Palata gosudarstvennix kadastrov;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi — Chamber of State Cadastres of the Cadastral Agency under the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Chamber of State Cadastres.

**2-bob. Davlat kadastrlari palatasining tuzilmasi**

9. Davlat kadastrlari palatasi tizimiga quyidagilar kiradi:

Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati;

Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari;

Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari.

**3-bob. Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar)**

**filiallarining asosiy vazifalari va funksiyalari**

**1-§. Davlat kadastrlari palatasining asosiy vazifalari va funksiyalari**

10. Quyidagilar Davlat kadastrlari palatasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni tashkil etish;

(10-bandning ikkinchi xatboshisi *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qaroriga tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son*)

davlat kadastrlarini yuritish;

geofazoviy ma’lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, davlat kadastrlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

11. Davlat kadastrlari palatasi o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasida:

*Oldingi tahrirga qarang.*

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni tashkil etadi;

(11-band “a” kichik bandining ikkinchi xatboshisi *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qaroriga tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son*)

ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestrini yuritadi;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va bekor bo‘lishini nazarda tutuvchi qarorlar, auksion va tanlov bayonnomalari, notarial tasdiqlangan bitimlar hamda boshqa hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimida (keyingi o‘rinlarda — Milliy geoaxborot tizimi) davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni tashkil etadi va amalga oshiradi;

davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritadi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

yer uchastkalarining kadastr raqamlarini identifikatsiyalash va hisobga olinishini ta’minlash maqsadida davlat yer kadastrining elektron ma’lumotlar bazasini shakllantiradi;

yer fondi toifalarining yer turlari bo‘yicha Milliy hisobotni Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini amalga oshiradi;

yer fondi holatidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini tashkil etadi va amalga oshiradi;

er hisobotini, tuman (shahar) yer kadastro daftarini faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritadi;

har bir yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori bo‘yicha yer kadastro elektron ma’lumotlar bazasini shakllantiradi;

hududlar davlat kadastrining yuritilishini tashkil etadi;

*(11-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qaroriga asosan oltinchi — o‘n birinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarning yuzaga kelishi, boshqa shaxslarga o‘tishi, cheklanishi, bekor bo‘lishi va ko‘chmas mulkka doir boshqa bitimlar to‘g‘risidagi yagona elektron ma’lumotlar bazasini yaratadi va uning doimiy ravishda yangilab borilishini ta’minlaydi;

ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini (pasportini) tayyorlash ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

kadastr muhandislari va tuman (shahar) filiallariga kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatishda teng sharoitlar yaratadi;

kadastr muhandislari va ro‘yxatdan o‘tkazuvchilarining reyestrini yuritadi;

ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda Davlat kadastrlari palatasining tarkibiy tuzilmalari hamda kadastr muhandislari faoliyatini muvofiqlashtiradi va monitoringini amalga oshiradi;

ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini yuritadi;

ko‘chmas mulk obyektlariga obyektning geografik bog‘liqligini ta’minlovchi geokodlar beradi;

respublika darajasida ko‘chmas mulk obyektlari geokodlari ko‘rsatilgan holda elektron kartalarni shakllantiradi;

ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestridan ma’lumotlar beradi;

bino va inshootlarning kadastr qiymatini belgilash ishlarini tashkil etadi;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini, davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastrini, hududlar davlat kadastrini yuritish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihamarini ishlab chiqadi;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini yuritish, davlat yer kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda jismoniy va yuridik shaxslarga tezkor va sifatli davlat xizmatlari ko‘rsatilishini tashkil etadi va amalga oshiradi;

yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestridan ko‘chirmalar beradi;

foydanuvchilarni belgilangan tartibda kadastr axborotlari bilan ta'minlaydi; ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlovchi axborot tizimini yaratadi, qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning shaffof va ommaga ochiq tizimining ishlashini ta'minlaydi;

kadastr muhandislari faoliyatini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi;

Davlat kadastrlari yagona tizimini, Milliy geoaxborot tizimini, Kadastr va ko'chmas mulkni ro'yxatdan o'tkazish integratsion axborot tizimini (keyingi o'rnlarda — Integratsion axborot tizimi) yaratadi, yangilaydi va rivojlantirishni tashkil etadi hamda amalga oshiradi;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning davlat reyestri, ko'chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestri, davlat yer kadastri, binolar va inshootlar davlat kadastr samarali yuritilishini ta'minlaydi;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ko'chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini yuritish sohasidagi faoliyatning ilmiy-tadqiqot va metodik ta'minotini tashkil etadi;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda jismoniy va yuridik shaxslarga malakali maslahat yordami va axborot beradi;

ko'chmas mulk obyektlari kadastr hujjatlarining arxiv hujjatlarini raqamlashtirilgan holda yuritadi;

b) davlat kadastrlarini yuritish sohasida:

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvoqiflashtiradi;

Davlat kadastrlari yagona tizimi va hududlar davlat kadastrining samarali yuritilishini ta'minlaydi;

Davlat kadastrlari yagona tizimini Milliy geoaxborot tizimida shakllantiradi;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari Milliy geoaxborot tizimiga taqdim etib borilishi monitoringini olib boradi;

davlat kadastrlari yuritilishiga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish, geofazoviy ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan soha faoliyatiga oid axborotlarni yig'ish, tahlil qilish, tizimlashtirish, saqlash va yangilash yo'li bilan Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritadi;

Milliy geoaxborot tizimini yuritadi;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining bazaviy fazoviy ma'lumotlar banki, maxsus fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlar bazalari shakllantirishini amalga oshiradi;

manfaatdor vazirliliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro elektron aloqalar orqali geofazoviy ma'lumotlar almashinuvini amalga oshiradi;

davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, xo'jalik birlashmalariga, yuridik va jismoniy shaxslarga axborot ta'minati va fazoviy ma'lumotlarni, shu jumladan, davlat kadastrlari to'g'risidagi axborotni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni tashkil etadi;

ko'chmas mulkka oid geoportallarni yaratadi, yuritadi va qo'llab-quvvatlaydi;

kadastr muhandislari geoaxborot tizimlari orqali ishlash va davlat kadastrlari yagona tizimi ma'lumotlaridan foydalanishga imkoniyatlar yaratadi;

doimiy faoliyat ko'rsatadigan sun'iy yo'ldosh orqali kuzatish stansiyalari tarmog'ini boshqarish, ular monitoringi va takomillashtirishini amalga oshiradi;

geofazoviy ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshiradi;

davlat va maxsus geoaxborot tizimlarini ishlab chiqadi;

geofazoviy ma'lumotlardan foydalanishda jismoniy va yuridik shaxslarga malakali maslahat beradi;

geofazoviy ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish, davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatning ilmiy-tadqiqot va metodik ta'minotini tashkil etadi;

v) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, davlat kadastrlarini yuritish va geofazoviy ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va qtnashadi.

Davlat kadastrlari palatasi qonun hujjatlarga muvofiq boshqa funksiyalarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **2-§. Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparatining asosiy vazifalari va funksiyalari**

12. Quyidagilar Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

1) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari bilan birgalikda Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta'minlash;

*Oldingi tahrirga qarang.*

2) xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ko'chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini yuritish, davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastro, hududlar davlat kadastrini yuritish, kadastr yig'majildini tayyorlash hamda Davlat kadastrlar palatasi sohasiga oid davlat xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirishni tashkil etish va ularni ko'rsatish sifati monitoringini olib borish;

*(12-bandning 2-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

3) Davlat kadastrlari palatasi, shu jumladan, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

4) axborot tizimlarini yaratish, uni texnik ta'minlash va yuritish;

5) Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalarga muvofiq soha faoliyatini rivojlantirishning rejalarini ishlab chiqish, kutilayotgan istiqboldagi va joriy ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarining faoliyatini tashkil etish;

6) Kadastr agentligi tomonidan ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (keyingi o'rinnarda — Vazirlar Mahkamasi) va Adliya vazirligiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa hujjatlarni, shuningdek, Kadastr agentligiga kiritiladigan qarorlarni sifatli tayyorlash;

7) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari tomonidan dasturlar, chora-tadbirlar rejalar, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlar amalga oshirilishini tashkil etish;

8) kadastr muhandislari va tuman (shahar) filiallariga kadastr yig'majildini tayyorlash xizmatlarni ko'rsatishda teng sharoitlar yaratish;

9) fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlariga riosa etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash uchun javob beradi.

13. Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati unga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, davlat kadastrlarini yuritish, geofazoviy ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanishdagi texnologiyalar va jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

2) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari, Kadastr agentligi va Davlat kadastrlari palatasining qarorlari, buyruqlari va farmoyishlari bajarilishi tizimli nazorat qilinishini ta'minlaydi;

- 3) Kadastr agentligi direktorining qarorlari va buyruqlari hamda Davlat kadastrlari palatasi raisining buyruqlari o‘z vakolatlari doirasida amalga oshirilishini ta’minlaydi;
- 4) Davlat kadastrlari palatasi vakolatiga kiradigan tezkor, tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlab chiqarish-xo‘jalik va boshqa masalalarni hal etish bilan shug‘ullanadi;
- 5) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari faoliyatini monitoringini olib boradi, nazorat va tahlil qiladi;
- 6) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallariga yuklangan vazifalar samarali bajarilishini ta’minlaydi;
- 7) sohaga oid davlat xizmatlari ko‘rsatish masalalari bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarga axborot va maslahat yordami beradi;
- 8) Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;
- 9) hududiy boshqarmalar hamda ularning tuman (shahar) filiallarini moddiy-texnik ta’minlashni tashkil etadi;
- 10) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashni tashkil etadi;
- 11) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, davlat kadastrlarini yuritish va geofazoviy ma’lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi.

### **3-§. Hududiy boshqarmalarning asosiy vazifalari va funksiyalari**

14. Quyidagilar hududiy boshqarmalarning asosiy vazifalari hisoblanadi:
  - 1) Davlat kadastrlar palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallariga yuklangan vazifalar samarali bajarilishini ta’minlash;
  - 2) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
  - 3) hududlar davlat kadastrining yuritilishini tashkil etish va amalga oshirish;
  - 4) foydalanuvchilarni belgilangan tartibda kadastr axborotlari bilan ta’minlash.
15. Hududiy boshqarmalar ularga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:
  - 1) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumatning qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, Kadastr agentligi va Davlat kadastrlari palatasining qarorlari, buyruqlari ijrosini ta’minlaydi;
  - 2) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarini tashkil etadi va amalga oshiradi;
  - 3) yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va bekor bo‘lishini nazarda tutuvchi qarorlar, auksion va tanlov bayonnomalari, notarial tasdiqlangan bitimlar hamda boshqa hujjatlarni Milliy geoaxborot tizimida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni ta’minlaydi;
  - 4) yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestridan ko‘chirmalar beradi;
  - 5) ko‘chmas mulk obyektlariga obyektning geografik bog‘liqligini ta’minlovchi geokodlar beradi;
  - 6) viloyat, tuman (shahar) darajasida ko‘chmas mulk obyektlari geokodlari ko‘rsatilgan holda elektron kartalarni shakllantiradi;
  - 7) ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestridan ma’lumotlar beradi;
  - 8) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda jismoniy va yuridik shaxslarga malakali maslahat yordamini ko‘rsatadi va axborot beradi;
  - 9) bino va inshootlarning kadastr qiymatini belgilash ishlarini tashkil etadi;
  - 10) hududlar davlat kadastrini yuritilishini ta’minlaydi;
  - 11) davlat yer kadastri, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va axborotlarni Integratsion axborot tizimiga kiritadi;
  - 12) kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatilishini tashkil etadi;
  - 13) tuman (shahar) filiallarining faoliyatini boshqaradi, nazorat qiladi va

muvofiglashtiradi;

14) kadastr muhandislari va tuman (shahar) filiallariga kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatishda teng sharoitlar yaratadi;

15) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi;

16) hududiy boshqarmalar faoliyatini tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan ta’minlaydi;

17) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hududlar kadastrini yuritish, shuningdek, hududiy boshqarmalar va ularning tuman (shahar) filiallari faoliyatini takomillashtirish masalalari bo‘yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruvi organlarining hududiy bo‘linmalari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan, yuridik va jismoniy shaxslar bilan hamkorlik qiladi;

18) kadastr muhandislari tomonidan ko‘chmas mulk obyektiga nisbatan tayyorlangan elektron kadastr yig‘majildini axborot tizimi orqali qabul qiladi hamda geoaxborot tizimlarida hisobini yuritadi;

19) yer uchastkasining chegarasini chizmalarda qayd etadi va naturada (joyning o‘zida) belgilaydi;

20) yer uchastkalarini belgilangan tartibda bo‘lish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadi;

21) yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bilan ishslashni tashkil qiladi;

22) foydalanuvchilarni belgilangan tartibda kadastr axborotlari bilan ta’minlaydi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

23) yer uchastkalarining kadastr raqamlarini identifikatsiyalash va hisobga olinishini ta’minlash maqsadida davlat yer kadastrining elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirilishini ta’minlaydi;

24) yer fondi toifalarining yer turlari bo‘yicha Milliy hisobotni Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini ta’minlaydi;

25) yer fondi holatidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini amalga oshirilishini ta’minlaydi;

26) yer hisobotini, tuman (shahar) yer kadastri daftarini faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini ta’minlaydi;

27) har bir yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijrarachi va yer uchastkasi mulkdori bo‘yicha yer kadastri elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirilishini ta’minlaydi;

28) davlat yer kadastri, binolar va inshootlar davlat kadastri hamda hududlar davlat kadastrini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va axborotlarni tuman (shahar) filiallari tomonidan Integratsion axborot tizimiga kiritish ishlarini tashkil etadi va nazorat qiladi.

*(15-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni  
garoriga asosan 23 — 28-kichik bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi,  
20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

#### **4-§. Davlat kadastrlari palatasi tuman (shahar) filiallarining asosiy vazifalari va funksiyalari**

16. Quyidagilar Davlat kadastrlari palatasi tuman (shahar) filiallarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlari ko‘rsatish;  
bino va inshootlarning kadastr qiymatini belgilash.

17. Davlat kadastrlari palatasi tuman (shahar) filiallari ularga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

ko‘chmas mulk obyektlarining joylashgan joyidan qat’iy nazar, davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmalariga asosan kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlari ko‘rsatadi;

bino va inshootlarning kadastr qiymatini belgilaydi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

davlat yer kadastri, binolar va inshootlar davlat kadastri hamda hududlar davlat kadastrini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va axborotlarni Integratsion axborot tizimiga

kiritadi;

(17-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

yer uchastkasining chegarasini chizmalarda qayd etadi va naturada (joyning o‘zida) belgilaydi;

yer uchastkalarining chegaralariga aniqlik kiritadi, yer uchastkalarini bo‘lish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadi;

ko‘chmas mulk obyekti to‘g‘risidagi ma’lumotlar va axborotlarni Integratsion axborot tizimiga kiritadi;

Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat va tariflarga muvofiq qo‘sishmcha xizmatlar ko‘rsatadi;

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

yer uchastkalarining kadastr raqamlarini identifikasiyalash va hisobga olinishini ta’minalash maqsadida davlat yer kadastrining elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirilishini ta’minalaydi;

yer fondi toifalarining yer turlari bo‘yicha Milliy hisobotni Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini ta’minalaydi;

yer fondi holatidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini amalga oshirilishini ta’minalaydi;

er hisobotini, tuman (shahar) yer kadastro daftarini faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini ta’minalaydi;

har bir yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori bo‘yicha yer kadastro elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirilishini ta’minalaydi.

(17-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qaroriga asosan to‘qqizinch — o‘n uchinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

### **4-bob. Davlat kadastrlari palatasi va uning tuzilmalarining huquqlari hamda javobgarligi**

#### **1-§. Davlat kadastrlari palatasining huquqlari va javobgarligi**

18. Davlat kadastrlari palatasi o‘ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini, davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastrini, hududlar davlat kadastrini yuritish hamda Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni, shuningdek, Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni ishlab chiqish va Kadastr agentligiga kiritish;

2) Davlat kadastrlari palatasi vakolatlariga taalluqli masalalar bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo‘jalik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

3) Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati hamda hududiy boshqarmalariga qo‘sishma shtat birliklarini kiritish bo‘yicha takliflarni Kadastr agentligiga kiritish;

4) Davlat kadastrlari palatasi vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish;

5) malakali xorijiy mutaxassislarni ularga istisno tariqasida Davlat kadastrlari palatasining mablag‘lari hisobidan xorijiy valyutada ish haqi va boshqa to‘lovlarni belgilagan holda xodimlar va maslahatchilar sifatida jalb qilish;

6) mehnat bozorining amaldagi konyunkturasini hisobga olgan holda, tor doiradagi mutaxassislarni shartnoma asosida Davlat kadastrlari palatasiga ishga jalb qilish;

7) davlat organlari va mansabdor shaxslardan Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va axborotlarni, shu jumladan, statistik ma’lumotlarni so‘rash va tekin olish;

8) Davlat kadastrlari palatasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning topshirig‘iga (taqdimnomasiga) muvofiq tekshirishlar o‘tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganish, shuningdek, axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash uchun vazirliklar va idoralar, shuningdek, davlatning boshqa tashkilotlari vakillarini chaqirish va jalb etish;

9) Davlat kadastrlari palatasining vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha takliflarni Kadastr agentligiga, davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga va xo‘jalik birlashmalariga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

10) Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati hamda hududiy boshqarmalarida komplaens-nazorat, korrupsion huquqburziliklar va qonunlarga zid boshqa harakatlar, shuningdek, Davlat kadastrlari palatasi tizimi xodimlari tomonidan kasbiy axloq qoidalari buzilishining oldini olish va ularni minimallashtirish hamda profilaktikasini amalga oshirish;

11) Davlat kadastrlari palatasi hamda hududiy boshqarmalar tomonidan pullik xizmat ko‘rsatiladigan ro‘yxat va tariflarni belgilash bo‘yicha takliflarni Kadastr agentligiga kiritish;

12) Kadastr agentligi bilan kelishgan holda Davlat kadastrlari palatasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqish, idoralararo xususiyatiga ega bo‘lgan xalqaro shartnomalarni tuzish;

13) Kadastr agentligi bilan kelishgan holda xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan Davlat kadastrlari palatasining vakolati doirasida hamkorlik qilish;

14) Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar yaratish;

15) o‘z vakolati doirasida konferensiylar, seminarlar, simpoziumlar o‘tkazish hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan shunday tadbirdorda ishtirok etish;

16) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini, davlat yer kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini, hududlar davlat kadastrini yuritish hamda Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish sohasini rivojlantirishga oid dolzarb va istiqboldagi muammolar yechimini ishlab chiqish maqsadida, jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda ishchi guruhlarni tuzish;

17) Davlat kadastrlari palatasining vakolatiga kiruvchi masalalarda sudsiga arizalar va da‘volarni kiritish;

18) Davlat kadastrlari palatasining hamda hududiy boshqarmalarning mol-mulkini o‘zining tashkiliy tuzilmasi doirasida bepul foydalanish huquqi bilan bir tarkibiy bo‘linmadan boshqa bo‘linmaga o‘tkazish bo‘yicha takliflarni Kadastr agentligiga kiritish;

19) Davlat kadastrlari palatasi hamda hududiy boshqarmalar xodimlari tomonidan o‘z sohasida ular faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha parametrlar bajarilishini hisobga olgan holda ularni moddiy rag‘batlantirish;

20) kadastr muhandislarini intizomiy javobgarlikka tortish masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni vakolatlari organlarga kiritish;

21) kadastr muhandislariga berilgan malaka shahodatnomalarining amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish va bekor qilish bo‘yicha takliflar kiritish;

22) Davlat kadastrlari palatasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha choratadbirlarni amalga oshirish;

23) Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallarini bosqichma-bosqich tugatib borish haqidagi takliflarni Kadastr agentligi rahbariyatiga kiritish;

24) davlat siri va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirga rioya qilish sharti bilan tekshirishni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, davlat organlarining elektron bazalaridan (banklaridan) foydalanish uchun xizmat guvohnomasini ko‘rsatgan holda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning hududlariga va binolari kirish;

25) ko‘chmas mulk bo‘lgan kadastr obyektlariga doir huquqlarni hududiy boshqarmalar ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha bitimni insofli ravishda tuzgan taraflarga ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestriga noto‘g‘ri axborot kiritish oqibatida ko‘rgan zararlarni sug‘urtalash orqali qoplash ishlarini amalga oshirish.

Davlat kadastrlari palatasi qonun hujjaliga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

19. Davlat kadastrlari palatasi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni samarali bajarish, shuningdek, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarning davlat reyestri, davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastrini, hududlar davlat kadastrini hamda Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishni samarali amalga oshirish;

(19-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

Davlat kadastrlari palatasi tarkibiy bo‘linmalarining Davlat kadastrlari palatasi faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minalash bo‘yicha ishlarning tashkil etilishi;

Davlat kadastrlari palatasi faoliyatiga oid ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjalar loyihalari va boshqa hujjalar, shuningdek, Davlat kadastrlari palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarolarning sifati, pirovard natijalari va amalga oshirilishi oqibatlari;

o‘z faoliyati sohasini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjalarning samarali amalga oshirilishi bo‘yicha javobgar hisoblanadi.

## **2-§. Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparatining huquqlari va javobgarligi**

20. Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

1) Davlat soliq qo‘mitasi va Kadastr agentligining hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparatida ko‘rib chiqiladigan, tahlil qilish va ishlash uchun zarur bo‘lgan materiallar hamda ma’lumotlarni va boshqa hujjalarni so‘rash va olish;

2) tegishli ma’lumotlar bazalariga, davlat axborot tizimlariga va davlat organlarining axborot resurslariga belgilangan tartibda kirish huquqini olish;

3) yuridik va jismoniy shaxslarga qo‘shimcha pullik xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha takliflarni Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatiga kiritish;

4) Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlarni, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarni yaratish;

5) o‘z vakolatlari doirasida konferensiylar, seminarlar, simpoziumlar o‘tkazish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan shu kabi tadbirlarda qatnashish;

6) Davlat kadastrlari palatasining vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha hududiy boshqarmalar rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

7) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari boshliqlari ishtirokida ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastrini, hududlar davlat kadastrini yuritish sohasini takomillashtirish masalalari bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazish;

8) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari boshliqlariga tezlikda hal qilinishi talab etiladigan va Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

9) Davlat kadastrlari palatasida ko‘rib chiqiladigan masalalarni ishlab chiqish, axborot va tahliliy materiallarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjalar va boshqa hujjalarni loyihalarini tayyorlash uchun zarur bo‘lganda hududiy boshqarmalar rahbarlari hamda vakillarini, shuningdek, boshqa tashkilotlar mutaxassislarini jalb qilish, ushbu maqsadlar uchun ekspert va ishchi guruhlarni tashkil etish;

10) hududiy boshqarmalarning qabul qilingan buyruqlari va boshqa hujjalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari, shuningdek, Kadastr agentligi, Davlat kadastrlari palatasi va uning rahbariyatining hujjalari va topshiriqlari bajarilishiga oid faoliyatini o‘rganish va tekshirish;

11) sohada korrupsiya illatlarining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha choralar

ko‘rish;

- 12) kadastr muhandislari faoliyatini metodik qo‘llab-quvvatlash;
- 13) kadastr muhandislarining faoliyati davomida bajarilgan ishlari bo‘yicha hisobotlarini yoritib borish;
- 14) kadastr muhandislari faoliyatida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar bo‘yicha Kadastr agentligi tarkibidagi komissiyaga taqdimnomalar kiritish.

Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

21. Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati:

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastro hamda Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish sohasida davlat siyosati samarali amalga oshirilishi ta’minlanishi;

Davlat kadastrlari palatasi faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlash bo‘yicha Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati bo‘linmalarining ishi tashkil etilishi;

Davlat kadastrlari palatasi tomonidan Kadastr agentligiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalari, shuningdek, Davlat kadastrlari palatasi tomonidan qabul qilinadigan buyruqlar o‘z vaqtida va sifatli tayyorlanishi;

Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi;

Davlat kadastrlari palatasi tomonidan yaratilgan va saqlanadigan ma’lumotlar bazalari va shakllantirilgan ma’lumotlarning ishonchliligi;

davlat yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma’lumotlarni himoya qilish ta’minlanishi;

kadastr muhandislarining faoliyatida geoaxborot tizimlarida ishslash, axborot tizimida shaxsiy kabinetlarga ega bo‘lish va bajarilgan kadastr yig‘majildi ma’lumotlari belgilangan tartibda davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritilishi ta’minlanishi;

kadastr muhandislari va tuman (shahar) filiallariga kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatishda teng sharoitlar yaratilishi;

o‘z faoliyati sohasini rivojlantirish bo‘yicha hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari tomonidan dasturlar, chora-tadbirlar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlar samarali amalga oshirilishi bo‘yicha javobgar hisoblanadi.

### **3-§. Hududiy boshqarmalarning huquqlari va javobgarligi**

22. Hududiy boshqarmalar o‘ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

1) Davlat soliq qo‘mitasi va Kadastr agentligining hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan, shuningdek, davlat organlari hududiy bo‘linmalari va ularning mansabдор shaxslaridan o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan materiallar hamda ma’lumotlarni va boshqa hujjatlarni so‘rash va tekin olish;

2) ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha qo‘shimcha xizmatlarni kiritish, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hududlar davlat kadastrini yuritish, kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish bo‘yicha taklif kiritish;

3) tegishli ma’lumotlar bazalaridan, davlat axborot tizimlaridan va vakolatli organlar resurslaridan belgilangan tartibda foydalanish;

4) tuman (shahar) filiallari boshliqlari ishtirokida kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatish tartibini takomillashtirish masalalari bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazish;

5) tuman (shahar) filiallarining ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi faoliyatini o‘rganish;

6) ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini sifatli tayyorlash davlat xizmatini ko‘rsatish masalalari bo‘yicha boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Hududiy boshqarmalar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

23. Hududiy boshqarmalar:

1) Kadastr agentligi, Davlat kadastrlari palatasi va uning rahbariyatining hujjatlari va topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatlari bajarilishini ta’minlash;

*Oldingi tahrirga qarang.*

2) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hududlar davlat kadastr yuritish, davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va axborotlarni Integratsion axborot tizimiga kiritilishini samarali amalgalashirishini ta’minlash;

*(23-bandning 2-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton)*

3) tuman (shahar) filiallari tomonidan ko‘chmas mulk obyektlariga nisbatan kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlari ko‘rsatishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishi va himoya qilinishini ta’minlash;

4) kadastr muhandislari va tuman (shahar) filiallari kadastr yig‘majildini tayyorlash xizmatlari ko‘rsatishda teng sharoitlar yaratish;

5) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari ishini tashkil qilish;

6) Davlat kadastrlari palatasiga ko‘rib chiqish uchun kiritilayotgan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hududlar davlat kadastrini yuritish sohasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar, shuningdek, boshqa hujjatlarni sifatli tayyorlash;

7) hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari tomonidan dasturlar, chora-tadbirlar rejali, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarni amalgalashirishini tashkil etish;

8) fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlash uchun javob beradi.

**5-bob. Davlat kadastrlari palatasi rahbarlarining asosiy funksional vazifalari**

24. Quyidagilar Davlat kadastrlari palatasi raisining (keyingi o‘rinlarda — rais) asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini, davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastr, hududlar davlat kadastrini hamda Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish sohasida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni talablariga rioya qilish;

*(24-bandning 1-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton)*

2) Davlat kadastrlari palatasi faoliyatiga umumiyligi rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat soliq qo‘mitasi va Kadastr agentligining qarorlari va boshqa qonun hujjatlari bilan Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasi va Kadastr agentligining qarorlari bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks dasturlar va tadbirlarning bajarilishi holatini tanqidiy va chuqur tahlil qilish;

4) Kadastr agentligi direktori va uning o‘rinbosarlarining topshiriqlarini bajarish;

5) o‘z o‘rinbosarlarini va Davlat kadastrlari palatasining boshqa mansabdar shaxslarning vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, Davlat kadastrlari palatasi faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish uchun o‘z o‘rinbosarlarini va boshqa mansabdar shaxslarning shaxsiy mas’uliyati darajasini belgilash;

6) Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, soha faoliyatini rivojlantirish tendensiylaridan kelib chiqib Davlat kadastrlari palatasi va o‘z

o‘rinbosarlarining har choraklik ish rejalarini tasdiqlash va ularning bajarilishi nazoratini ta’minlash;

7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish va monitoring olib borishning amaliy tizimini yaratish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-son **qaroriga**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son qaroriga va Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son **qaroriga** muvofiq Davlat kadastrlari palatasi faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish;

8) Davlat kadastrlari palatasi va uning tizimidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari xodimlarining tizimli ravishda malakasini oshirishni ta’minlash;

9) Davlat kadastrlari palatasida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, Davlat kadastrlari palatasining kadrlar zaxirasini shakllantirish;

10) Kadastr agentligining nomenklaturasiga kiradigan vakant lavozimlarga taklif etilgan kadrlarning, shuningdek, Davlat kadastrlari palatasiga ishga qabul qilinayotgan boshqa kadrlarning professional, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishslash xususiyatlariga va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta’minlash;

11) “**Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida**”, “**Qonunlar loyihalarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining va Vazirlar Mahkamasining reglamentlari talablariga muvofiq Davlat kadastrlari palatasi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, ularning Vazirlar Mahkamasi apparatida puxta ishlab chiqilishida, Vazirlar Mahkamasi Rahbariyati huzurida himoya qilinishi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida ko‘rib chiqilishida ishtirok etish;

12) Davlat kadastrlari palatasi rahbarlari va xodimlarining xizmat safarlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Mansabdar shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to‘g‘risida**” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdar shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga muvofiq tashkil etish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlash;

13) o‘z o‘rinbosarlarining faoliyati natijadorligi va samaradorligini tizimli ravishda tanqidiy o‘rganish, ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

14) Davlat kadastrlari palatasining hududiy va tarkibiy tuzilmalarining rahbarlari faoliyatini muvofiglashtirish va nazorat qilish;

15) Davlat kadastrlari palatasi xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, o‘z o‘rinbosarlarini va Davlat kadastrlari palatasining boshqa mansabdar shaxslarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni hal etish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirishga doir tizimli chora-tadbirlarni amalgalash;

16) Davlat kadastrlari palatasi xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagи 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy **qoidalari** asosida tasdiqlangan Davlat kadastrlari palatasi xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

17) "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuni** talablariga muvofiq Davlat kadastrlari palatasi tizimida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

18) Davlat kadastrlari palatasi ishini tashkil etishning zamonaviy shakllari joriy etilishini ta'minlash;

19) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishga doir samarali ishlarni tashkil etish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonunida** belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

20) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlikni, ularning faoliyatida Davlat kadastrlari palatasi xodimlari va rahbarlarining faol ishtirok etishini tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlari o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini ta'minlash;

(24-bandning 20-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)

21) davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

22) Davlat kadastrlari palatasi tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomni, lavozim yo'riqnomalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari to'g'risidagi nizomni hamda Davlat kadastrlari palatasining boshqa lokal hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlash;

23) Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati xodimlarini (Davlat kadastrlari palatasi raisining o'rinnbosarlari, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari boshliqlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalarining komplaens-nazorat xizmati xodimlaridan tashqari) lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish;

24) Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari mansabdor shaxslari va xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar qabul qilish va ko'rsatmalar berish, shuningdek, ularning ijrosini belgilangan tartibda nazorat qilish;

25) xodimlarning umumiyligi belgilangan soni doirasida Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalarning shtatlar jadvalini, shuningdek, Davlat kadastrlari palatasi va uning tizimidagi tuzilmalar xarajatlar va daromadlar smetasini Kadastr agentligi direktoriga tasdiqlash uchun kiritish;

26) Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati, hududiy boshqarmalarning tuzilmasiga boshqaruva xodimlarining cheklangan umumiyligi soni doirasida o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflarni Kadastr agentligi direktoriga kiritish;

27) tuman (shahar) filiallarining namunaviy tuzilmasi hamda xodimlarining cheklangan sonini ish hajmidan kelib chiqqan holda belgilash va o'zgartirish bo'yicha takliflarni Kadastr agentligi direktoriga kiritish;

28) Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati va hududiy boshqarmalariga

qo'shimcha shtat birliklarini kiritish bo'yicha takliflarni Kadastr agentligi direktoriga kiritish;

29) mehnat bozorining amaldagi konyunkturasini hisobga olgan holda tor doiradagi mutaxassislarni shartnomaga asosida Davlat kadastrlari palatasiga ishga jalg etish bo'yicha takliflarni Kadastr agentligi direktoriga kiritish;

30) alohida o'zini ko'rsatgan xodimlarni ularga davlat mukofotlari berish uchun ularning nomzodlarini belgilangan tartibda Kadastr agentligi direktoriga taqdim etish;

31) Davlat kadastrlari palatasi faoliyatiga oid sohalarda xalqaro va hukumatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish bo'yicha xalqaro tadbirlarda Kadastr agentligi direktori bilan kelishgan holda ishtirok etish.

25. Quyidagilar Davlat kadastrlari palatasi raisi o'rindbosarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rivoja qilish;

2) Rais vaqtincha bo'lmaganda Raisning buyrug'i asosida uning vazifalarini bajarish;

3) Davlat kadastrlari palatasining mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalarini faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va ularga bevosita rahbarlik qilish, ularning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, Kadastr agentligining qarorlari bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha kompleks dasturlar va tadbirlarning bajarilishi holatini tanqidiy va chuhur tahlil qilish;

5) Davlat soliq qo'mitasi hay'ati qarorlari, Davlat soliq qo'mitasi raisi, Kadastr agentligi direktori hamda raisning o'rindbosarlarini qaror, buyruq va topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

6) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichlariga erishishni so'zsiz ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish, bo'linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitish va ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

7) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalarning ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

8) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish, Davlat kadastrlari palatasi faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-sont **qaroriga**, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-sont qaroriga va Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 1999-yil 12-yanvardagi 12-sont **qaroriga** muvofiq topshiriqlar o'z vaqtida va sifatli ijro etilishi yuzasidan mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish;

9) Davlat soliq qo'mitasi hay'ati, Davlat soliq qo'mitasi raisi va Davlat kadastr agentligi direktorining qarorlari, buyruqlari va topshiriqlari o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlash;

10) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha Davlat kadastrlari palatasi raisiga takliflar kiritish, ularning professionalligi, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishslash xususiyatlariga va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta'minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish, mutasaddilik qilinadigan bo'linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

11) Davlat kadastrlari palatasi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, Davlat kadastrlari palatasining tarkibiy bo‘linmalarida tayyorlangan hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqish va ular keyinchalik Davlat kadastrlari palatasi raisi tomonidan ko‘rib chiqilishi, imzolanishi (viza qo‘yilishi) uchun viza qo‘yish, ularning Kadastr agentligiga o‘z vaqtida kiritilishini ta’minlash, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi apparatida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda raisning topshirig‘iga binoan ishtirot etish;

12) Davlat kadastrlari palatasiga taqdim etilgan takliflar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to‘liq va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansabdar shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to‘g‘risida” 2014-yil 5-martdagি PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdar shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagи PQ-3170-son qarorlari talablariga muvofiq xizmat safarlariga chiqish va bo‘lish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlash;

14) Davlat kadastrlari palatasining mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish;

15) Davlat kadastrlari palatasi faoliyatiga oid tegishli masalalar bo‘yicha Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy chora-tadbirlar ko‘rish hamda ushbu sohalarda qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni Davlat kadastrlari palatasi raisiga kiritish;

16) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni raisga kiritish, funksional vazifalar va yuklangan vazifalar bajarilishi uchun ularning shaxsiy mas‘uliyatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rishi;

17) Davlat kadastrlari palatasi xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini, mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishini ta’minlash;

18) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** talablariga muvofiq Davlat kadastrlari palatasi tizimida korrupsiya va boshqa huquqburzaliklarning oldini olish choralarini ko‘rishi, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

19) Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga doir takliflarni raisga kiritish;

20) davlat xizmatlari samaradorligini, ulardan erkin foydalanishni va ko‘rsatilishi sifatini oshirish hamda “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining **Qonunini** amalga oshirish doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

21) “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining **Qonunida** belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha samarali ishlarni tashkil etish, aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

*Oldingi tahririga qarang.*

22) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali

hamkorlik qilish, ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslar vakillarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlari o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

(25-bandning 22-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)

23) davlat siriga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish.

26. Quyidagilar Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish;

2) Davlat soliq qo‘mitasi hay’ati qarorlari, Davlat soliq qo‘mitasi raisi, Kadastr agentligi direktori hamda rais va uning o‘rnbosarlari qarorlari, buyruqlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

3) tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish, ushbu bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

4) tegishli tarkibiy tuzilmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtirish;

5) prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish bo‘yicha takliflarni Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatiga kiritish;

6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish, Davlat kadastrlari palatasi tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-son **qaroriga**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son qaroriga va Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son **qaroriga** muvofiq topshiriqlar o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishi chora-tadbirlarini ko‘rish;

7) Davlat soliq qo‘mitasi hay’ati qarorlari, Davlat soliq qo‘mitasi raisi, Kadastr agentligi direktori hamda rais va uning o‘rnbosarlari qarorlari, buyruqlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

8) tarkibiy bo‘linmalarning har choraklik ish rejalarini ishlab chiqilishini ta’minlash, ularni tasdiqlash uchun kiritish, ularda ko‘rsatilgan vazifalar va tadbirlar o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash;

9) tarkibiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalar bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish, Davlat kadastrlari palatasining tegishli tarkibiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyati sohasiga oid masalalar bo‘yicha amaliy va metodik yordam ko‘rsatish;

10) tarkibiy tuzilmalar faoliyati sohalariga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni ko‘rib chiqish uchun Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatiga kiritish;

11) tarkibiy bo‘linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda raisning mutasaddilik qilinadigan o‘rnbosarlariga takliflar kiritish, professionalligi, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlab chiqish uchun Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatiga kiritish;

bo‘linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

12) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tarkibiy bo‘linmalar tomonidan sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, Davlat kadastrlari palatasining tarkibiy bo‘linmalarida tayyorlangan hujjatlar loyihalarini keyinchalik Davlat kadastrlari palatasi rahbariyati tomonidan ko‘rib chiqish, imzolash (viza qo‘yilishi) uchun ko‘rib chiqish va viza qo‘yish, ularning Kadastr agentligiga o‘z vaqtida kiritilishini ta‘minlash, Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatining topshirig‘i bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasi apparatida ishlab chiqishda ishtirok etish;

13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga muvofiq xizmat safarlariga chiqish va bo‘lish, xizmat safarları asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta‘minlash;

14) tarkibiy bo‘linmalar xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rish;

15) Davlat kadastrlari palatasi xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga riosa qilishini, tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining ushbu qoidalarga riosa etishini ta‘minlash;

16) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** talablariga muvofiq tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

17) soha faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishga doir takliflarni Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatiga kiritish;

18) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** bilan belgilangan muddatlarda va tartibda aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

19) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

(26-bandning 19-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)

20) davlat siri sirasiga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlarini talablariga riosa qilish.

27. Quyidagilar hududiy boshqarmalar rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga riosa etish;

2) Davlat soliq qo‘mitasi hay’ati qarorlari, Davlat soliq qo‘mitasi raisi, Kadastr agentligi direktori hamda rais va uning o‘rinbosarlari qarorlari, buyruqlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash;

3) tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish, ushbu bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

4) tegishli tarkibiy tuzilmalar faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtirish;

5) prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish bo‘yicha takliflarni Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatiga kiritish;

6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari tarkibiy bo‘linmalarini xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-son **qaroriga**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son qaroriga va Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son **qaroriga** muvofiq topshiriqlar o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishi chora-tadbirlarini ko‘rish;

7) Davlat soliq qo‘mitasi hay’ati qarorlari, Davlat soliq qo‘mitasi raisi, Kadastr agentligi direktori hamda rais va uning o‘rnbosarlari qarorlari, buyruqlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

8) tarkibiy bo‘linmalarning har choraklik ish rejalarini ishlab chiqilishini ta’minlash, ularni tasdiqlash uchun kiritish, ularda ko‘rsatilgan vazifalar va tadbirlar o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash;

9) tarkibiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalar bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish, ularning faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha amaliy va metodik yordam ko‘rsatish;

10) tarkibiy tuzilmalar faoliyati sohalariga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni ko‘rib chiqish uchun Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatiga kiritish;

11) tarkibiy bo‘linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda raisga takliflar taqdim etish, professionalligi, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishslash xususiyatlariga va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta’minlash, ularning kasb malakasini oshirish choralarini ko‘rish, tarkibiy bo‘linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

12) hududiy boshqarmalarning tarkibiy bo‘linmalarida tayyorlangan hujjatlar loyihibarini keyinchalik Davlat kadastrlari palatasi rahbariyati tomonidan ko‘rib chiqish, imzolash (viza qo‘yilishi) uchun ko‘rib chiqish va viza qo‘yish, ularning Davlat kadastrlari palatasiga o‘z vaqtida kiritilishini ta’minlash;

13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga muvofiq xizmat safarlariga chiqish va bo‘lish, xizmat safarlarasi asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlash;

14) tarkibiy bo‘linmalar xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rish;

15) xodimlarning odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini, tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishini ta’minlash;

16) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni**

talablariga muvofiq tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiya va boshqa huquqbarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

17) soha faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishga doir takliflarni Davlat kadastrlari palatasi rahbariyatiga kiritish;

18) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** bilan belgilangan muddatlarda va tartibda aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

19) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

(*27-bandning 19-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-ton*)

20) davlat siri sirasiga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlarini talablariga rioya qilish.

**6-bob. Davlat kadastrlari palatasi rahbarlarining javobgarligi**

28. Davlat kadastrlari palatasi raisi:

Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun; ushbu Nizomning **19-bandida** nazarda tutilgan javobgarlik sohalari bo‘yicha;

mazkur Nizomning **24-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

29. Rais o‘rinbosarlari:

Davlat kadastrlari palatasining o‘zi nazorat qiladigan tarkibiy tuzilmalarida Davlat kadastrlari palatasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;

ushbu Nizomning **19-bandida** nazarda tutilgan Davlat kadastrlari palatasining mutasaddilik qilinadigan masalalarga doir javobgarlik sohalari bo‘yicha;

mazkur Nizomning **25-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

30. Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati rahbarlari:

tegishli tarkibiy tuzilmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi uchun;

ushbu Nizomning **21-bandida** nazarda tutilgan Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparatining javobgarlik sohalari bo‘yicha;

mazkur Nizomning **26-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

31. Hududiy boshqarmalar rahbarlari:

ushbu Nizomning **23-bandida** nazarda tutilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining javobgarlik sohalari bo‘yicha;

mazkur Nizomning **27-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

**7-bob. Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini tashkil etish**

**1-§. Davlat kadastrlari palatasi rahbariyati**

32. Davlat kadastrlari palatasiga Kadastr agentligi direktori tavsiyasiga binoan Davlat soliq qo‘mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan Davlat kadastrlari palatasi raisi rahbarlik qiladi.

33. Davlat kadastrlari palatasi raisi Kadastr agentligi direktori tavsiyasiga binoan Davlat

soliq qo‘mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ikki nafar o‘rnbosarlarga, shu jumladan, bir nafar birinchi o‘rnbosarga ega bo‘ladi.

34. Davlat kadastrlari palatasi raisi bo‘lmagan vaqtida uning vakolatlari raisning buyrug‘i bilan uning o‘rnbosarlardan biriga yuklanadi.

35. Davlat kadastrlari palatasi raisi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari boshliqlari lavozimiga tayinlash bo‘yicha nomzodlarni Kadastr agentligi rahbariyatiga taqdim etadi.

Bunda Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari boshliqlari lavozimiga tayinlash va lavozimdan ozod etish Kadastr agentligi direktori tomonidan Davlat soliq qo‘mitasi raisi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

## **2-§. Davlat kadastrlari palatasining Davlat soliq qo‘mitasi va Kadastr agentligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi**

36. Davlat kadastrlari palatasi o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasi, shuningdek, Kadastr agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari va ularning hududiy boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etadi.

37. Davlat kadastrlari palatasi:

Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, uning hududiy boshqarmalari, shuningdek, idoraviy mansub tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi bevosita Agentlik direktori va uning o‘rnbosarlari tomonidan;

Kadastr agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, uning hududiy boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘linmalari, shuningdek, uning idoraviy mansub tashkilotlari bilan hamkorligi bevosita rais va uning o‘rnbosarlari tomonidan ta’milnadi.

38. Davlat kadastrlari palatasining Davlat soliq qo‘mitasi hamda Kadastr agentligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari va ularning hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi jarayonida yuzaga keladigan kelishmovchiliklari Kadastr agentligi direktorining topshirig‘iga binoan uning tegishli o‘rnbosari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Agar direktor o‘rnbosari tomonidan kelishmovchiliklarni bartaraf etishning imkonni bo‘lmasa, so‘nggi qaror bevosita Kadastr agentligi direktori tomonidan Davlat soliq qo‘mitasi raisi bilan kelishgan holda qabul qilinadi.

## **3-§. Davlat kadastrlari palatasining boshqa davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi**

39. Davlat kadastrlari palatasi o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda boshqa davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

## **8-bob. Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari**

40. Davlat kadastrlari palatasi faoliyatining samaradorligi va natijadorligi muntazam baholanib boriladi.

41. Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini samaradorligi va natijadorligini baholash Davlat kadastrlari palatasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi.

42. Davlat kadastrlari palatasi faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo‘yicha:

Davlat kadastrlari palatasi rahbarlari va xodimlariga nisbatan rag‘batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlik choralar;

Davlat kadastrlari palatasi faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘riladi.

Davlat kadastrlari palatasi faoliyatini samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi va usuli Kadastr agentligi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

## **9-bob. Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari**

**faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, ularning xodimlari mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, ularni ijtimoiy himoya qilish**  
*Oldingi tahrirga qarang.*

43. Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, ilmiy darajalar, uzoq muddat xizmati uchun ustama haqlar, dam olish uchun to'lovlar va bayram kunlari uchun mukofotlar, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalardan, rag'batlantirish to'lovlaridan, qo'shimcha moddiy rag'batlantirish to'lovlaridan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat.

*(43-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton)*

44. Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar xodimlari lavozim maoshlariga har oyda qo'shiladigan rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan qo'shimcha haqlar va ustamalar Davlat kadastrlari palatasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan nizomga muvofiq to'lanadi.

45. Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari faoliyati quyidagi manbalar hisobiga moliyalashtiriladi:

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishdan tushgan mablag'lar;

kadastr yig'majildini tayyorlashdan tushgan mablag'lar;

Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatga asosan pullik xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu bandda nazarda tutilgan manbalar va ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlardan tushadigan mablag'lar Davlat kadastrlari palatasi tomonidan taqsimot qilinishi, shu jumladan uning hududiy boshqarmalari o'rtasida qayta taqsimot qilinishi mumkin hamda ushbu mablag'lar hisobidan Davlat kadastrlari palatasi raisi tomonidan belgilangan miqdorda Davlat kadastrlari palatasiga ajratmalar o'tkaziladi.

*(45-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-ton)*

46. Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha — ushbu Nizomning **45-bandida** nazarda tutilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarining moddiy-texnik bazasini shakllantirish va mustahkamlash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va Davlat kadastrlari palatasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish — ushbu Nizomning **45-bandida** nazarda tutilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladi. Bunda Davlat kadastrlari palatasining mablag'ları yetarli bo'limganda Kadastr agentligining budgetdan tashqari mablag'ları hisobidan moliyalashtiriladi.

47. Ushbu Nizomning **45-bandida** nazarda tutilgan manbalari hisobidan:

Davlat kadastrlari palatasini, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash;

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarining binolarini qurish hamda binolar va asbob-uskunalarni ta'mirlash va qayta ta'mirlash;

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish (xodimlar uchun uy-joy qurish, sanatoriy-kurortda davolanish va tibbiy xizmat ko'rsatish, mukofotlar to'lash, ustamalar belgilash, moddiy yordam va boshqalar);

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallari xodimlarining lavozim maoshlarini aniqlashda Yagona tarif setkasi bo'yicha 1,7 baravar miqdorigacha koeffitsiyent qo'llanilgandagi xarajatlar;

Davlat kadastrlari palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar

boshqarmalari, tuman (shahar) filiallarining rahbarlari va xodimlarining xizmat safarları xarajatlari, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarga xizmat safarları xarajatlari;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filialari xodimlariga ustamalar, martaba darajalari va uzoq muddat xizmati uchun qo'shimcha haq to'lash;

*(47-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)*

oy, chorak, yarim yillik ish yakunlari bo'yicha mukofotlash;

xodimlarning lavozim maoshiga ish uchastkasining murakkabligi va muhimligi hamda mehnatda yuqori natijalarga erishganligi uchun ustamalar to'lash;

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filialari faoliyati samaradorligini baholash mezonlariga asosan va erishilgan yakuniy natijalardan kelib chiqib mukoftlash;

xizmat vazifalarini bajarish chog'idagi alohida xizmatlari uchun va pensiyaga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlash;

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filialari xodimlarining lavozim maoshlariga ularning funksional vazifalarni bajarishlarini, bilimlari darajasini, ish olib borish kasbiy qobiliyatlarini har yili test sinovlaridan o'tkazish asosida belgilanadigan maxsus rag'batlantiruvchi ustamalar;

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filialari xodimlarining malakasini oshirish, ularni o'qitish va stajirovkadan o'tashini, shu jumladan, ularning xorijiy mamlakatlarga tashriflarini tashkil etish, xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan konferensiya, seminarlar va boshqa tadbirdorda ishtirok etishi;

Davlat kadastrlari palatasi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradigan xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar delegatsiyalarining tashriflarini tashkil etishi;

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarining kommunal-foydanish hamda boshqa joriy xarajatlari;

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarining qo'shimcha shtat birliklarini saqlab turish;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ko'chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestagini, davlat yer kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini, hududlar kadastrini hamda Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish hamda Davlat xizmatlarini ko'rsatishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish, yuritish va texnik qo'llab-quvvatlash;

Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarining faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqa tadbirdor uchun foydalaniladi.

48. Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filiallarining xodimlariga har oyda ushbu Nizomning *45-bandida* nazarda tutilgan manbalar hisobiga umumiyligi ish stoji uchun xodimning lavozim maoshiga belgilangan razryad tarif stavkasiga (lavozim maoshiga nisbatan rag'batlantirish koeffitsiyentlari hisobga olingan holda) nisbatan quyidagi foizlarda hisoblanadi:

Ish stoji bo'yicha guruh	Staj uchun ustama miqdori
1 yildan 3 yilgacha	10 foiz
3 yildan 5 yilgacha	20 foiz
5 yildan 10 yilgacha	40 foiz
10 yildan 15 yilgacha	50 foiz
15 yil va undan ortiq	60 foiz

49. Davlat kadastrlari palatasi xodimlarini qo'shimcha tarzda rag'batlantirish Kadastr agentligi bilan kelishgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Bunda hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) filialari xodimlari tomonidan har oydagida

ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyati natijalari bo'yicha belgilangan rejada yuqori ko'rsatgichga erishgan xodimlar qo'shimcha rag'batlantiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

49<sup>1</sup>. Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari boshqaruv xodimlari uchun avvalgi ish joyida berilgan uzoq muddatli xizmati, harbiy va maxsus unvonlari (martaba darajalari, malaka darajalari, diplomatik darajalar va boshqalar) uchun qo'shimcha to'lov va ustamalar saqlab qolinadi.

(49<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)

**10-bob. Davlat kadastrlari palatasining hisobot berishi**

50. Davlat kadastrlari palatasi muntazam ravishda o'zining faoliyati to'g'risida Kadastr agentligiga hisobot beradi.

51. Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasi rahbarlariga yuklangan vazifalar samarali bajarilishi uchun ularning faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, Davlat kadastrlari palatasi faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

52. Monitoring va baholash yakunlari bo'yicha Davlat kadastrlari palatasining alohida o'rnak ko'rsatgan rahbarlari, mansabdar shaxslari va xodimlari rag'batlantiriladi yoxud yo'l qo'yilgan jiddiy kamchiliklar uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan javobgarlikka tortiladi.

**11-bob. Yakunlovchi qoidalar**

53. Davlat kadastrlari palatasini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

54. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-fevraldagi 66-son qaroriga  
3-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari  
RO'YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi to'g'risidagi hamda Yer munosabatlari va davlat kadastrlarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2017-yil 19-iyuldaggi 529-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 30-son, 733-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlarida fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmalaridan maqsadli va samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 29-martdagi PQ-3639-son qarori)" 2018-yil 15-avgustdaggi 663-son qaroriga ilovaning 3-bandni.

3. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida ("O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2018-yil 24-iyuldaggi O'RQ-487-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni)" 2019-yil 12-fevraldagi 117-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QT, 2019-y., 2-son, 14-modda) ilovaning 3-bandni.

4. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida" 2019-yil 10-dekabrdagi O'RQ-591-son Qonuni)" 2020-yil 16-apreldagi 234-son qaroriga ilovaning 5-bandni.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-fevraldagi 66-son qaroriga  
4-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi markaziy apparati xodimlarining Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash**

## RAZRYADLARI

Lavozim nomi	Razryadlar
Direktor	18
Direktor o‘rbosari, Matbuot kotibi,	17
Direktor maslahatchisi	
Boshqarma boshlig‘i	16
Boshqarma boshlig‘i o‘rbosari	15
Bo‘lim boshlig‘i	14
Shu’ba boshlig‘i*	
Bosh yuriskonsult	13
Bosh mutaxassis, Yetakchi yuriskonsult,	12
Direktor yordamchisi	
Yetakchi mutaxassis	11
Rahbar kotibi	6

\* Shu’ba boshlig‘iga bo‘lim boshlig‘i stavkasidan 5% kam miqdorda belgilanadi.

(4-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)  
Oldingi tahrirga qarang.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-fevraldagi 66-soni qaroriga

5-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari xodimlarining Yagona tarif setkasi bo‘yicha mehnatga haq to‘lash

### RAZRYADLARI

Lavozim nomi	Razryadlar
Boshqarma boshlig‘i	15
Boshqarma boshlig‘i o‘rbosari*	
Bo‘lim boshlig‘i, Bosh buxgalter	13
Shu’ba boshlig‘i**	
Bosh inspektor, Bosh yuriskonsult	12
Bosh mutaxassis	11

\* Boshqarma boshlig‘i o‘rbosariga boshqarma boshlig‘i stavkasidan 5% kam miqdorda belgilanadi.

\*\* Shu’ba boshlig‘iga bo‘lim boshlig‘i stavkasidan 4% kam miqdorda belgilanadi.

(5-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son)  
Oldingi tahrirga qarang.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-fevraldagi 66-soni qaroriga

6-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tuman (shahar) bo‘limlari xodimlarining Yagona tarif setkasi bo‘yicha mehnatga haq to‘lash

### RAZRYADLARI

Lavozim nomi	Razryadlar
Bo‘lim boshlig‘i	13
Bosh inspektor	10
Yetakchi inspektor	9

(6-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 35-soni

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 09/21/66/0113-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.09.2021-y., 09/21/595/0900-son, 30.11.2021-y., 09/21/721/1110-son; 20.01.2022-y., 09/22/35/0045-son, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**  
**2016-2017-YILLAR DAVRIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARGA TEGISHLI  
BO'LGAN KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINI YALPI XATLOVDAN O'TKAZISH  
TO'G'RISIDA**

*LexUZ sharti*

Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-fevraldagi 87-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni)"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

Kadastr hisobiga olishni takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun asoslangan soliq solinishini ta'minlash, shuningdek "Elektron hukumat" tizimi doirasida "Kadastr va ko'chmas mulknini ro'yxatga olish tizimlarini modernizatsiya qilish" loyihasini amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining 2016-2017-yillarda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. 2016-2017-yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda 2016-2017-yillar mobaynida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazishni, shuning bilan bir vaqtida ularni Ma'lumotlarni yig'ish va ishlov berish mexanizmini standartlashni hisobga olgan holda kadastr axborot tizimida hisobga qo'yishni;

o'tkazilgan xatlov natijalari bo'yicha tuman (shahar) davlat soliq xizmati organlariga jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlari to'g'risida axborot berishni ta'minlasin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishni muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo'yicha bir hafta muddatda **2-ilovaga** muvofiq komissiyalar tashkil etsinlar.

5. O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi O'zbekiston matbuot va axborot agentligi hamda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda aholi o'rtaida ommaviy axborot vositalari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazishning maqsadi va ahamiyati to'g'risida keng tushuntirish ishlarini amalga oshirishni ta'minlasin.

6. Ushbu qarorning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy mas'uliyat O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi rahbarlari, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari B.I. Zakirov zimmasiga yuklansin

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2016-yil 3-avgust,  
251-son

Vazilar Mahkamasining 2016-yil 3-avgustdaggi 251-son qaroriga  
1-ILOVA

**2016-2017-yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risida  
NIZOM**

**I bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom 2016-2017-yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan (keyingi o'rinnlarda xatlov deb ataladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**yer uchastkasi** — yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimiga hamda davlat yer kadastrida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan qismi;

**xatlov** — ko'chmas mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni topish va aniqlashga qaratilgan, ularning miqdori, sifati va huquqiy holati to'g'risida axborot olish uchun amalga oshiriladigan kadastr chora-tadbirlari majmuasi;

**kadastr yig'majildi** — obyektning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan kadastr suratiga olish, texnik xatlovdan o'tkazish va pasportlashtirish, maxsus tekshirish va izlanishlar, sifat va qiymat jihatdan baholash hujjatlari, materiallari va ma'lumotlari jamlamasi;

**ko'chmas mulk obyektlari** — jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan yer uchastkalari, binolar, inshootlar va ko'p yillik daraxtzorlar;

**dala ishlari** — ishchi guruh tomonidan ularning doimiy ish o'rni bo'lgan binodan tashqarida bajariladigan dala ishlari;

**huquq egasi** — bitim asosida yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha ko'chmas mulkka bo'lgan huquqqa ega jismoniy va yuridik shaxs;

**yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olish** — yerlardan huquqni belgilovchi hujjatlarsiz foydalanish;

**o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat** — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnomalar olmasdan yoki shaharsozlik normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa imorat, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulk;

3. Quyidagilar xatloving asosiy maqsadlari hisoblanadi:

yer uchastkalari, binolar, inshootlar va ko'p yillik daraxtzorlarning egalarini, ulardan foydalanuvchilarni, ularning ijaraqchilari va mulkdorlarini hamda ular egallab turgan yer uchastkalarining maydonlarini, bino va inshootlarning hajmini, daraxtlarning turlari va sonini aniqlash;

ko'chmas mulk obyektlarining elektron ma'lumotlar bazasida to'liq hisobga olinishini ta'minlash;

o'zboshimchalik bilan egallangan va qurilgan imoratlarni aniqlash;

yer egaligi, yerdan foydalanish va ijara sohasida huquqiy masalalarni hal qilish;

mol-mulk solig'ini va yer solig'ini hisoblash uchun soliqqa tortish obyektlarini to'liq hisobga olishni ta'minlash;

Ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish mexanizmini standartlashni hisobga olish va

kadastr axborot tizimini yaratish;

davlat hokimiyati organlarini ko‘chmas mulk obyektlari to‘g‘risida ishonchli va to‘liq axborot bilan ta’minlash.

4. Xatlovdan o‘tkazish ishlari tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastro bo‘limlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasining tegishli tuman (shahar)dagi filiali (keyingi o‘rinlarda Filial deb ataladi) arxitektura va qurilish bo‘limi (boshqarmasi), davlat soliq inspeksiyasi, ichki ishlar bo‘limi va tegishli shahar, shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig‘ini kengashi vakillaridan iborat tarkibda tuziladigan dala ishlarini bajarushi ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda Ishchi guruh deb ataladi) tomonidan bajariladi. Ishchi guruhga Davlat korxonasi vakili rahbarlik qiladi.

(4-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagagi 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

Ishchi guruh xatlov jarayonida mazkur Nizomda belgilangan tartibda ko‘chmas mulk obyektlarini tekshirish, yer uchastkasini suratga olish, bino va inshootlarning tashqi va ichki o‘lchamlarini o‘lhash, ko‘p yillik daraxtlarning turlarini va sonlarini hisobga olish huquqiga ega.

5. Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan yoki ular tomonidan foydalaniyatgan, shu jumladan o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yerlar, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar va kadastr hujjatlari bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari xatlov obyekti hisoblanadi.

## II bob. Xatlovni o‘tkazish tartibi

6. Xatlovni o‘tkazish uchun quyidagilardan iborat bo‘lgan tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi:

filiallar idora arxivida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni, kadastro yig‘majildlarini, bino va inshootlarni qurish uchun yer uchastkalarini berish bo‘yicha materiallarni va hujjatlarni yig‘adilar;

(6-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagagi 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

arxiv ma’lumotlari natijalari bo‘yicha asosiy qidirish ma’lumotlarini (ushbu qaror qabul qilingan yil, yer uchastkasini berish to‘g‘risida qaror qabul qilgan organning nomi, yer uchastkasining joylashgan joyi (manzili) hamda yer uchastkasini olgan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi yoki yuridik shaxsning to‘liq nomini ko‘rsatgan holda yer uchastkalarini berish to‘g‘risida qarorlari bo‘lmagan jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxatini tuzadilar va u tegishli davlat arxivlariga O‘zbekiston Respublikasining **Yer kodeksi** qabul qilingandan keyin olingan yer uchastkalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimlarining qarorlarini, O‘zbekiston Respublikasining “Yer to‘g‘risida”gi **Qonuni** amal qilgan davrda (1990-yil 20-iyun — 1998-yil 1-iyul) olingan yer uchastkalari bo‘yicha o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qarorlari va undan oldingi yillarda olingan yer uchastkalari bo‘yicha xalq deputatlari tuman, shahar, qishloq (ovul) Kengashlari ijroiya qo‘mitasining qarorlarini qidirish uchun yuboriladi;

arxitektura va qurilish bo‘limlari (boshqarmalari) idoraviy arxivlarida mavjud bo‘lgan bino va inshootlarni qurish uchun berilgan yer uchastkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, materiallar va hujjatlarni yig‘adilar va keyinchalik ularning ixtiyorida bo‘lgan hujjatlarni filiallarga taqdim etadilar;

(6-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagagi 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari o‘zlarining ko‘chmas mulk obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini filiallari bazasidagi ma’lumotlar bilan solishtiradilar. Solishtirish natijasi bo‘yicha filiallarga ularning idoraviy arxivlarida va elektron bazasida bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlarining ro‘yxatini hamda ko‘chmas mulk obyektlari xatlovdan o‘tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslarning — soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamini taqdim etadilar;

(6-bandning besinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagagi 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

tumanlar (shaharlar) davlat arxivlari, ro‘yxatlar olingen kundan boshlab uch kun mobaynida filiallariga qog‘oz va elektron shaklda arxivda mavjud bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarga yer uchastkalarini berish to‘g‘risida davlat hokimiyati organlarining, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, xalq deputatlari tuman, shahar, shaharcha, qishloq (ovul) Kengashlari ijroiya qo‘mitalarining (hujjatning nomi, sanasi va raqami) qarorlari yoki ular tomonidan qurilgan bino va inshootlarga mulk huquqini tan olish haqidagi qarorlari to‘g‘risida axborot taqdim etadilar. Qidirish ma’lumotlari qisman berilgan yoki berilmagan taqdirda davlat arxivlari filiallari talablarining tematik talablarni bajarish maqsadida belgilangan tartibda bajarilishini ta’minlaydilar;

(6-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagи 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

Filiallar Ishchi guruh a’zolaridan ma’lumotlar olingandan so‘ng besh kun mobaynida idoraviy arxivda mavjud bo‘lgan materiallarning mazkur Nizom talablariga javob berishini tahlil qiladilar va ko‘chmas mulk obyektlari xatlovdan o‘tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxatini hamda alohida ko‘chmas mulk obyektlari xatlovdan o‘tkazilmaydigan jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxatini tuzadilar.

(6-bandning yetinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagи 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

7. Tayyorgarlik ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar Qoraqlapog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yer resurslari va davlat kadastrи boshqarmalarining maxsus hisob raqamlariga tushadigan qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchilagini qoplash mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

8. Filiallar xatlov o‘tkazish ishlarini boshlanishidan avval ikki haftadan kechiktirmay tegishli mahalla fuqarolar yig‘ini kengashiga ko‘chmas mulk obyektlari xatlovdan o‘tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxatini taqdim etadilar.

(8-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagи 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

Tegishli mahallalarning fuqarolar yig‘ini kengashlari:

xatlovdan o‘tkazish boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay jismoniy va yuridik shaxslarni ularning ko‘chmas mulk obyektlari xatlovdan o‘tkazilishi to‘g‘risida ogohlantiradi;

bir hafta mobaynida filiallarga tegishli mahalla fuqarolar yig‘ini kengashida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bo‘yicha ko‘chmas mulk obyektlari tegishli bo‘lgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida ma’lumotlarni (jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, passport ma’lumotlarini) taqdim etadilar;

(8-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagи 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

jismoniy shaxslarning ro‘yxatini olgandan so‘ng o‘n kun mobaynida ko‘chmas mulk obyektlari tegishli bo‘lgan uzoq muddat mobaynida yo‘q bo‘lgan jismoniy shaxslarning ro‘yxati filiallarga mazkur Nizomning **1-ilovasiga** muvofiq shaklda taqdim etiladi.

(8-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagи 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

9. Olingen ma’lumotlar bo‘yicha alohida ro‘yxatga kiritilgan xatlovdan o‘tkaziladigan ko‘chmas mulk obyektlari xatlovdan o‘tkaziladi.

Ishchi guruh xatlov ishlari boshlangan kundan boshlab ikki kun mobaynida obyektga chiqib quyidagilarni aniqlaydi:

ko‘chmas mulk obyekti bo‘lgan huquq egasining ma’lumoti bo‘yicha yoki filial ixtiyorida bo‘lgan ma’lumotlar bo‘yicha ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni (hujjatlarning mavjudligini, uning nomini, berilgan sanasini va raqamini), yer uchastkasiga, binoga, inshootga va ko‘p yillik daraxtlarga bo‘lgan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini (ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar va u haqda tuzilgan bitimlarning davlat reyestrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana va raqami hamda huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning raqami va berilgan sanasi);

(9-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil

*29-avgustdaggi 679-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda*

ko'chmas mulk obyektining joylashgan joyi (shahar, shaharcha, qishloq, ovul, mahalla, ko'cha, uy, korpus, xonodon raqami);

yer uchastkasining umumiy maydoni, yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqllovchi hujjatlar bo'yicha hamda yer uchastkasini suratga olish va maydonini hisoblash natijalari bo'yicha o'zboshimchalik bilan egallangan yerkarning maydoni;

bino va inshootlarning umumiy maydoni qayta qurilgan va qo'shimcha qurilgan imoratlarni hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni hisobga olgan holda, joylardagi tekshiruv ma'lumotlari bo'yicha;

daraxtlarning turlari va soni;

bino va inshootlarning qurilgan yili, shartnomasi bo'yicha qurilishning boshlanishi va tugallanishi, agar ushbu hujjat bo'lmasa — jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlari bo'yicha;

yer uchastkasining, bino va inshootning foydalanish maqsadi — amaldagi foydalanilishi bo'yicha;

dehqon xo'jaligining maqomi (yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan) — dehqon xo'jaligini tashkil etish haqida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma bo'yicha;

qishloq joylarda yashayotgan oilaning xo'jalik yuritish shakli (shaxsiy yordamchi xo'jalik yoki yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaligi), dehqon xo'jaligiga aylantirilgan bo'lsa, dehqon xo'jaligining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma berilgan reyestr raqami va sanasi — jismoniy shaxsda mavjud bo'lgan hujjatlar bo'yicha;

aholi punktlaridan tashqarida dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaligini yuritish uchun ilgari berilgan yer uchastkasining mavjudligi (yer uchastkasining maydonini aniqlashda ushbu uchastkani berish to'g'risidagi qaror asos qilib olinadi, shuningdek yer uchastkasini suratga olish va maydonini o'lhash bo'yicha);

qo'shni yer uchastkalarining egalari, foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlari bilan nizolar borligi — jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlari bo'yicha va qo'shni yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer ijarachilar va mulkdorlаридан so'rov yo'li bilan;

bino va inshootlarning hajmi — ularni tashqi tomonidan o'lhash yo'li bilan;

har bir qavatdagi alohida xonalarning o'lchami — ichki o'lchov yo'li bilan;

bino va inshootlarning konstruktiv qismlarining holati;

binoning muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlanganligi;

alohida xonalarning abrasi tuziladi (xonalarning o'lchov hajmlarini ko'rsatgan holdagi xomaki chizmasi).

10. Xatlovni o'tkazishda yer uchastkasining 1:2000 masshtab bo'yicha belgilangan tartibda kadastr surati olinadi. Planda barcha bino va inshootlar, yer turlari va o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerkarning (mavjud bo'lsa) chegarasi aks ettiriladi. Yer uchastkasini kadastr suratiga olish uchun alohida to'lov undirilmaydi.

11. Xatlovni o'tkazish bo'yicha dala ishlari tugallangandan keyin mazkur Nizomning **2- ilovasiga** muvofiq shaklda ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuziladi. Dalolatnomma Ishchi guruh a'zolari hamda ko'chmas mulk obyektining huquqiy egasi bo'lgan shaxs yoki tilxat bo'yicha uning vakili bo'lgan shaxs tomonidan imzolanadi va filialning rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Dalolatnomma ikki nusxada tuziladi, uning bir nusxasi jismoniy va yuridik shaxsga topshiriladi, ikkinchisi — filial vakilida tuman (shahar) bo'yicha xatlov materiallarini umumlashtirish uchun qoldiriladi. Dalolatnomaga ishning ijrochisi, yer uchastkasining egasi, foydalanuvchisi, ijarachisi va mulkdori tomonidan imzolangan yer uchastkasining plani ilova qilinadi.

*(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdaggi 679-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

12. Kadastr yig'majidlari mavjud bo'lмаган ко'chmas mulk obyektlari bo'yicha xatlov

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kadastr hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha davlat xizmatlari narxlarini belgilashda tabaqlashtirilgan yondashuv tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2014-yil 10-iyuldaggi 186-son qarorida belgilangan miqdorda tegishli jismoniy va yuridik shaxslar mablag‘lari hisobiga o‘tkaziladi.

Tegishli mahallalar fuqarolar yig‘ini kengashlari ma’lumotlari bo‘yicha egalari noma’lum yoki uzoq muddat mobaynida yo‘q bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha xatlov ishlari mazkur Nizomning **7-bandida** belgilangan mablag‘lar hisobiga bajariladi.

Kadastr yig‘majildi ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr yig‘majildini tayyorlash qoidalariga muvofiq belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

13. Xatlov o‘tkazishda yer uchastkalarining chegaralari va maydonlari, bino va inshootlarning qayta qurish, yonma-yon qurish, qo‘srimcha obyektlarni qurish va shu kabilar natijasida texnik parametrlari o‘zgarganligi aniqlanganda, ular mavjud ko‘chmas mulk obyektlari kadastr yig‘majildiga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish yo‘li bilan mazkur Nizomning **2-ilovasiga** muvofiq shaklda ko‘chmas mulk obyektlarini xatlovdan o‘tkazish dalolatnomasi tuzilgan holda hisobga olinadi. Dalolatnomma ikki nusxada tuziladi, uning bir nusxasi jismoniy va yuridik shaxsga topshiriladi, ikkinchisi — filial vakilida qoladi.

(13-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdaggi 679-soni qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

14. Mavjud materiallarda mazkur Nizomning **9-bandida** ko‘rsatilgan ma’lumotlar yetishmagan taqdirda, mazkur Nizomning **7-bandida** belgilangan mablag‘lar hisobiga ko‘chmas mulk obyektlarini joyida tekshirish yo‘li bilan yetishmagan ma’lumotlarni yig‘ish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

15. Xatlov natijalaridan norozi bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxs — ko‘chmas mulk obyektiga bo‘lgan huquq egasi tuman (shahar) hokimiga yoki sudga belgilangan tartibda murojaat qilishi mumkin.

### **III bob. Xatlov natijalarini umumlashtirish, ko‘rib chiqish, kelishish va tasdiqlash**

16. Filiallar tomonidan xatlov natijalari bo‘yicha mazkur Nizomning **3-ilovasiga** muvofiq shakl bo‘yicha Ko‘chmas mulk obyektlarining xatlov ma’lumotlari bo‘yicha yig‘ma jadval tuziladi.

(16-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdaggi 679-soni qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

17. Filial tomonidan tayyorlangan xatlov natijalari Ishchi guruh tomonidan puxta tahlil qilinadi va yer uchastkalariga huquqlarni belgilash, o‘zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlarni buzish yoki ularni mulk huquqi bilan saqlab qolish, yer uchastkalarining maydonlarini qonun hujjatlarida belgilangan me’yorlar bilan muvofiqlashtirish masalalarini hal qilish bo‘yicha takliflar tayyorlanadi.

(17-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdaggi 679-soni qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)

Yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlari yer uchastkalariga huquqlarni belgilash masalalarini ko‘rib chiqadilar.

Tuman (shahar) arxitektura va qurilish bo‘limlari (boshqarmalari) tomonidan o‘zboshimchalik bilan qurilish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, bino va inshootlarni tegishli ruxsatsiz, shaharsozlik normalari va qoidalarini buzib qayta ixtisoslashtirish va qayta qurish holatlari ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi, keyinchalik o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarning zarurligi yoki buzishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida asoslangan takliflar taqdim etiladi.

18. Jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkalariga huquqlarini belgilash masalalari bo‘yicha takliflarni tayyorlashda, ularni ko‘rib chiqishda va hal qilishda Ishchi guruh, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini xatlovdan o‘tkazish ishlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishni muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha komissiyalar (keyingi o‘rinlarda Komissiyalar deb ataladi) va tuman (shahar) hokimlari quyidagi qoidalarga amal qilishlari zarur:

o‘zboshimchalik bilan egallab olingen, qurilishdan bo‘sh bo‘lgan yer uchastkalari, ushbu yer uchastkalarini ularni oldingi egalari, foydalanuvchilari, ijarchilari yoki mulkdorlariga qaytib berish yoxud boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berish imkonni bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining **91-moddasiga** muvofiq tuman (shahar) hokimining qarori bilan ushbu yer uchastkalarida qilingan sarf-xarajatlar qoplanmagan holda olib qo‘yiladi;

o‘zboshimchalik bilan egallab olingen yer uchastkasida bino va inshootlar qurilgan holatlarda har bir jismoniy va yuridik shaxs bo‘yicha imoratni o‘zboshimchalik bilan qurish holatlari o‘rganiladi hamda bino va inshootlar boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini buzib, ularga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalarida, shuningdek shaharsozlik normalari va qoidalarni buzib qurilgan holatlarda, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **212-moddasiga** muvofiq ularni buzish to‘g‘risida sudlarga da‘vo arizasi kiritish to‘g‘risida tuman (shahar) hokimining qarori qabul qilinadi;

qishloq joylarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jalik yuritish uchun foydalanilayotgan o‘zboshimchalik bilan egallab olingen yer uchastkalari, ularni olib qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni **8-moddasida** belgilangan me’yorlar doirasida tuman (shahar) hokimining qarori bilan jismoniy shaxslarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilishi mumkin, me’yordan ortiqcha egallab olingen yer uchastkalari esa — O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining **46-moddasiga** muvofiq vaqtinchalik foydalanishga yoki ijara yakkta tartibda bog‘dorchilik, polizchilik va chorvachilik yuritish uchun berilishi mumkin;

o‘zboshimchalik bilan egallab olingen, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan uzlusiz foydalanilayotgan yer uchastkalari, agar o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzmasa yoki fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirmasa, tuman (shahar) hokimining qarori bilan jismoniy va yuridik shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan me’yorlar doirasida quriladigan imorat uchun berilishi mumkin;

ushbu maqsadlar uchun belgilangan tartibda berilmagan yer uchastkalarida qurilgan obyektlar mulkdori bo‘lмаган, lekin o‘n besh yil mobaynida o‘ziniki kabi halol, oshkora va uzlusiz egalik qilib jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan foydalanilayotgan bino va inshootlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **187-moddasiga** muvofiq Komissiya tomonidan ushbu jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lishi ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari yoki xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasida — Jo‘qorg‘i Kenges) qarorlari bilan qishloq aholi punktlari yoki ularning bir qismlari shahar va shaharchalar chegarasiga kiritilgan holatlarda, jismoniy shaxslarga dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jalik yuritish uchun ilgari berilgan yer uchastkalari aholi punktlarining bosh rejalariga muvofiq o‘sha yer uchastkalari joylashgan hududlarda qayta qurilish amalga oshirilgunga qadar ilgari belgilangan tartibda berilgan miqdorda jismoniy shaxslarning foydalanishida qoldiriladi;

jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Yer to‘g‘risida”gi **Qonuni** qabul qilinishiga qadar (1990-yil 20-iyun) yakka tartibda uy-joy qurish, shaxsiy yordamchi xo‘jalik yuritish, jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi yuritish uchun boshqa huquqlarda va tartibda olingen yoki ularga huquqlarni belgilovchi hujjatlar saqlab qolimagan bo‘lsa, yer uchastkalari O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining **19-moddasiga** muvofiq meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi bilan rasmiylashtiriladi;

jismoniy shaxs tomonidan bir necha uy-joy sotib olingen yoki boshqa uy-joy meros bo‘lib qolgan bo‘lsa, unga ushbu uy-joylar joylashgan yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi o‘tadi va jismoniy shaxsga O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining **22-moddasiga** muvofiq ushbu uy-joylar egallagan barcha yer uchastkalari biriktirib beriladi.

Xatlovni o‘tkazish jarayonida tuman (shahar) hokimlarining qarorlari bilan rasmiylashtirilmagan o‘zboshimchalik bilan egallab olingen yer uchastkalaridan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yerlarni huquqni belgilovchi hujjatlarsiz foydalanish oqibatlarining

yuzaga kelishini inobatga olgan holda foydalanilishi mumkin.

19. Yer uchastkalariga huquqlarni belgilash va o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish yoki ularni jismoniy va yuridik shaxslarda mulk huquqi bilan saqlab qolish masalalarini hal qilish bo‘yicha tayyorlangan takliflar Komissiyaga ko‘rib chiqish uchun quyidagilarni ilova qilgan holda taqdim etiladi:

o‘zboshimchalik bilan egallab olingan va olib qo‘yiladigan yer uchastkalari mayjud bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxati;

o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarida qurilgan bino va inshootlari buziladigan jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxati;

o‘zboshimchalik bilan egallab olingan amalda foydalanilayotgani bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan me’yorlar doirasida yer uchastkalari beriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxati;

yakka tartibda uy-joy qurish, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jalik yuritish, jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi yuritish uchun huquqni belgilovchi hujjatlarsiz foydalanilayotgan yer uchastkalari amalda foydalanilayotgani bo‘yicha umrbod meros qilib qoldirish huquqi bilan beriladigan jismoniy shaxslarning ro‘yxati;

o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarida barpo etilgan bino va inshootlari mulk huquqi bilan ularga tegishli deb e’tirof etiladigan jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxati;

yer uchastkalari yakka tartibda bog‘dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun beriladigan jismoniy shaxslarning ro‘yxati.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan belgilangan maqsadlarda va davlat hokimiysi organlari tomonidan berilgan maydonlar doirasida foydalanilayotgan yer uchastkalari tayyorlangan takliflarda aks ettirilmaydi va tuman (shahar) hokimning qarori bilan tasdiqlanmaydi.

Takliflar Komissiyaga alohida aholi punktlarida, qishloqlarda, ovullarda yoki mahallalarda xatlov ishlari tugallangach taqdim etiladi.

20. Komissiya materiallarni olgan kundan boshlab bir hafta mobaynida taqdim etilgan takliflarni jismoniy va yuridik shaxslarning har bir ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha ko‘rib chiqadi, takliflarning asoslanganligini o‘rganadi, shubha tug‘ilganda — qo‘srimcha axborot berishni taklif qiladi, zarur holatlarda takliflarga o‘zgartirishlar kiritadi. Mazkur Nizomning [19-bandida](#) ko‘rsatilagan jismoniy va yuridik shaxslarning yakuniy ro‘yxati Komissiyaning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va tuman (shahar) hokimiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi.

21. Tuman (shahar) hokimi taqdim etilgan takliflarni ko‘rib chiqadi va ular huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan asoslangan bo‘lsa, besh kun mobaynida o‘zining qarori bilan tasdiqlaydi. Tuman (shahar) hokimining qarorida jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini tartibga solish bo‘yicha qarorlarni amalda bajarilishini ta’minlaydigan chora-tadbirlar ham nazarda tutiladi.

22. Tuman (shahar) hokimining qarori kadastr yig‘majildiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkalariga, bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yoki materiallarni sudga berish uchun asos hisoblanadi.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23. Xatlov o‘tkazilgan har bir ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha belgilangan tartibda kadastr yig‘majildi tayyorlanadi, u xatlov natijalari tasdiqlangandan keyin tuman (shahar) hokimining yer uchastkalari berish hamda bino va inshootlarga mulk huquqini tan olish to‘g‘risidagi qaroridan ko‘chirmalar bilan to‘ldiriladi. Kadastr yig‘majildi O‘zbekiston Respublikasi “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasining yagona ma’lumotlar bazasiga kiritish uchun elektron-raqam shakliga aylantiriladi. Xatlov natijalari bo‘yicha ko‘chmas mulkning kadastr yig‘majildi ikki nusxada tayyorlanadi, uning bir nusxasi huquq egasiga, ikkinchisi — xatlov ishlarini bajargan filial arxivida saqlanadi.

*(23-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagi 679-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

24. Xatlov ishlari tugallangach va tuman (shahar) hokimi tomonidan tegishli qaror qabul qilingach mazkur Nizomning **4-ilovasiga** muvofiq shaklda ko'chmas mulk obyektlarning xatlovdan o'tkazish natijalari va yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni belgilash bo'yicha amalga oshirilgan choralarining yig'ma jadvali tuziladi va o'n kun mobaynida qog'oz va elektron ko'rinishda tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalariga taqdim etiladi.

25. Xatlov natijalari tuman (shahar) hokimining qarori bilan tasdiqlangandan so'ng o'n kun mobaynida ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish to'g'risida hisobot tuziladi, hisobot filial rahbari tomonidan imzolanadi va korxonaning arxivida saqlanadi. Hisobotda quyidagilar mavjud bo'ladi:

*(25-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagi 679-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

tushuntirish xati;

Komissiyaga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan takliflar;

Komissiyaning bayonnomasi;

tuman (shahar) hokimining xatlov natijalarini tasdiqlash to'g'risidagi qarori nusxasi;

ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish natijalarining yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni belgilash bo'yicha yig'ma jadval.

26. Xatlov natijasida har bir ko'chmas mulk obyekti to'g'risida olingan ma'lumotlar ko'chmas mulk obyektlarini avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish uchun yagona ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.

#### **IV bob. Yakunlovchi qoidalar**

27. Yer uchastkalariga, bino inshootlarga va ko'p yillik daraxtlarga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazmagan jismoniy va yuridik shaxslar yer uchastkalari joylashgan joydagি filiallarga (tadbirkorlik subyektlari buyurtmani "yagona darcha" markazlariga berishadi) huquqni belgilovchi hujjatlarni ilova qilgan holda ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun buyurtma berishlari zarur. Kadastr yig'majildi xatlov materiallarini hisobga olgan holda tayyorlanadi.

*(27-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagi 679-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

28. Filiallar xatlov ishlari tugallangandan keyin yagona ma'lumotlar bazasini yangilash va ko'chmas mulk obyektlarining ko'rsatkichlarida yuz bergan o'zgarishlarni hisobga olish choralarini ko'radilar.

*(28-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagi 679-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

29. Xatlov bo'yicha bajariladigan ishlarning sifati yuzasidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahri hokimliklari amalga oshiradilar.

30. Xatlovni ushbu Nizom normalarini buzgan holda amalga oshirganlik uchun tegishli filiallarning xodimlari, Ishchi guruh va Komissiya rahbarlari va a'zolari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

*(30-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagi 679-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

31. Tumanlar (shaharlar) hokimlari yer uchastkalariga belgilangan huquqlar, jismoniy va yuridik shaxslarning o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlariga bo'lgan mulk huquqini tan olish masalalari bo'yicha asoslanmagan qarorlar qabul qilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

32. Xatlov masalalari bo'yicha nizolarni ko'rib chiqish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2016-2017-yillarda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi **nizomga**

**1-ILOVA**

**mahallasi bo'yicha ko'chmas mulk obyektlari  
tegishli bo'lgan, uzoq muddat yo'q bo'lgan jismoniy shaxslar  
RO'YXATI**

T/r	Jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi	Obyektning joylashgan joyi, pochta manzili	Obyektning tavsifi (belgilangan tartibda yoki o'zboshimchalik bilan qurilganligi)	Jismoniy shaxslarning yo'q bo'lgan davri	Yo'q bo'lganining sababi
1	2	3	4	5	6

**Mahalla fuqarolar  
yig'ini Kengashi raisi:**

(M.O.)

201\_\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_

(mahalla nomi, imzo, F.I.O.)

2016-2017-yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini  
yalpi xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi **nizomga**

**2-ILOVA**

““Tasdiqlayman””

Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri

davlat korxonasi filiali rahbari

201\_\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_

ga tegishli

(Jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, yuridik shaxsning nomi)

**ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish  
DALOLATNOMASINING NAMUNAVIY ShAKLI**

201\_\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_

Ushbu dalolatnomasi \_\_\_\_\_ Yer tuzish va ko'chmas mulk davlat korxonasing  
(mintaqaning nomi)

filiali

(tuman, shahar nomi)

\_\_\_\_\_ (lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

arxitektura va qurilish bo'lumi (boshqarmasi) \_\_\_\_\_ (lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

davlat soliq inspeksiyasi \_\_\_\_\_ (lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

mahalla fuqarolar yig'ini kengashi \_\_\_\_\_ (lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

va ichki ishlar bo'lumi \_\_\_\_\_ (lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

vakillari tomonidan ko'chmas mulk obyektdidan foydalanuvchi jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning vakili  
ishtirokida tuzildi. \_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi, otasining ismi)

Ko'chmas mulk obyektni xatlovdan o'tkazish jarayonida quyidagilar aniqlandi:

1. Ko'chmas mulk obyekti joylashgan joy (pochta manzili) \_\_\_\_\_
2. Yer uchastkasining (raqam berilganda) \_\_\_\_\_ bino va inshootning (raqam berilganda)  
kadastr raqami \_\_\_\_\_

3.  
 Huquq  
 turi:  
 yer \_\_\_\_\_  
 uchastkasiga  
 bino va \_\_\_\_\_  
 inshootga \_\_\_\_\_  
 ko‘p yillik  
 daraxtlarga \_\_\_\_\_
4. Huquqni  
 belgilovchi hujjatlar:  
 yer \_\_\_\_\_  
 uchastkasiga  
 bino va \_\_\_\_\_  
 inshootga \_\_\_\_\_  
 ko‘p yillik  
 daraxtlarga \_\_\_\_\_
5. Foydalanish  
 maqsadi:  
 yer \_\_\_\_\_  
 uchastkasidan  
 bino va \_\_\_\_\_  
 inshootdan \_\_\_\_\_
6. Yer uchastkasining maydoni: hujjat bo‘yicha \_\_\_\_\_ ga, amalda \_\_\_\_\_ ga.
7. Dehqon xo‘jaligining maqomi: yuridik shaxsni tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda tuzilgan (davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma raqami va sanasi) \_\_\_\_\_
8. Qishloq joyda yashovchi oilaning xo‘jalik yuritish shakli: shaxsiy yordamchi xo‘jalik yoki dehqon xo‘jaligi, agar dehqon xo‘jaligiga aylantirilgan bo‘lsa tuman hokimi qarorining sanasi va tartib raqami aniqlanadi
9. Dehqon xo‘jaligi (shaxsiy yordamchi xo‘jalik) yuritish uchun aholi punktidan tashqarida ajratilgan yer uchastkasining maydoni \_\_\_\_\_ ga, tuman hokimi qarorining sanasi va tartib raqami.
10. Qo‘sni yer egasi va yerdan foydalanuvchilar o‘rtasida nizolar mavjudligi \_\_\_\_\_.
11. Bino va inshootlarni qurishga ruxsat beruvchi hujjatning mavjudligi, ruxsatnomaning berilgan sanasi va tartib raqami \_\_\_\_\_.
12. Tuman (shahar) hokimining bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilish to‘g‘risidagi dalolatnomani tasdiqlash haqidagi qarori mavjudligi, sanasi va tartib raqami
13. Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida ma’lumot:  
 reyestrdagi yozuv № \_\_\_\_\_ yil “\_\_\_\_\_”  
 yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma seriyasi № \_\_\_\_\_, berilgan sanasi \_\_\_\_\_ yil “\_\_\_\_\_”
14. Bino, inshootlar va ko‘p yillik daraxtlarga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida ma’lumot:  
 reyestrdagi yozuv № \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ yil “\_\_\_\_\_”  
 bino, inshootlar va ko‘p yillik daraxtlarga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma seriyasi № \_\_\_\_\_, berilgan sanasi \_\_\_\_\_ yil “\_\_\_\_\_”
15. Xatlov jarayonida aniqlangan boshqa ma’lumotlar \_\_\_\_\_  
 Ushbu dalolatnomaga 1 va 2-ilovalarga muvofiq yer uchastkasining plani hamda bino va inshootning tavsifi ilova qilinadi.  
 Vakillar:  
 Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi filialidan

\_\_\_\_\_ (tuman (shahar nomi))

\_\_\_\_\_ (imzo, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Arxitektura va qurilish bo‘limi (boshqarma)sidan

(imzo, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Davlat soliq inspeksiyasidan

(imzo, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Mahalla fuqarolar yig‘ini kengashidan

(imzo, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Ichki ishlar bo‘limidan

(imzo, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning vakili

(imzo, familiyasi, ismi, otasining ismi)

*(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagи 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

ga tegishli ko‘chmas mulk obyektlarini xatlovdan o‘tkazish  
dalolatnomasiga

1-ILOVA

Yer uchastkasining  
PLANI

Masshtab \_\_\_\_\_

Chegaradosh yerdan fo♦dalanuvchilar bilan kelishilgan: \_\_\_\_\_

(nomi, imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Ijrochi \_\_\_\_\_

(imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

ga tegishli ko‘chmas mulk obyektlarini xatlovdan o‘tkazish dalolatnomasiga

2-ILOVA

Bino va inshootning  
TAVSIFI

T/r	Binolar, inshootlar va ko‘p yillik daraxt turlarining nomi	Qurilgan yili	Binoning tashqi o‘lchami, kv.m	Umumiy maydoni, kv.m		Devor materiali	Eskirish darajasi, %	Muha...
				Umumiy	Foydali, yashash			
1	2	3	4	5	6	7	8	9


2016-2017-yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini  
yalpi xatlovdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**

3-ILOVA

**Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli ko‘chmas mulk obyektlarining xatlovi bo‘yicha**  
**YIG‘MA JADVAL**

T/r	Jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yuridik shaxsning nomi		STIR	Obyektning joylashgan joyi	yer uchastkasining kadastr raqami
	1	2			

Bino va inshootdan foydalanish maqsadi	qurilgan yili	umumiyl maydoni, kv. m		devor materiali	eskirish darajasi %
		umumiy	foydale, (yashash)		
13	14	15	16	17	18

2016-2017-yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini  
yalpi xatlovdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**

4-ILOVA

**Ko‘chmas mulk obyektlarini xatlovdan o‘tkazish natijalari va yer uchastkalariga bo‘lgan  
huquqlarni belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning**  
**YIG‘MA JADVALI**

T/r	Jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yuridik shaxsning nomi	STIR	Obyektning joylashgan joyi	yer uchastkasining kadastr raqami	yer uchastka mo‘ljallan maqsadi
1	2	3	4	5	6


B

<b>bino va inshootdan foydalanish maqsadi</b>	<b>huquq turi</b>	<b>qurilgan yili</b>	<b>umumiy maydoni, kv. m</b>		<b>o‘zboshimch</b>
			<b>umumiy</b>	<b>foydatli, (yashash)</b>	
<b>14</b>	<b>15</b>	<b>16</b>	<b>17</b>	<b>18</b>	

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 3-avgustdagи 251-son qaroriga  
2-ILOVA

**Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini yalpi  
xatlovdan o‘tkazish ishlaring belgilangan muddatda va sifatli bajarilishini  
muvofiqlashtirish va nazorat qilish komissiyasining**

**NAMUNAVIY TARKIBI**

lavozimiga — tuman (shahar) hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish,  
ko‘ra kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘ribbosari,  
komissiya raisi

lavozimiga — tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limi boshlig‘i  
ko‘ra

lavozimiga — tuman (shahar) bosh arxitektori  
ko‘ra

lavozimiga — tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i  
ko‘ra

lavozimiga — tuman (shahar) davlat bosh sanitariya vrachi  
ko‘ra

lavozimiga — tuman (shahar) tabiatni muhofaza qilish davlat inspektori  
ko‘ra

lavozimiga — tuman (shahar) ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i.  
ko‘ra

Izohlar: 1. Komissiyalarning shaxsiy tarkibi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining,  
viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarori bilan tasdiqlanadi.

2. Komissiyalarning a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda komissiya tarkibiga ushbu lavozimlarga  
yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

(2-ilovali O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevraldagи 107-sonli  
qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 9-son, 132-modda)

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 31-son, 379-modda; 2017-y., 9-son, 132-  
modda, 35-son, 931-modda)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

*Oldingi tahrirga qarang.*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BINOLAR VA INSHOOTLAR DAVLAT  
KADASTRINI YURITISH TO'G'RISIDA**

*(qaror nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 19-oktabrdagi 483-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2004-y., 42-son, 446-modda)*

*LexUZ sharhi*

*Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 389-sonli "Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.*

O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrlari yagona tizimi va binolar va inshootlarning yagona davlat hisobini yaratish hamda uning yuritilishini tashkil qilishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar tasdiqlansin:

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi **nizom** (1-ilova);

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)*

2. Tumanlar va shaharlarda binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalarining tegishli tumanlar (shaharlardagi filiallariga yuklansin).

*(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdaggi 679-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

3. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **84-moddasida** nazarda tutilgan binolar va inshootlarga egalik huquqini hamda ular yuzasidan bitishuvlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalarining tegishli tumanlar (shaharlardagi filiallari tomonidan amalgalash oshiriladi).

*(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdaggi 679-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

4. Binolar va inshootlar davlat kadastro ma'lumotlari barcha davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy yuridik kuchga ega bo'lishi belgilab qo'yilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari "O'zgeodezkadastr" bosh boshqarmasi bilan birgalikda:

1997-yil 1-iyundan boshlab tumanlar va shaharlarda binolar va inshootlarning davlat kadastro yuritilishini tashkil qilsinlar;

mablag' bilan ta'minlanishi, shahar (qo'rg'on) chegaralari ishlab chiqilishi va qonunda belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta'milagan holda 1997-1998-yillar mobaynida shaharlар va qo'rg'onlar chegaralarini tartibga solsinlar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 19-oktabrdagi 483-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2004-y., 42-son, 446-modda)*

7. "O'zgeodezkadastr" bosh boshqarmasi:

1997-yildan boshlab davlat kadastrlarini yuritish uchun baza sifatida shaharlар, qo'rg'onlar va qishloq tumanlari markazlarining geodeziya tarmoqlari va topografik asoslarini mutazam yangilashga kirishsin;

uch oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga qonunchilikni o'zgartirish va to'ldirishga doir takliflar kiritsin;

Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Davlat mulki qo'mitasi va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan birgalikda uch oy muddatda:

Binolar va inshootlar obyektlarining yagona klassifikatorini; binolar va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 16-fevraldagi 66-soni qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2005-y., 7-son, 59-modda)

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rribosari I. H. Jo'rabetkov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'. SULTONOV**

Toshkent sh.,  
1997-yil 2-iyun,  
278-son

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-iyundagi 278-son qaroriga  
1-ILOVA

**Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida  
NIZOM**

**1. UMUMIY QOIDALAR**

1. Binolar va inshootlar davlat kadastru hududiy prinsip bo'yicha tashkil etiladi va bu obyektlarning huquqiy, xo'jalik va arxitektura-qurilish maqomi to'g'risidagi ma'lumotlar tizimini mujassamlashtiradi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini binolar va inshootlardan samarali foydalanishni va ularni muhofaza qilishni, mulk egalarining va bu obyektlardan boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini, shuningdek binolar va inshootlarga egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash uchun yuritiladi.

(1-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)

2. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bo'yicha munosabatlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va mazkur Nizom bilan tartibga solinadi.

Davlat shaharsozlik kadastrini, davlat yer kadastrini, foydali qazilma konlari davlat kadastrini, ko'p yillik o'simliklar davlat kadastrini yuritish bo'yicha munosabatlari boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3. Binolar va inshootlar davlat kadastru ma'lumotlari barcha davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy yuridik kuchga egadir. Kadastr hujjatlari binolar va inshootlar bilan fuqarolik-huquqiy bitishuvlarni amalga oshirishda, ularni loyihalashtirishda va boshqa yuridik harakatlarda huquqiy, iqtisodiy va texnik ma'lumotlar sifatida qabul qilinishi kerak.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdagi PQ-1887-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 52-son, 587-modda)

4. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bu obyektlar to'g'risidagi kadastr ma'lumotlarini shakllantirishdagi ishonchli hujjatlari va boshqa ma'lumotlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

5. Binolar va inshootlar to'g'risidagi kadastr ma'lumotlari mulk egalari, ularga ashyoviy huquqlarga ega bo'lgan shaxslar, uchinchi shaxslar, davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ va boshqa davlat organlari tomonidan sudda talashilishi mumkin.

6. Binolar va inshootlarning davlat kadastrini yurituvchilar hamda bunda qonun buzilishlarini aniqlaganlar, bu haqda tegishli davlat organlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokuraturaga xabar berishga majburdirlar.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)

7. Mulk egasi bo'lgan binolar va inshootlarga ashyoviy huquqlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ularga tegishli bo'lgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlarga ega bo'lishlari shart.

(7-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)

Bino va inshootni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyati mulk egasiga yoxud bino yoki inshootga ashyoviy huquqlarga ega bo‘lgan shaxsga yuklanadi. Ular bino yoki inshootni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha barcha yoki ayrim majburiyatlarini uchinchiligi shaxslarga yuklashlari mumkin. Bu huquqlarni va majburiyatlarini ro‘yobga chiqarish qonun hujjaligiga muvofig amalga oshiriladi.

8. Ushbu Nizomning **7-bandida** ko‘rsatilgan shaxslar yoki ular tomonidan vakolat berilgan shaxslar bino yoki inshootga bo‘lgan mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar paydo bo‘lgandan, o‘zgargandan va to‘xtagandan yoxud huquqiy holati o‘zgargandan keyin bir oy muddatda bino va inshootga kadastr yig‘majildini tayyorlash va uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastrini davlat korxonasing tegishli tuman (shahar)dagli filialiga, huquqni belgilovchi hujjalarni ilova qilgan holda buyurtmanoma berishlari shart.

*(8-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdaggi 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

9. Tumanlar va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar bo‘yicha binolar va inshootlarning davlat kadastrini yuritish Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastrini davlat korxonalarining tegishli tumanlar (shaharlar)dagli filiallariga yuklanadi.

*(9-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdaggi 679-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda)*

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha kadastr ma’lumotlarini umumlashtirish tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastrini davlat korxonalarini tomonidan amalga oshiriladi.

Umuman respublika bo‘yicha kadastr ma’lumotlarini umumlashtirish, binolar va inshootlar davlat kadastrini yurituvchi organlar kadastr hujjalarni va kadastr ma’lumotlarini ruxsatsiz olish va oshkor etishdan himoya qilinishini ta’minalashlari shart.

*(9-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)*

10. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yurituvchi organlar kadastr hujjalarni va kadastr ma’lumotlarini ruxsatsiz olish va oshkor etishdan himoya qilinishini ta’minalashlari shart.

*Oldingi tahririga qarang.*

*(10-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)*

11. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bo‘yicha ishlari ko‘chmas mulkka kadastr hujjalarni tayyorlaganlik uchun to‘lanadigan mablag‘lar hamda qonun hujjalarda taqilangan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

*(11-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-noyabrda 309-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 46-son, 551-modda)*

Davlat mulki bo‘lgan obyektlar bo‘yicha binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlari davlat budjeti mablag‘lari hisobidan mablag‘ bilan ta’milanadi.

*(11-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)*

## **II. BINOLAR VA INSHOOTLAR KADASTRI TARKIBI, MAZMUNI**

12. Binolar va inshootlar davlat kadastrini tuman, shahar kadastr daftaridan, kadastr rejasidan, kadastr hujjalardan va geofondlardan, shuningdek mazkur Nizomda belgilangan tartibda shakllantiriladigan kompyuter ma’lumotlaridan iborat bo‘ladi.

13. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ham an’anaviy (kadastr daftarida ro‘yxatdan o‘tkazish, kadastr rejasiga kiritish), ham avtomatlashtirilgan (ma’lumotlar kompyuter bankini yaratish) usullarda amalga oshiriladi.

14. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich — binolar va inshootlarning tuman, shahar darajasidagi huquqiy, xo‘jalik va arxitektura-qurilish maqomi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash va kadastr daftarida ro‘yxatdan o‘tkazish;

2-bosqich — obyektlarni chizmada joylashtirib kadastr rejasini tuzish;

3-bosqich — oldingi bosqichlarda olingan ma’lumotlarni hisobga olgan holda ma’lumotlar kompyuter bazasini yaratish.

15. Binolar va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlari tumanlar, shaharlar bo‘yicha tuziladi, ularning hududi hisobga olish uchastkalariga bo‘linadi.

Tumanlar, shaharlar va boshqa aholi yashash punktlarining kadastrga oid bo‘linishi chegaralarni belgilash va hududlarni tuman doirasida yoxud shahar, qo‘rg‘on chegaralarini hisobga olish uchastkalariga bo‘lishni bildiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasiga, viloyatlarga, Toshkent shahriga, tumanlar, shaharlar va boshqa aholi yashash punktlariga, shuningdek, hisobga olish uchastkalariga yagona tizim bo‘yicha kadastr kodi (raqami) beriladi.

### **III. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish**

16. Binolar va inshootlarning kadastr yig‘majildi ma’lumotlari binolar va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarining asosini tashkil qiladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrida ma’lumotlar belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida ularning qurilishi tugallangandan keyin yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda ular bo‘yicha bitimlar tuzilgandan keyin hisobga olinadi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda kadastr daftarida binolar va inshootga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar (ularning paydo bo‘lishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va to‘xtatilishi) to‘g‘risidagi, shuningdek obyektni tavsiflovchi boshqa ma’lumotlar qayd etiladi.

Maxfiylik rejimiga ega bo‘lgan binolar va inshootlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar maxsus kadastr daftarida qayd etiladi, ushbu daftarni yuritish xususiyatlari va mazkur obyektlarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanish shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

17. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda binolar va inshootlarning huquqiy, xo‘jalik va arxitektura, qurilish maqomi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kadastr daftariga ilovaga muvofiq kiritiladi.

Binolar va inshootlar joylashgan joy, ularning mulkiy huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar bilan yuridik va jismoniy shaxslarga tegishliligi, ushbu huquqlarning paydo bo‘lish asoslari va muddatlari, ularning to‘xtatilish muddatlari, mulkiy huquqlarni va boshqa ashyoviy huquqlarni cheklash shartlari, ushbu obyektlarga uchinch shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar binolar va inshootlarning huquqiy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisoblanadi.

Binolar va inshootlarning qiymati, ulardan foydalanish xususiyatlari, ushbu obyektlarning ishlab chiqarishdagi maqsadlari, ulardan belgilangan maqsadlarda foydalanilishi va boshqa ma’lumotlar binolar va inshootlar xo‘jalik maqomining asosini tashkil etadi.

Binolar va inshootlarning yer tuzish sxemalariga, shaharlarning bosh rejalariga, aholi yashash punktlarini joylashtirish loyihalariga, shuningdek shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiqligi, binolar parametrlari (qavatlari, umumiy, yashash, ishlab chiqarish maydonlari), egallab turgan yer uchastkasi, qurilgan sanasi, muhandislik-texnik kommunikatsiyalarning mavjudligi, seysmik chidamliligi to‘g‘risidagi va boshqa texnik ma’lumotlar binolar va inshootlarning arxitektura-qurilish maqomi hisoblanadi.

18. Kadastr ma’lumotlari asl hujjatlar yoki davlat organlari qarorlarining, shartnomalarning (oldi-sotdi, hadya qilish, almashtirish, ijaraga olish, renta va boshqalar), bino va inshootlar loyiha-smeta hujjatlarining, ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarning tegishli ravishda rasmiylashtirilgan nusxalari asosida tuziladi.

19. Har bir bino va inshoot kadastr daftariga muayyan kadastr raqami ostida yozib qo‘yiladi.

20. Kadastr daftaridagi yozuvlarni tuzatishga yoki to‘ldirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar kadastr daftariga yozilgan ma’lumotlarni o‘zgartirish yoki to‘ldirish zaruriyati paydo bo‘lsa, u

holda ilgarigi yozuvlar bekor qilinadi va obyekt to‘g‘risidagi yangi ma’lumotlar bilan aynan shu kadastr raqami ostida to‘ldiriladi.

(III bob O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-soni qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)

#### **IV. BINO VA INShOOTLAR KADASTRINI YuRITIShNI TASHKIL ETISH**

21. Mazkur Nizomning **16-bandida** nazarda tutilgan ma’lumotlar to‘plangach va ro‘yxatidan o‘tkazilgach bino yoki inshoot kadastr rejasida belgilanadi. Kadastr rejasি xaritalar va rejalar ning 1:100 dan 1:10000 gacha bo‘lgan masshtab qatoridan iborat bo‘ladiki, bu ro‘yxatdan o‘tkaziladigan obyektlarning joylashuvi va asosiy parametrlarining ko‘rgazmali chizma belgilanishini ta’minlaydi.

22. Bino va inshootlar ma’lumotlari asosida tuman, shahar geofondlari yuritiladi. Tuman, shahar geofondlari — binolar va inshootlarning topografiya-geodeziya, kartografiya, mahandislik-geologiya, gidrogeologiya, ekologiya, sanitariya-gigiyena, sotsiologiya, loyihalash-rejelashtirish, tarixiy-madaniy, stixiyali ofatlar va texnogen falokatlari, texnik inventarizatsiyalanganligi va pasportlashtirilganligi, mikroseysmik rayonlashtirilganligi va seysmik turg‘unligiga oid zamonaviy va tarixiy geoaxborot ma’lumotlari omboridir.

23. Tuman, shahar binolari va inshootlari to‘g‘risidagi kadastr ma’lumotlarining kompyuter bazasi tuman, shahar binolari va inshootlarning kadastr, daftariga kiritilgan ma’lumotlari asosida tuziladi.

Binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kompyuter ma’lumotlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha yilning har choragida umumlashtiriladi va bir tizimga solinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining binolari va inshootlar to‘g‘risidagi kompyuter kadastr ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kadastr ma’lumotlarining bir tizimga solingan kompyuter bazasi shakllantiriladi.

Ma’lumotlarning kompyuter bazasi binolar va inshootlarni klassifikatsiyalashning quyidagi belgilar bo‘yicha obyektlarning guruhlari bo‘linishi asos qilib olinadigan yagona tizimi bo‘yicha shakllantiriladi: binolar va inshootlarning maqsad yo‘nalishi, mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlarda, shuningdek qurilish-texnik tavsiflari bo‘yicha hududiyligi, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishliligi.

(23 — 25-bandlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-soni qaroriga asosan 21 — 23-bandlarga almashtirilgan — O‘R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)

24. Binolar va inshootlarning 31-dekabrdagi holati bo‘yicha kadastr ma’lumotlari “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi tomonidan har yili tumanlar, shaharlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha nashr etiladi.

(26-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-soni qaroriga asosan 24-bandga almashtirilgan — O‘R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)

Nizomga ilova

#### **Binolar, inshootlarning KADASTR DAFTARI**

Kadastr raqami		Pochta manzili	Yuridik va jismoniy shaxsning nomi	Mulkchilik shakli	Obyektning nomi	Binolar, inshootlarning dagi holatiga ko‘ra								
						Yer uchastkasi maydoni		Bin						
Massivning kadastr raqami	Hisobga olingan uchastkaning kadastr raqami					umumi yer uchastkasi maydoni	shu jumladan qurilish ostidagi yer uchastkasi maydoni	Qurilish davri	Kapitalligi	Funksiyasi (mo‘ljallanganligi)				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11				

A. Asosiy ro‘yxatdan o‘tkazish

**V. Joriy ro‘yxatdan o‘tkazish**

dagi holati (sana)										Bahsli masalalar (sababi). Sanasi	Cheklanishlar, servitutlar	Joriy baholash	Muf hujjatlas qan ma’lum va qa joyla (kadast raq
Muhandislik kommunikatsiyalari													
Loyiha tipi	Maydoni	Qavatliligi	Qiymati	Nomi	Qurilish usuli va joylashuv balandligi	O‘lchov parametrlari (diametri, kesimi)	Texnik parametrlar (quvvati, bosimi, kuchlanishi)	Ahamiyati (mintaqaviy, shahar, tuman, mikrorayon,sanoat)					
15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28

**A. Asosiy ro‘yxatdan o‘tkazish**

**V. Joriy ro‘yxatdan o‘tkazish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 138-soni  
qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda)*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**DAVLAT KADASTRLARINI YURITISH SOHASINI TARTIBGA SOLUVCHI AYRIM  
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son **Farmoni** hamda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi PQ-4819-son **qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

davlat yer kadastrining tarkibiy qismlari, davlat yer kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hamda davlat yer kadastrini yuritishda Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalarining vazifalarini nazarda tutuvchi Davlat yer kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

binolar va inshootlar davlat kadastro tarkibi, bosqichlari hamda binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishni tashkil etishni nazarda tutuvchi Bino va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq;

yer uchastkasi, bino va inshootlar hamda ko‘p yillik daraxtlarning kadastr ma’lumotlarini tayyorlash, kadastr yig‘majildini tayyorlash hamda kadastr yig‘majildini shakllantirish natijasida kadastr pasportini rasmiylashtirishni nazarda tutuvchi Ko‘chmas mulk obyektiga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **4-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvo fiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha o'rinosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo'chqorov hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi Sh.D. Kudbiyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 22-iyun,  
389-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22 iyundagi 389-ton qaroriga  
1-ILOVA

**Davlat yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risida**  
**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Davlat yer kadastrini yuritish tartibini belgilaydi.

Davlat yer kadastro yerlarni hisobga olish, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar kafolatlanishini ta'minlash, yerning tabiiy xossalarni, yerdan foydalanishni har tomonlama o'rganish va baholash maqsadida yuritiladi.

2. Davlat yer kadastro Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, yerlarning tabiiy, xo'jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qiymati, yer uchastkalarining o'rni va o'lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarrachilar va mulkdorlar o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda hujjatlar tizimidan iboratdir.

3. O'zbekiston Respublikasining yer fondi davlat yer kadastro obyekti hisoblanadi.

4. Yer kadastro ma'lumotlarini ishlab chiqish texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirish, tizimlashtirish, saqlash, yangilash hamda foydalanuvchilarga yer kadastro to'g'risida ishonchli ma'lumotlar taqdim etish davlat yer kadastrining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Davlat yer kadastrini yuritish aerokosmik suratga olish, topografik-geodezik, kartografik, tuproq, agrokimyoiy, geobotanik tadqiqotlar va boshqa tadqiqotlar hamda izlanishlar olib borish, yerlarning miqdor va sifat jihatidan hisobga olinishi va baholanishi, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali ta'minlanadi.

5. Davlat yer kadastro yer munosabatlarini tartibga solish maqsadida davlat organlari va tashkilotlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer tuzilishini tashkil etish, yer uchun haq to'lash miqdorlarini asoslash, xo'jalik faoliyatini baholash uchun mo'ljallangan.

6. Quyidagilar davlat yer kadastrining tarkibiy qismlari hisoblanadi:

yer uchastkalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularga bo'lgan mulk yoki ijara huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, serviturlarni va ushbu huquqlarga doir boshqa cheklashlarni hisobga olish;

er miqdorini hisobga olish;

er sifatini hisobga olish (tuproq bonitetini aniqlash);

erni qiymat jihatidan baholash.

7. Quyidagilar davlat yer kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

respublikaning butun hududini qamrab olish;

fazoviy koordinatlarning yagona tizimini (WGS-84) qo'llash;

er kadastriga doir ma'lumotlarni ishlab chiqish uslubining birligi va uzliksizligi;

er kadastriga doir ma'lumotlarning ishonchliligi va tejamliligi.

8. Davlat yer kadastro ma'lumotlari asosiy (birlamchi) va joriy turga bo'linadi.

Birlamchi ro'yxatdan o'tkazish vaqtida olingan ma'lumotlar va davlat yer kadastro birlamchi ma'lumotlarini tuzish asosiy ma'lumotlar hisoblanadi.

Davlat yer kadastro ma'lumotlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish va (yoki) o'zgartirish

jarayonida olingen ma'lumotlar joriy ma'lumotlar hisoblanadi.

9. Davlat yer kadastrı Davlat kadastrlari yagona tizimi, boshqa davlat kadastrlarini monitoringini yuritish uchun fazoviy-huquqiy asos hisoblanadi.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga davlat yer kadastriga oid kiritiladigan ma'lumotlarning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi (keyingi o'rnlarda — Kadastr agentligi) tomonidan ishlab chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan kelishiladi.

10. Yer kadastrı ma'lumotlaridan yer munosabatlarini tartibga solishda, yerdan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik vazifalarni hal etishda foydalanilishi kerak.

11. Davlat yer kadastrini yuritish ishlari O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetidan, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lovlar va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

## **2-bob. Davlat yer kadastrining mazmuni**

12. Quyidagilar davlat yer kadastrining mazmunini tashkil etadi:

yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

yer uchastkalarini elektron hisobga olish;

erni qiymat jihatidan baholash;

er kadastrı ma'lumotlarini tizimlashtirish, saqlash, yangilash va manfaatdor shaxslarga belgilangan tartibda taqdim etish.

13. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishiga doir ma'lumotlar yer kadastrı ma'lumotlarining birlamchi qismi hisoblanadi hamda mazkur yer uchastkasini hisobga olish, qiymatini aniqlash va huquqlarni ro'yxatga olishning asosini tashkil etadi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni birlamchi (qayta) davlat ro'yxatidan o'tkazishda yer uchastkasi va uning chegaralariga oid ma'lumotlar Davlat kadastrlari yagona tizimida aks ettirilgan holda amalga oshiriladi.

14. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar, ushbu huquqlarning vujudga kelishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va to'xtatilishi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

15. Yer uchastkalarining chegaralarini belgilash WGS-84 koordinata tizimida kartografiya materialidan foydalangan holda, geodeziya usullari bilan joyning o'zida chegaralarning burilish nuqtalari katalogiga muvofiq ularni chegara qoziqlari bilan mahkamlash orqali amalga oshiriladi. Natijalar Davlat kadastrlari yagona tizimining yer kadastrı qatlamida aks ettiriladi. Yer uchastkalarining umumiyligi maydoni talab qilinadigan aniqlikda tahliliy, grafik-tahliliy yoki mexanik usullar bilan aniqlanadi.

Yer uchastkasi to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatlashirilgan axborot tizimida yuritiladi.

Joriy ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini shakllantirishda ro'yxatga oluvchi axborot tizimida yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijrarachilar va mulkdorlarning huquqiy holati, shuningdek, yerning maydoni, chegaralari, undan foydalanish maqsadi va foydalanish rejimi bo'yicha yuz bergen o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

16. Yer uchastkalarining umumiyligi maydonini hisobga olish asosan geodeziya usullari bilan, yuqori aniqlikni talab etmaydigan hollarda esa kartometrik usullar bilan bajariladi.

Ekin maydonlari bo'yicha yer miqdorini hisobga olish bir va undan ortiq konturlardan iborat bo'lgan asosiy yer kadastrı birliklari — yer uchastkalari doirasida yuritiladi. Barcha toifadagi ekin maydonlari hisobga olinishi kerak.

Qishloq xo'jaligi toifasidagi yer maydonlari yer turlari bo'yicha yer kadastrı ma'lumotlari tarkibida alohida qatlama hisobga olinadi.

17. Davlat yer kadastrining alohida qatlami shaklida, yer sifatini hisobga olish quyidagilarni o'z ichiga oladi: tabiiy-qishloq xo'jaligi va yer kadastrı bo'yicha rayonlashtirish, yer tasnifi, ularni ekologiya, texnologiya va shaharsozlik belgilari va boshqa belgilari bo'yicha tavsiflash, tuproq va yerni guruhlarga ajratish.

Yerlarning o'lchami, joylashgan o'rni (koordinatalar katalogi bilan), toifasi va sifati

holatiga oid qayd etiladigan ma'lumotlar yerni hisobga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni tashkil etadi.

18. Ma'muriy-hududiy darajaning oshishiga qarab, yerni hisobga olish to'g'risidagi ma'lumotlar uning ko'satkichlarining taqqoslanuvchanligiga rioya qilingan holda umumlashtiriladi.

19. Turli maqsadlarga mo'ljallangan yer uchastkalari holatini baholash yerlardan foydalanish samaradorligining hozirgi holati darajasini aniqlashga hamda keljakda uni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, asoslash, yer solig'i va boshqa to'lovlarni, uning normativ bahosini hisoblab chiqarish, yerlardan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun amalga oshiriladi.

Barcha toifadagi yerlarni baholash ishlari tizimli ravishda amaldagi holat va baholash ko'satkichlari (erlarning har bir toifasi uchun o'ziga xos bo'lgan) yordamida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ham tuproqning unumdonlik quvvati — tuproq boniteti bo'yicha qiyosiy baholash amalga oshiriladi.

Yerlarning qiymat bahosiga va tuproq bonitetiga doir ma'lumotlar yer bahosiga oid yer kadastro ma'lumotlarining alohida qatlamida tashkil etiladi.

20. Yer uchastkasini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga olish va baholashga doir asosiy va joriy ma'lumotlar yer kadastro ma'lumotlari majmuuni tashkil etadi, ular har xil: alfavit — raqam (matn, jadval, koordinatlar va maydonlar ro'yxati) va grafik (reja, xarita, sxemalar) shakllarida qayd etiladi.

21. Davlat kadastrlari yagona tizimida davlat yer kadastro ma'lumotlari asosiy qatlam hisoblanib, tuman (shahar)ning ma'muriy-hududiy chegarasi doirasida yuritiladi. Har bir ma'muriy-hududiy birlik chegarasidagi barcha yer uchastkalari chegaralari, ularning egalari, foydalanuvchilari, ijarachilar va mulkdorlari tarkibi, shuningdek, chegaralarda bo'lgan o'zgarishlar muntazam ravishda kiritib boriladi.

22. Har bir ma'muriy-hududiy darajada axborot tizimi orqali taqdim etiladigan yer kadastriga doir ma'lumotlar tarkibi va shakli Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

23. Yer kadastriga doir ma'lumotlarning ishonchliligi uchun davlat yer kadastrini yuritish vazifasi yuklangan vakolatli organ mas'ul xodimlari, shuningdek, yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar javob beradilar.

### **3-bob. Davlat yer kadastrini yuritish**

24. Davlat yer kadastro ushbu Nizomga **lovada** keltirilgan sxemaga muvofiq yuritiladi.

25. Dastlabki kadastr ma'lumotlari yangilanayotganda yer uchastkalarining huquqiy holatida, yerlarning sifat holati va ulardan foydalanishda, ularni baholashda yuz berayotgan o'zgarishlar aniqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi. Yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalariga (ro'yxatdan o'tkazuvchi organga), boshqa tashkilotlarga ko'rsatib o'tilgan o'zgarishlar to'g'risida o'n kun muddatda axborot berishga majburdirlar.

26. Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari:

yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar murojaatlari asosida davlat yer kadastrini yuritishda (yer uchastkalari tarkibida va undan foydalanishda) yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdilar va naturada (joyning o'zida) tekshirilgandan keyin joriy o'zgarishlarni elektron axborot tizimiga kiritadi;

tuman (shahar) hududi kadastr zonalari, kadastr massivlari, kadastr mavzelari, yer uchastkalariga bo'linishini ta'minlaydi va doimiy monitoringini yuritadi.

27. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalari:

davlat yer kadastrini yuritishda (yer uchastkalari tarkibida va undan foydalanishda hamda huquqiy holatida) yuz bergan o'zgarishlarni yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlarning buyurtmalari asosida davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

davlat yer kadastrini yuritishda tumanlar (shaharlar) filiallari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

Davlat kadastrlari yagona tizimi tarkibida davlat yer kadastri yuritilishida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri tuman (shahar)lar ma'muriy chegaralari kesimida kadastr zonalari, kadastr massivlari, kadastr mavzelari shakllanishi va yuritilishini ta'minlaydi;

erlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, toifalari, yer uchastkalarining o'rni va o'lchamlari, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o'rtafiga taqsimoti to'g'risidagi elektron ma'lumotlarni shakllantiradi.

28. Davlat kadastrlari palatasi:

er kadastriga oid ochiq geoaxborot ma'lumotlarining Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritilishini tashkil etadi, manfaatdor vazirliklar va idoralarga ma'lumotlar taqdim etadi;

yer fondi holatidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash bo'yicha kuzatishlar tizimini tashkil etadi va amalga oshiradi;

har bir yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori bo'yicha yer kadastr elektron ma'lumotlar bazasini shakllantiradi;

Yer fondi toifalarining yer turlari bo'yicha milliy hisobot Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini tashkil etadi va amalga oshiradi;

har yili 1-fevralga qadar Kadastr agentligiga O'zbekiston Respublikasida Yer fondi toifalari holati to'g'risidagi milliy hisobotni taqdim etadi.

29. Kadastr agentligi:

davlat yer kadastrini yuritishini tartibga soluvchi hujjatlarning ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlarning (shaharlarning) ma'muriy chegaralarini, keyinchalik ularning maydonlarini muvofiqlashtirgan holda, geodezik usullar bilan belgilash va joylarga biriktirib qo'yish ishlarini amalga oshiradi;

yer resurslarini aerokosmik usullar bilan o'rghanishni tashkil etadi;

erlarning miqdori va ulardan foydalanilishi to'g'risidagi hisobotlarni o'rghanadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

har yili 1-martga qadar O'zbekiston Respublikasida Yer fondi toifalari holati to'g'risidagi milliy hisobotni rasmiy veb-sayti orqali ochiq ma'lumot sifatida taqdim etadi.

30. Davlat yer kadastrini yuritishda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

tuproqshunoslik, agrokimyo, geobotanikaga oid va boshqa izlanishlarni hamda tadqiqotlarni amalga oshirish;

erlarni sifat jihatdan hisobga olish hamda baholash.

**4-bob. Yakunlovchi qoida**

31. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**Davlat yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga  
ILOVA**

**Davlat yer kadastrini yuritish  
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari

1-bosqich	Yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarchilar va mulkdorlar	Davlat yer kadastrini yuritishda (dastlabki kadastr ma'lumotlari yangilanayotganda yer uchastkalarining huquqiy holatida, yerkarning sifat holati va ulardan foydalanishda, ularni baholashda) o'zgarishlar yuz berganda, Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalariga (ro'yxatdan o'tkazuvchi organga), boshqa tashkilotlarga axborot beradi.	O'n kun muddatda
2-bosqich	Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari	1. Davlat yer kadastrini yuritishda (yer uchastkalari tarkibida va undan foydalanishda) yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi va naturada (joyning o'zida) tekshirilgandan keyin joriy o'zgarishlarni elektron axborot tizimiga kiritadi.	1. Murojaatlar asosida
		2. Tuman (shahar) hududi kadastr zonalari, kadastr massivlari, kadastr mavzelari, yer uchastkalariga bo'linishini ta'minlaydi va doimiy monitoringini yuritadi.	2. Doimiy ravishda
3-bosqich	Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalari	1. Davlat yer kadastrini yuritishda (yer uchastkalari tarkibida va undan foydalanishda hamda huquqiy holatida) yuz bergan o'zgarishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.	1. Murojaatlar asosida
		2. Davlat yer kadastrini yuritishda tumanlar (shaharlar) filiallari faoliyatini muvo fiqlashtirib boradi.	2. Doimiy ravishda
		3. Davlat kadastrlari yagona tizimi tarkibida davlat yer kadastrini yuritishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri tuman (shahar)lar ma'muriy chegaralari kesimida kadastr zonalari, kadastr massivlari, kadastr mavzelari shakllanishi va yuritilishini ta'minlaydi.	3. Doimiy ravishda
		4. Yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, toifalari, yer uchastkalarining o'rni va o'lchamlari, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarchilar va mulkdorlar o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi elektron ma'lumotlarni shakllantiradi.	4. Doimiy ravishda

4-bosqich	Davlat kadastrlari palatasi	<p>1. Yer kadastriga oid ochiq geoaxborot ma'lumotlarining Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritilishini tashkil etadi, manfaatdor vazirliliklar va idoralarga ma'lumotlar taqdim etadi.</p> <p>2. Yer fondi holatidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash bo'yicha kuzatishlar tizimini tashkil etadi va amalga oshiradi.</p> <p>3. Har bir yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori bo'yicha yer kadastro elektron ma'lumotlar bazasini shakllantiradi;</p> <p>4. Yer fondi toifalarining yer turlari bo'yicha milliy hisobot Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini tashkil etadi va amalga oshiradi.</p> <p>5. Har yili 1-fevralga qadar Kadastr agentligiga O'zbekiston Respublikasida Yer fondi toifalari holati to'g'risidagi milliy hisobotni taqdim etadi.</p>	Doimiy ravishda
5-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi	<p>1. Davlat yer kadastro yuritilishini tartibga soluvchi hujjatlarning ishlab chiqilishini ta'minlaydi.</p> <p>2. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlarning (shaharlarning) ma'muriy chegaralarini, keyinchalik ularning maydonlarini muvofiqlashtirgan holda, geodezik usullar bilan belgilash va joylarga biriktirib qo'yish ishlarini amalga oshiradi.</p> <p>3. Yer resurslarini aerokosmik usullar bilan o'rghanishni tashkil etadi.</p> <p>4. Yerlarning miqdori va ulardan foydalilanishi to'g'risidagi hisobotlarini o'rGANADI, tahlil qiladi va umumlashtiradi.</p> <p>5. Har yili 1-martga qadar O'zbekiston Respublikasida Yer fondi toifalari holati to'g'risidagi milliy hisobotni rasmiy veb-sayti orqali ochiq ma'lumot sifatida taqdim etadi.</p>	Belgilangan muddatlarda
6-bosqich	Qishloq xo'jaligi vazirligi	<p>1. Tuproqshunoslik, agrokimyo, geobotanikaga oid va boshqa izlanishlarni hamda tadqiqotlarni amalga oshiradi.</p> <p>2. Yerlarni sifat jihatdan hisobga olish hamda baholashni amalga oshiradi.</p> <p>3. Ma'lumotlarni belgilangan tartibda Davlat kadastrlari yagona tizimiga axborot tizimlari orqali taqdim etadi.</p>	Belgilangan muddatlarda

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 389-son qaroriga  
2-ILOVA

**Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida**  
**NIZOM**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibini belgilaydi.

Binolar va inshootlar davlat kadastru hududiy prinsip bo'yicha tashkil etiladi va obyektlarning huquqiy, xo'jalik va arxitektura-qurilish maqomi to'g'risidagi ma'lumotlar tizimini tashkil etadi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini binolar va inshootlar mulkdorlari va bu obyektlardan boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini, shuningdek, binolar va inshootlarga egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash uchun axborot tizimi yordamida raqamlı shaklda davlat tilida yuritiladi.

2. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bo'yicha munosabatlari mazkur Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3. Binolar va inshootlar davlat kadastrini ma'lumotlari barcha davlat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy yuridik kuchga egadir. Kadastr hujjatlari binolar va inshootlar bilan fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirishda va boshqa yuridik harakatlarda huquqiy, iqtisodiy va texnik ma'lumotlar sifatida qabul qilinishi kerak.

4. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish obyektlar to'g'risidagi kadastr ma'lumotlarini shakllantirishdagi ishonchli hujjatlari va boshqa ma'lumotlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

5. Binolar va inshootlarning davlat kadastrini yuritish ushbu Nizomga **1- ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Davlat kadastrlari yagona tizimini shakllantirish va yuritishni tashkil etish, shuningdek, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlariga umumiy rahbarlik qilish, ularni metodik jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi (keyingi o'rnlarda — Kadastr agentligi) tomonidan amalga oshiriladi.

7. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yurituvchi organlar kadastr hujjatlarini va kadastr ma'lumotlarini ruxsatsiz olish va oshkor etishdan himoya qilinishini ta'minlashlari shart, ochiq ma'lumotlar bundan mustasno.

8. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bo'yicha ishlar ko'chmas mulkka kadastr hujjatlarini tayyorlaganlik, ularga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun to'lanadigan to'lovlar hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat mulki bo'lgan obyektlar bo'yicha binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'larini hisobidan amalga oshiriladi.

## **2-bob. Binolar va inshootlar davlat kadastrining tarkibi va bosqichlari**

9. Binolar va inshootlar davlat kadastr kadastr rejasidan, kadastr hujjatlaridan va geofondlardan, shuningdek, mazkur Nizomda belgilangan tartibda shakllantiriladigan axborot tizimi ma'lumotlaridan iborat.

10. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish axborot tizimlari orqali quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich — binolar va inshootlarning texnik ko'rsatkichlarini o'lchash vositalari orqali aniqlash va axborot tizimida hisobga olish;

2-bosqich — obyektlarni chizmada joylashtirib, raqamlı kadastr rejasini tuzish;

3-bosqich — oldingi bosqichlarda olingan ma'lumotlarni hisobga olgan holda, ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritish yoki mavjud ma'lumotlarni yangilash.

11. Binolar va inshootlar davlat kadastr ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'linishi, tumanlar, shaharlar bo'yicha tuziladi, ularning hududi davlat yer kadastr ma'lumotlari asosida hisobga olish uchastkalariga bo'linadi.

12. Tumanlar, shaharlar va boshqa aholi yashash punktlarining kadastrga oid bo'linishi chegaralarni belgilash va hududlarni tuman doirasida yoxud shahar chegaralarini hisobga olish uchastkalariga bo'linishini bildiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasiga, viloyatlarga, Toshkent shahriga, tumanlar, shaharlar va boshqa aholi yashash punktlariga, shuningdek, hisobga olish uchastkalariga yagona tizim bo'yicha kadastr raqami beriladi.

### **3-bob. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish**

13. Binolar va inshootlarning kadastr yig‘majildi ma’lumotlari binolar va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarining asosini tashkil qiladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastriga ma’lumotlar belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida ularning qurilishi tugallangandan keyin yoxud qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda ular bo‘yicha bitimlar tuzilgandan keyin hisobga kiritiladi.

Qonunchilik hujjatlarida belgilangan holatlarda qurilishi tugallanmagan bino va inshootlar ham bino va inshootlar davlat kadastrida hisobga olinishi mumkin.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda axborot tizimida bino va inshootga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar (ularning paydo bo‘lishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va to‘xtatilishi) to‘g‘risidagi, shuningdek, obyektni tavsiflovchi boshqa ma’lumotlar qayd etiladi.

Maxfiylik rejimiga ega bo‘lgan binolar va inshootlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish va mazkur obyektlarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanish shartlari qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.

14. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda davlat kadastriga oid kiritiladigan ma’lumotlarning tarkibi Kadastr agentligi tomonidan ushbu Nizomga [2-ilovada](#) ko‘rsatilgan minimal talablar asosida ishlab chiqiladi.

Binolar va inshootlar joylashgan yer, ularga bo‘lgan mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlarning yuridik va jismoniy shaxslarga tegishliligi, ushbu huquqlarning paydo bo‘lish asoslari va muddatlari, ularning to‘xtatilish muddatlari, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni cheklash shartlari, ushbu obyektlarga uchinchi shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar binolar va inshootlarning huquqiy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar axborot tizimiga bino va inshootga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida kiritiladi.

Binolar va inshootlarning qiymati, ulardan foydalanish xususiyatlari, ushbu obyektlarning ishlab chiqarishdagi maqsadlari va boshqa ma’lumotlar binolar va inshootlar xo‘jalik maqomining asosini tashkil etadi.

Binolar va inshootlarning yer tuzish sxemalariga, aholi punktlarining bosh rejalariga, qishloq va mahalla fuqarolari yig‘inlari hududlarini me’moriy rejashtirishni tashkil etish loyihalariga va boshqa shaharsozlik hujjatlariga, shuningdek, shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiqligi, binolar parametrlari (qavatlari, umumiyl, yashash, ishlab chiqarish maydonlari), egallab turgan yer uchastkasi, qurilgan sanasi, muhandislik-texnik kommunikatsiyalarning mavjudligi, seysmik chidamliligi to‘g‘risidagi va boshqa texnik ma’lumotlar binolar va inshootlarning arxitektura-qurilish maqomi hisoblanadi.

15. Kadastr ma’lumotlari asl hujjatlar yoki davlat organlari qarorlarining, shartnomalarning (oldi-sotdi, hadya qilish, almashtirish, ijaraga olish, renta va boshqalar), bino va inshootlar loyiha-smeta hujjatlarining, ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarning tegishli ravishda rasmiylashtirilgan nusxalari asosida tuziladi.

16. Har bir bino va inshoot axborot tizimiga muayyan kadastr raqami ostida yozib qo‘yiladi.

17. Axborot tizimidagi yozuvlarni o‘zgartirishga yoki to‘ldirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar axborot tizimiga kiritilgan ma’lumotlarni o‘zgartirish yoki to‘ldirish zarurati paydo bo‘lsa, u holda ilgarigi yozuvlar axborot tizimida saqlanib qolgan holda bekor qilinadi va obyekt to‘g‘risidagi yangi ma’lumotlar bilan aynan shu kadastr raqami ostida to‘ldiriladi.

Bino va inshootlarning parametrlari (qavatlari, umumiyl, yashash, ishlab chiqarish maydonlari) o‘zgarganda, axborot tizimiga mazkur Nizomning [10-bandiga](#) muvofiq o‘zgarishlar kiritiladi.

### **4-bob. Bino va inshootlar kadastrini yuritishni tashkil etish**

18. Mazkur Nizomning [12-bandida](#) nazarda tutilgan ma’lumotlar to‘plangan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin bino yoki inshoot kadastr rejasida belgilanadi. Kadastr rejasি avtomatik loyihalashtirish tizimlaridan foydalangan holda elektron shaklda bo‘lib, bu ro‘yxatdan

o‘tkaziladigan obyektlarning joylashuvi va asosiy parametrlarining ko‘rgazmali chizma belgilanishini ta’minlaydi.

19. Davlat kadastrlari yagona tizimida bino va inshootlar davlat kadastr tuman (shahar)lar kesimida Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan yuritiladi.

Bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlar bazasida bino va inshootlar tasnifi bo‘yicha obyektlar guruhga bo‘linadi. Bunda bino va inshootlarning hududiyligi, maqsad yo‘nalishi, yuridik va jismoniy shaxslarga mulk huquqi yoki boshqa ashayoviy huquqlarda tegishliliqi, shuningdek, qurilish-texnik tavsiflariga qarab belgilanadi. Bino va inshootlar yagona klassifikatori Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

20. Binolar va inshootlarning holati bo‘yicha kadastr ma’lumotlarining umumlashtirilgan statistik ko‘rsatkichlari Kadastr agentligi tomonidan har yili tuman va shaharlar kesimida ochiq ma’lumot sifatida Internet tarmog‘ida keng yoritilishi tashkil etiladi.

### **5-bob. Yakunlovchi qoida**

21. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
1-ILOVA**

### **Bino va inshootlar davlat kadastrini yuritish SXEMASI**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Subyektlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>
1-bosqich	Davlat kadastrlari palatasi va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalari	<p>1. Binolar va inshootlar davlat kadastriga ma’lumotlar belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida ularning qurilishi tugallangandan keyin yoxud qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda ular bo‘yicha bitimlar tuzilgandan keyin hisobga kiritiladi.</p> <p>Qonunchilik hujjatlarida belgilangan holatlarda qurilishi tugallanmagan bino va inshootlar ham bino va inshootlar davlat kadastrida hisobga olinishi mumkin.</p> <p>2. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda axborot tizimida bino va inshootga mulk huquqi yoki boshqa ashayoviy huquqlar (ularning paydo bo‘lishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va to‘xtatilishi) to‘g‘risidagi, shuningdek, obyektni tavsiflovchi boshqa ma’lumotlar qayd etiladi.</p>	Buyurtmalar asosida

2-bosqich	Kadastr agentligi	<p>1. Bino va inshootlar davlat kadastrini yurishda ma'lumotlar va axborotlar sifatini nazorat qiladi.</p> <p>2. Binolar va inshootlarning holati bo'yicha kadastr ma'lumotlarining umumlashtirilgan statistik ko'rsatkichlarini tuman va shaharlar kesimida ochiq ma'lumot sifatida Internet jahon axborot tarmog'ida yoritadi.</p>	<p>1. Doimiy ravishda 2. Har yili 1-yanvar holatiga</p>
-----------	-------------------	--	---

**Binolar va inshootlar davlat kadastrini yurish tartibi to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA**

Namuna

**Binolar va inshootlar davlat kadastrini yurishda davlat kadastriga oid kiritiladigan  
ma'lumotlar tarkibiga qo'yiladigan  
MINIMAL TALABLAR**

1.	Tartib raqami
2.	Subyekt haqida ma'lumot:
2.1.	Yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi
2.2.	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami yoki jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami
3.	Yer uchastkasining kadastr raqami
4.	Maydoni, ga
5.	Joylashgan joyi (manzili)
6.	Binolar va inshootlar ro'yxati
7.	Bino va inshootning kadastr raqami
8.	Bino va inshootlarning kapitalligi*
9.	Funksiyasi (mo'ljallanganligi)
10.	Xonalar soni
11.	Konstruktiv turi*:
11.1.	Poydevor
11.2.	Devor
11.3.	Cherdak to'sinlar (parto'sinlar)
11.4.	Devorlar va qavatlararo orayopmalar (to'siqlar)
11.5.	Tom qoplamasи
11.6.	Pol
12.	Zilzilabardoshligi
13.	Muhandislik jihozlanganligi*:
13.1.	Ichimlik suvi ta'minoti
13.2.	Oqova suv tizimi
13.3.	Elektr energiya ta'minoti
13.4.	Gaz ta'minoti
13.5.	Issiqlik ta'minoti
14.	Binoning qavatliligi
15.	Obyekt joylashgan qavat
16.	Binoning balandligi, m
17.	Maydon, kv. m:
17.1.	Qurilish osti
17.2.	Umumiy

17.3.	Ishlab chiqarish
17.4.	Foydali, yashash
18.	Qurilgan yili
19.	Bino va inshootga bo‘lgan huquqni tasdiqllovchi hujjalor
20.	Kadastr qiyomi, 20 ____ y. holatiga ming so‘m
21.	Bitim (shartnoma) da ko‘rsatilgan qiyomi, 20 ____ y. holatiga ming so‘m*
22.	Maxsus inshootlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar
23.	Kadastr ma’lumotlarini shakllantirgan subyekt (tadbirkorlik subyekti — yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi; Davlat kadastrlari filiali nomi)

\* ma’lumot mavjud bo‘lganda kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 389-sod qaroriga  
3-ILOVA

### **Ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibi to‘g‘risida NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**bino** — funksional maqsadiga qarab, odamlar yashashi yoki bo‘lishiga va har xil turdag'i ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo‘ljallangan, yopiq hajmni tashkil etuvchi tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi;

**yer uchastkasi** — yer yuzasining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda boshqa xususiyatlarga ega bo‘lgan qismi;

**inshoot** — har xil turdag'i ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob-uskunalarini saqlashga, odamlarning vaqtinchaga bo‘lishiga, odamlar, yuklar va boshqa narsalarini olib o‘tishga mo‘ljallangan, tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziq tarzidagi yer tepasida, yer yuzasida va yer ostida joylashgan qurilish tizimi;

**kadastr yig‘majildi** — obyektning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan kadastr suratiga olish, texnik xatlovdan o‘tkazish va pasportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va qiymat jihatidan baholashning hujjalari, materiallari va ma’lumotlari jamlamasi;

**kadastr muhandisi** — geodeziya-kartografiya ishlari bilan shug‘ullanuvchi tashkilot bilan tuziladigan mehnat shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi yoki o‘z faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida amalga oshiruvchi va kadastr muhandisi malaka shahodatnomasiga ega jismoniy shaxs;

**kadastr pasporti** — ko‘chmas mulk obyekti va obyektning kadastr raqami haqida umumiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron hujjat;

**ko‘p yillik daraxtlar** — bog‘lar, tokzorlar, tutzorlar va boshqa o‘rmon daraxtlari;

**ko‘chmas mulk** — yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko‘p yillik daraxtlar va yer bilan uzviy bog‘langan boshqa mol-mulk, ya‘ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan obyektlar;

**maxsus inshootlar** — belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun alohida yer uchastkasida qurilgan muhandislik inshootlari majmuasi, jumladan, temir va avtomobil yo‘llari, aloqa va elektr o‘tkazish liniyalari, yer yuzasida, yer usti va yer ostida joylashgan magistral quvurlar, magistral kanal va kollektorlar;

**qurilishi tugallanmagan obyektlar** — qurilishi belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida tasdiqlangan loyiha hujjalariiga muvofiq boshlangan, lekin muayyan kunga kelib tugallanmagan yoki qurilishi tugallangan, lekin foydalanishga qabul qilinmagan bino va inshootlar.

3. Kadastr yig‘majildi ko‘chmas mulkning turi, tavsifi, hajmi, qiymati va boshqa ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida axborot tizimi orqali tayyorlanadi va saqlanadi.

4. Kadastr yig‘majildi ko‘chmas mulk obyektining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va qiymati, shuningdek, uning holatidagi joriy o‘zgarishlar haqidagi materiallar va ma’lumotlarni hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni jamlash yo‘li bilan kadastr muhandislari va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining (keyingi o‘rinlarda — Davlat kadastrlari palatasi) tegishli tuman (shahar) filiallari tomonidan tayyorlanadi va qog‘oz hamda elektron shaklda Davlat kadastrlari palatasida doimiy saqlanadi.

Ko‘chmas mulk obyektiiga tayyorlangan kadastr yig‘majildi natijasi bo‘yicha mulkdorga yoki uning ishonchnomasi asosida harakat qiluvchi shaxsga, shuningdek, mulkdorning merosxo‘riga kadastr pasporti taqdim etiladi.

Mulkdorning yoki uning ishonchnomasi asosida harakat qiluvchi shaxsning, shuningdek, mulkdor merosxo‘rining so‘roviga ko‘ra kadastr yig‘majildining nusxasi elektron shaklda taqdim etiladi.

Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari tomonidan o‘tkazilgan o‘lchov ishlari natijasida tayyorlangan kadastr yig‘majildi tarkibidagi ma’lumotlar haqqoniyligiga — Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari, shuningdek, kadastr muhandislari tomonidan o‘tkazilgan o‘lchov ishlari natijasida tayyorlangan kadastr yig‘majildi tarkibidagi ma’lumotlar haqqoniyligiga — kadastr muhandislari javobgar hisoblanadi.

5. Kadastr yig‘majildini tayyorlash va uning natijasi bo‘yicha kadastr pasportini olish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari o‘z xohishiga ko‘ra, Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallariga davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni orqali ariza bilan murojaat qiladi yoki kadastr muhandislari bilan xizmat ko‘rsatish (kelishuv) shartnomasi asosida bitim tuzadilar.

Arizaga (shartnomaga) quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrdagi 1060-sun qarori bilan tasdiqlangan Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning [21](#), [22](#), [23](#), [38](#), [39](#), [40](#) va [41-bandlarida](#) ko‘rsatilgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar; qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar arizaga (shartnomaga) ilova qilinmasa, kadastr yig‘majildi tayyorlanmaydi.

6. Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallariga murojaat etilgan hollarda, arizalar filial tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda qabul qilib olinganidan so‘ng shu kunning o‘zida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ishlarni bajarish bo‘yicha arizalar reyestriga kiritiladi.

7. Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari tomonidan kadastr yig‘majildini tayyorlash ishlarining qiymati Vazirlar Mahkamasining “Kadastr hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha davlat xizmatlari narxlarini belgilashda tabaqalashtirilgan yondashuv tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2014-yil 10-iyuldaggi 186-sun [qaroriga](#) muvofiq aniqlanadi.

Kadastr muhandislari tomonidan ko‘chmas mulk obyektiiga kadastr hujjatini rasmiylashtirish Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan minimal stavkalardan kam bo‘lmagan miqdordagi narxlarda tomonlarning o‘zaro kelishuv shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari tomonidan kadastr yig‘majildini tayyorlash va uning natijasi bo‘yicha kadastr pasportini taqdim etish kadastr obyektiining murakkabligiga qarab quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

a) ko‘chmas mulk obyektlarining turar joyga oid qismi bo‘yicha:

ko‘p kvartirali uydagi kvartira — 3 ish kunigacha;

yakka tartibdagi turar joy — 5 ish kunigacha;

b) ko‘chmas mulk obyektlarining noturar joyga oid qismi hamda yaxlit ko‘p kvartirali uylar bo‘yicha:

umumiyl maydoni 100 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 5 ish kunigacha;  
umumiyl maydoni 100 kv. metrdan 1 000 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 7 ish kunigacha;

umumiyl maydoni 1 000 kv. metrdan 5 000 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 10 ish kunigacha;

umumiyl maydoni 5 000 kv. metrdan 15 000 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 15 ish kunigacha;

umumiyl maydoni 15 000 kv. metrdan 50 000 kv. metrgacha bo‘lgan ko‘chmas mulk — 20 ish kunigacha;

umumiyl maydoni 50 000 kv. metrdan ortiq bo‘lgan ko‘chmas mulk — 25 ish kunigacha;

ajratilgan yer uchastkalari bo‘yicha — 3 ish kunigacha;

kadastr (yig‘majildi) pasporti yo‘qolganda (yaroqsiz holga kelganda), yangi kadastr pasporti 2 ish kuni mobaynida beriladi.

9. Kadastr yig‘majildi yer uchastkasining, bino va inshootlarning hamda ko‘p yillik daraxtlarning kadastr ma’lumotlaridan iborat bo‘ladi.

10. Yer uchastkasi yaxlitligini yo‘qotmagan holda ushbu ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha o‘zgarishlar (bino va inshootlar qurilishi, rekonstruksiya qilinishi, ko‘p yillik daraxtlar barpo etilishi) haqidagi ma’lumotlar kadastr yig‘majildiga kiritib boriladi.

11. Ko‘chmas mulk obyektiga kadastr yig‘majildini tayyorlash va kadastr pasportini rasmiylashtirishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

tuman (shahar) filialida ushbu ko‘chmas mulk obyektining mansubligi masalasida nizolar borligidan dalolat beruvchi sud hujjatlarining mavjudligi;

vakolatlari organ tomonidan ko‘chmas mulk obyektiga taqiq yoki xatlov qo‘yilganligi;

taqdim etilgan hujjatlarda noto‘g‘ri, qarama-qarshi yoki buzilgan ma’lumotlar aniqlanishi;

tuman (shahar) filialida ushbu yer uchastkasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda olib qo‘yilganligi haqidagi ma’lumotlarning mavjudligi;

yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda bekor qilinganligi;

ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganligi;

ko‘chmas mulk obyektida o‘lchov ishlarini olib borilishiga, shu jumladan, ko‘chmas mulk obyektiga kirish imkoniy yo‘qligi (foydalanib kelayotgan shaxslar tomonidan bino va inshootga, yer uchastkasiga kirishga qarshilik qilish).

12. Kadastr muhandisi yuridik va jismoniy shaxslarga kadastr yig‘majildini tayyorlab berish bo‘yicha kelishuv shartnomasiga muvofiq Davlat kadastrlari palatasining maxsus axborot tizimida ajratilgan shaxsiy kabinetni orqali ko‘chmas mulk obyektiga oid ma’lumotlarni kiritadi hamda mulkdor (foydalanuvchi)ning ko‘chmas mulkiga oid mavjud axborotni tizimda o‘ziga yuklab oladi.

Kadastr muhandisi o‘z shaxsiy kabinetni orqali quyidagi ma’lumotlarni Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmasiga yuboradi:

ko‘chmas mulk obyektining kadastr raqami (kadastr hujjatlariga o‘zgartirish kiritilayotganda);

mulkdor (foydalanuvchi) yuridik va jismoniy shaxsning nomi;

yuridik shaxslarda soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, jismoniy shaxslarda jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

kadastr yig‘majildini tayyorlash (qayta tayyorlash) uchun Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrdagi 1060-soni qarori bilan tasdiqlangan Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning [21](#), [22](#), [23](#), [38](#), [39](#), [40](#), [41](#)-bandlarida ko‘rsatilgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar;

ko‘chmas mulk obyektiga kadastr yig‘majildini tayyorlash (qayta tayyorlash) bo‘yicha tomonlar o‘rtasida imzolangan, shu jumladan, jismoniy shaxs tomonidan shaxsiy

ma'lumotlardan foydalanishga rozilik berilgan shartnoma.

Kadastr muhandisi malaka shahodatnomasining amal qilishi tugaganda, shaxsiy kabinetning ishchi funksiyalari cheklanadi.

## **2-bob. Yer uchastkasining kadastr ma'lumotlarini tayyorlash**

13. Yuridik va jismoniy shaxslarning foydalanishida bir nechta yer uchastkasi bo'lsa, kadastr yig'majildi ularning har biri bo'yicha tayyorlanadi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bundan mustasno.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda jismoniy yoki yuridik shaxsga bitta huquqni belgilovchi hujjat bilan ajratilgan bir necha yer uchastkalarini umumlashtirgan holda kadastr yig'majildi tayyorlanishi mumkin.

14. Yer uchastkasining kadastr yig'majildini tayyorlashda quyidagi ishlar bajariladi:

yer uchastkasining geodezik o'lchov natijasida topografik xaritalarini tayyorlash;

er kadastr ma'lumotlari, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi va cheklovchi hujjatlar hamda servitutlar mavjudligini o'rganish;

yer uchastkasini joyida xatlovdan o'tkazish;

yer uchastkasining chegaralari va umumiylar maydonini huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlardagi ma'lumotlar bilan solishtirish va ularning farqini aniqlash;

yer uchastkasining amaldagi maydoni huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarda belgilangan maydondan ortiq bo'lsa, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerning chegarasini kadastr rejasiga tushirish;

ko'chmas mulk obyektini hisobdan o'tkazish varaqasida yer haqidagi ma'lumotlarni kiritish.

15. Yer uchastkalari geodezik asboblar yordamida (WGS-84 koordinatalar tizimida) o'lchovdan o'tkaziladi. Bunda chegara burilish nuqtalarining koordinatlari aniqlanadi va shartli belgilardan foydalanib, yer uchastkasining elektron raqamlı kadastr rejası tuziladi.

16. Yer uchastkasining elektron raqamlı kadastr rejasiga quyidagilar tushiriladi va ma'lumotlar aks ettiriladi:

bino va inshootlar hamda boshqa geografik obyektlar;

yer uchastkasining davlat hokimiyyati organlari tomonidan o'rnatilgan muhofaza zonalari va o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerning chegaralari (mavjud bo'lsa);

chegaradosh yer uchastkalari va ularga bo'lgan huquq egalarining nomlari.

17. Yer uchastkasining elektron raqamlı kadastr rejası uning maydonidan kelib chiqib, kadastr yig'majildida tasvirlash uchun qulay masshtablarda tuziladi. Bunda aholi punktlaridagi yer uchastkasining kadastr rejası 1:500 masshtabdan 1:2000 masshtabgacha, aholi punktlaridan tashqarida joylashgan qishloq va o'rmon xo'jaliklari yer uchastkasining kadastr rejası 1:5000 masshtabda yoki 1:10000 masshtabda tuziladi.

Qishloq va o'rmon xo'jaligi yerlari, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va boshqa shu kabi maqsadlarda foydalanilayotgan yer uchastkalarining elektron raqamlı kadastr rejası mavjud topografik va qishloq xo'jaligi elektron xaritalaridan foydalanib tuziladi.

Agar yer uchastkasining 1:500 masshtabdan 1:2000 masshtabgacha zamonaviy (aktual) topografik s'jomka materiallari mavjud bo'lsa, kadastr rejası ular asosida tuzilishi mumkin.

Yer uchastkasining elektron raqamlı kadastr rejası arxivda saqlash uchun qog'ozda chop etilib, rejasini tuzgan ijrochi, yer uchastkasiga bo'lgan huquq egasi tomonidan imzolanadi va chegaradosh yer uchastkalariga bo'lgan huquq egalarini bilan kelishiladi va Yer uchastkasining chegaralarini aniqlash va kelishish dalolatnomasiga (keyingi o'rinnarda — dalolatnomasi) uning ajralmas qismi sifatida ilova qilinadi.

18. Yer uchastkasi joylashgan manzil tez aniqlanishini ta'minlash maqsadida yer uchastkasi joylashgan hudud rejası tayyorlanadi va kadastr yig'majildiga kiritiladi. Yer uchastkasi joylashgan hudud rejası yer uchastkasi tushirilgan, unga yaqin hududlarni o'z ichiga olgan topografik kartalardan yoki boshqa rejalaridan ko'chirmadan iborat bo'ladi.

19. Yer uchastkasini xatlovdan o'tkazish natijasi bo'yicha quyidagi hollarda yer uchastkasining chegaralari qo'shni chegaradoshlar bilan kelishiladi:

yangi ajratilgan yer uchastkalarida;

ko‘chmas mulkning bir qismini begonalashtirish natijasida yer uchastkasi bo‘linganda.

Mazkur bandda nazarda tutilgan holatlarda yer uchastkasini kelishish mazkur Nizomga **10-ilovada** keltirilgan namunaviy shaklda dalolatnoma tuzish hamda qo‘shti chegaradoshlar tomonidan imzo qo‘yish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

20. Dalolatnomada quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi:

yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat nomi, sanasi va raqami;

yer uchastkasining joylashgan manzili — tuman, shahar, shaharcha, qishloq (ovul) va ko‘chaning nomi, uy raqami, agar ko‘chaning nomi va uy raqami bo‘lmasa, qishloq (ovul), mahalla va aholi punktining nomi keltiriladi;

yer uchastkasining chegaralari ta’rifi;

yer uchastkasining umumiy maydoni — hujjatlar bo‘yicha va amalda;

yer uchastkasining yer uchastkasini berish to‘g‘risidagi hujjatlarda belgilangan foydalanish maqsadi va amaldagi foydalanish turi;

qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlarning turlari, bonitet ballari va me’yoriy qiymati;

huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda belgilangan muhofaza zonasining maydoni;

yer uchastkasi haqidagi boshqa zarur ma’lumotlar.

21. Dalolatnoma yer uchastkasi yuridik shaxsga tegishli bo‘lsa, uning rahbari yoki ishonchli vakili tomonidan, agar yer uchastkasi jismoniy shaxsga tegishli bo‘lsa, ushbu jismoniy shaxs yoki uning ishonchli vakili tomonidan imzolanadi.

Agar chegaradosh yer uchastkalariga bo‘lgan huquq egasi — jismoniy shaxs uzoq muddatga boshqa joyga ketgan bo‘lsa, yuridik shaxs boshqa tumanda (shaharda) joylashgan bo‘lib, chegaralarni kelishish kuni va vaqtin to‘g‘risida ogohlantirilgan bo‘lsa-da, uning rahbari yoki ishonchli vakili kelishish uchun kelmasa, ushbu holat dalolatnomada aks ettiriladi.

Yer uchastkalari chegaralarini aniqlashda yer uchastkasining chegaralari chegaradosh yer uchastkalariga bo‘lgan huquq egasi (egalari) bilan kelishilmagan taqdirda, nizo sud tartibida hal etiladi.

Keyinchalik yer uchastkasiga yoki chegaradosh yer uchastkasiga nisbatan belgilangan huquq turi yoki huquq egasi o‘zgarganda, dalolatnomani qayta tuzish talab etilmaydi, yer uchastkasining chegarasi o‘zgargan holatlar bundan mustasno.

22. Ko‘chmas mulk obyektini hisobga olishda yer uchastkasi bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi:

yer uchastkasining joylashgan manzili;

manzil belgilanishi (mavjud, yangi berilgan, o‘zgartirilgan);

manzil berish yoki o‘zgartirishni asoslovchi hujjat;

yer uchastkasining toifasi;

yer uchastkasining nomi;

yer uchastkasining kadastr raqami;

iqtisodiy zonas;

yer uchastkasidan foydalanish maqsadi;

yer uchastkasining umumiy maydoni (ga);

yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat nomi, sanasi va raqami;

yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat bo‘yicha yer uchastkasining maydoni (ga);

o‘zboshimchalik bilan egallangan yer maydoni;

muhofaza zonalari;

muhofaza zonalarining maydoni (ga);

cheklovlari va serviturlari;

ko‘p yillik daraxtlar bilan egallangan yer maydoni;

yer uchastkasini baholash to‘g‘risida ma’lumotlar;

yer uchastkasiga xos boshqa ma’lumotlar.

### **3-bob. Bino va inshootlarning kadastr ma'lumotlarini tayyorlash**

23. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yer maydonidagi tegishli tartib asosida barpo etilgan va qurilishi tugallangan yoki tugallanmagan bino va inshootlarga kadastr yig'majildi tayyorlanishiga ruxsat beriladi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingen yer maydonlarida noqonuniy qurilgan qurilmalarni egallab olingen yer maydoni va qurilmalarning o'lchamlari vakolatli organlarning so'rovnomasiga muvofiq Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallari tomonidan ma'lumotnoma tarzida tayyorlanadi.

24. Bino va inshootlarning kadastr yig'majildini tayyorlash jarayonida quyidagi ishlar bajariladi:

    bino va inshootlar bo'yicha mavjud huquqiy, iqtisodiy, arxitektura-shaharsozlik va boshqa zarur hujjatlar yig'iladi va tahlil qilinadi;

    bino va inshootlar texnik xatlovdan o'tkaziladi, bunda binolarning ichki va tashqi o'lchovlari aniqlanadi, maydonlari va hajmlari hisoblanadi hamda ushbu ma'lumotlar binolarning ichki va tashqi o'lchov qaydnomalarida aks ettiriladi;

    bino va inshootlar konstruktiv qismlarining tavsifi aniqlanadi va ma'lumotlarda aks ettiriladi;

    bino va inshootlarning qavatma-qavat elektron chizmalari tayyorlanadi;

    binoning muhandislik kommunikatsiyalari (gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi, issiqlik ta'minoti va boshqalar) bilan ta'minlanganligi aniqlanadi;

    jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan bino va inshootlarning kadastr qiymati qonunchilik hujjatlariga muvofiq aniqlanadi;

    bino va inshootlarga hududlarni kadastr bo'yicha bo'lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlari shakllantiriladi;

    ko'chmas mulk obyektini elektron hisobga olishda bino va inshootlarning kadastr ma'lumotlari kiritiladi;

    kadastr yig'majildi tayyorlanadi.

25. Kadastr yig'majildi asosida kadastr pasporti rasmiylashtiriladi.

26. Bino va inshootlarning arxitektura-qurilish chizmalari eng kam hajmda, ortiqcha tafsilotlarsiz tuziladi.

Bunda binoning ichki xonalari rejasi chiziladi. Agar bino bir necha qavatdan iborat bo'lsa, u holda barcha qavatlarning rejalarini, shuningdek, yerto'laning rejasi chiziladi. Binoning qavat rejalarini 1:100 yoki 1:200 masshtabda chop etiladi va nomlanadi (masalan, "1-qavat rejasi", "2-qavat rejasi", "Yerto'la rejasi").

27. Yer osti inshootlarining (har xil maqsadlarda foydalaniladigan quvurlar, elektr va aloqa liniyalari, foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog'liq bo'lgan inshootlar va boshqalar) tavsifi kadastr yig'majildiga loyiha-smeta yoki ushbu inshootlar davlat kadastr ma'lumotlaridan foydalanib kiritiladi.

28. Maxsus inshootlarning kadastr ma'lumotlari tayyorlanayotganda, ular to'g'risida o'zlariga xos ma'lumotlar tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlaridan foydalanib kiritiladi (masalan, alohida kadastr obyekti bo'lgan elektr liniyasining kadastr ma'lumotlaridan uning nomi, kuchlanishi, simlar soni, elektr liniyasi tayanchlarining konstruksiysi, transformator stansiyalari va boshqa inshootlar to'g'risidagi ma'lumotlar olinishi mumkin).

29. Ko'chmas mulk obyektini hisobdan o'tkazish natijasiga ko'ra axborot tizimida bino va inshootlarning quyidagi kadastr ma'lumotlari aks ettiriladi:

    binolar soni;

    inshootlar soni;

    asosiy xonalar soni;

    binolar umumiylar maydoni;

    foydali (yashash) maydoni;

    binoning qurilish osti maydoni;

    inshootlar maydoni;

bino va inshootlarning kapitalligi;  
funksiyasi;  
konstruktiv turi (poydevor, devor, cherdak to'sinlar, orayopma, tom qoplamasi, pol);  
zilzilabardoshligi;  
muhandislik jihozlanganligi (suv, oqova, elektr, gaz, issiqlik);  
binoning qavatliligi;  
obyekt joylashgan qavati;  
binoning balandligi, m;  
maydon, kv.m. (qurilish osti, umumiy, ishlab chiqarish, foydali, yashash);  
qurilgan yili;  
o'zboshimchalik bilan qurilgan binolar va inshootlar;  
kadastr qiymati;  
bitim (shartnoma) qiymati;  
maxsus inshootlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Bino va inshootlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi boshqa ko'rsatkichlar ham kiritilishi mumkin.

30. Kadastr yig'majildiga abrislar, fotosuratlar hamda bino va inshootlarni tavsiflovchi boshqa hujjatlar va elektron fayl materiallari ilova qilinishi mumkin.

31. Binolar qayta ixtisoslashtirilganda va rekonstruksiya qilinganda, kadastr yig'majildiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Ko'chmas mulk obyekting vujudga kelishi (barpo etilishi) yoki ikki va undan ortiq qismlarga bo'linishida manzillarni belgilash Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1010-sun qarori bilan tasdiqlangan Ko'chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestri ni shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi **nizomga** muvofiq kadastr yig'majildini shakllantirish jarayonida amalga oshiriladi.

32. Qurilishi tugallanmagan binolar va inshootlarga kadastr yig'majildi tegishli loyiha tashkiloti tomonidan ularning qurilishi loyiha talablariga muvofiq boshlanganligi tasdiqlangan taqdirda, mazkur Nizomda belgilangan tartib asosida tayyorlanadi va natijasi bo'yicha kadastr pasporti beriladi. Bunda bino va inshootning poydevori va birinchi qavati devorlarining qurilish ishlari yakunlanganligi qurilishni boshlangan deb topish uchun asos hisoblanadi.

#### **4-bob. Ko'p yillik daraxtlarning kadastr ma'lumotlarini tayyorlash**

33. Yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan ko'p yillik daraxtlarga ko'chmas mulkning bir turi sifatida kadastr yig'majildi tayyorlanadi va natijalarini bo'yicha kadastr pasporti beriladi.

Qishloq xo'jaligi tashkilotlari va fermer xo'jaliklari tomonidan uzoq muddatli ijara ga berilgan yer uchastkalarida ijara ga beruvchining ruxsati bilan o'z mablag'lari hisobiga ekilgan va ularning mulki bo'lgan ko'p yillik daraxtlar to'g'risidagi ma'lumotlar kadastr yig'majildi tarkibiga kiritiladi.

Yakka tartibdagi uy-joyda, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaligi hamda jamoa bog'dorchiligi va uzumchilagini yuritish (dala hovli) uchun berilgan yer uchastkalarida o'stirilgan ko'p yillik daraxtlarga kadastr yig'majildi tayyorlanmaydi.

34. Kadastr yig'majildini tayyorlash jarayonida bog'lar, uzumzorlar, tutzorlar va boshqa o'rmon daraxtlarining maydonida (geodezik o'lchov asboblari yordamida 1:1000 va 1:10000 gacha masshtabda topoxaritalari yaratiladi) o'lchov ishlari o'tkaziladi va ko'chatlarning soni aniqlanadi. Bog'lardagi daraxtlar turlarga (olma, nok, shaftoli va boshqalar) ajratilmasdan, egallagan umumiy maydoni hamda soni aniqlanadi.

35. Ko'p yillik daraxtlarning kadastr ma'lumotlari yer uchastkasining kadastr ma'lumotlari bilan birgalikda ko'rsatiladi. Kichraytirilgan reja xaridasidagi shartli belgilarda ko'p yillik daraxtlar egallagan yerlar chegarasi koordinata burilish nuqtalari katalogida aks ettiriladi.

#### **5-bob. Kadastr yig'majildini tayyorlash**

36. Kadastr yig'majildi davlat tilida elektron hujjat sifatida tayyorlanadi.

Qog'oz ko'rinishda kadastr yig'majildi A4 (210 x 297 mm) formatdagi yozuv

qog'ozlarida elektron hujjat asosida tayyorlanadi. Bunda asosiy formatlarning qisqa tomonlarini karrali miqdorda uzaytirish bilan tashkil qilinadigan qo'shimcha formatlar qo'llanilishi mumkin.

37. Ko'chmas mulk obyekti faqat yer uchastkasi yoki bino va inshootdan (kvartira, bino, inshootning bir qismi) hamda ko'p yillik daraxtlardan iborat bo'lgan hollarda, kadastr yig'majildi tegishli obyekt bo'yicha tayyorlanadi.

38. Kadastr yig'majildining muqovasi va tarkibidagi elektron axborot tizimida shakllanadigan ma'lumotlarning namunaviy jadvallari, qaydnomalari va blankalari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi (keyingi o'rnlarda — Kadastr agentligi) tomonidan tasdiqlanadi.

Bunda kadastr yig'majildini tayyorlagan Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar)dagi filiali yoki kadastr muhandisi nomi, ko'chmas mulk obyekti joylashgan joy va ko'chmas mulk obyektiga oid boshqa barcha ma'lumotlar qayd etiladi.

39. Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiali xodimlari tomonidan tayyorlangan kadastr yig'majildi mazkur Nizomning **8-bandida** belgilangan muddat doirasida tekshirib chiqiladi. Bunda mazkur yig'majilda qayd etilgan ma'lumotlar to'liq va to'g'ri kiritilganligi hamda geoaxborot tizimlarida aks ettirilganligi holati o'rganiladi. Kamchiliklar aniqlangan hollarda, bir ish kuni muddatda ijrochi xodim kamchiliklarni bartaraft etadi.

Kadastr muhandisi tomonidan ko'chmas mulk obyektlariga tayyorlangan kadastr yig'majildi bo'yicha ma'lumotlar uning axborot tizimidagi shaxsiy kabineti orqali Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmasiga qabul qilish uchun yuboriladi.

Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari kadastr muhandisi tomonidan axborot tizimi orqali ko'chmas mulk obyektiga oid tayyorlangan kadastr yig'majildi ma'lumotlarini qabul qilib oladi va uch ish kuni mobaynida o'rganib chiqadi.

40. Kadastr muhandisi axborot tizimidagi shaxsiy kabineti orqali ko'chmas mulk obyektlariga oid quyidagi ma'lumotlarni kiritadi:

ko'chmas mulk obyekti joylashgan joy;

egasiga (foydanuvchiga) oid ma'lumotlar;

ko'chmas mulk obyekti kadastr yig'majildini tayyorlash bo'yicha kelishuvga oid ma'lumotlar (shartnoma raqami, sanasi, muddatlari, to'lov miqdori va boshqalar);

mazkur Nizomning **22** va **29-bandlarida** ko'rsatilgan ma'lumotlar;

yer uchastkasi va undagi bino inshootlarning chegaralari ko'rsatilgan hamda WGS-84 koordinatalar tizimidagi tayyorlangan raqamli kadastr xaritasi;

bino va inshootlarning avtomatik loyihalashtirish dasturlari yordamida dxf, dwg formatlardan birida tayyorlangan chizmasi. Kadastr yig'majildi birlamchi tayyorlangan hollarda, bino va inshootlarning amaldagi (o'lchov kunidagi) holati bo'yicha foto suratlar, respublikada foydalanishda ruxsat etilgan sun'iy yo'ldosh suratlari.

41. Kadastr muhandisining axborot tizimi orqali taqdim etilgan elektron ma'lumotlari Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan uch ish kunida o'rganiladi. Bunda:

kadastr muhandisi tomonidan tayyorlangan elektron ma'lumotlar, ko'chmas mulk obyekti bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi va unga muvofiq ko'chmas mulk obyekti texnik hisobga olinadi, kadastr pasporti rasmiylashtiriladi yoki unga to'sqinlik qiluvchi holatlar tekshiriladi;

kadastr muhandisi tomonidan kadastr ma'lumotlar bazasiga kiritilgan texnik ma'lumotlarning to'g'ri va to'liqligi tekshiriladi va dastlabki ma'lumotlar bilan solishtiriladi;

yer uchastkasi, bino va inshootlar hamda ko'p yillik daraxtlar dastlabki shakllantirilgan kadastr ma'lumotlari asosida solishtiriladi va axborot tizimida mavjud chegaradosh yerdan foydalanuvchilarining chegaralari bilan solishtiriladi va tahlil etiladi.

Kadastr muhandisi tomonidan axborot tizimi orqali yuborilgan ma'lumotlarda texnik xatoliklar mavjud bo'lsa, bartaraft etish uchun ushbu xatoliklar ko'rsatilgan holda qaytariladi. Agar ko'rsatilgan texnik xatoliklar xabar berilgan paytdan boshlab bir oy mobaynida bartaraft etilmagan yoki muhandis tomonidan tegishli xabar qoldirilmagan bo'lsa, hududiy boshqarma

ikki ish kunida kadastr pasportini tayyorlashni va hisobga qo'yishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi va bu haqda kadastr muhandisini shaxsiy kabinetin orqali xabardor qiladi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar asosida ko'chmas mulk obyektining tashqi chegaralari va obyektga oid umumiy ma'lumotlari bir xilligi aniqlangandan so'ng hududiy boshqarma tomonidan kadastr muhandisining taqdim etilgan elektron kadastr yig'majildi ma'lumotlari davlat kadastrlari tizimiga qabul qilinadi. Bu haqda axborot tizimi orqali kadastr muhandisiga ko'chmas mulk obyektining kadastr pasportidan ko'chirma nusxasi yuboriladi.

Quyidagi hollarda kadastr muhandisi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar axborot tizimi orqali rad etiladi va kamchiliklarini bartaraf etish yuzasidan tegishli izoh yuboriladi:

ushbu Nizomning [12](#), [22](#) va [29-bandlarida](#) keltirilgan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmaganda;

belgilangan muddatda ma'lumotlardagi texnik xatoliklar to'g'rilanmaganda;

yer uchastkasi chegaralariga oid berilgan ma'lumotlar geoaxborot tizimi va tuman (shahar) filiallari arxiv ma'lumotlariga nisbatan farq qilganda.

Boshqa hollarda kadastr muhandisiga rad javobi berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

42. Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan kadastr muhandisi ma'lumotlari kelishilgan va hisobga qo'yilganda, kadastr muhandisi o'zining shaxsiy kabinetida kadastr ma'lumotlari bazasiga kirgan holda ko'chmas mulk obyekti bo'yicha bino va inshootlarning o'lchov qaydnomasi, xonalarning o'lchov qaydnomasi, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari qaydnomasini va boshqa ma'lumotlarni chop etadi.

43. Kadastr muhandisi tomonidan tayyorlangan va qabul qilingan kadastr yig'majildi ma'lumotlari ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda ro'yxatdan o'tkazuvchi tomonidan ro'yxatga olish ishini ko'rib chiqishda asos hisoblanadi.

44. Kadastr muhandisi ko'chmas mulk obyektiga kadastr yig'majildini shakllantirishda axborot tizimidagi shaxsiy kabinetin orqali zarur bo'lgan kadastr ma'lumotlarni olishda, elektron ma'lumotlar bazasidan hamda ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestridagi ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

45. Kadastr muhandisi tomonidan ushbu Nizom talablariga ikki va undan ortiq ravishda qo'pol ravishda amal qilmaslik hamda qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlariga yo'l qo'yilishi, kadastr muhandisining malaka shahodatnomasi bekor qilinishi bo'yicha Kadastr agentligiga axborot kiritish uchun asos hisoblanadi.

## **6-bob. Kadastr yig'majildiga o'zgartirishlar kiritish**

46. Kadastr yig'majildiga o'zgartirishlar ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquq egalarining yoki ular ishonchli vakillarining talablariga muvofiq tegishli tartibdagagi murojaatlari asosida kiritiladi.

47. Bino va inshootlarning konstruktiv qismlari, xonalar soni o'zgartirilgan holda rekonstruksiya qilinganda, ular qaytadan texnik xatlovdan o'tkaziladi hamda shu asosda bino va inshootlarning kadastr ma'lumotlari qaytadan tayyorlanadi.

48. Bino va inshootlarning konstruktiv qismlari, xonalar soni o'zgarmagan holda unga nisbatan huquq turi va (yoki) huquq egasi o'zgargan taqdirda, ko'chmas mulk obyektiga qaytadan kadastr yig'majildini tayyorlash taqiqlanadi.

49. O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari bilan bog'liq (maxfiylik rejimidagi) bo'lgan ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha kadastr yig'majildini tayyorlash uchun ko'chmas mulknini balansida saqlovchi tashkilot yoxud ularning ishonchli vakillari tomonidan to'g'ridan to'g'ri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalariga murojaat qilinadi.

Bunda kadastr yig'majildini tayyorlash bo'yicha tegishli shartnoma rasmiylashtiriladi.

Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish ishlarini maxfiylik rejimiga rioya etgan holda amalga oshiradi. Xatlov natijalari bo'yicha kadastr yig'majildi rasmiylashtiriladi va alohida maxfiylik rejimiga ega bo'lgan ma'lumotlar bazasiga kiritadi.

50. Kadastr yig'majildiga o'zgartirishlar kiritishda Davlat kadastrlari palatasining elektron arxivini hamda tegishli tuman (shahar) filiallari arxivida saqlanayotgan qog'oz nusxasiga

ham tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi. Bunda kadastr yig‘majildining arxivda saqlanayotgan nusxasida mavjud bo‘lgan hujjatlarni olib tashlashga yo‘l qo‘yilmaydi, yangi holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar kadastr yig‘majildiga yangilanishi bo‘yicha qo‘shib boriladi.

### **7-bob. Kadastr yig‘majildini shakllantirish natijasida kadastr pasportini rasmiylashtirish**

51. Ko‘chmas mulk obyektini kadastr hisobiga olish va kadastr yig‘majildini shakllantirish natijasida ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha elektron shaklda kadastr pasporti rasmiylashtiriladi.

Kadastr muhandisi bilan shartnama tuzgan holda kadastr yig‘majildi tayyorlanganda, kadastr pasporti ushbu Nizomga **1- ilovadagi** sxemaga muvofiq beriladi.

Kadastr pasportida mulkdor va huquqni belgilovchi hujjatlar haqidagi ma’lumotlar aks ettirilmaydi.

52. Kadastr pasportining shakllari quyidagi turlar bo‘yicha belgilanadi:

ko‘p kvartirali uydagi turar joyning kadastr pasporti — ushbu Nizomga **2- ilovaga** muvofiq;

yakka tartibdagi turar joyning kadastr pasporti — ushbu Nizomga **3- ilovaga** muvofiq;

noturar joy toifasidagi ko‘chmas mulk obyektining kadastr pasporti — ushbu Nizomga **4- ilovaga** muvofiq;

yer uchastkasining kadastr pasporti — ushbu Nizomga **5- ilovaga** muvofiq;

ko‘p kvartirali uydagi noturar joyning kadastr pasporti — ushbu Nizomga **6- ilovaga** muvofiq;

qurilishi tugallanmagan obyektning kadastr pasporti — ushbu Nizomga **7- ilovaga** muvofiq;

ko‘p yillik daraxtning kadastr pasporti — ushbu Nizomga **8- ilovaga** muvofiq;

maxsus inshootlarning kadastr pasporti — ushbu Nizomga **9- ilovaga** muvofiq.

53. Ko‘chmas mulk obyektiga kadastr pasporti quyidagi hollarda rasmiylashtiriladi yoki qayta rasmiylashtiriladi:

ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha birlamchi xatlov ishlari bajarilganda;

ko‘chmas mulk obyektining bir qismi begonalashtirilganda yoki yer uchastkasi alohida bo‘linganda (bunda ko‘chmas mulk obyektining ikki qismiga alohida kadastr pasporti shakllantiriladi);

yer uchastkasining maydoni yoki chegara nuqtalari o‘zgarganda;

ko‘chmas mulk obyektining manzilini belgilashda yoki o‘zgartirishda;

ko‘chmas mulk obyektining toifasi o‘zgarganda.

54. Ko‘chmas mulk obyektining pasporti qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.


### **8-bob. Yakunlovchi qoida**

55. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi **nizomga 1-ILOVA**

### **Kadastr muhandisi bilan shartnama tuzgan holda kadastr yig‘majildi tayyorlanganda, kadastr pasportini berish**

#### **SXEMASI**



	muhandisi	ishlarini amalga oshiradi. 2. Ko‘chmas mulk obyektiiga oid ma’lumotlarni kiritadi hamda mulkdor (foydalanuvchi)ning ko‘chmas mulkiga oid mavjud axborotni tizimda o‘ziga yuklab oladi.	bilan shartnomaga muvofiq
3-bosqich	Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiali	1. Axborot tizimi orqali taqdim etilgan elektron ma’lumotlarni o‘rganadi. 2. Ko‘chmas mulk obyekti kadastr pasportidan ko‘chirma nusxasini yuboradi.	Uch ish kuni
4-bosqich	Kadastr muhandisi	Kadastr pasportini ariza beruvchiga taqdim etadi.	Bir ish kuni mobaynida yoki ariza beruvchi bilan shartnomaga muvofiq

**Ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
2-ILOVA**

(Davlat kadastrlari palatasi filiali nomi yoki kadastr muhandisining familiyasi, ismi, otasining ismi)  
**KO‘P KVARTIRALI UYDAGI TURAR JOYNING KADASTR PASPORTI** (kadastr yig‘majildidan ko‘chirma)

Kadastr yig‘majildi shakllantirilgan sana		
Kadastr pasporti berilgan	Sana	
	Raqami	

#### I. Manzil haqida ma’lumotlar

Kadastr raqami	
Joylashgan joyi	

#### II. Obyekt tavsifi

Binoning qavatlar soni	
Joylashgan qavati	
Umumiy foydali, (m <sup>2</sup> )	
Yashash maydoni, (m <sup>2</sup> )	
Jami xonalar soni	
Yashash xonalari soni	
Kadastr qiymati, (so‘m)	
Baholash sanasi	
Qo‘sishimcha ma’lumotlar	

(ijrochi lavozimi)

(F.I.O.)

Obyekt bo‘yicha qo‘sishimcha ma’lumotlarni “davreestr.uz” veb-sayti orqali olish imkoniyati mavjud.



Ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**  
**3-ILOVA**

(Davlat kadastrlari palatasi filiali nomi yoki kadastr muhandisining familiyasi, ismi, otasining ismi)

**YAKKA TARTIBDAGI TURAR JOYNING**

**KADASTR PASPORTI**

(kadastr yig‘majildidan ko‘chirma)

Kadastr yig‘majildi shakllantirilgan sana	
Kadastr pasporti berilgan	Sana
	Raqami

**I. Manzil haqida ma'lumotlar**

Yer uchastkasining kadastr raqami	
Joylashgan joyi	

**II. Yer uchastkasi tavsifi**

Yer maydoni, (m <sup>2</sup> )	Huquqiy hujjatga asosan	
	Amalda	
	O‘zboshimchalik bilan egallangan	
Foydalanish maqsadi	Huqqat bo‘yicha	
	Amalda	
Yer uchastkasi bahosi (so‘m)		
Servitut haqida ma'lumot		
Ko‘p yillik daraxtlar soni		

**III. Bino va inshootlar tavsifi**

Bino va inshootning nomi	Kadastr raqami	Binolar soni	Umumiyl qurilish osti maydoni (m <sup>2</sup> )	Umumiyl foydali maydoni (m <sup>2</sup> )	Foydali maydoni (yashash maydoni), (m <sup>2</sup> )
	jami				

**O‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar**

	jami				
	Kadastr qiymati (so‘m)				
	Baholash sanasi				
Qo‘sishimcha ma'lumotlar					

(ijrochi lavozimi)

(F.I.O.)

Obyekt bo‘yicha qo‘sishimcha ma'lumotlarni “davreestr.uz” veb-sayti orqali olish imkoniyati mayjud.



Ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**  
**4-ILOVA**

(Davlat kadastrlari palatasi filiali nomi yoki kadastr muhandisining familiyasi, ismi, otasining ismi)  
**NOTURAR JOY TOIFASIDAGI KO‘CHMAS MULK OBYEKTINING KADASTR PASPORTI**  
(kadastr yig‘majildidan ko‘chirma)

Kadastr yig‘majildi shakllantirilgan sana	
Kadastr pasporti berilgan	Sana
	Raqami

**I. Manzil haqida ma'lumotlar**

Obyekt nomi	
Yer uchastkasining kadastr raqami	
Joylashgan joyi	

**II. Yer uchastkasi tavsifi**

Yer maydoni, (m <sup>2</sup> )	Huquqiy hujjatga asosan	
	Amalda	
	O‘zboshimchalik bilan egallangan	
Foydalanish maqsadi	Hujjat bo‘yicha	
	Amalda	
Servitut haqida ma'lumot		
Yer uchastkasi bahosi (so‘m)		
Ko‘p yillik daraxtlar soni		

**III. Bino va inshootlar tavsifi**

Bino va inshootning nomi	Kadastr raqami	Binolar soni	Umumiyl qurilish osti maydoni (m <sup>2</sup> )	Umumiyl foydali maydoni (m <sup>2</sup> )	Foydali maydoni (yashash maydoni), (m <sup>2</sup> )
	jami				

**O‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar**

	jami				
Kadastr qiymati (so‘m)					
Baholash sanasi					
Qo‘sishimcha ma'lumotlar					

(ijrochi lavozimi)

(F.I.O.)

Obyekt bo‘yicha qo‘sishimcha ma'lumotlarni “davreestr.uz” veb-sayti orqali olish imkoniyati mayjud.



Ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**  
**5-ILOVA**

(Davlat kadastrlari palatasi filiali nomi yoki kadastr muhandisining familiyasi, ismi, otasining ismi)

**ER UChASTKASINING  
KADASTR PASPORTI**

(kadastr yig‘majildidan ko‘chirma)

Kadastr yig‘majildi shakllantirilgan sana	
Kadastr pasporti berilgan	Sana
	Raqami

**I. Manzil haqida ma’lumotlar**

Yer uchastkasining kadastr raqami	
Joylashgan joyi	

**II. Yer uchastkasi tavsifi**

Yer maydoni, (m <sup>2</sup> )	Huquqiy hujjatga asosan
	Amalda
	O‘zboshimchalik bilan egallangan
Foydalanish maqsadi	Hujjat bo‘yicha
	Amalda
Servitut haqida ma’lumot	
Yer uchastkasi bahosi (so‘m)	
Ko‘p yillik daraxtlar soni	

(ijrochi lavozimi)

(F.I.O.)

Obyekt bo‘yicha qo‘srimcha ma’lumotlarni “davreestr.uz” veb-sayti orqali olish imkoniyati mavjud.



Ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr yig‘majildini tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**  
**6-ILOVA**

(Davlat kadastrlari palatasi filiali nomi yoki kadastr muhandisining familiyasi, ismi, otasining ismi)

**KO‘P KVARTIRALI TURAR JOYDA JOYLAShGAN NOTURAR JOYNING KADASTR PASPORTI**  
(kadastr yig‘majildidan ko‘chirma)

Varaq №		Jami varaqlar soni №	
---------	--	----------------------	--

Kadastr yig‘majildi shakllantirilgan sana	
Kadastr pasporti berilgan	Sana

	Raqami	
--	--------	--

### I. Manzil haqida ma'lumotlar

Kadastr raqami	
Joylashgan joyi	

### II. Obyekt tavsifi

Obyekt nomi	
Obyekt joylashgan binoning qavatlar soni	
Joylashgan qavati	
Umumiy maydoni, ( $m^2$ )	
foydali maydoni, ( $m^2$ )	
xonalar soni	
O'zboshimcha qurilma maydoni, ( $m^2$ )	
O'zboshimchalik bilan egallangan yer maydoni ( $m^2$ )	
Kadastr qiymati (so'm)	
Baholash sanasi	
Qo'shimcha ma'lumotlar	

(ijrochi lavozimi)

(F.I.O.)

Obyekt bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni "davreestr.uz" veb-sayti orqali olish imkoniyati mavjud.



### Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildini tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizomga 7-ILOVA

(Davlat kadastrlari palatasi filiali nomi yoki kadastr muhandisining familiyasi, ismi, otasining ismi)

### QURILISHI TUGALLANMAGAN OBYEKTNING

### KADASTR PASPORTI

(kadastr yig'majildidan ko'chirma)

Varaq №		Jami varaqlar soni №
---------	--	----------------------

Kadastr yig'majildi shakllantirilgan sana	
Kadastr pasporti berilgan	Sana
	Raqami

### I. Manzil haqida ma'lumotlar

Yer uchastkasining kadastr raqami	
Joylashgan joyi	

### II. Yer uchastkasi tavsifi

Yer maydoni, ( $m^2$ )	Huquqiy hujjatga asosan
	Amalda
	O'zboshimchalik bilan egallangan
Foydalanish maqsadi	Hujjat bo'yicha
	Amalda
Yer uchastkasi bahosi (so'm)	

Servitut haqida ma'lumot	
Qo'shimcha ma'lumotlar	

### III. Bino va inshootlar tavsifi

Obyekt nomi		
binolar soni	Umumiyl maydoni ( $m^2$ )	
inshootlar soni	Umumiyl maydoni ( $m^2$ )	
Loyihasiz qurilgan qurilmalar soni	Umumiyl maydoni ( $m^2$ )	
Loyihadan tashqari qurilmalar soni	Umumiyl maydoni ( $m^2$ )	
Tugallanganlik foizi (%)		
Asoslovchi hujjat		
Ko'p yillik daraxtlar soni		

(ijrochi lavozimi)

(F.I.O.)

Obyekt bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni "davreestr.uz" veb-sayti orqali olish imkoniyati mavjud.



### Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildini tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizomga 8-ILOVA

(Davlat kadastrlari palatasi filiali nomi yoki kadastr muhandisining familiyasi, ismi, otasining ismi)

#### KO'P YILLIK DARAXTNING

#### KADASTR PASPORTI

(kadastr yig'majildidan ko'chirma)

Varaq №		Jami varaqlar soni №	
---------	--	----------------------	--

Kadastr yig'majildi shakllantirilgan sana	
Kadastr pasporti berilgan	Sana
	Raqami

### I. Manzil haqida ma'lumotlar

Yer uchastkasining kadastr raqami	
Joylashgan joyi	

### II. Yer uchastkasi tavsifi

Yer maydoni, ( $m^2$ )	Huquqiy hujjatga asosan	
	Amalda	
	O'zboshimchilik bilan egallangan	
Foydalinish maqsadi	Hujjat bo'yicha	
	Amalda	
Yer uchastkasi bahosi (so'm)		
Servitut haqida ma'lumot		
Qo'shimcha ma'lumotlar		

### III. Ko'p yillik daraxtlar tavsifi

--	--


(ijrochi lavozimi)

(F.I.O.)

Obyekt bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni "davreestr.uz" veb-sayti orqali olish imkoniyati mavjud.



### Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildini tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizomga 9-ILOVA

(Davlat kadastrlari palatasi filiali nomi yoki kadastr muhandisining familiyasi, ismi, otasining ismi)

#### MAXSUS INShOOTNING KADASTR PASPORTI (kadastr yig'majildidan ko'chirma)

Kadastr yig'majildi shakllantirilgan sana	
Kadastr pasporti berilgan	Sana
	Raqami

#### I. Manzil haqida ma'lumotlar

Obyekt nomi	
Yer uchastkasining kadastr raqami	
Joylashgan joyi	

#### II. Yer uchastkasi tavsifi

Yer maydoni, (m <sup>2</sup> )	Huquqiy hujjatga asosan	
	Amalda	
	O'zboshimchalik bilan egallangan	
Foydalanish maqsadi	Hujjat bo'yicha	
	Amalda	
Servitut haqida ma'lumot		
Yer uchastkasi bahosi (so'm)		

#### III. Maxsus inshootlar tavsifi

Bino va inshootning nomi	Kadastr raqami	Binolar soni	Umumiyl qurilish osti maydoni (m <sup>2</sup> )	Umumiyl foydali maydoni (m <sup>2</sup> )	Foydali maydoni (yashash maydoni), (m <sup>2</sup> )
	jami				

#### O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar

	jami			

Kadastr qiymati (so'm)

Baholash sanasi

Qo'shimcha ma'lumotlar

(ijrochi lavozimi)

(F.I.O.)

Obyekt bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni "davreestr.uz" veb-sayti orqali olish imkoniyati mayjud.



Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildini tayyorlash tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
**10-ILOVA**

NAMUNA

**Yer uchastkasi chegaralarini aniqlash va kelishish  
DALOLATNOMASI**

20\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ tumani (shahri)

Biz, \_\_\_\_\_  
(tuman, shahar filiali yoki kadastr muhandisi nomi)

(ijrochining lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi yoki kadastr muhandisining nomi)  
va yer uchastkasining huquq egasi

(yuridik shaxs vakilining lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi  
quyidagilarni aniqladik.  
yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi)

Yer uchastkasi \_\_\_\_\_ joylashgan.  
(joylashgan manzili)

Yer uchastkasining kadastr raqami \_\_\_\_\_ ga \_\_\_\_\_ ga yer uchastkasi  
(yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi)

(yer uchastkasi berilgan yoki unga bo'lgan huquqning o'tishi to'g'risida hujjat nomi, sanasi, raqami)  
muvofigi \_\_\_\_\_ huquqi bilan berilgan,  
(yer uchastkasini berish maqsadi, huquq turi)

amalda yer uchastkasining maydoni \_\_\_\_\_ ga ni tashkil qildi.

Yer uchastkasi \_\_\_\_\_ maqsadida foydalanilmogda, uning ekin yeri  
\_\_\_\_\_ ga, bog' \_\_\_\_\_ ga, uzumzor \_\_\_\_\_ ga, tutzor \_\_\_\_\_ ga, yaylov \_\_\_\_\_ ga,  
qurilish ostidagi va hovli yerlari \_\_\_\_\_ ga, boshqa yerlar \_\_\_\_\_ ga.

Yer uchastkasidan hujjatlar bo'yicha foydalanish maqsadi \_\_\_\_\_, amalda  
maqsadida foydalanilmogda.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqning cheklanishi \_\_\_\_\_  
(hujjat nomi, cheklash mazmuni)

Yer uchastkasida \_\_\_\_\_  
(hujjat nomi, muhofaza zonasi belgilangan obyekt turi, muhofaza

zonasining maydoni, foydalanish sharti)

Yer uchastkasini baholash natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar \_\_\_\_\_

Yer uchastkasi chegaralarining ta'rifi \_\_\_\_\_

Yer uchastkasi chegaralari bo'yicha yer uchastkasiga bo'lgan huquq egasining va chegaradosh yer uchastkalariga  
bo'lgan huquq egalarining \_\_\_\_\_

Yer uchastkasining boshqa xususiyatlari \_\_\_\_\_  
Mazkur dalolatnomaga uning ajralmas qismi sifatida yer uchastkasining \_\_\_\_\_ mashtabdag'i  
kadastr rejasi ilova qilinmoqda.

Filial muhandisi /  
kadastr muhandisi \_\_\_\_\_

(ijrochining lavozimi, imzosi, familiyasi, ismi, otasining i~~sh~~mi)

Yer uchastkasiga bo'lgan huquq  
egasi \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi, otasining ismi)  
Chegaradosh yer uchastkalariga  
bo'lgan huquq egalari

1. \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi, otasining ismi)
2. \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi, otasining ismi)
3. \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi, otasining ismi)

20 \_\_\_\_ yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi Yer uchastkasi chegaralarini aniqlash va kelishish  
**dalolatnomasiga**  
**ILOVA**

### **ER UChASTKASINING KADASTR REJASI**

(yuridik shaxsning to'liq firma nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi)  
Kadastr raqami \_\_\_\_\_  
Yer uchastkasining maydoni \_\_\_\_\_ ga

Masshtab \_\_\_\_\_

Ijrochi \_\_\_\_\_  
(imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Yer uchastkasining  
huquq egasi \_\_\_\_\_  
(imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Chegaradosh yer uchastkalariga bo'lgan huquq egalari:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(nomi, imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 389-sod qaroriga  
**4-ILOVA**

## **O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan qarorlari** **RO‘YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida” 1997-yil 2-iyundagi 278-son **qarori**.
2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish to‘g‘risida” 1998-yil 31-dekabrdagi 543-son **qarori**.
3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2004-yil 19-oktabrdagi 483-son qaroriga 7-ilovaning 2-bobi **1** va **2-bandlari** (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2004-y., 42-son, 446-modda).
4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2014-yil 7-yanvardagi 1-son qarori)” 2014-yil 3-iyundagi 138-son qaroriga ilovaning **3** va **4-bandlari** (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2014-y., 23-son, 269-modda).
5. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kadastr hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha davlat xizmatlari narxlarini belgilashda tabaqaalashtirilgan yondashuv tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2014-yil 10-iyuldaggi 186-son qarori)” 2014-yil 6-noyabrdagi 309-son qaroriga ilovaning **1-bandi** (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2014-y., 46-son, 551-modda).
6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PF-5065-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PQ-3024-son qarori)” 2017-yil 29-avgustdagi 679-son qaroriga ilovaning **3** va **4-bandlari** (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 35-son, 931-modda).

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2021-y., 09/21/389/0587-son)*